

84(502)

R24

Sharof Rashidov

Dil amri



84(50¹/₂) 930304

R24 Rashidov Sh.

Dil amri

T., H.

k-51030

84 (50z)
R 24


SHAROF RASHIDOV

8мч

27.05 31
480 меаме
Тафсиҳи
АТ. Донишдор

Dil amri

Qissa



TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2021

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(5ŷ36)
R 31

Rashidov Sh.

Dil amri: (qissa) Sharof Rashidov. – T.: «Niso Poligraf»,
2021. – 272 b.

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(5ŷ36)

Atoqli davlat va jamoat arbobi, taniqli adib Sharof Rashidovning «Dil amri» deb atalgan qissasi o'zbek prozasi uchun tamomila yangi material asosida yozilgan.

Asar tarixi Novgorod oblastining kichkinagina qishlog'i – Beryozovkada kechadi. Muallif bizni og'ir urush davriga olib kiradi, fashizmga qarshi kurash yillarida o'zi jang qilgan yerlar bilan tanishtiradi.

«Dil amri» qissasi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladigan nodir asardir.

ISBN 978-9943-6104-1-5

© Sharof Rashidov, 2021
© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2021

HAYOT HAQIDA QISSA

O'quvchilar e'tiboriga havola etilayotgan ushbu «Dil amri» qissasini XX asr o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi va yirik davlat arbobi Sharof Rashidov 1977–1982-yillarda yozgan.

Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabr kuni Jizzax shahri yaqinidagi (hozirgi Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani) Sovungarlik qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi Rashid Xalilov va onasi Qo'ysinoy aya boy bo'lmasalar-da, o'z davrining o'qimishli kishilari edi. Ular oilada olti o'g'ilni tarbiyalab, voyaga yetkazdi, farzandlarning barchasi oliy ma'lumotli, o'z davrining taniqli kishilari bo'lib, turli sohalarda O'zbekiston taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

Sharof Rashidov 1933-yili yetti yillik maktabni bitirib, Jizzaxdagi pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Uning adabiy faoliyati aynan shu texnikumda o'qib yurgan kezlari namoyon bo'ladi, dastlabki she'rlari, publitsistik maqolalari texnikum gazetasida e'lon qilinadi. 1936-yili texnikumni a'lo baholarga bitirib, o'zi o'qigan Narimonov nomli maktabga o'qituvchi bo'lib keladi.

Sharof Rashidov yoshligidanoq o'ta intiluvchan bo'lgan. U o'qishni davom ettirish maqsadida 1937-yili Samarqand davlat universitetining (u davrda O'zbekiston davlat universiteti) filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. U o'qish bilan bir vaqtda «Lenin yo'li» gazetasining mas'ul kotibi muharrir o'rinbosari, 1941-yildan esa muharrir bo'lib ishlaydi. Doim bosmaxonada bo'lib, gazetalar sahifalanishini

tekshirib, noshirlik va poligrafiya sohasida katta tajriba orttiradi.

Uning orzulari ulkan edi. Ammo shu yili 22-iyunda nemis-fashistlarning SSSRga bostirib kirishi bilan boshlangan urush ko'pchilik qatori yosh Sharofning ham rejalarini o'zgartirib yubordi. U ko'plab talabalar va o'qituvchilar qatori ko'ngilli bo'lib armiya safiga kirdi. Uni Frunze (hozirgi Bishkek) shahridagi piyodalar bilim yurtining kichik komandirlar tayyorlash kursiga jo'natishdi. Bu yerda o'qish 4 oyga mo'ljallangandi, biroq frontdagi va birinchi navbatda, Moskva ostonasidagi og'ir vaziyat sababli oktabr oyidayoq serjantlarning hammasi va kursantlarning uch batalyoni poytaxtni himoya qilish uchun Moskva ostonalariga yuboriladi. Kichik politruk (siyosiy komandir) unvonini olgan Sharof Rashidov 1941-yil dekabr oyida Moskva ostonalarida janglarda qatnashdi. Moskva ostonalarida ko'rsatgan jasorati uchun «Qizil Yulduz» ordeni bilan taqdirlanadi (orden daftarchasi raqami 1985945, 1945-yil 5-mart). Og'ir janglardan so'ng u xizmat qilayotgan harbiy qism Staraya Russa rayoniga jo'natiladi. Shu yerdagi janglarda ko'rsatgan jasorati uchun Sharof Rashidov 1942-yil avgustda ikkinchi marta «Qizil Yulduz» ordeni bilan mukofotlanadi (orden daftarchasi raqami 3558404, 1963-yil 12-aprel). U janglardan birida og'ir yarador bo'ladi va Sverdlovsk viloyatining Revda shahridagi gospitalda uzoq davolangandan so'ng 1942-yil oxirida uyiga qaytib keladi.

Sharof Rashidov urushdan qaytgan 1943-yili uning shaxsiy hayotida ham katta o'zgarish yuz berdi. U hali universitetda o'qib yurgan kezlarda Jizzaxdagi ishchi yoshlar kechki maktabida dars ham beradi. Shu davrda o'zi yoqtirib qolib, ko'ngil qo'ygan maktab o'quvchisi Xursanoy ismli qizga uylandi. Xursanoy G'afurovna bir umr Sharof Rashidovga sadoqatli yor, og'ir damlarda

qo'llaydigan hamfikir, maslahatchi bo'ldi. Ular to'rt qiz va bir o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Farzandlarining barchasi ilmi, yuksak tarbiyali kishilar bo'lib yetishdi. Katta qizi Sayyora Sharofovna yirik olim, akademik, uzoq yillardan beri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Polimerlar fizikasi va kimyosi instituti direktori bo'lib ishlab kelmoqda. U yigirma yilga yaqin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) sifatida faoliyat yuritdi. Dilorom Sharofovna – kimyo fanlari nomzodi, Toshkent davlat universiteti Amaliy fizika institutida laboratoriya mudiri bo'lib ishlagan. Gulnora Sharofovna – geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, Fan va texnika davlat qo'mitasida faoliyat yuritgan. O'g'li Ilhom Sharofovich – maxsus oliy harbiy bilim sohibi, tarix fanlari nomzodi, iste'fodagi polkovnik. Qizi Svetlana Sharofovna – filologiya fanlari nomzodi.

Urushdan keyin Sharof Rashidov dastlab maktabda o'qituvchi, direktor bo'lib ishlaydi. Bir yildan keyin «Lenin yo'li» gazetasiga muharrir etib tayinlanadi. 1944-yil iyulda Sh. Rashidovning siyosiy faoliyati boshlanadi, u Samarqand viloyat partiya qo'mitasining kadrlar bo'yicha kotibi etib tayinlanadi. Ammo u qaysi lavozimda ishlashidan qat'i nazar, o'zining sevgan mashg'uloti – ijodni hech qachon to'xtatmadi. Shu yillari Sharof Rashidov o'z ijodiy faoliyatini frontdagi murakkab insoniy kechinmalarni talqin qilishga, urush davri kishilarining real obrazlarini yaratishga bag'ishladi. Uning 1945-yili nashr qilingan «Qahrim» to'plamiga kirgan she'rlarida vatanparvarlik va jasorat, kurash va mehnat, sadoqat va sof muhabbat kabi tuyg'ular tarannum etiladi.

Sharof Rashidovning urushdan keyingi mehnat faoliyati va ijodi jonajon yurti O'zbekiston bilan, uning mehnatkash xalqi hayoti bilan bog'liq. Bu yillari u asosan prozaik,

tanqidchi va jurnalist sifatida faoliyat yuritdi, ellikdan ortiq publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Ular oxir-oqibat dunyoda tinchlik ishi albatta g'alaba qozonishiga ulkan ishonch ruhi bilan sug'orilgan.

1947-yili Sharof Rashidov «Qizil O'zbekiston» (1964-yildan «Sovet O'zbekistoni», hozir «O'zbekiston ovozi») gazetasiga bosh muharrir etib tayinlanadi. Jahonda fashizm xavfi bartaraf etilgandan so'ng kechagi ittifoqchilar o'rtasida boshlanib ketgan «sovuq urush» yillarida Sharof Rashidov ham o'z ijodi bilan tinchlikni himoya qilishda faol qatnashdi. U 1949-yil avgustda bo'lib o'tgan Tinchlik tarafdorlari birinchi butunittifoq konferensiyasida ishtirok etib, o'zining «Urush chekinmoqda» nomli maqolasida insoniyatning tinch kelajagiga bo'lgan xalqimiz ishonchini yuksak ko'tarinkilik bilan yoritdi.

1949-yili Sharof Rashidov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi etib saylanadi. Oybek, G'afur G'ulom singari akademik-yozuvchilar a'zo bo'lgan tashkilotni 32 yoshli Sh. Rashidov katta mahorat bilan boshqardi. Bu davrda Sh. Rashidov jurnalist, publitsist va yozuvchi sifatida kamol topar ekan, ayni paytda siyosatchi sifatida ham shakllandi. Sharof Rashidovning adabiy faoliyati uning siyosiy faoliyati bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Bu yaxlitlik Sharof Rashidov shaxsi bilan bog'liq va bu uning qon-qoniga singib ketgan edi.

Sharof Rashidov ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ilk bosqichi keyinchalik uning yirik davlat va siyosat arbobi sifatida shakllanishida katta rol o'ynadi. Sh. Rashidov tabiatan romantik shaxs bo'lib, bu xislat XX asrning 50–60-yillarida siyosatga kirib kelgan ko'plab yoshlarning taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston yaqin kelajakda Sharqning eng ilg'or respublikalaridan biriga aylanishiga benihoya ishongan Sh. Rashidov sovet tuzumining barcha

to'siq va qiyinchiliklariga qaramasdan umrining oxirigacha shu ulkan ishonch bilan yashadi.

1950-yil avgustda Sh. Rashidovning O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimiga saylanishi ko'pchilik uchun kutilgan qaror edi. Urush faxriysi, pedagog, shoir, o'zining jurnalistik faoliyati va adabiy-badiiy asarlari bilan respublikaga tanilgan Sharof Rashidov mahalliy partiya rahbarlari orasida o'zining bilimi va yuksak madaniyati bilan ajralib turardi. Bu lavozimda u katta shijoat bilan mehnat qildi, xalq orasida uning obro'-e'tibori ortib bordi.

Sharof Rashidovning shu yillarda yaratilgan «G'oliblar» qissasi, «Bo'rondan kuchli», «Qudratli to'lqin» romanlari, «Kashmir qo'shig'i» lirik qissasi va boshqa asarlari tinch mehnat, yaratuvchilik, sevgi va sadoqat mavzulariga bag'ishlangan. Mirza Abdulqodir Bedilning «Komde va Modan» dostoni asosida yozilgan va 1959-yili nashr qilingan «Ikki dil dostoni» nomli kinossenariy (V. Vitkovich bilan hamkorlikda) Komde va Modanning sof muhabbati Hindiston va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida shakllangan do'stlik ramzi sifatida kuylanadi.

1959-yil 15-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XI plenumida Sharof Rashidov O'zbekiston rahbari – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari etib saylanadi. Shu lavozimda u umrining oxirigacha respublikamiz va xalqimiz manfaatlarini uchun xizmat qildi.

Sharof Rashidov O'zbekiston rahbari sifatida siyosiy faoliyat bilan, respublika xalq xo'jaligini rivojlantirish bilan band bo'lishiga qaramasdan, adabiy faoliyatini ham davom ettirdi. 1964-yili nashr etilgan «Qudratli to'lqin» romanida xalq jasorati qudratli kuch bo'lib, barcha g'alabalarimizning ma'naviy poydevori ham shu kuch ekanligi haqida hikoya qilinadi.

Sharof Rashidov urushdan keyingi ijodini xalqimizning bunyodkorlik mehnatini madh etishga bag'ishlagan bo'lsa-da, umrining so'nggi yillarida urush, fashizmga qarshi kurash mavzusiga yana qaytadi. Zotan, urush insoniyat uchun katta sinov bo'ldi. Unda jasorat, sadoqat va vatanparvarlik kabi yuksak insoniy tuyg'ular o'zining bor qudrati bilan, qo'rqqoqlik, xoinlik kabi illatlar esa butun dahshati bilan namoyon bo'ladi.

«Dil amri» qissasida Sharof Rashidov o'zi jang qilgan Rossiyaning Leningrad oblasti Staraya Russa rayonidagi voqealar haqida hikoya qiladi. Bu hududda urushning muhim strategik janglari bo'lib o'tgan. Staraya Russa 1941-yil avgustda fashistlar tomonidan bosib olingan va faqat 1944-yil fevraldagina ozod qilingan. Qariyb ikki yarim yil partizanlar otradlari fashistlarga qarshi kurash olib borgan.

Qissada Staraya Russaning Beryozovka qishlog'ida kattalar bilan birga fashizmga qarshi jangga otlangan qahramon bolalar haqida hikoya qilinadi. Ular bolalikdan urush va fashistlar okkupatsiyasi dahshatlariga guvoh bo'ladilar, Vatan himoyachilari safidan o'z o'rinlarini izlaydilar. Asarda Sharof Rashidov ma'sum o'y-xayollari, jasorati va dushmanga nisbatan nafratini shunday beg'ubor satrlarda tasvirlay olgan.

Yozuvchi asarda juda ko'plab ajoyib, esdan chiqmas, ijobiy obrazlarni yaratadi. Ayniqsa, bolalar obrazi nihoyatda chiroyli, mukammal, to'laqonli, chuqur. Seryoja, Ira, Taras haqiqiy vatanparvar, hech narsadan qo'rqmaydigan, hushyor, aqlli, Vatanga sadoqatli mard bolalar. Ular bir-biridan yoqimtoy, odobli, jasur, hozirgi yoshlarning havasi keladigan, taqlid qilishga arziydigan bolalar. Bu ziyrak bolalar kattalar zo'rg'a bajara oladigan ulkan ishlarni qilishga qodir. Ayniqsa, Seryoja yo'l qiyinchiliklarini yengib, xavf-u xatarlardan qo'rqmay, to'rt tomonga olazarak bo'lib

turgan dushmanga pand berib, bir necha bor partizanlarga muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni yetkazadi, topshiriqlarni a'lo darajada bajaradi.

Sharof Rashidov asarda shu mard bolalar bilan bir qatorda, keksa temirchi Misha bobo, o'qituvchi Ivan Ivanovich, shofyor Boboyor Omonov, leytenant Temirov kabi qahramonlar timsolida o'zining jangovar safdoshlari obrazini, o'zi bevosita guvoh bo'lgan urush voqealarini aks ettirgan. Ammo yozuvchi urush haqida shunchaki hikoya qilmaydi, u urush davridagi favqulodda holatda kishilarni jasoratga, boshqa birovlarini esa qo'rqqoqlik va xoinlikka yetaklovchi omillar haqida fikr yuritadi. Bu faqat urush haqida emas, aslida hayot falsafasi haqidagi fikrlar edi.

Asardagi o'zbek jangchilarining fidoyi, jangovar vakillari obrazi ham diqqatga sazovor. Asarda o'zbek yigiti Boboyor Omonovning rus bolasi Seryoja bilan birga Ilya Yesin batalyonida jang qilgani fashizmga qarshi kurashda ko'plab xalqlar taqdirining chambarchas bog'lanib ketganligidan dalolat beradi. Zero, fashistlar butun insoniyatga, sivilizatsiyaning o'ziga xavf solayotgan edi. Shu sababli o'sha uzoq yurtlarda jang qilgan o'zbek yigitlari butun insoniyatni fashizm tahdidan xalos qilish uchun kurashdi, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabaga munosib hissa qo'shdi. Xalqimizning urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi bugungi avlod uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbayi bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ammo urush faqat g'alabalardan iborat emas. U odamlar uchun cheksiz jismoniy qiyinchiliklar, haqsizlik va ommaviy o'lim, ayni paytda og'ir ruhiy va axloqiy inqiroz hamdir. Shunday og'ir damlarda ko'pchilik kishilarga xos bo'lgan yuksak insoniy tuyg'ular bilan birga ayrim kishilardagi tubanlik, xoinlik kabi jihatlar ham namoyon

bo'ladi. Sharof Rashidov qissada jasur qahramonlar bilan birga Gerasim Shulga, Mariya Proxorova, Kudimov singari ma'naviy qashshoq, yurt boshiga og'ir kunlar kelganda xoinlik yo'liga kirgan kimsalar obrazlarini, shuningdek, dushman lagerini – nemis-fashist qo'shinlari vakillarini, jazo otryadlari a'zolari va gestapochilarni ham mahorat bilan, haqqoniy tasvirlaydi. Qissada ijobiy qahramonlarning yorqin taqdiri ham, salbiy tiplarning fojiaiy qismati ham bir-biriga qorishib ketgan.

«Dil amri» qissasi sovetlar davrida yozilgani uchun unda voqealarning mafkuraviy talqini ancha kuchli. Ammo Sharof Rashidov asarda tish-tirnog'igacha qurollangan dushman bilan kurashdagi qiyinchiliklarni, jangchilarimiz jasoratini, urushdagi yo'qotishlar va inson fojiasini ham haqqoniy tasvirlaydi. Kitobxon bu urushda insoniyat boshiga qanday xavf-xatar tushganini, 1941-yil avgustdagi janglarda nima uchun ko'p qurbon berganimizni yaqqol tasavvur qiladi. Lekin asarda yorqin kelajak nafasi ufurib turadi, adib bizning g'alabamiz muqarrarligini, Moskva ostonalarida dushmanning yakson etilishi bu g'alabaning ilk darakchisi ekanligini katta mahorat bilan kitobxonga yetkazadi.

Albatta, qissadagi mafkuraviy talqinlarni, ba'zan kommunistik romantizm ruhi bilan sug'orligan voqealarni zamonaviy avlod, ayniqsa, o'smirlar tushunishi qiyin. Ammo qissada ko'tarilgan umuminsoniy muammolar siyosiy rejim va vaqt chegarasini bilmaydi. Zotan, yurtdoshlarimizning frontda ko'rsatgan mardlik, vatanparvarlik va jasorat namunalari bugungi avlodni ham bunyodkorlik sari ruhlantiradi, ajdodlar jasorati esa yoshlarni tarbiyalashning ham muhim omili bo'lib qolaveradi.

Sharof Rashidov umr bo'yi O'zbekistonni ozod va obod ko'rishni orzu qilib yashadi, bu ishga hayotini bag'ishladi. Ammo, afsuski, O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunni

ko'ra olmadi. U 1983-yil 31-oktabr kuni 66 yoshida vafot etdi. Sharof Rashidovdan ajdodlarga ulkan meros qoldi. U O'zbekistonga rahbarlik qilgan davrda respublikamiz iqtisodi jadal rivojlandi, aholining hayot darajasi keskin yuksaldi, ilm-fan, adabiyot, san'at, milliy madaniyat o'zining eng yuksak namunalari bilan jahon madaniyatini boyitdi. O'zbekiston shahar va qishloqlarining qiyofasi o'zgardi, Toshkent Sharqning eng go'zal shaharlaridan biriga aylandi, unda zamonaviy binolar va Markaziy Osiyoda birinchi metropoliten qurildi, Navoiy, Guliston, Yangiyer, Zarafshon, Uchquduq kabi o'nlab yangi shaharlar qad ko'tardi, zamonaviy sanoatning ko'plab sohalari ham shu davrda shakllandi, O'zbekiston sanoati mahsulotlari dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilindi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashda katta yutuqlarga erishildi, xalq farovonligi oshdi.

Ammo Sh. Rashidov vafotidan so'ng u kishining xotirasiga nisbatan hurmatsizlik qilindi, matbuotda turli-tuman bo'htonlar uyushtirildi. O'zi umr bo'yi himoya qilgan, sadoqat bilan xizmat qilgan tuzum unga xiyonat qildi. Misli ko'rilmagan shakkoklik bilan uning xotirasi tahqirlanib, jasi ko'chirildi, oila a'zolari va qarindosh-urug'lari ta'qib qilindi. Faqat mustaqillik yillarida, ayniqsa, so'nggi to'rt-besh yilda Sharof Rashidovning O'zbekistonni rivojlantirish, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lidagi ulkan xizmatlari munosib baholanib, haqiqat qaror topdi. 2017-yili Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi katta tantana bilan nishonlandi.

Sharof Rashidovning butun faoliyati, avvalo, ona O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan edi. Bugungi kunda erishgan buyuk baxtimiz, mustaqillik asriy orzumizning ushalganligidan dalolatdir. Shubhasiz, shu mustaqillik kunlarini Sharof Rashidov ham orzu qilgan edi.

Sharof Rashidov mashaqqatli, sharaflı hayot kechirdi. Shaxs va rahbar sifatida avlodlarga buyuk ibrat qoldirdi. Ilm-fan, san'at, madaniyatni yashnatib, elda kitob va kitobxonlikni bayroq qilib ko'tardi. Soliq Ittifoqda va xalqaro doiralarda katta obro'-e'tibor qozondi. Qomatini hamisha chinordek tikka tutgan kuch uning xalqqa, xalqning unga bo'lgan muhabbati edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sovet davri, jumladan, Ikkinchi jahon urushi tarixiga munosabat o'zgardi. Uni kommunistik mafkura qobig'idan xoli ravishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan o'rganish boshlandi. Ammo urush voqealariga nisbatan munosabat qanday bo'lishidan qat'i nazar, urushning barcha dahshatlarini mardonavor yengib, fashizm ustidan g'alaba qozongan oddiy askar va zobitlarga, partizanlik harakati ishtirokchilariga hurmat, ular xotirasiga ehtirom hech qachon o'zgarmaydi. Shuning uchun har yili 9-may – G'alaba bayrami mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirilib, fashizmga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan faxriylarimizga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish yurtimizda oliyjanob an'anaga aylanib qolgan.

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli urush yakunlanganiga 75 yildan oshdi. Ammo, afsuski, fashistik davlatlar yo'q qilinishi bilan fashizm mafkurasi ham yo'qolib ketmadi. Urushdan so'ng ko'plab mamlakatlarda fashizm g'oyalarini qo'llovchi guruhlar paydo bo'lib, ular neofashistlar nomini oldi. Neofashistlar ham fashizmning asosiy g'oyalari – shovinizm va ksenofobiyanı qabul qildi. Fashizm dunyoning aksariyat davlatlarida taqiqlanganiga qaramasdan, neofashistik tashkilotlar so'nggi paytda yana faollashib bormoqda.

Sharof Rashidovning «Dil amri» qissasi hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki asarda ko'tarilgan muammolar bu – faqat urush davri muammolari emas, ular umuminsoniy xarakterga ega bo'lganligi uchun barcha davrlar uchun dolzarb bo'lib qolaveradi. Kitobxon bu asardan o'zini hayajonlantirib kelayotgan ko'plab savollarga javob topadi. Qissa unga to'g'ri hayot yo'lini tanlashda ko'maklashadi. Asarni o'qigan yoshlar undan nafaqat urush tarixini o'rganadi, balki ular bugungi tinch hayotni qadrlashni, O'zbekiston degan Vatanni sevish, uni asrash va himoya qilish ilmini o'rganadi, murakkab hayot sabog'ini ham uqib oladi.

*Shuhrat Ergashev – Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti
«Jahon tarixi» kafedrası mudiri,
tarix fanlari nomzodi.*

I

Ivan Ivanovich sahar pallasida uyg'ondi-yu, yuvinib, kiyinib olgach, quduqdan suv tortish niyatida hovliga chiqdi. Keksa o'qituvchining hovlisi hamisha pokiza, saranjom, hamisha gulzor va go'zal bo'lib, qayin daraxtlari bilan qoplangan edi. U tashqariga chiqishi bilanoq anvoyi gullarning shabnam aralash anqigan hidi gup etib dimog'iga urildi. Ko'm-ko'k maysalar, qaddi-qomati kelishgan qayin daraxtlari ham erta tong shabnamida yuvilib-taralib ko'zga tashlandi. Hovlidagi har bir tup gul, har bir tup qayin va maysalar kekxa o'qituvchiga tanish va ardoqli edi. Negaki, u bularning hammasini o'z qo'li bilan ekkan, peshona teri bilan sug'organ, mehr qo'yib, zo'r ishtiyog bilan parvarish qilib o'stirgan.

Ivan Ivanovich qo'lidagi paqirni yerga qo'yib, jonajon qishlog'ining tong sahardagi husni jamoliga maftun bo'lgan holda shirin xayolotga berildi, gullar, maysalar, daraxtlarni suq-havas bilan, mehr-muhabbat bilan, faxr-shukronalik bilan ko'zdan kechirdi. Nigohi qayin tanasidan yuqorilab, ko'kka tikildi, shu lahzada kindik qoni to'kilgan qishloq bor savlati, ko'rki-kamoli bilan unga peshvoz chiqib, bag'riga olganday, erkalaganday bo'ldi.

Beryozovka uncha katta qishloqlardan emas. Unda yangi maktab, tomi tunuka, cherepitsa, ko'proq poxol bilan yopilgan uylari bo'lgan taxminan uch yuzta xonadon yashaydi. Qishloqning taqdiri kekxa o'qituvchi taqdiri bilan chambarchas bog'langanki, har bir xonadonda uning

o'quvchilari bor: ba'zilari allaqachonlar uning qo'lida ta'lim olgan, ba'zilari hozir maktab yoshidagi o'quvchilar bo'lsa, hademay yoshi yetib, qo'lga keladigan bolalar ham anchagina... «Eh, Beryozovka, Beryozovka... naqadar go'zalsan, jonajon qishloq. Poyonsiz o'rmonlaring, ekinzorlaring, maysazorlaring, qishin-yozin musaffo havolaring naqadar huzurbaxsh, naqadar yoqimli, naqadar shirin, naqadar go'zal, ona qishlog'im. Eh, Beryozovka, Beryozovka, hamisha maftuningman bebaho yurtim...»

Tong salqini dilga orom berardi-yu, bari bir hademay havo qizib, nafasni qaytaradigan darajada isib ketishi sezilib turardi, bu yil yoz haddan tashqari issiq kelgandi. Qishloq atrofidagi Suxaya daryosi allaqachon qurib qolgandiki, ehtimol shu sababdan ham unga ismi jismiga monand deb Suxaya – qoq daryo nomi berilgandir. Faqat Tixaya daryosi qishloqning pastki tomonidan goh qiyaliklar orqasidan ko'zga tashlanib, goh chuqur jarliklar tagiga yashirinib, avvalgidek bir maromda sokin va jimir-jimir oqardiki, bunisining Tixaya – sokin degan ismi jismiga judayam yarashib tushgan edi. Mamnunlik, ta'bi ravshanlikdan qushday yengil tortgan o'qituvchi musaffo tong havosini suvday shimirib, Tixaya daryosi bo'yiga yaqinlashdi. Daryo limmo-lim, teran bo'lsa ham muloyim oqardi. Poyonsiz o'rmonlar o'rtasidan kesib o'tgan va xayolchan oqimi bilan hammani o'ziga maftun etgan daryo o'sha o'rmonlarning kumush kamari edi, misoli. Ivan Ivanovich ona qishlog'ining tong sahargi husniga, daryoning sirli oqishiga mahliyo bo'lib qoldi.

U kumushday oq va hurpaygan sochlarini, o'ziga yarashib turgan echki soqolini uzun-uzun barmoqlari bilan tarab, tutamlab silab, qishloq manzarasi, daryo oqimidan ko'z uzolmas, bahri dili ochilib qalbini to'ldirgan sevinch va faxr his-tuyg'usiga g'arq edi.

Birdan ko'zi daryoning narigi tomonidagi izg'irin shamol, yomg'ir va qish sovig'idan urinib, asl ko'rkini oldirib qo'ygan keksa qayin daraxtiga tushdi-yu, cho'chib, ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Kaftiga qo'nib turgan baxt qushi hoziroq uchib ketadigandek tuyuldi, yuragi orqasiga tortib ketdi. «Nahotki, nahotki shular bari toptalsa, oyoq osti bo'lsa, odamlar xo'rlansa... Maktab-chi, o'quvchilarim-chi? Axir, uch haftadan keyin o'quv yili boshlanadi-ku...»

Mana ikki oydirki, urush alangasi katta front bo'ylab tobora mamlakat ichkarisiga kirib borar, Rossiyaning markaziga yaqinlashib qolgandi. Beryozovkada ham yiroq-yiroqlardan bomba portlaganiga o'xshash ovozlari eshitilib turar, vahima solardi.

Qo'shinlarimiz ko'pdan ko'p talafotlar evaziga bo'lsa ham, Smolensk va Yelnya rayonlarida nemis armiyasining hujumini to'xtatdilar. Natijada dushmanning «Markaz» gruppasi mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. Fashist armiyasi qo'mondonligi asosiy jang harakatlarini frontning markaziy uchastkasidan yon tomoniga ko'chirdi.

Vaziyat nihoyatda og'ir edi. Nemis samolyotlari Beryozovkaga birinchi marta hujum qilganlariga bir hafta bo'ldi. Uchta uy bomba tagida qoldi. O'shanda qadrdon do'sti, qishloqdagilar Misha bobo deb ataydigan temirchining nevaralari Seryoja bilan Iraning onasi Anna Vladimirovna Yesinaning uyi ham yonib ketdi.

Ivan Ivanovich ko'ngli g'ash ko'kka qarab oldida, quduqdan suv tortdi. Osmonning mayin, osoyishta musaffoligi uning yurak g'ulg'ulasini yanada oshirardi.

Shu paytda osmon gumburladi. «Bu nimasi, – o'yladi u, – momaqaldiruqmi yo samolyotmikan?» U o'z savoliga javob topmasdanoq osmonda nemis-fashist samolyotlari paydo bo'ldi. G'uv-g'uvlagan ovozlari qishloq jimligini, erta

tong sokinligini buzdi. «Yana o'sha «Yunkers»lar xalqimiz boshiga ajal urug'ini sochish uchun kelmoqdalar», – ko'nglidan o'tkazdi u. Samolyotlar baland uchib Beryozovka qishlog'i ustidan o'tib ketdi va sharq tomonda ko'ringan bulutlar ichiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Keksa o'qituvchi bombardimonchi samolyotlar izidan qarab qolarkan, hozirgi ruhiy holati, qalb to'la huzur-halovati o'rnini g'amginlik qamrab oldi, yuragida og'ir tashvish paydo bo'ldi: «Shahar, qishloqlarimizni vayron qiladi, sanoat korxonalarimizni portlatadi, qancha musibat, qancha qon to'kiladi-ya! La'natilar!» – u jahl o'tida yonib, orqasiga o'girildi va uyi tomon yo'l oldi.

Ivan Ivanovich uyiga yetmasdanoq yana vahimali g'uv-g'uv tovushi eshitildi. Fashistlar endi ovchidan qo'rqqan quyonday o'sha bulutlar orasidan orqaga qaytar edi. Nemis samolyotlari mo'ljallagan nishonini bombardimon qilolmay, endi bombalarini yo'l-yo'lakay duch kelgan joyga – qishloqlarga, mashinalar va odamlar qatnab turgan yo'l va ko'priklarga, binolarning ustiga tashlab, g'arbga qochardi. Qanotida qizil yulduz norlab turgan bizning samolyotlarimiz gazandalarni o'q yomg'iri yog'dirib quvib kelardilar.

Samolyotlar Beryozovka ustidan pastlab uchib, jon talvasasida qolgan-qutgan bombalarini qishloq ustiga yog'dirdi, portlash ovozlari qishloqni larzaga soldi. Bir bomba portladi, ikkinchisi, uchinchisi... beshinchisi. Qadim zamonlarda keng soy ustiga qurilgan kichkina eski ko'priknig yog'ochlari ko'kka sovurildi. Ikkinchi va uchinchi bomba qishloqning qoq markaziga tushdi. Bombalardan biri Ivan Ivanovich yashab turgan uyga tushib portladi. Darvoza va uyning yog'och-taxtalari xuddi bo'ronda to'zg'igan qog'oz varaqlaridek parcha-parcha bo'lib, osmonga ko'tarildi. Bombaning bir adashgan parchasi kekxa o'qituvchiga tegib, yelkasini kuydirdi. Qanday

930304

qilib yaralanganini sezmay qolgan Ivan Ivanovich bomba to'liqini bilan uydan ancha nariga borib tushdi, a'zoyi badani qip-qizil qonga belanib hushidan ketdi. Sal o'tmay bir zumgina o'ziga kelganida uyini alanga ichida ko'rdi. «Yaxshiyam yakka o'zimman, yaxshiyam uyda hech kim yo'q», – xayolidan o'tkazdi keksa o'qituvchi va yana hushini yo'qotdi.

Samolyotlar g'arb tomonga uchib ketdi. Buruqsigan tutun ertalabki sof va sokin havoni buzib, butun Beryozovkani qopladi. Qishloqda ko'tarilgan qiy-chuv, baqiriq-chaqiriq, yig'i ovozlari sigirlarning qo'rqib marashlari, itlarning betartib vovillashiga qo'shilib, hamma yoqni dahshat qonladi. Kimdir xaloyiqni o't o'chirishga chaqirib jar solardi.

Odamlar Ivan Ivanovichning uyi tomon yugurishardi.

– Ivan Ivanovich qani? – deya hovliqib surishtira boshladi odamlar. – Nahotki o't ichida qolib ketgan bo'lsa?

– Ivan Ivanovich! Qayerdasiz, Ivan Ivanovich?!

O'qituvchi yana o'ziga keldi. Bu ovozlarga unga uzoq-uzoqlardan kelayotgandek tuyulardi. Mana endi ravshan eshitila boshladi. Biri yo'g'on, do'rillagan, ikkinchisi bolalarning ovozi.

– Ivan Ivanovich!

Mana, u qadrdon do'sti, kolxoz temirchisi Misha boboning: «Nafasingni o'chir!» – deb baqirgan yo'g'on ovozini tanidi, bolalarning ovozi Ira bilan Seryojanikiga o'xshadi. Yana ko'zlari jimirlashib, hushidan ketdi.

Chopib kelgan odamlar o'qituvchi behush holda qip-qizil qonga belanib yotganini ko'rishdi.

Misha bobo baquvvat qo'llari bilan o'qituvchini avaylab ko'tarib, o'z uyiga olib ketdi. Seryoja bilan Ira ko'z yoshlari yuzlarini yuvgan holda bobolari orqasidan borardilar. Odamlar – ayollar, qariyalar, bolalar, o'qituvchining bu-

ruqsab yotgan uyi oldida to'planganlaricha, xomush nimalarnidir muhokama qilishardi.

Temirchining uyiga yetganda Ivan Ivanovich ko'zlarini ochdi.

– Qiynalding-a, Mixail?

– Jim, jim bo'l, – dedi Misha bobo uni avaylab yotqizarkan, – yaxshi bo'lib ketasan.

– Bunisiga ishonchim komil, endi ko'rayotganim yo'q, – shivirladi Ivan Ivanovich.

Ha, Ivan Ivanovich birinchi gal bir ming to'qqiz yuz... yilda, Birinchi jahon urushida yaralangandi.

Keyin grajdanlar urushi boshlanib ketdi.

...Ivan Ivanovich jahon urushi frontlarida jon olib, jon bergan, qon kechib bahodirona jang qilgan, ko'pni ko'rgan odam. Grajdanlar urushi janglarida aktiv qatnashgan.

Avvaliga bolalarni naridan-beri maktabga moslashtirilgan saroyda o'qitdi. O'ttizinchi yillarning boshida quloq qilingan Bodrovlarning ikki qavatli hashamatli uyi maktabga berildi. Urush boshlanishidan ikki yil avval oblast arxitektorining loyihasi asosida katta italyancha derazali, sinf xonalari keng-keng yangi maktab binosi qurildi. Ivan Ivanovich endi maktab mudiri bo'lib ishlaydi va rus tili, adabiyot va tarixdan dars beradi.

Mana endi yirtqich nemis-fashistlari tinch yurtimizga qo'qqisdan xiyonatkorona bostirib kirib, zaharli ilon misoli jonajon shahar va qishloqlarimizga o'rmalab kelardi. Ana shu gazandaning boshini majaqlab tashlash – har bir sovet kishisining – yosh-u qari, erkag-u ayol, har bir vatandoshimiz, ko'p millatli ahil oila a'zolarining muqaddas burchi, dil amri edi.

Bir hafta muqaddam kommunistlar Durasovoda, rayon partiya komitetida yig'ilish o'tkazdilar.

Yig'ilishda front yaqinlashib kelayotgani haqida, fermadagi mollar va texnikani evakuatsiya qilish haqida, bu yerda ro'y berishi ehtimol bo'lgan okkupatsiya sharoitida kimlar qolishi lozimligi haqida gap bo'ldi. Ammo aktivlardan hech kim sharqqa ketishni istamasdi.

– Boshqalarni bilmadim-u, – degan edi o'shanda Ivan Ivanovich, – ammo men partizan bo'laman. Tajriba desa menda ham, boshqalarda ham yetarli. Baxtsizlik yuz berib qolgudek bo'lsa, evakuatsiya haqida emas, partizanlarning manzilgohlarini qayerlarga joylashtirish, o'rmonlarda oziq-ovqat va o'q-dori omborlarini qanday uskunalar haqida, qurol-aslaha haqida o'ylashimiz kerak...

Ivan Ivanovichning fikriga hammalari qo'shilishdi.

Misha bobo uch kecha-yu uch kunduz Ivan Ivanovichning yarasini kuniga bir necha martalab avaylab bog'lab turdi. O'qituvchi ko'p qon yo'qotganidan o'zini bilar-bilmas holatda bir necha soatlab ko'zlarini ocholmay yotardi. Seryoja bilan Ira ham uning boshida parvona edilar.

– Mixail, ho, Mixail, – deb qoldi Ivan Ivanovich, – Durasovoga, raykomga borib kelish zarur edi...

– Borib kelaman, Vanya, xotirjam bo'l, – ishontirdi Misha bobo.

– Bizlar bora qolsak-chi, – dedi Ira.

– Jon deb boramiz, – quvvatladi uni Seryoja.

– Bo'tam, bolalar qiladigan ish emas bu, – dedi Ivan Ivanovich Seryojaning boshini silab.

Bolalar xafa bo'lgandek yerga qarab qolishdi.

Ira bilan Seryoja Ivan Ivanovichning yonidan jilmasdilar. Bobolarining ishi, tashvishi hozir boshidan oshib yotibdi. U partizanlar otryadi uchun aslaha-anjomlar tayyorlash bilan band. Shunday bo'lgandan keyin o'qituvchiga ular qaramasa kim qaraydi.

Ivan Ivanovich o'zini uzoq va og'ir kasaldan turgan kishiday bedarmon, horg'in sezardi. Qo'l-oyoqlari uvishgan, karaxt edi. Kuch-quvvati yo'qligidan ko'zlarini ocholmasdi, hamma narsa xira ko'rinardi, ovoz chiqarib biror narsani so'raguday bo'lsa, xuddi shivirlaganday bo'lardi. Yonib ketgan uyini ko'p o'ylardi.

Misha bobo uning dilidagini sezib turgandek dalda berdi:

– Men senga aytsam, Vanya, o'z uyingdasan, bu yog'ini o'ylama. Qarab tur hali, nemislarni yengganimizdan keyin senga shundoq bir uy qurib beraylikki, munaqasi tushingga ham kirmagan. Aslida-ku, allaqachon qurish kerak edi. Yashab turgan uying o'zi xaroba edi-ku, o'qituvchi, direktor bo'la turib shunaqa uyda yashash, men senga aytsam, uyat edi senga. Qani, mana buni ichvorgin, do'stim, qaynoqqina, tezroq darmonga kirasan. Men senga aytsam, o'zing ham uch kundan buyon tuz totmading-da, azizim, do'stim, icha qol, – iltijo qildi temirchi bobo qaynatib, ichiga asal solingan, bug'i chiqib turgan stakandagi sutni unga tutarkan.

Bir necha yil muqaddam Misha boboning o'g'li o'ziga uy qurib, bo'lak bo'lib chiqib ketgan edi. Xotini Anna va ikkala farzandi Seryoja va Ira bilan yashardi. Beryozovka birinchi marta bombardimon qilinganda xuddi o'sha uyga fashist bombasi tushib portladi. Anna tom tagida qolib halok bo'ldi. Yaxshiyam havo hujumi vaqtida Seryoja bilan Ira uyda emas edilar. Misha bobo kelinini dafn etgach, nevaralarini o'z uyiga olib kelgan edi.

Misha bobo Ivan Ivanovichga har kuni asal solingan sut ichirib turar, iloji boricha o'zi novvoyxonaga borib, yangi yopilgan non olib kelar, piyozdog'da kartoshka qovurib berardi.

Ular yigirmanchi yillardan buyon bir-birlariga judayam qadrdon, suyanib qolishgan, bir-birlarini jondan ziyod

ko'rishar, hurmat qilishardi. Temirchi bilan o'qituvchining bu inoqligi, hamfikir, hamdardligini hamma bilardi, bilganlar: «Ivan Ivanovich judayam kamsuqum odam-da, dimog' degan gapni bilmaydi, temirchi bilan ulfatchilik qiladi», – desa, bilmagan, og'ziga kuchi yetmaganlar: «Ziyoli, o'qituvchi, keksa kommunist bo'la turib tengini topolmaganiga hayronsan, qayoqdagi temirchi bilan ulfat, o'z obro'yini tushirib yuradi», – derdi.

Ivan Ivanovich bunday gaplarga e'tibor bermasdi: «Mayli, gapiraverishsin, qancha gapirishsa, shuncha gunohim to'kiladi», – deya qo'l siltab, kulib qo'yardi. U hammasidan ham Misha boboning gapni hamisha «azizim...» deb boshlashini yoqtirardi. Bo'lmasa o'qituvchi o'z hayotida bu so'zni juda ko'p marta eshitgan, hozir ham eshitadi, ammo temirchining talaffuzi juda o'zgacha bo'lardi. Nimaga, nimasi bilan yoqishini, o'zgacha bo'lishini bilmasdi-yu, ammo juda yaxshi ko'rardi. O'zi ham Misha bobo biron marta «azizim»siz gap boshlaganini eslolmaydi. Ayniqsa, ikkovlari otamlashganlarida, umuman, birga bo'lishganda temirchining «aziz do'stim» deb atashi dil-dilining eng nozik yeriga yetib borar, mehrini oshirib yuborar, har gal shu so'zni aytganida badani jimirlashar, quchoqlab olgisi kelardi-yu, o'zini bosardi. Nazarida yorug' dunyoda shu so'zni – «aziz do'stim» iborasini Misha bobodek dildan chiqarib, butun mehr-u muhabbatini shunga jo qilib aytadigan odam yo'qday edi. Hatto Ivan Ivanovich o'zi ham, shunday qilib aytolmasam kerak, deb yurardi. Biroq, ko'p marta og'zini juftladi-yu, biron marta ham: «Hoy, Misha, shu so'zni juda boplab aytasan-da», – deb o'ziga iqrar bo'lolmadi. Dildan aytilgan so'z dildan borib joy olsa, izohga hojat qolmaydi. Bu ham shunday kechardi. Hozir, shu azobda ham Misha boboning «ich, azizim, do'stim» deganigina o'qituvchiga kifoya qildi, qaltiragan qo'lida stakanni ushlaganicha ohista sutdan ho'pladi. Uzoq-uzoq nafas olib, oxirigacha ichdi. Bir

haftadan sal oshiq vaqt ichida Ivan Ivanovich temirchi bobo, uning nevaralari parvarishida anchagina kuch-quvvatga kirib, tetiklashib, yarasi ham tuzalib qoldi.

Bir gal ular allamahalgacha front xabarlarini haqida gaplashib o'tirishdi. Gitlerchilarning yashin tezligida g'alaba qozonish plani barbod qilingan bo'lsa-da, frontdan kelayotgan xabarlar uncha quvonchli emasdi. Qo'shinlarimiz katta talafot ko'rib, chekinardilar, lekin fashistlarga ham katta talafot yetkazardilar.

Misha bobo Ivan Ivanovichga partiya raykomiga borib kelganini aytib berdi.

– Endi, aziz do'stim, tezroq tuzalishing kerak. Qiladigan ishlarimiz ham jiddiy, ham ko'p. Qani, ertaga bir toza havoga chiqib ko'raylik-chi. Holing kelarmikin?

– Nima deyapsan meni, allaqachon sog'ayganman, Mixail!

– Kelishdik bo'lmasa, endi uxlaymiz! Yaxshi yotib tur, azizim!

Ertalab havo dim, hamma yoqni tuman qoplagan edi.

– Ha, bunday havoni toza havo deb bo'lmaydi, – hazillashdi Misha bobo, – zarari yo'q, azizim, bari bir nafi tegadi.

Ivan Ivanovich do'stining qo'liga suyanib, Seryoja bilan Ira yordamida uydan chiqdi. Quyuq tuman quyoshni to'sib turgan bo'lsa-da, ko'zlari qamashib ketdi.

– Rahmat, azizlarim! Juda yaxshi, qaranglar, men yana oyoqqa turdim! Nazarimda ancha durustman shekilli, – o'qituvchi mamnun kulib qo'ydi.

Ular asta-sekin yurib, Tixaya bo'yiga tushishdi, hammalari qachonlardir arralangan, ustini yo'sin bosib ketgan tog'terak ustiga o'tirishdi.

– Soat necha bo'ldi, Mixail? – so'radi Ivan Ivanovich. – Hali barvaqtga o'xshaydi, hech kim ko'rinmayapti.

– Olti bo'lyapti, – dedi Misha bobo. – Odam kamligi rost. Kolxoz mollari allaqachon Sharqqa jo'natilgan, podachi

bo'lsa Qizil armiyada. Qolgan sigirlar har kimning uyi oldida o'tlab yuribdi. Odamlar ham kam qolgan. Sen bilan menga o'xshagan qariyalar-u, ayollar, bolalar. Bor aholi shu...

Ular jim qolishdi.

Seryoja bilan Ira daryo bo'ylab uyga qaytib ketishdi. Misha bobo ularning ketidan qarab qolarkan, dedi:

– Yoshlarga havasim keladi.

– Urush bizlardan ko'ra yoshlar uchun tag'inam dahshatliroq, – e'tiroz bildirdi Ivan Ivanovich. – Havasing kelmay qo'ya qolsin!

– Ehtimol...

– Mana, senga mening havasim keladi, Misha. Bilasanmi, ko'zlaring burgutning ko'ziday o'tkir, hamisha yonib turadi, yuzlaring qip-qizil, haligacha ajin ham tushmagan. Soqoling ko'kragingga tushsa ham, oppoq tishlaring nuqraday yaltirab turadi. Ovozing-chi, ovozing, o'ho', yo'g'on, tiniq, yoqimli, hamisha jaranglab turadi, yoshlar havas qilsa arziydi. Maktabda uzoq vaqt dars berganim uchunmi yoki onadan shunday tug'ilganim uchunmi – mening ovozim yumshoq, bo'g'iq, ta'sirsiz. Hayronman, qanday qilib grajdanlar urushida shu nimjon ovozim bilan polkka komandirlik qilganman...

– Kuch ovozda emas, azizim, xarakterda, – deb qo'ydi Misha bobo. – Do'stim Vanya, meni hadeb maqtayverma, g'ashimga tegadi. Men senga aytsam, o'zingni ham ko'pam kamsitaverma, azizim, ovozing bo'g'iq bo'lsa ham shirali, yoqimli.

– Sihat-salomatliging joyidami, qudrating, kuch-quvating ham shunda, – Ivan Ivanovich temirchining so'zlarini eshitmaganday daryo suviga termilgan holda so'zida davom etardi: – Bilasanmi, temir irodang, jasurliging bir tomondan havasimni keltiradi, ikkinchi tomondan yuragimni faxr bilan to'ldiradi. Ayniqsa, do'stim, mana shunday musibatli

kunlarda sihat-salomatlik ham, kuch-quvvat ham, temir iroda ham zarur. Axir, o'zing o'yla, Misha. Nemis tish-tirnog'igacha qurollangan.

Misha bobo uning so'zlarini og'zidan yulib oldi:

– Men senga aytsam, Vanya, tish-tirnog'igacha qurollangan nemis o'z ajali bilan kelyapti bu yerlarga.

– Misha, mendan ko'ra yaxshiroq bilasanki, – dedi Ivan Ivanovich bo'g'iq ovoz bilan, – uning oldida boshqalar tiz cho'kdi, vahima ichida taslim bo'lishdi, ham qo'rqqulik, ham xoinlik qilishdi. Bilasanmi, Misha, irodasi yo'q, ornomusi yo'q, vijdonini amalparastlik va poraxo'rlik bilan, boylik va foyda bilan almashtirgan burjua korchalonlari bir hamlaga toqat qilolmadilar. Biz-chi, Misha, biz taslim bo'ladigan, tiz cho'kadigan xalq emasmiz, bilasanmi? Sen aytganday nemis o'z ajali bilan kelyapti. Nemis fashizmi mashinasini majaqlab tashlaydigan kuchimiz ham, quvvatimiz ham mavjud, irodamiz ham, ishonchimiz ham bor. Axir, biz sovet kishilarimiz, Misha, sovet kishilari sira-sira yengilmaydilar. Gaplarimga ishonaver, do'stim!

Keksa o'qituvchi bir zumda do'stining ko'z oldida o'zgarib ketdi, o'tirgan joyida qaddi-qomatini rostladi, boshini ko'tardi, ko'zlari o'tday chaqnadi, kuchiga kuch qo'shildi, g'ayrati jasoratga aylandi. Endi u alohida bir beqiyos qat'iyat va metin iroda kasb etgan edi. U temirchi do'stining kuchi va irodasiga havasi kelganini aytdi-yu, shu bilan uning kuchiga yana kuch, irodasiga iroda, ishonchiga ishonch qo'shdi.

Ular dushmanni kuch, o'zlarining g'alabaga bo'lgan qat'iy ishonchlari haqida anchagacha suhbatlashib o'tirishdi. Hatto nemis xarakteri bilan rus xarakterini taqqoslab ham ko'rishdi. O'qituvchi o'zining eng sevimli mavzusiga – tarixga tushib ketdi.

Qachonlardir eshitgan bir naqlni esladi:

– Ruslar prusslarni ko‘p savalagan. Ruslar Berlinda ham ikki bor bo‘lgan!

– O‘g‘limdan xat-xabar yo‘q, yuragim g‘ash. Bir oydan oshdi, – deb qoldi to‘satdan Misha bobo. – Anyaning halok bo‘lganini ham bilmaydi hali.

– Bilmay turgani ma‘quldir?

– Ehtimol shundaydir, azizim!..

Uzoq-uzoqlardan, daryoning narigi tomonidan, o‘rmonlar orqasidan to‘p otishmasining gumburlagan ovozlari eshitildi.

– Front yaqinlashmoqda, azizim, – dedi Misha bobo.

Ivan Ivanovich indamadi. Front yaqinlashayotganini o‘zi ham bilardi.

Shu paytda, hamdard, hamfikir do‘stlarning qalbi bir maromda urayotgan paytda yonlarida Seryoja bilan uning o‘rtog‘i Taras paydo bo‘lganini ham payqashmadi. Misha bobo sevimli nevarasiga mehri to‘lib nazar tashlagan edi, Seryoja keksalarni muloyimlik bilan uyga taklif qildi:

– Ovqat tayyor. Ira dasturxonga taklif qilyapti.

– Barakalla, bolam.

– Bu bola kim bo‘ldi? – so‘radi Ivan Ivanovich do‘stidan, bolalarning orqasidan tikilib qolarkan, – maktabda ko‘rardim-u...

Misha bobo daryo oqimini kuzatgan holda e‘tiborsizlik bilan javob berdi:

– Qo‘shnining o‘g‘li, Seryojaning o‘rtog‘i, tanimaysanmi?

– Qaysi qo‘shnining?

– Shulganing...

Ivan Ivanovich to‘xtab, xayol surib qoldi.

– Shulga, Shulga... Huv quloq qilingan, kechasi qishloq soveti raisini chavaqlab ketgan qotilga aloqasi yo‘qmi?..

– Men senga aytsam, azizim, o‘shaning nevarasi.

– Gerasim Shulganing o‘g‘limi? Axir Gerasimning o‘zi ham uchiga chiqqan muttaham-ku. Uning kirdikorlari haqida ko‘p eshitganman.

– Ha, o‘sha. Ammo Taras, xudoga shukur, yaxshi bola,– dedi ishonch bilan Misha bobo,– otasiga ham, bobosiga ham o‘xshamaydi.

Misha bobo do‘stini ehtiyotlik bilan o‘rnidan suyak turg‘azdi. Belidan qo‘lini o‘tkazib, suyaganicha bitta-bitta qadam tashlab yo‘lga tushishdi, ohista yurib uyga kelishdi. Ichkariga kirishlari bilanoq, ishtahani qitiqlaydigan taom hidi gup etib dimoqqa urildi. Qo‘llarini yuvib, stol atrofiga o‘tirishlari hamono Ira tarelkalarga suzilib, yuziga qaymoq solingan, bug‘i chiqib turgan chuchvarani keltirib qo‘ydi. Do‘stlar chuchvarani zo‘r ishtaha bilan yeyishdi.

– Mana ko‘rdingmi, azizim, men senga aytsam, ochiq havoga chiqishing bilan ishtahang ham ochildi, – dedi bobo do‘stining yuzlariga mamnun termilib.

– Seryoja bilan Tarasning ham ishtahalari chakki emas, Misha, – javob berdi Ivan Ivanovich bolalarning ovqat yeyishlarini zavq bilan ko‘zdan kechirarkan va kulgi aralash so‘zida davom etdi: – Ammo oshpazga balli, qo‘li shirin ekan, Iraga ofarin! Qizim, bunday shirin ovqat pishirishni kimdan o‘rganding?

Ira uyalib yerga qaradi, onasi esiga tushib ketdi, o‘pkasi to‘lib keldi, tomog‘iga nimadir qadalganday tuyuldi. Buni sezgan Seryoja darhol singlisining yoniga yaqinlashib o‘tirdi va hurmatli o‘qituvchisiga o‘zi javob berdi:

– Onamizdan o‘rgangan.

– Onasi birinchi bombardimon vaqtida... – deganicha to‘xtadi Misha bobo do‘stining nigohini ilg‘ab.

O'qituvchi bilib turib, bexosdan so'rab, qizning yarasini yangilaganini fahmlab qoldi, ich-ichidan koyindi-yu, endi gapni chalg'itish foyda bermasligini sezib, Iraning sochlarini silab, erkaladi:

– Bilasanmi, qizim, onang uchun ham, hamma onalar va yetim-yesir qolgan bolalar uchun ham qasos olamiz. Yig'lama, qizim.

...Urush boshlangandan ikki hafta o'tar-o'tmas Beryozovka qishlog'i yonidan o'tgan katta yo'l serqatnov, gavjum bo'lib qoldi. Kecha-yu kunduz tinmay mashinalar o'tardi. Frontga yangidan yangi harbiy qismlar, artilleriya, qurol-yarog'lar, oziq-ovqat, kiyim-kechak jo'natilardi. Havo ayg'oqchilari orqali buni payqab qolgan nemislar qishloqni ham, yo'l-ko'prikn ham, mashinalar, ot-ulovni ham to'xtovsiz bombardimon qilardi. Ana shu kunlarda Beryozovka qishlog'ining qanchadan qancha uylari vayron bo'ldi, qanchadan qancha qon to'kildi, qanchadan qancha begunoh odamlar halok bo'ldi. Beryozovkaning bir chekkasidagi eski mozorda yangi qabrlar ko'paya borardi. Har uch xonadondan bittasi motam tutardi.

Urush dahshatini boshidan o'tkazgan, hali dard ko'rmagan murg'ak qalbi judolikka uchragan bolalar aqlan va fikran tez ulg'ayadimi yoki Ira tabiatan go'dakligidan shundaymidi, har qalay o'n ikki yoshida, bobosining katta uyini bir o'zi eplab olgan, ko'pni ko'rgan ayollardek ro'zg'or yuritar, yig'ib-terar, ovqat pishirar, kir yuvar, hamma ishlarni bilib-bilib, chaqqon va did bilan qilardi. Misha bobo nazarida qizi tirilib kelganday bo'lardi. Iraning farosati va epcilligi ayniqsa o'qituvchining yarasini davolashda, parvarish qilishda asqatdi. Bamisoli hamshira bo'ldi-qo'ydi.

Ira choy keltirdi. Taras hammadan oldin stakaniga birdaniga to'rt chahmoq qandni solib, hovliqib choydan ho'plagan edi, og'zi kuydi, o'rnidan turib, yugurganicha eshikka chiqib ketdi. Orqasidan Seryoja ham chiqdi. Bolaning xatti-harakatini zimdan kuzatib turgan o'qituvchi Misha boboga bir qarab qo'ydi. Ko'p o'tmay bolalar kirishdi, hech narsa bo'lmaganday yana o'z joylariga kelib o'tirishdi, ohistalik bilan choy icha boshlashdi. Tarasning choy ho'plashiga razm solib o'tirgan Ivan Ivanovich muloyimlik bilan undan so'radi:

– Otang qayerda, Taras?

Tarasning ko'zlari bir zumda olayib ketganday bo'ldi va peshonasida ter yaltiradi. U qo'qqisdan berilgan savolga nima deb javob qaytarishni bilmay sarosimaga tushdi, oldin Misha boboga, so'ngra Seryojaga tikildi.

– Qamoqda, – dedi shivirlaganday.

– Bilmagandim, eshitmagandim. Ochig'ini aytsam, unchalik hayron qoladigan joyi yo'q.

Oraga jimlik cho'kdi. Jimlikni birinchi bo'lib Ivan Ivanovichning o'zi buzdi:

– Ota uchun bola javobgar emas, Taras, – dedi keksa o'qituvchi uni yupatib, – Vatan oldida sening vijdoning pok bo'lsa, haqiqiy inson bo'lsang bas.

Xuddi shu paytda samolyotlarning g'uv-g'uvlagan xunuk ovozi eshitildi.

Hammalari ayvonga chiqishdi.

– Bombardimonchi...

– O'n sakkizta...

– Yana vayronalik, – Ivan Ivanovich tobora darg'azab bo'lardi.

– Yana o'lim, yana qon, la'nati fashistlar... Men senga aytsam, azizim Vanya, hali qarab tur, hamma kirdikorlari uchun ular tiz cho'kib javob beradilar, – dedi Misha bobo.

II

Seryoja bilan Taras qishloqning qoq o'rtasidan kesib o'tadigan yo'l bo'yidagi balandlikda o'tirib o'tgan-ketgan mashinalarni tomosha qilishardi. Tomosha deb bo'larmikan? Yo'q. Bular go'daklik ko'zlariga tomosha bo'lib ko'rinardiyu, aslida ko'ngillari, dillari g'amgin, kattalardek front tashvishi, yurt tashvishi bilan band bo'lardi. Aks holda, tomosha bo'lganida loaqal uning quvonchi yuzlarida, so'zlarida sezilardi. Qani ular?

Front Beryozovka qishlog'iga yaqinlashgan sari mashina va ot-aravalarining qatnovi ko'payib qoldi. Shu topda Seryoja ana shu serqatnov yo'lining g'arb tomonida – jang avjiga chiqqan joylarda mehribon dadajonisi qonxo'r nemis-fashistlarni qirayotganini ko'nglidan o'tkazib o'tirardi, fikriyodi otasida edi. Taras-chi? U ham otasini o'ylar, onasini ko'z oldiga keltirar, hammasidan ham o'qituvchining so'zlari ko'pincha uni o'ylantirib qo'yardi, ezardi, azob berardi. Bolalarning shu holatlarini tomosha qilayotganlar holatiga o'xshatib bo'larmidi?

Shu paytda yo'ning narigi betiga yuk mashinasi kelib to'xtadi, kabina eshigi ochilib, undan qotmadan kelgan yigit yerga sakradi. Soldat kiyimidagi bu yigit kamarini yechib, gimnastyorkasini tekislab, boshqatdan bog'lab oldida, atrofni ko'zdan kechirdi, tepalikda o'tirgan bolalarga ko'zi tushib, ularni yoniga chaqirdi. Seryoja bilan Taras yugurganlaricha pastga tushib, bir zumda soldatga ro'para bo'ldilar, oldinma-ketin salom berdilar. Yuzlari qop-qorayib ketgan, soqol-mo'ylovlari o'sgan, ko'zlari ich-ichiga tushib, qizargan qovoqlari salqilashgan shofyor yigit bolalarning yoqimtoy salomidan chehrasi yorishib kuldi, oppoq tishlari yarqirab ko'rindi.

– Salom, – dedi u bolalarga bir-bir tikilib qo'lini uzatarkan.

Seryoja bilan Taras ham shofyorning boshidan-oyog'igacha ko'z yugurtirib chiqishdi. Egnidagi terga botgan gimnastyorkasi, eskirib ketgan botinkasi va obmotkasini, kir bosgan pilotkasini ko'rib ham taajjublandilar, ham soldatga rahmlari keldi.

– Qishloqning nomi nima? – so'radi shofyor bolalarga mamnun iljayib. Uning sadafdek tishlari qorayib ketgan yuzlariga yarashib turardi. Seryoja oldinga bir qadam tashlab, faxrlanib javob berdi:

– Beryozovka!

– Yesinlarning uyi ham shu qishloqdami?

Dadil turib, mag'rur javob bergan Seryojaning boshi shilq etib tushdi, yerga qarab qoldi, gavdasiam bukchaygandek bo'ldi.

– Yesinlar? – Negadir qaytarib so'radi u.

– Yesinlarning uyi birinchi bombardimondayoq yonib ketgan, – dedi Taras va u ham xomushlanib boshini quyi soldi.

Shofyor chekkalaridan, bo'yinlaridan oqib tushayotgan terni ro'molchasi bilan artib, sumkasidan ikkita xat oldi, birining adresini o'qidi:

«Beryozovka, Anna Vladimirovna Yesinaga» deb yozilgan edi. Xatni o'qidi-yu, boshlarini quyi solib turgan bolalarga o'ychan tikilib qoldi. Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Bolalarning ma'yus va g'amginligidan taajjublangan va bu holat bejiz emasligini fahmlagan shofyor muloyimlik bilan so'radi:

– Anna Vladimirovnani taniysizlarmi?

Seryoja bir seskanib tushdi, tishlarini shunday qattiq bosdiki, g'ijirlaganini o'zi eshitdi.

– Seryojaning onasi... – dedi Taras unga yaqinlashib, – bombardimon vaqtida halok bo'lgan, aytdim-ku, uylari ham yonib ketgan.

Shofyor darhol boshidan pilotkasini olib, panjalari orasida g'ijimlaganicha Seryojaning oldida boshini egib bir zum turib qoldi, keyin unga chuqur ta'ziya bildirdi.

– Meni kechir, Seryoja, kechir do'stim, – dedi shofyor ma'yus ohangda va bir nafas sukut saqlab qoldi.

Shundagina Seryoja soldatning talaffuzi boshqacha ekanligini payqab qoldi.

– Bilasanmi, Seryoja, – dedi soldat so'zida davom etib, – dadang komandirlik qilgan o'qchi batalyon chegaradan boshlab jang qilib keldi, bundan uch kun muqaddam esa qurshovga tushib qoldik. Qurshovdan chiqdig-u, qulay marrani egallab, yana jangga kirdik. Dadang meni o'q-dori olib kelishga yubordi va yo'l-yo'lakay Beryozovka yaqinida bo'lishimni bilib, xabar olib o'tishni so'ragan edi... Men Omonov bo'laman. Familiyam Omonov, – dedi soldat xatni qanday tutqazishni bilmay.

– Siz tatarmisiz? – so'radi Taras.

– Yo'q, og'ayni, o'zbekman.

– Meni ham olib keting, o'rtoq Omonov, iltimos qilaman, yolvoraman, – shofyorning o'ng qo'lidan ushlab olgan Seryojaning iltijoli ko'zlari jiqqa yosh edi. Omonovning bardoshi yetmadi, bolaning ko'zlariga tik qarolmadi, o'zini zo'rg'a bosib, boshini quyi solganicha vazminlik bilan so'radi:

– Qayoqqa olib ketay?

– Dadamning oldiga.

– Dadamning? Axir u oldingi marrada, ajal yomg'iri yog'ilib turgan o't-olov ichida jang qilyapti-ku!

– Mayli, dadamga yordam qilaman.

– Nima bilan? Seryoja, do'stim! Oldingi marrada kecha-yu kunduz otishma, portlash, jang tinmaydi, juda xavfli, do'stim.

– Siz uchun, dadam uchun, jangchilarimiz uchun xavfli emasmi?

– Juda xavfli, biroq... – U Seryojaning sap-sariq jingalak sochlarini siypalab erkaladi.

– Sog‘inib ketganimni bilsangiz edi... – u ho‘ngrab yig‘lab yubordi, Omonov uni qancha yupatsa ham bo‘lmadi, boshini shofyorning ko‘kragiga qo‘yib piqillab yig‘lashda davom etdi. Omonovning unga rahmi keldi, yuzlaridan o‘pib:

– Undan ko‘ra mana bu xatni o‘qi, Seryoja, dadangdan!

– Dadamdan?.. – u xatni oldi-yu, shofyorning chang va ter bosgan yuzlaridan qayta-qayta o‘pdi va battarroq unga yopishib, dadamning oldiga olib ketasiz, deb qattiq turib oldi.

– Menga qaranglar, do‘stlarim. Birpasgina sizlarnikiga kirib chiqay. Bir oz vaqt bor, bu yoqda tomog‘im ham qaqrab ketdi, – dedi soldat.

Omonov Seryoja bilan Tarasni mashinasiga o‘tqi-zib oldi. Ular Misha bobonikiga kelishdi. Tabiatan ser-mulozamat Misha bobo Omonovni ochiq yuz bilan kutib oldi, mehmon qildi. Dasturxon ustida ular uzoq otamlashib o‘tirishdi. Omonov frontdagi ahvol, qurshovdan chi-qishdagi qaqshatqich, dahshatli janglar to‘g‘risida, o‘z komandiri kapitan Yesinning mahorati va jasorati haqida gapirib berdi. Misha bobo ham, Ivan Ivanovich ham uni savolga tutib, frontdagi ahvolni chuqurroq bilib olishga intilishardi. Misha bobo soldatning ko‘zlarida o‘g‘lini ko‘rayotgandek, so‘zlarida ovozi eshitayotgandek haya-jonda edi-yu, sezdirmasdi.

Suhbat davomida kekxa o‘qituvchi Omonovning hara-
katlari, gapirishlari, rus tilidagi talaffuziga zimdan razm
solib o‘tirdi. Qoramag‘izdan kelgan yuzlari, kulganida
yarqirab ketadigan, bir tekis sadafdek tishlari, qop-qora
quyuq qoshlarining chimirilishi, chaqnagan ko‘zlaridagi
ziyraklik – bular hammasi unga o‘zining yigitlik davrini
eslatardi. Sherobod cho‘llarida, yozning holdan toydiruvchi
jaziramasida, Boysunning tog‘ oralarida o‘tgan suronli
yillar, xuddi shu yigitga o‘xshagan issiq yuzli o‘zbek,
tojik jangovar do‘stlarining samimiyligi, odamgarchiliklari

birma-bir ko'z oldidan o'taverdi. Bu yigit ham o'sha tomonlik, Qayroqsoy suvini ichib, Boysun tog'larini kezib katta bo'lganligi ko'rinib turibdi, familiyasi ham aytib turibdi, bunisiga shubha qilmasdi Ivan Ivanovich. Ammo hali bu to'g'rida gap ochgani yo'q, «avval front ma'lumotlarini bilib olay, shunisi muhim...» degan xayol bilan o'zini bosib o'tirardi. O'qituvchi yana shuni ham yaxshi bilardiki, soldat dam olgani yo sayrga kelganmas, vaqti ziq bo'lishi kerak. Xuddi o'ylaganidek, yigit bezovta bo'la boshladi, qariyalarning hurmatini saqlab, buni sezdirmaslikka urinardi-yu, ko'zlarining bejoligi bildirib qo'yardi. Ivan Ivanovich darrov buni ilg'ab oldi.

– O'g'lim, aybga qo'shmaysiz, ismingizni so'ramadim-a?

– Boboyor.

– Shoshmang, shoshmang, – o'qituvchi bir narsa esiga tushganday ko'zlarini yigitga tikkancha xotirlay ketdi. Misha bobo ham, bolalar ham unga qarab qolishdi, – bu, bobo deganingiz buva deyilganimidi?

– Ha, otaxon. Qayoqdan bilasiz? – qiziqdi Omonov.

Bolalar «o'qituvchimiz shunaqa, bilag'on» degan ma'noda faxrlanib bir-birlariga qarab olishdi.

– Mabodo Qayroqsoydan emasmisiz?

– Topdingiz, – soldat taajjubda edi.

– Yor degani, bu haligi, hah... Tilimning uchida turibdi-ya...

– Yor degani, – tushuntira ketdi Omonov, – panoh, hamroh, murabbiy bo'lsin degani ekan. Bolaligimda buvimlar shundoq derdilar. Bobong hamisha sening panohing, hamrohing, murabbiying bo'lsin deb shunday nom qo'ydik degandilar. Bobomlar haqiqatan ham shunaqa odam edilar.

– Ehtimol, bobongni uchratgandirman, – dedi Ivan Ivanovich. – Taqdirlarimiz bir-biriga o'xshab ketadi.

– Demak, biz tomonlarda bo‘lgan ekansiz-da? – so‘radi Omonov.

– Iy-ye, bo‘lganda qandoq, o‘g‘lim, jang qilganman, jang. Qayroqsoy ham, Boysun ham esimda...

– Bobomlar olamdan o‘tdilar, bu kunlarni ko‘rish nasib qilmadi u kishiga, – dedi Omonov. – Bundan chiqdi, siz bobom bilan birga bo‘lgansiz, bobomning quroldosh do‘stisiz, bu degan gap o‘zbeklarning do‘stisiz. Sizni bobo desam maylimi?

Ivan Ivanovich peshonasini tirishtirib, unga tikilib qoldi. Esiga tushgandek bo‘ldi.

– Haqiqatan ham, Omonovni bilardim. Otliq askarlar polkida Omonov bor edi. Ismlari nima edi? Rahmat emasmi?

– Topdingiz, Rahmat, – dedi tag‘inam taajjubi ortib Omonov.

– Ana xolos, o‘g‘lim ekansan-ku, asli... – Ivan Ivanovich hayajon ichida Boboyorning oldiga keldi: – Qani, o‘g‘lim, bir bag‘ringa olay-chi, – o‘qituvchi Boboyorni qattiq quchoqlab, yuzlaridan o‘pdi, – qaranglar, mana bu uchrashuvni qaranglar, antiqa-a?... – derdi xursand bo‘lib Ivan Ivanovich Boboyorni quchog‘idan bo‘shatarkan. Yuzlari yonib, ko‘zlari chaqnagan Boboyor gimnastyorkasini, kamarini tekisladi, pilotkasini kiydi, qariyalarga chest berib, qovoqlari uyulgan holda jiddiy:

– Otaxonlar, ketishga ruxsat beringlar. Ortiqcha qolishga haqqim yo‘q, – dedi-da, avtomatini yelkasidan o‘tkazib oldi.

– Barakalla, azamat! – dedi Ivan Ivanovnch. «Barakalla» so‘zini u o‘zbekcha aytgan edi, Boboyor beixtiyor o‘qituvchini yana quchoqlab oldi. Bu gal uning ko‘zlari yoshlandi. O‘pkasi to‘lib keldi. Bolalar ham, Misha bobo ham qanday so‘z aytil-di-yu, nega soldat ko‘ziga yosh olganini bilisholmadi.

Boboyor qariyalar, Seryoja va Taras bilan birma-bir xayrlashib, tashqariga chiqdi.

Ivan Ivanovich Omonovning orqasidan qarab qolarkan, xayol surib ketdi: «Mana, nevaralik ham, yo‘g‘-ye, o‘g‘illik ham bo‘ldim. Butun umrimni bolalarga bag‘ishlagan bo‘lsam ham, bo‘ydoq o‘tdim. Yoshligimda uyulanmadim, keyin bo‘lsa ish-ish-ish... O‘qituvchilik kasbiga boshlab kelgan narsa ham ana shu farzand orzusi emasmi, aslida. Befarzandman deyishim ham judayam to‘g‘rimas. E-ha, qanchadan qancha o‘quvchilarim qayerlarga tarqalib ketgan. Bu yoqda mana Boboyor Omonov...»

Ko‘chadan Ira yugurib keldi, dadasining oldidan kelgan soldatni ko‘rolmaganidan xafa bo‘ldi.

– Mana xatlar, – dedi Seryoja. – Hozir o‘qib beraman. Bunisini oldin o‘qisam maylimi?

U onasi nomiga yozilgan xatni ko‘rsatdi.

– O‘qiyver, o‘g‘lim, o‘qiyver, – dedi Misha bobo. – Hechqisi yo‘q, o‘z onangniki...

«Anechka, azizim! – o‘qirdi Seryoja. – Uzoq vaqt xat yozolmaganim uchun meni kechir. Hozir ahvolim yaxshi. Juda og‘ir janglar bo‘lib o‘tdi...»

Seryoja onasiga yozilgan xatni oxirigacha o‘qib chiqdi.

Oraga og‘ir sukunat cho‘kdi. Ira piq-piq yig‘lardi.

Nihoyat, Misha bobo dedi:

– Afsuski, bu xushxabarni eshitish Anechkaga nasib qilmadi. Nachora... O‘qi, o‘g‘lim, ikkinchisini o‘qi.

«Dada, Irochka, Seryoja! Omon-eson yuribsizlarmi, azizlarim? Hozirda butun front bo‘ylab juda og‘ir janglar bo‘lmoqda. Vaziyat juda og‘ir. Men qo‘mondonlik qilayotgan batalyon chegaradan boshlab jang bilan, dushmanga qaqshatqich zarbalar berib, chekinib bormoqda. Dushman bosib olgan ona yurtimizning har bir qarichi evaziga katta talafotlar ko‘rmoqda. Jangchilarimiz ichida ko‘pni ko‘rgan tajribali kishilar ham, kechagina chaqirilgan qalbi olov yoshlar ham bor, ammo hammalari jon olib, jon

berib, jonajon mamlakatimizni himoya qilmoqda. Jangchilar orasida ruslar, o'zbeklar, ukrainlar, tatarlar, yoqutlar, moldavanlar bor – xullas, internatsional batalyon!

Ha, Vatanimiz boshiga og'ir kunlar tushdi. Dushman kuchli va beshafqat, ahmoq emas, ammo makkor, shunday bo'lsa ham bari bir biz undan kuchlimiz, chunki bizning ishimiz haq ish, biz o'z jonajon ona yerimiz bag'ridamiz, uni ko'z qorachig'iday sevamiz, ardoqlaymiz.

Bizlar bilib turibmizki, front orqasida ham xalqimiz front uchun, g'alaba uchun jonini fido qilib, mardonavor mehnat qilmoqda. Ana shu xalqning kichik bir qismini tashkil etgan sizlar, azizlarim, Vatanning eng yuksak talablariga loyiq bo'lasizlar, albatta! Bunga ishonchim komil, sizlardan ko'nglim to'q.

Hammalaringni o'pib, bag'rimga bosaman».

Seryojaning dadasi urush boshlanishidan bir yil burun Qizil Armiyaga chaqirilgan edi. Armiyagacha u Beryozovkada Kalinin nomli kolxoz agronomi bo'lib ishlardi. Qirq birinchi yilning iyun oyigacha undan tez-tez xat kelib turardi, urush boshlangandan keyin mana bu uning ikkinchi xati edi. Birinchi xat iyul boshlarida Kaunas ostonalaridan kelgan edi.

Xat o'qilib bo'lgach, oraga og'ir jimlik cho'kdi. Har kim o'z xayoli bilan band edi.

– Dadalaring bilan faxrlansanglar arziydi, bolalarim! – dedi Ivan Ivanovich. – U haqiqiy inson, haqiqiy jangchi, haqiqiy vatanparvar! Hamqishlog'imiz Qizil armiyaning munosib komandiri bo'lib yetishibdi...

Ivan Ivanovich shu so'zlarni aytarkan, Taras boshini quyi egib o'tirganini ko'rib, unga rahmi keldi.

O'qituvchi o'rnidan turdi, hammalariga qandaydir tantanavor nazar tashlab oldi-da, birdan she'r o'qiy boshladi:

Tongda meni uygʻot ertaroq,
Mehribonim, munis, onajon!
Men yoʻllarga koʻz tutay mushtoq,
Bizning uyga kelmoqda mehmon.

Oʻrmon ichra bugun, onajon,
Gʻildirakning izlarin koʻrdim.
Yellar uni aylab zar kamon
Tortqilagan kezlarin koʻrdim.

Erta tongda mehmon keladi
Oy – qalpogʻin boshga qoʻyib dol.
Uchqur oti ravon yeladi,
Kokillari tovlanadi ol.

Meni sahar uygʻot, onajon,
Chiroqlarni yoqib qoʻy hozir.
Deydilarki, boʻlmogʻim ayon
Rossiyada shuhratli shoir...

– Esingdami, Seryoja? – soʻradi u.

– Esdan chiqarmidi bu, Ivan Ivanovich.

...Bundan ikki yil burun maktab klubida Ulugʻ
Oktabrning shonli 22 yilligi munosabati bilan boʻlgan
tantanali majlisda oʻquvchilar, oʻqituvchilar, ota-onalar
qatnashgan edi. Majlis oxirida maktab havaskorlari
katta konsert koʻrsatishdi. Konsertda Seryoja Sergey
Yeseninning «Tongda meni uygʻot ertaroq» sheʼrini
berilib, ovozini goh balandlatib, goh shivirlaganday
pasaytirib ifodali oʻqib berdi. Sahnaning oʻrtasida
turib, boshini baland koʻtarib, satrlar maʼnosiga qarab
harakat qilishlari – goh iljayib, goh jiddiylashib, goh
yorishib, goh siltanib qoʻllarini balandga koʻtarishi,

qulochkashlab, keyin bag‘riga olayotgandagi harakatlari butun zalni o‘ziga mahliyo qilib qo‘ygandi. Shu zaylda hayajon bilan o‘qilayotgan she‘rning oxirgi satrlari ayniqsa ta’sirli jarangladi.

Seryoja she‘rni tugatdi-yu, zalda gurr etib ko‘tarilgan qarsak sadolaridan gangib qoldi, qarsak hadeganda bosilmadi, qiy-chuv, hatto qichqirgan, hushtak chalgan ovozlar eshitildi. Anchagacha o‘ziga kelolmagan Seryoja «qochib qutulmasam bo‘lmaydi» dedimi, har qalay, birov quvlagandek chopqillab sahnadan tushib ketdi. Uning bu harakati gurr kulgi ko‘tardi, dadasi bilan onasining o‘rtasiga kelib o‘tirganda ham zal tinchimagan edi. Shu-shu bo‘ldi-yu, uni maktabda ham, qishloqda ham Sergey Yesin emas, «Sergey Yesenin» deb chaqiradigan bo‘lishdi.

– Durust, esingdan chiqmabdi, Sergey Yesenin!.. – kulib qo‘ydi Ivan Ivanovich.

– Menga mana bu she‘r ko‘proq yoqadi...

Hey Rus, o‘lkam, onajon,
Poxolli uy, tokcha, but...
Qayga boqma – yo‘q poyon,
Ko‘zni emar moviy yurt.

Misli sayyoh bir dindor
Sig‘inaman dalangga.
Teraklaring jarangdor
Qurir tegra – yalangda.

Sochar olma, bol bo‘yin
Cherkov aro ayyomlar.
Yonbag‘irda raqs, o‘yin,
Qo‘shiq tinmas oqshomlar.

So'qmoqlarda bor yalang –
Oyog'imning izlari.
Sirg'asidek serjarang
Kular dala qizlari.

Tabarruklar desa: «Bas –
Jannatni ol, Rusni ber».
Deyman: «Jannat kerakmas,
Menga kerak ona yer!»

– Yaxshi she'r, – ma'qulladi o'qituvchi. – Mana bu satrlarni bilasanmi?

Shoir bo'lsam deyman
Ham grajdanin,
Faxr, o'rnak bo'lgudek
Elning bariga.
O'gay o'g'il emas,
Farzand bo'lsam chin,
Men buyuk SSSR shtatlariga.

– Yo'q bilmayman, – dedi Seryoja va qo'shib qo'ydi. – Yeseninning she'rlari yaxshi.

– Yoshligida, – dedi Ivan Ivanovich, – Yesenin sho'x va urishqoq bo'lgan deyishadi. Sizlarning o'rtalaringdagi farq ham shunda bo'lsa kerak, Seryoja. Sen boshqachasan...

– Nima, yomonmi? – uyalinqirab so'radi Seryoja.

Ivan Ivanovich javob berib ulgurmasdanoq, tashqaridan Iraning qichqirgan ovozi eshitildi.

Maktabimiz yonyapti!

Hamma eshikka chiqdi. Ivan Ivanovich bilan Misha bobo katta-yu kichik qishloq aholisini o't o'chirishga chaqirdi. Ular maktab tomon yugurdilar. Seryoja bilan

Taras hovlidagi paqirlarni ko'tarib chopishdi. Ular qarsillab yonayotgan maktab binosiga yetib borishganda, kattalar va qishloq bolalari ham yig'ila boshlashgan edi. Misha bobo ularni yonma-yon turg'azib daryo qirg'og'iga tushirdi. Bir necha daqiqa ichida daryo bilan maktab o'rtasida ikki qator bolalar tizmasi paydo bo'ldi. Daryodan to'ldirilgan paqirlar qo'lma-qo'l uzatib turildi. O'tga suv sepish ishini kattalar bajarar, bo'shagan paqirlar ikkinchi qatordagi bolalar qo'lidan o'tib, ko'z ochib-yumguncha daryo bo'yiga yetib borardi.

Ivan Ivanovich kasalini ham, yarasini ham unutib o't o'chirardi. Misha bobo bo'lsa «tezroq-tezroq» deya baqirib-chaqirib hammani shoshirar, g'ayratga solardi.

O't o'chirishda yuzdan ortiq kishi qatnashdi, lekin olov chekinmasdi.

Yana samolyotlarning g'uvillagan ovozi eshitildi.

– Kelishyapti, la'natilar! – dedi kimdir. – Qani, tez yerga yotib olinglar.

Sharq tomon uchib o'tgan samolyotlar orqalariga qayta boshladi. Endi ular qishloq ustiga kelganda pastlab, o't o'chirayotgan odamlar ustiga pulemyotlardan o'q yog'dirardi. Bu safar ularning orqasidan birorta ham samolyotimiz quvib kelmadi. Qo'li-qo'lga tegmay o't o'chirayotgan, fikri-xayoli osmonda bo'lgan Seryoja bu holatni sezdi va ich-ichidan o'rtanib ketdi, alamini o'tdan olmoqchiday paqirlab suv separdi, o't o'chirishdan to'xtamasdi.

Yong'inni o'chirish anchagacha davom etdi. Ivan Ivanovich peshonasidan oqib tushayotgan terini artishga ham darmoni yetmay, Seryoja to'ntarib qo'ygan paqirning ustiga o'tirdi. Shu paytda pastdan, daryo tomondan Iraning chinqirgan ovozi eshitildi:

– Taras o'lyapti!

Ranglari o'chib ketgan, charchab holdan toygan Ivan Ivanovich sapchib o'rnidan turib ketdi, Seryojaga dedi:

– Yugur bolam, yordam qil!

Seryoja shamolday uchib pastlikka tushib ketdi, bir zumda hushidan ketgan Tarasning yonida paydo bo'ldi. Pulemyotlardan yomg'irday yog'gan daydi o'qlardan biri Tarasning kuragini teshib, ko'krigidan chiqib ketgan edi. Iraning aytishicha, u o'q tegishi bilanoq qum ustiga o'tirgan-u, ko'zlari pirpirab, boshi chayqalib turgan-da, shilq etib orqasiga yiqilgan va hushdan ketgan. Yonida turgan Ira jon holatda yuzlariga suv sepsa ham Taras ko'zlarini ochmagan. Shundan so'ng qo'rqib ketgan qiz ovozinig boricha yig'i aralash «Taras o'lyapti!» deb chinqirib yuborgan.

Uning tepasiga yig'ilgan bolalarning ham, kattalarning ham ko'zlarida qahr-g'azab yoshi yiltirab turardi. Misha bobo bilan Ivan Ivanovich darhol yetib kelishdi, Tarasni ehtiyotlik bilan ag'darib ko'rishdi, u ikki joyidan yaralangan edi – biri o'ng kuragining ostida, ikkinchisi ko'kragida edi.

– Bilasanmi, o'q suyakka tekkanga o'xshaydi – orqasidan kirib, ko'krigidan teshib chiqibdi, – dedi Ivan Ivanovich.

Misha bobo darhol ustidagi oq ko'ylagini yechib, keng-keng tasma qilib yirtdi. O'qituvchi ko'ylak parchasi bilan qon ketishini to'xtatishga urindi.

– Attang, nashatir bo'lganda edi! – dedi Ivan Ivanovich.

– Yod kerak, – qo'shib qo'ydi Misha bobo. – Hech kimda yo'qmi?

Kimdir qishloqqa chopib ketdi. Bir necha daqiqa o'tmasdan paxta ham, yod ham, nashatir ham topib kelishdi. Ira nashatirli paxtani Tarasning dimog'iga tutgan edi, u seskanib ketdi.

– Og'riyaptimi? – so'radi Ira.

Taras javob o'rniga qattiq ingrab qo'ydi.

– Chida, Tarasik!

Ivan Ivanovich Tarasning bo'ynidan ushlagan holda:

– Misha, – dedi u do'stiga, – sen gavdasini ko'tarib tur, men yarasini bog'layman, qon ketishini to'xtatish kerak.

Keyin Misha bobo Tarasni ko'tarib oldi va hammalari qishloqqa yo'l tutdilar.

– Tarasni birontamiz olib ketganimiz ma'qul. Onasi og'ir kasal-ku, ko'tarolmaydi.

– Bilaman, – dedi Misha bobo. – Menikida bo'ladi.

Uyga yetib kelgach, Tarasni yaqindagina Ivan Ivanovich yotgan karavotga yotqizishdi.

– Qutlug' joy, – hazillashdi Misha bobo. – Lekin hech bo'lmaganda feldsherni topish kerak. Yarasi og'ir.

Ira feldsherni qidirib ketdi.

Taras sabr-toqat bilan og'riqqa bardosh berar, faqat: «Hozircha oyimga aytmanglar», deb iltimos qilardi.

Ko'chaga qo'shnilar yig'ilishgan, ba'zilar vahima ichida oynadan mo'ralab qarashardi. Ular boshlarini quyi solib, shunday bir shikasta motamsaro holatda turardilarki, ularga befarq qarab bo'lmasdi.

Tarasning sog'lig'i to'g'risida qayg'urish ularni bir jon, bir tan qilib jipslashtirgan edi. Bu hol kekxa o'qituvchini qattiq hayajonga soldi, to'lqinlantirib yubordi.

Ira feldsher Matvey Semyonovichni boshlab keldi.

– Men asli veterinarmen, – dedi feldsher, – mayli, qarab ko'ray-chi.

U Tarasni sinchiklab ko'rdi, yaralarini yana tozalab, yangidan bog'ladi.

– Tuzalib qolar deb o'ylayman. Yarasi og'ir-ku, lekin xavfli darajada emas.

Ivan Ivanovich bu xabarni ko'chada turganlarga aytdi. Shunda temirchining uyi oldida o'z-o'zidan yig'in boshlanib

ketdi. Odamlar qalblaridagi Vatanga muhabbat, fashizmga nafrat hislari haqida soʻzlardilar. Ularni hech kim bu yerga yigʻmagan, chaqirmagan edi. Lekin ular yuraklaridagi hamma gapni bir-birlariga aytib berishni oʻzlarining burchlari deb bilardilar.

Ularning noʻnoq, lekin samimiy soʻzlarida gazetada oʻqilgan, radioda eshitgan gaplar koʻp edi. Baʼzan oʻz soʻzlari bilan ifodalashga ojizlik qilib qolishar va darhol ilgari oʻqigan va eshitgan soʻzlarni takrorlardilar. Ammo qayta-qayta takrorlangan bu soʻzlarda hozir ularning qalb harorati sezilib turar, shuning uchun ham hayajonli va taʼsirli jaranglardi.

Ivan Ivanovich boshqalarning soʻzlarini eshitarkan, oʻzi ham odamlarga, hamqishloqlariga, oʻrtoqlariga nimadir deyishi lozimligini xayolidan oʻtkazardi.

Mana, u soʻz boshladi, hayajon bilan, toʻlqinlanib gapirdi:

– Qadrdon hamqishloqlarim, tengqurlarim, mening aziz va shirin bolajonlarim, bu yerda juda yaxshi gaplarni aytdinglar, Rossiya miqyosida, mamlakat miqyosida olib koʻrganda Beryozovka qishlogʻimiz katta emas, lekin u ham Vatan degan buyuk tushunchani oʻz ichiga oladi. Vatanimiz xavf-xatar ostida va bu xavf-xatar bizning qishlogʻimizga ham yetib keldi. Nemislar qishlogʻimizni bombardimon qilishdi – biz bardosh berdik! Nemislar qonimizni toʻkdi – sabot bilan chidash berdik! Yoʻlimizda qancha qiyinchiliklar, mashaqqatlar boʻlmasin, biz albatta hammasiga sabot bilan bardosh beramiz, dushmani yer bilan yakson qilamiz.

Boya qishlogʻimizga frontdan Boboyor Omonov degan soldat kelib ketdi. Jang maydonidagi hamqishlogʻimiz kapitan Yesindan keltirgan xatni oʻqidik. Ishonchimiz

komilki, bizning jangchilarimiz va komandirlarimiz, shavkatli Qizil Armiyamiz yengilmasdir, jonajon yurtimiz dushman oyog'i ostida qolib, poymol bo'lmasligi yo'lida jonlarini qurbon qilishga tayyor turibdilar.

Hali oldimizda og'ir musibatlar, sinovlar turibdi, kim biladi deysiz, ehtimol dushman bilan yuzma-yuz uchrashib ham qolarmiz. Fashistlar sovet kishisining tabiatini, ma'naviy qiyofasini, metin irodasini bilmadilar. Butun Yevropani zabt etib, g'alaba marshi bilan o'tgan fashistlar bizlarni ham bir zarbda tiz cho'ktirmoqchi, qarshiligimizni sindirmoqchi bo'lgan edilar. Lekin maqsadlariga erishmadilar! Hech qachon erisholmaydilar ham! Bizning xalqimiz oxirigacha kurashadigan va g'alaba qiladigan xalq. Urush olovini yoqqanlarning o'zlari shu olovda kuyib kul bo'ladilar, fashizmning halokati ana shu bo'ladi. Adolatning hukmi, tarixning hukmi shu!

Mening sodiq do'stlarim! Hozir hammamiz urushning beshafqat qonunlari asosida yashayapmiz. Har birimiz har kuni o'zimizdan va boshqalardan: «Front uchun bugun nima qilding? Nemis-fashist bosqinchilari ustidan g'alaba qozonish uchun nima qilding?» deb so'ramog'imiz lozim.

Qani, aziz do'stlarim, ana shu savollarga hamisha oq yuz, pok vijdon bilan javob bera oladigan ishlar qilamiz, haqiqiy sovet kishisi degan nomga loyiq yashaymiz, deb qasamyod qilaylik!

Ivan Ivanovich jim qoldi va shu zahotiyog:

– Qasamyod qilamiz! Qasamyod qilamiz! Qasamyod qilamiz! – degan ovozlar jarangladi.

Beryozovkaliklarning qasamyodi edi bu. Kattalar va yoshlarning qasamyodi edi. Ira bilan Seryoja, Misha bobo bilan Ivan Ivanovichning o'zlari qasamyod qildilar.

Yig'inda bo'layotgan gaplarni eshitib yotgan Taras ichida takrorladi:

– Qasamyod qilaman!

III

Avgust oxirlarida ham frontda ahvol og'ir edi. Nemis-fashist qo'shinlarining hujumiga javoban bizning G'arbiy front qo'shinlarimiz dushmanning «Markaz» gruppasiga qarshi aktiv jang harakatlarini boshlab yubordilar. G'arbiy Dvina daryosining boshidan to Smolensk oblastidagi Yartsevo shahrigacha bo'lgan masofada 19, 24 va 30-armiyalarning qo'shinlari 9-nemis armiyasining yon tomonidan zarbalarni kuchaytirib yubordilar. Dushman Yartsevo yaqinidagi Vop daryosining sharqiy qirg'og'i bo'ylab kuchli mudofaa inshootlari barpo etdi.

Dushman o'z qo'shinlarini qaytadan gruppalab olgach, 22 va 29-armiyalar qo'shilgan joyga qattiq zarba berdi. Velikiye Luki rayonini mudofaa qilayotgan qo'shinlarimizning orqa tomoniga o'tishga urindi, 22-armiyaning asosiy kuchlarini qurshab olishga muvaffaq bo'ldi. 29-armiya qo'shinlari ham chekindilar.

Sovet Oliy Bosh Qo'mondonligi G'arbiy front, Rozerv va Bryansk fronti qo'shinlari oldiga aktiv mudofaa janglari olib borish va sentabrning boshlarida qarshi hujumga o'tishga tayyorlanish vazifasini qo'ydi.

Bari bir nemislar Beryozovkaga yaqinlashib kelardilar.

Rayonda tashkil etilgan partizan otryadi o'rmonlarga kirib ketgan edi. Evakuatsiyadan qolgan qoramollar, oziq-ovqat, ilgari harbiy komissariat va militsiya ixtiyorida bo'lgan qurol-yarog'lar ham o'sha joyga jo'natildi. Rayon partiya komiteti otryad uchun anchagina yangi qurol-yarog'lar ham oldi.

Kalinin nomli kolxoz raisi Shaxov partizanlar otryadining komandiri qilib tasdiqlandi. U Xalxin-Goldagi urush qatnashchisi, «Jasorat ko'rsatgani uchun» medali bilan mukofotlangan. Konstantin Petrovich rais qilib saylanganidan keyin kolxozni, ayniqsa, chorvachilikni rivojlantirishda yaxshi natijalarga erishdi. Shu yutuqlari uchun ferma qirqinchi yilda Moskvada, Qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida birinchi mukofotga sazovor bo'ldi. O'shanda Shaxov Lenin ordeni bilan taqdirlandi.

Bir safar kechki payt Seryoja bilan Irani to'satdan qishloq sovetining sekretari Fedotovning uyiga chaqirib qolishdi.

Seryoja ham, Ira ham Vasiliy amakini yaxshi bilishardi. Butun qishloqqa taniqli odam u. Sekretarligidan ham ko'ra grajdanlar urushida qatnashganini, yosh Sovet hokimiyatini himoya qilishda fidoyilik ko'rsatganini ko'proq hurmat qilishardi. Samara yaqinida bo'lgan shiddatli janglarda rotaga komandirlik qilgan kapitan Fedotov og'ir yarador bo'lib, ikki oyog'idan ayrilgan edi. Yog'och oyoqlarda yurardi. Yaqinrog'ida borayotgan odam g'ichirlashidan sezmasa, bilmaganlar yog'och oyoqligini payqamasdi ham. Faqat sal salmoqlab, bamaylixotir odimlayotganday qadam tashlardi, xolos. Ammo o'zi serg'ayrat, har qanday ishni tez bajarar, shoshib-shoshib gapirardi. Yoshi ancha joyga borib qolgan bo'lsa ham, qop-qora jingalak sochlari, qotmadan kelgan yuzlari, hamisha chaqnab va kulib turgan ko'zlari, qolaversa, doim gimnastyorkada yurishi uni ancha yosh qilib ko'rsatardi.

Fedotovning uyida Ivan Ivanovich, kolxoz shofyori Martinov, yana ikki notanish odam o'tirishardi.

– Chaqirtirgan ekansiz, Vasiliy amaki, keldik, – dedi dadil Seryoja.

– Barakalla! – dedi keskin va shiddatli ohangda Fedotov va stoldagi shamni qo'liga olib, bolalarga yaqinlashdi.

– Xo'sh, partizan bo'lishni xohlaysizlarmi?

Seryoja qo'qqisidan berilgan bu savolga nima deb javob berishini bilmay, oldiniga Iraga, keyin Ivan Ivanovichga qaradi. Bir daqiqalik sukunat orasida aql-hushini yig'ib olgach, yoqasining tugmasini solib, o'rnidan turib javob berdi.

– Xohlaymiz!

– Barakalla! Shaxov bilan aloqa bog'lashimiz zarur. Sizlar anchadan buyon jangga otilib turibsizlar deb eshitdik, ayniqsa sen, Seryoja. To'g'rimi?

– Ha, – ma'qulladi Seryoja.

– Sizlarga bir topshiriq bermoqchimiz. Lekin oldin vaziyatni tushuntirib beray, – dedi Vasiliy amaki. – Nemislar yaqinlashib qolishdi. Ehtimol, uncha-munchasi atrofimizdagi o'rmonlarni oralab ham yurgandir. Shaxovni bilasizlar, albatta?

– Bo'lmasam-chi! Bilamiz! – deyishdi bir ovozdan Ira bilan Seryoja.

– Shaxov ham o'zining odamlari bilan o'rmonda. Mana, xaritaga qaranglar, – dedi u xaritani Seryojaga yaqinroq surib. – Taxminan mana shu joyda. Shaxovni topishingiz kerak.

– Tushunarli, – deyishdi aka-singil baravariga.

– Kechasi emas, azonda yo'lga chiqinglar, kechasi adashib qolishlaring mumkin, – so'zida davom etdi Fedotov. – Topshiriq haqida hech kimga lom-mim demanglar. Nemislarga duch kelib qolgudek bo'lsalaring, yo'qolgan sigirimizni qidirib yuribmiz, denglar. Tushunarlimi?

– Tushunarli! – dedi Ira.

– Xuddi shunday! – harbiychasiga raport berdi Seryoja.

Ular tashqariga chiqib, qorong'i qo'yniga sho'ng'ib ketishdi. Yonma-yon borisharkan, deyarli gaplashishmasdi-yu, bari bir o'y-fikrlari bitta edi: sadoqat, safarbarlik, metindek iroda. Shu xayollar bilan uyga yetib kelishdi.

– Qayoqda yuribsizlar? – so‘radi Misha bobo. – Taras bilan biz sizlarni poylab o‘tiribmiz...

– Shunday, o‘zimiz... – deya noaniq javob qildi Seryoja. Ira kela solib, kechki ovqatga unnab ketdi.

Bir narsani sezdi shekilli, nevarasini boshqa gapga tutmadi bobo.

– Ahvoling qalay? – so‘radi Seryoja Tarasdan.

– Yaxshimas, hadeganda turib ketolmasam kerak. Boshim aylanadi, – iqror bo‘ldi Taras. – Hozircha biron topshiriqni bajarishga holim kelmas, deyman.

«Bizga topshiriq berilganini qayoqdan bilibdi? – hayron bo‘ldi Seryoja. – O‘zicha aytdi-qo‘ydimi yoki menga shunday tuyuldimi?..» – deya xavotirlangan edi, Taras boshqa narsa haqida gap boshlagandan keyingina ko‘ngli joyiga tushdi.

Ira dasturxon yozdi.

– Stolga o‘tirasanmi yo oldingga olib borib beraymi? – so‘radi u Tarasdan.

– O‘zim, – dedi Taras va qiynalib karavotdan tushdi. Uning rangida rang qolmagan, nimjon edi, oyoqlari qaltirardi. Ira darhol uni qo‘ltig‘idan suyab, stulga o‘tqizarkan, bolalarning bir-biriga mehribonligini ko‘rgan Misha boboning ko‘ngli ancha ko‘tarildi.

– Svodkani eshitdingizmi, buva? – so‘radi Seryoja.

Ularning uyida radio yo‘q edi, Misha bobo radio eshitgani qo‘shnilarnikiga chiqib turardi.

– Eshitdim, aytarlik gap yo‘q, o‘zgarishsiz, – dedi u. – Artilleriya gumbur-gumburi esa borgan sayin yaqinlashib kelyapti. Ayniqsa, ertalab va kunduzlari ko‘p gumburlaydi. Yo nemislar kechasi jang qilishdan cho‘chisharmikan? Nima deysizlar?

– Bilmadim, – iqror bo‘ldi Seryoja.

– Esimda bor, grajdanlar urushida kechalari jang bo‘lmasdi, – so‘zida davom etdi Misha bobo. – Bo‘lsa ham

kamdan kam, ko'pincha dushman kechalari dam olar, aftidan kuch yig'ardi...

– Hozirgi urush unaqa bo'lmasa kerak, – gapga aralashdi Ira.

– Ha, bu urush hamma urushlardan ham og'ir bo'ladiganga o'xshaydi, – Misha bobo qaddini zo'rg'a ko'tarib o'rnidan turdi. – Qani, endi uxlash kerak, allamahol bo'ldi.

Lekin Seryoja ham, Ira ham qattiq hayajonda edilar. Uyqu kelmadi, tong otguncha mijja qoqmay xayol daryosiga g'arq bo'ldilar. Tong yorishishi bilan o'rinlaridan turdilar. Misha boboni, ingrab-ingrab uxlayotgan Tarasni va tun yarmidan og'ganda qaytib kelgan Ivan Ivanovichni uyg'otib yubormaslik uchun oyoq uchida yurib, ohistagina uydan chiqib ketdilar.

– Xaritada ko'rganlaringni eslab qoldingmi? – so'radi Ira.

– Bo'lmasa-chi! – tasdiqladi Seryoja.

Avgust oyining oxiriga kelib kunlar haddan tashqari qizib ketdi. Atrofdagi botqoqlar qurigan, yaqindagina chaqaverib hammaning joniga tekkan chivinlar ham yo'qolgan. Oy bo'yi bir tomchi ham yomg'ir yog'madi.

Bugun ham quyosh o'rmonlar orqasidan olov sochib chiqdi. Daraxtlarning so'lg'in barglari ma'yuslik bilan boshlarini quyi solib, sekin-sekin shitirlardi. Ivan Ivanovichning uyi, maktab, yana dushman bombasidan yonib ketgan bir necha uy o'rnida qolgan kultepalar qorayib ko'zga tashlanardi. U yer-bu yerdagi maysalar, o'tlar sarg'aygandi. Issiqdan hatto daryo bo'yidagi qiyaliklar ham qovjirab ketgandi. Daryo qirg'oqlari esa sayozlanib, sohil-dagi suvi qaytgan qum ustida qovjiragan suv o'tlari, suv tagidagi to'nkalar qolgandi. Daryoning narigi tomonida, balandlikda quriy boshlagan ingichka qiyoy tikkayib ko'rinar, jigarrang, sariq qamishlar tebranib turardi. Qayin

daraxtlarining osti bemahal to'kilgan hazon bilan qoplangandi.

Seryoja bilan Ira daryo bo'ylab tez-tez yurib borardilar.

– Xursandmisan? – qo'qqisdan so'rab qoldi Ira.

– Nimadan?

– Nimadanmish! Axir, birinchi jangovar topshiriq berildi-ku senga...

– Dadam oldida, frontda bo'lganimda xursand bo'lardim, – dedi keskin ohangda Seryoja.

Haqiqatan ham u, ayniqsa, Omonov bilan uchrashgandan buyon otasiga juda-juda havasi kelardi. Kechalari tushiga otasining batalyoni ishtirok etgan janglar kirar, Seryoja esa batalyon komandirining, Boboyor Omonovga o'xshagan jangchilarning mardligiga qoyil qolardi.

Qishloqda Seryojani hamma muloyim, bosiq, aqlli, mulohazali bola deb bilardi. Aslida u butunlay boshqacha edi. Uning qalbida Yesenin poeziyasiga, Pushkin va Lermontov, Blok va hali uncha mashhur bo'lmagan Isakovskiy she'rlariga bo'lgan havas romantik jasorat bilan qo'shib ketgan edi, lekin uning nazarida bunday jasorat o'tmishda – revolutsiya kurashlari, grajdanlar urushi frontlarida, chegara zastavalarida, Hasan ko'lida va Xalxin-Golda, Kareliya bo'ynida va Ispaniyada bo'lgandek edi. Mana endi o'zingni ko'rsatadigan payt kelganda, yana u emas, uning otasiga o'xshagan ming-minglab kattalar fashistlarga qarshi jang qilmoqda, u bo'lsa o'sha-o'sha Beryozovkasida qolishi kerak. To'g'ri, bu yerda ham osonmas, bombalar va yong'inlar, halok bo'lganlar va yaradorlar... Lekin Seryoja hamisha haqiqiy qahramonlik ko'rsatish mumkin bo'lgan joyda bo'lishni orzu qilardi.

Daryo bo'yidagi yolg'izoyoq yo'l yuqorilab borardi. Mana ular yam-yashil yosh archazor, qayinzor, mevalari

to'kilgan malinazorni kesib, eni ikkita taxtadan iborat eski ko'prik orqali daryoning o'ng qirg'og'iga o'tib, qurib qolgan barglar bilan qoplangan yo'lga chiqdilar. Yo'lda bilinar-bilinmas g'ildirak izlari ko'rindi.

Ira bo'lsa o'zini juda baxtiyor sezardi.

«Axir bu shunchaki topshiriq emas, – o'ylardi u, – partiya topshirig'i. Rayon partiya komiteti endi deyarli yashirin holatda ish olib boryapti. Demak, bizga berilgan topshiriq ham yashirin, ham maxfiy topshiriq, Fedotovning: «Hech kimga lom-mim demanglar!» degani bejiz emas!»

Havo dim. Quyosh ko'tarilgan sari harorati ham kuchayib borardi. Peshin vaqtida esa xuddi Beryozovka ustiga kelib taqqa to'xtaganday, hamma nuri va haroratini shu qishloq atrofidagi o'rmonlarga in'om etganday tuyuldi. Havo xuddi issiq hammomday qizidi. Seryoja ham, Ira ham yura-yura horib-charchashdi. Butun vujudlari terga botgan, ko'ylaklari jalada qolgandek ho'l edi. Kunning issig'idan, havoning dimligidan, haddan tashqari uzoq yo'l bosib holdan ketganliklaridan tillari og'izlariga tiqilib, nafas olmay, ko'zlari tinardi, gandraklab borishardi. Yurish tugul, qimirlashga hollari qolmagan edi-yu, muhim jangovar topshiriqning javobgarligi ularni ushlab, suyab borardi.

Nazarlarida Seryoja ham, Ira ham Beryozovka o'rmonlarini yaxshi bilishardi. Lekin hozir o'rmon ularga boshqacha bo'lib ko'rindi.

– Bu o'rmondan fashist tugul, bo'ri ham qo'rqsa kerak, – dedi Ira.

Quyosh harorati tobora zaptiga olardi. Seryoja bilan Ira birpasgina o'tirib, nafas rostlab olgach, yana yo'lga tushishdi. Sal o'tmay, selgigan ko'ylaklari yana nam bo'ldi, qavarib ketgan oyoqlari endi battar zirqirab og'rirdi. Shunday bo'lsa ham muhim topshiriqni ado etish mas'uliyati g'olib kelardi. Ular o'n kilometrdan ortiq yo'l bosib o'tsalar ham, hali oxiri ko'rinmasdi.

– Adashib qolmadikmi?– tashvishlanib so‘radi Ira.

– Yo‘q, Fedotov xuddi mana shu yo‘lni ko‘rsatgandi, – unga tasalli berdi Seryoja.

– Sen nima deysan, Seryoja, Taras sog‘ayib ketarmikin? – so‘rab qoldi Ira, ular yana dam olishga o‘tirganlarida. Daraxtlarning tepasiga termilib, Tarasning yaralanishini, o‘q tegib, bir zumda shilq etib yiqilganini esladi Ira.

Fikri-zikri, butun vujudi muhim va shoshilinch topshiriqni bajarish tashvishi bilan band bo‘lgan Seryojaning achchig‘i chiqdi.

– Hozir Tarasni o‘ylaydigan vaqtmi?

– Nima-e, shunchaki so‘radim-da.

Ira akasidan xafa bo‘ldi. Oraga jimlik cho‘kdi.

Ko‘p o‘tmay ular yalanglikka chiqishdi. Baland-baland daraxtlar tepasida quyosh o‘zining zarrin nurlarini shu yalanglikka sochib turardi.

– Qara, – xursand bo‘lib qichqirib yubordi Ira.

– Ko‘ryapman, jim!

Seryoja yalanglikda o‘tlab yurgan yag‘rini serjun, yolg‘iz chavkar otni o‘zi ham ko‘rgan edi.

– To‘xta, kuzatish kerak, – dedi Seryoja. – Nemislarniki bo‘lmasin tag‘in?

Ular to‘xtab, katta eman daraxti orqasiga yashirindilar.

Bir minut o‘tdi, ikki minut, lekin hech kim ko‘rinmadi.

– Miyamga bir fikr keldi, – dedi Seryoja.

– Qanaqa fikr? – tushunolmadi Ira.

– Seni otga mindiraman.

– Esing joyidami?

– Oyoqlaringga qara, qavarib ketgan.

– Qavarsa nima bo‘pti!

– Hech nima. Otga minsang ancha yengil bo‘ladi.

– O‘zingning ham oyoqlaring qavargan-ku...

– Men qiz bola emasman.

Shu payt ular otdan ancha narida o'tlab yurgan chavkar toychani ham ko'rib qoldilar.

Seryojaning ko'ngli sal joyiga tushganday bo'ldi. «Kolxoz otlari bo'lsa kerak. Axir otlarimiz hammasi chavkar-ku», deya xayolidan o'tkazdi u.

Birdan daraxt ustida nimaningdir sharpasi eshitildi. Ular qo'rquv aralash yalt etib yuqoriga qaradilar.

Eman daraxtining shoxlari orasida yosh bir yigit o'tirardi. Ira qo'rqqanidan qichqirib yubordi, qizning butun vujudi elektr toki urganday zirillab ketdi. Ko'zini chirt yumib, o'rmalagan holda butalar ichiga kirib oldi.

– Kalamushning o'zi ekansan-ku, – dedi daraxt ustidan sakrab tushgan yigit.

Qaddi-qomati kelishgan, yuzlari oppoq, soqollari olingan, ko'zlari ko'm-ko'k bu yigit furajkasini bostirib kiyib, och-yashil chit ko'ylagining tugmalarini tomog'igacha qadagan edi. Qo'lida to'pponcha. U qizga qarab kulib turardi. Ira o'tirgan joyida boshini ko'tarib, yigitning etigidan to shapkasigacha ko'zdan kechirdi:

– O'zingiz kalamush, – deb javob berdi-da, shartta o'rnidan turdi va to'rt tomonga alanglab, akasini qidirdi. «Nahotki qochib ketgan bo'lsa, yo'g'-ey, meni tashlab ketarmidi», ko'nglidan o'tkazdi Ira qaddi-qomatini rostlab, ko'ylaklarini qoqib, u yoq-bu yog'iga qararkan. So'ng daraxtdan tushgan yigitga dadil xo'mraydi.

– Yerdan joy quriganmidi, nega daraxtning ustiga chiqib oldingiz? O'zingiz kimsiz?

– Yana savollar bormi?

– Kimsiz?

Butalar orasidan boshini ko'targan Seryoja singlisiga qarab: «Baqirma!» – deb jerkidi-da, noma'lum yigitga yaqinlashdi.

– O'zlaring kimsanlar? – so'radi yigit.

– Siz otryaddanmisiz? – savolga savol bilan javob qildi Seryoja.

– Shunday deb faraz qilaylik, – mujmal javob qildi yigit.

– Har holda, nima qilib yuribsizlar o‘zlaring bu yerda?

– Yo‘qolgan sigirimizni qidirib yuribmiz, – deb qoldi Ira. Seryoja o‘zini tutolmay xaxolab kulib yubordi.

– Voy dovdir-e, nimalar deyapsan o‘zing, Ira!

– Yesinlarning farzandlarimisiz? – so‘radi yigit. – Tanigandek bo‘lyapman.

– Yesinlarmiz, – dedi Seryoja. «Bu yigit o‘zimiznikiga o‘xshaydi-yu, hamma gapni aytish mumkinmikin?...» – xayolidan o‘tkazdi u. Lekin hech qanaqa gapga o‘rin qolmagandi.

– Qani, mening ortimdan yuringlar, – dedi yigit. – Dadalaring Ilya Semyonovichni bolaligimdan bilaman, – dedi u orqasiga qayrilib. – Armiyaga ketmasidan oldin, kolxozda bosh agronom bo‘lib ishlagan kezlaridan buyon taniyman. Anna Vladimirovnani ham yaxshi tanirdim. Qabrlariga nur yog‘ilsin.

Ular bilinar-bilinmas iz tushgan yolg‘izoyoq yo‘ldan borardilar. Ikki joyda ularni g‘oyibdan kelgan ovoz to‘xtatdi.

– Zaryad! – dedi yigit ko‘rinmay panada turgan dozorlarga javob berib.

Endi bolalar bo‘layotgan gaplarning naqadar muhimligini yanada chuqurroq his eta boshladilar. Nihoyat, yalanglikda yerto‘lalar va odamlar ko‘rindi. Seryoja bilan Ira juda ko‘p tanish hamqishloqlarini ko‘rishdi. Yerto‘lalarning biridan Shaxov chiqib keldi. Harbiycha kiyinib, belini kamar bilan bog‘lagan, sochlari bejirim taralgan Shaxov yosharib ketganday ko‘rindi ko‘zlariga.

– Yesinlarmi? – hayron bo‘lib so‘radi u.

– Sizning oldingizga kelishayotganga o‘xshaydi, Konstantin Petrovich! – dedi ularni boshlab kelgan yigit.

Bolalar Shaxov bilan salomlashishdi. Seryoja unga paketni topshirdi:

– Bu sizga.

– Qani, mening yerto‘lamga kiraylik-chi, – taklif qildi Konstantin Petrovich. – Charchadinglarmi? – so‘radi u.

– Uncha emas, – javob berdi Seryoja.

– Ko‘rib turibman, uncha emasligini, – dedi Shaxov, – oyoqlaring chatnab, qonab ketgan-ku...

Konstantin Petrovich bolalarni stulga o‘tqizdi, ularga non, yog‘, choy olib kelishdi. Komandirning o‘zi xatni o‘qishga kirishdi.

Bolalar hamma narsaga tez ko‘nikkanlaridanmi yoki raisning salobati bosdimi, yo topshiriqning (endi bajarilgan birinchi topshiriqning desa bo‘ladi) bajarilishini pisanda qilmaslik uchunmi, har qalay, ikkovlari ham yo‘lda chekkan azoblarini, holdan toyguncha charchab, oyoqlari qabarib, chatnab zirqirab og‘riganini sezdirmaslikka urinishardi.

– Hammasi tushunarli, – dedi nihoyat Konstantin Petrovich. – Bizda ham muhim yangiliklar bor. Men hozir yozaman, sizlar ozgina uxlab olinglar. Bir-ikki soat bo‘lsa ham harna, yo‘l uzoq...

Seryoja oldin ko‘nmay turdi-yu, biroq yumshoq so‘riga o‘tishi bilanoq shilq etib tushdi, qattiq uyquga ketdi. Ira ham darrov uxlab qoldi. Uzoq yotib qolishibdi shekilli, uyg‘onganlarida yerto‘lada hech kim yo‘q, kun allamahol bo‘lib qolganga o‘xshardi.

– Konstantin Petrovich qayerda? – dedi Seryoja bezovta bo‘lib.

Partizanlar lageri o‘z ko‘yi, sirasi bilan yashardi. Yalanglikni gir aylana bejirim-bejirim yerto‘lalar o‘rab olgandi, hammasi bo‘lib oltita yerto‘la. Odamlar miltiqlarini tozalash, o‘tin yorish, tikish-yamash, ovqat pishirish bilan band. Ikkita ko‘chma oshxonadan atrofga yoqimli hid

taralmoqda. Nariroqdagi yalangliklarda sigir va otlar o'tlab yurishibdi. Butalar soyasida qator-qator aravalar batartib turibdi.

Seryoja bilan Iraning oldiga Shaxovning o'zi kirib keldi.

– Shirin uxlagan ekansizlar, uyg'otmay qo'ya qoldik. Yaxshi dam oldinglarmi?

U bolalarga yo'lda yeyish uchun yemish berdi. Seryojaning qo'liga konvert tutqizdi.

– Nemislar yaqinmi? – qiziqib so'radi Seryoja.

– Sakkiz kilometr narida, Bobino stansiyasida, – tushuntirdi Shaxov. – O'tgan kuni ular bizga juda yaqin joyga desant tushirishgan edi, biz ularni qirib tashladik. Xavotir olmasdan ketaveringlar, nemislarga duch kelmasalaring kerak...

Seryoja bilan Ira yana yo'lga chiqishdi. Endi yurish ancha osondek tuyuldi. Shoshilmasdan qadam tashlab borishardi, kech kira boshlagan, kunning issig'i qaytgan edi. Ular o'n yetti kilometr, demak, taxminan uch soatlik yo'l bosishlari kerak. Yo'l-yo'lakay qo'ziqorin va o'rmon mevalaridan terishdi. Savatcha olib kelganlari juda ish berdi.

Bolalar Tixaya daryosi bo'ylab Beryozovkaga chiqqanlarida quyosh o'rmon orqasiga botib borardi. Ular hayron bo'lib to'xtab qolishdi. Qishloq qizil krest shakli tushirilgan mashinalar bilan to'lib ketgan edi. Katta yo'lning huv narigi tomonida ikkita katta palatka o'rnatilgan bo'lib, ularning atrofida oq xalatli vrach va hamshiralar yugurib yurishardi.

O'rmon jimjit edi, bu yerda bo'lsa front Beryozovkaga yaqinlashib kelayotgani sezilib turardi. To'xtovsiz eshitilayotgan to'p va pulemyotlarning ovozi xuddi daryoning narigi qirg'og'idan kelayotgandek tuyulardi. Mana yonginalaridan bir necha yuk mashinasi, ular ketidan to'plar, yengil tanklar, qandaydir yuklar ortilgan aravalar o'ta boshladi, ot-aravalar shu qadar ko'p ediki, ularning oxiri yo'qdek tuyulardi.

– Shu yerlikmisizlar? – so‘radi kimdir ulardan.

Bolalar o‘g‘irilib, harbiy kiyim ustidan oq xalat kiyib olgan, qaddi-qomati kelishgan, sap-sariq jingalak sochlari yuzlariga tushib, ko‘m-ko‘k ko‘zlari kulib turgan juvonni ko‘rdilar.

– Shu yerlikmiz, – javob berdi Ira. Keyin savatchasini unga tutdi:

– Oling, malinadan tatib ko‘ring.

– Rahmat.

– Oling, ola qoling...

Juvon qizning ko‘ngli uchun malinadan bir-ikki dona olib og‘ziga soldi.

– Muncha chiroylisan, qizim?

– O‘zingiz chiroylisiz.

– Oting nima?

– Irina.

– Oting ham chiroyli ekan.

Ona mehridan bevaqt judo bo‘lgan ko‘ngli yarim qiz yumshoq va yoqimli so‘zlardan erib ketdi-yu, shu zahotiyoq hushyor tortgandek o‘zini tutib oldi-da, o‘ziga yoqib qolgan, istarasi issiq juvonni qanday qilib uyiga mehmonga chaqirganini ham bilmay qoldi.

– Yuring biznikiga. Bir minut bo‘lsa ham dam olasiz...

– Bir minut dedingmi, mayli...

– Shu bahona balkim Tarasni ham ko‘rarsiz.

– Taras deganing kim?

– O‘rtog‘imiz. Fashistlar qishloqni samolyotdan o‘qqa tutganlarida yarador bo‘ldi.

– Albatta ko‘raman, – rozi bo‘ldi juvon, – ha, aytganday, mening ismim Valentina Kirillovna, shundoq Valya xola desang ham bo‘la beradi.

Juvon qizning gapini ikki qilolmadi. Qalin va jingalak sochlarini yuzidan orqasiga olib tashladi-da, xalati

tugmalarini yechib, kamarini siqibroq bog'ladi, «ketdik» deganday kulib, ko'zini qisib qo'ydi. U hozir juda sog'ingan o'z qizini ko'rib, uni bag'riga bosgandek baxtli edi, ixtiyorini ham unga berib qo'ygandi. Shu vajdan ham onalik sog'inchi harbiy intizom qoidalaridan ustun chiqdi.

Ular yonma-yon borisharkan, juvon burro-burro so'zlaydigan qizni gapga tutardi. Boya «chiroylisan» deganida taltayib ketmay, shartta «o'zingiz chiroylisiz» deb dadil javob bergani unga juda yoqib qolgan edi. Hozir ham qizdan nima so'rasa, o'zi haqidamas, o'rtog'i Tarasga mehribonligi, quyunib, achinib gapirishi juvonning mehrini tag'inam oshirib yubordi, yana qizini eslatdi. Hozir Valentina Kirillovna bolalarga qo'lidan kelganicha yordam bergisi, ularni bag'riga bosib, o'z bolalaridek erkalgisi kelardi...

– Siz saninstruktormisiz? – so'radi Ira.

– To'g'ri topding.

Ular uyga kelganlarida Misha bobo bilan Ivan Ivanovich yo'q edilar. Juvon kirishi bilanoq qo'llarini sovunlab yuvib, bajonidil ishga kirishib ketdi. Tarasning yaralarini spirt bilan tozalab, dori qo'yib, yaxshilab bog'ladi. Iraga nimalar qilishni tushuntirib, anchagina paxta, bint, dori-darmonlar qoldirdi.

– Men hozir, – shivirladi Seryoja Iraga va uydan chiqib ketdi. Ira fahmladi: akasi Fedotovning oldiga shoshilyapti.

Seryoja haqiqatan ham, yeldek uchib, qishloqning narigi boshiga, qishloq soveti sekretarining uyiga yugurdi. Fedotov uni ko'rib, quvonib ketdi. Shaxovning xatini o'qib chiqdi.

– Barakalla, – dedi u. – Lekin, afsuski, ular nemislar haqidagi hamma gapdan xabardor emas. Axir nemislar Beryozovkaga boshqa tomondan yopirilib kelishmoqda. Biz bugun shoshilinch ravishda qiruvchi otryad tuzib, Veselovskiy o'rmoniga, Qizil Armiyaga yordamga yubordik.

– Meni ham olib keting, – dedi yolvorib Seryoja.

– Qayoqqa olib ketaman seni? – dedi Vasiliy amaki. – Sen bilan men shu yerda ham kerakmiz. Men ham jangga kirishni juda istagan edim-u, shu yerda qolishga buyruq berilgan. Hali Beryozovkada bizni ko‘p ishlar kutib turibdi, og‘ayni...

Seryoja Fedotov bilan xayrlashib, chiqib ketdi. Uyga qaytib kelganida Valentina Kirillovna hamma ishni tugatgan edi.

– Do‘stingiz tuzalib ketadi, – dedi u. – Faqat uni yaxshiroq ovqatlantirib turinglar, toza havodan mahrum qilmanglar. Uning xonasidagi deraza hamisha ochiq tursin.

Keyin ular birgalashib o‘tirib choy ichishdi. G‘ira-shira qorong‘i tusha boshlagan edi.

– Men boray, – dedi Valentina Kirillovna. – Kechasi navbatchilik qiladiganman. Ehtimol, yana yaradorlar ham kelgandir.

Ira saninstruktorni kuzatib chiqdi. Ammo ular gospital palatkalariga yetib bormaslaridanoq, komanda eshitildi:

– Mashinalarga!

– Demak, frontga jo‘naysizmi? – so‘radi Ira.

– Aksincha,– dedi ma‘yuslik bilan Valentina Kirillovna. – Frontdan uzoqroqqa, orqaga, oldingi marrada qololmaymiz, ishimiz shunaqa, qizim.

Ira bo‘lsa tushida ko‘rgandek g‘oyibdan paydo bo‘lib, unga juda-juda yoqib qolgan saninstruktordan sira-sira ajralgisi kelmasdi. Harbiy kiyimlari bo‘y-bastiga yarashib, chiroyiga chiroy qo‘shayotganiga bir havasi kelsa, shunday yosh juvon urush olovi yonib turgan xavf-xatarli joylarda yaradorlar joniga ora kirib, ular xizmatini ado etib yurganiga, irodasiga, dovyurakligiga, qo‘rqmasligiga o‘n chandon havasi kelar va tan berardi.

– Sizga omad tilayman! – dedi Ira Valentina Kirillovnani mahkam quchoqlab.

– Senga ham omad tilayman, azizam, – dedi Valentina Kirillovna Irani yana bag‘riga bosib, shoshib-shoshib yuzlaridan, peshonalaridan, bo‘yinlaridan o‘par ekan. – Ota-onanglar haqida so‘ramadim ham...

– Dadamlar frontda, oyimlar halok bo‘ldilar, – dedi Ira boshini quyi egib.

Valentina Kirillovna hech narsa demadi.

– Oyim bomba tagida qolib halok bo‘ldilar, – qo‘shib qo‘ydi Ira.

– Sabr-bardosh tilayman, qizim, – Valentina Kirillovna qizni yana mahkam bag‘riga bosdi-yu, ko‘ngli bir xil bo‘lib ketdi. Shoshilarkan, orqasiga o‘girilib, qizga qo‘l silkidi:

– Xayr, Ira.

– Menga juda-juda yoqib qoldingiz, – deganicha Ira undan ajralmay yonida ketaverdi. – Yana qachon ko‘rishamiz?

– G‘alaba kunlarida!

– G‘alaba kunlari qachon bo‘ladi?

– Bo‘ladi, qizim, albatta bo‘ladi, – dedi Valentina Kirillovna va muloyimlik bilan qo‘shib qo‘ydi: – Xuddi mening qizimga o‘xshaysan. Sog‘ bo‘l, Irochka! Yaqinda qaytib kelamiz...

Ana shu bir jumlaning o‘zi qizning yosh qalbini bir olam quvonch va umidga to‘lg‘azdi. Butun charchoqlarini ham unutgan Ira «Valya xola oyimga judayam o‘xsharkan-a?» degan xayol og‘ushida xursand bo‘lganicha, Seryojaga ham qaramay, uyiga yugurdi.

Uy oldiga kelib, deraza tagida taqqa to‘xtab qoldi. Ichkarida Ivan Ivanovich bilan bobosi qandaydir ish ustida bahs qilishardi. Tortishuv tobora keskinlashib borardi. Ira quloq soldi.

– Yo‘q, Vanya, yo‘q, azizim, – dedi Misha bobo yo‘g‘on ovozini cho‘zib. Uning ovozi hamisha yo‘g‘on bo‘lgani bilan tiniq eshitilardi. Ammo biror kishi bilan tortishsa, ovozi

undan ham yo'g'onlashib, quyuqlashib ketardi. U jon-jahdi bilan o'zining haq ekanligini isbot qilishga urinardi, – men senga aytsam, xato qilyapsan!

– Baqirma, Misha, – Ivan Ivanovich yotig'i bilan so'z boshladi. Uning ovozi yumshoq va shirali bo'lib, so'zlari mantiq jihatidan kuchli edi. U muloyimlik bilan so'zida davom etdi: – Nega baqirasan, qulog'im kar emas-ku, narigi xonada kasal borligini unutma. Bilasanmi, Misha, masala murakkab. Qiziqqonlik qilish yaramaydi. Xalqimizda «Yeti o'lchab, bir kes» degan maqol bor.

Ammo Misha bobo yana qizishib ketdi va ovozini salgina pasaytirib, do'stiga javob berdi:

– Men senga aytsam, Vanya, «Temirni qizig'ida bos» degan maqol ham bor. Masalani bugun hal qilmasak, ertaga kech bo'ladi. Sen yetti marta o'lchayman deguningcha, nemis Beryozovkani ham ishg'ol qiladi-yu, kommunist bo'lganing uchun eng oldin seni dorga osadi.

«Oy tuynukka, arava eshikka kelib qolibdi-yu, ivirsigan bu chol yetti o'lchash to'g'risida ezmalik qiladi-ya, – o'zicha jig'ibiyron bo'lardi Misha bobo. – Hozir zudlik bilan ish tutadigan payt, faqat temirni qizig'ida urmoq zarur».

Ivan Ivanovich fikrini bir yerga yig'ib, javob uchun endi og'zini juftlaganda deraza orqasida qandaydir sharpani sezib, boshini ko'tardi va Seryoja bilan Irani ko'rib, o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi. Eshikni ochib, ularga peshvoz chiqdi, oldinma-keyin kirib kelgan bolalarni bag'riga bosdi, ko'zlarida yosh yiltiradi, xatarli yo'llardan sog'-omon kelganlaridan ich-ichidan mamnun bo'ldi. Misha boboning ham quvonchi ichiga sig'masdi-yu, bari bir odatiga ko'ra xo'mrayib, ta'na qildi:

– Buncha kechikmasalaring, mehmonga boruvdilaringmi? Men sizlarga aytsam, bolaga ish buyur, orqasidan o'zing yugur deganlari bejiz emas ekan. Xavotir olib, Vanya bilan orqalaringdan bormoqchi ham bo'ldik. Qani, gapiringlar.

Bir necha minut o'tmasdan uyga Fedotov kirib keldi.

– Sizga gapim bor, Ivan Ivanovich...

Ular qo'shni xonaga chiqib ketishdi, nimalarnidir shivir-shivir gaplashib, yana qaytib chiqishdi.

– Mana bahsimiz ham tugadi, – dedi xursand bo'lib Ivan Ivanovich, – Qani, yo'l taraddudingni ko'raver, do'stim Mixail!

– Qanaqa yo'l taraddudi?

– Sen bilan meni Shaxov kutyapti.

– Rost, – tasdiqladi Fedotov.

– Ira bilan Seryoja nima bo'ladi? – sarosimaga tushib so'radi Misha bobo Ivan Ivanovich bilan Fedotovdan.

Ira bilan Seryoja ham savol nazarida Vasiliy amakiga tikilishdi.

– Sizlar hozircha qishloqda qolasizlar, – dedi qat'iy ohangda Vasiliy. – Men bilan!

– Ana senga, yetti marta o'lchash! – hazillashdi Misha bobo.

– Ana senga temirni qizig'ida bosish! – bo'sh kelmadi Ivan Ivanovich ham. – Buyruq olmasdan o'rmonga qochib ketsam yaxshi bo'larmidi...

IV

Taras onasini ko'p o'ylardi. O'ziga qarab, boshida parvona bo'layotgan Ira onasidan xabar olib turgan bo'lsa hamki ko'ngli tinchimasdi. Zoya Andreyevna anchadan buyon og'ir kasal yotardi. Bu kasalga u eri sudga tushgandan keyin yo'liqdi. Zaif yuragi dardga chalindi, qo'l-oyoqlari bo'shashdi. Vrachlar yuragi nihoyatda sust ishlayapti deb uni kasalxonaga yotqizmoqchi ham bo'ldilar. Zoya Andreyevna yo'q deb turib oldi, ko'nmadi.

Keyingi kunlarda kasali og'irlashgani ustiga ustak, Tarasdan xabar topolmagani dard ustiga chipqon edi.

Bu yoqda Iraga ham qiyin bo'ldi. Zimmasida uyiga hamda Tarasga qarab turishginamas, Zoya Andreyevna ham

bor. Har kuni issiq-sovug'idan xabar olib, bir luqma og'ziga yoqadigan taom tayyorlab berishi ustiga o'g'lining og'ir yaradorligini undan yashirib turishi ham kerak ediki, Irani shunisi ko'proq qiynardi.

Zoya Andreyevna yakka-yu yagona o'g'lidan darak topolmay dard va intizorlik azobini chekardi, xavfsirab, vahimaga tushardi. Taras yozib bergan xatni Ira o'qib bersa ham ishonqiramas, xayollari uzoq-uzoqlarga yetaklab, tashvish daryosiga g'arq etardi. O'g'lining yaradorligidan mutlaqo bexabar ona har kuni Irani yoniga o'tqizib, Taras to'g'risida surishtirar, Ira bo'lsa, yer chizib, javob qaytarolmay azob chekardi.

O'zi-ku azob chekkani mayli-ya, Zoya Andreyevna keyingi kunlarda, Tarasni ko'rmaganidan buyon judayam o'zgardi, yuragi o'ynab, nafas qisishlari tez-tez takrorlanadigan bo'lib qoldi. Ana shunisi Irani ko'proq o'ylantirib qo'yardi. Zoya xolaga juda-juda achinib, rahmi kelardi. Kunlarning birida «yolg'onning ham chegarasi bor-da» deya o'zini-o'zi koyidi-da, akasiga maslahat soldi. Seryoja shu zahotiyiq o'rnidan turib, singlisi bilan birga kasalni ko'rishga chiqdi.

– Irochka, Seryojenka, sizlardan juda-juda minnatdorman, – dedi u, nihoyat, – Erim munaqa bo'lib ketgandan keyin o'zi ko'plar meni unutib ham qo'yishdi. Ularni aybsitayotganim yo'q. U, haqiqatan ham ablah! Nechuk shundoq odamga ko'ngil qo'ygan ekanman, tushunolmayman. Qo'li egriligini sezardim. To'g'ri, uyga hech narsa olib kelmasdi. Allaqayoqlarda sanqib yurardi. Jononlari ham bor deb eshitardim... Sud bo'ldi-yu, hammasi ochildi-qoldi. Qancha mol o'g'irlagani ham, qancha pora berganlari ham. Qilmishiga yarasha olti yilga kesildi.

Seryoja bilan Ira bu haqda orqavorotdangina eshitishgan edi. Ular Taras bilan do'st bo'lsalar ham, o'rtoqlari otasi haqida hech narsa gapirmasdi. Yoki o'zi bexabar bo'lgan, yo bo'lmasa do'stlaridan uyalgan.

Eri haqida gapirarkan, Zoya Andreyevna xafa bo'ldi, yana yuragini ushladi. Ira darrov dori tomizib ichirdi.

Seryoja uning peshonasiga ho'l latta qo'ydi.

– O'lib o'lmayman, tuzalib tuzalmayman. Yurak siqadi... xastalik jonimga tegdi, Seryoja, kundan kun battar azob chekaman, kundan kun og'irlashyapman. Qaniydi, osmondan tushayotgan bombalarning biri uyimga tushsayu, shu azobdan forig' bo'lsam, shu musibatli dunyodan abadiy ko'z yumsam. Meni deb Ira ham ezilib ketdi. Seryoja, bolaginam, Tarasik qayda? Nega nom-nishonsiz?.. – Ko'zlaridan oqqan yosh tomchilari ko'rpaga tomdi.

– Aslo xavotir qilmang, Zoya xola, Taras sog'-salomat.

– Axir, sog'-salomat bo'lsa, nima uchun xasta onasidan xabar olmaydi? Yo'llariga ko'zim to'rt, eshik tiq etib ochilsa, Taras kirib kelayotganday. Kutaverib charchadim, bolam, tinkam quridi. Undan esa haligacha dom-darak yo'q.

Boshi qotgan Seryoja Zoya Andreyevnani yupatib, «nima qilamiz?» deganday Iraga o'girilgan edi, u nima deyishini bilmay yerga qaradi. Seryoja Zoya xolaning kasali kundan kun og'irlashib borayotganini chuqur his etib, unga rahmi keldi va rost gapni aytishga qaror qildi. U: «Men, hozir!» – dedi-yu, Iraga imlab, eshikka chiqdi.

– Sen shu yerda bo'l. Men Tarasni opichib olib kela-man. Zoya xolani yupatish zarur. Axir, kasali kun sayin og'irlashib, o'lim bilan olishayotgan onadan bitta-yu bitta farzandini yashirib bo'ladimi?

Xiyla vaqt o'tgandan keyin Seryoja Tarasni opichlab olib keldi va xonaga, onasi yoniga kirishdan oldin o'rtog'ining sochlarini bejirim tarab, kiyimlarini tuzatib qo'ydi-da, onasi oldiga boshlab kirdi.

– Oyijon, – deganicha Taras boshini onasining bag'riga qo'yib, yig'lab yubordi. Zoya Andreyevna yostiqdan boshini ko'tarib, o'g'lining sochlarini nimjon qo'llari bilan silab, yuzlaridan o'pdi, o'pkasi to'lib yig'ladi:

– Bolaginam, nahotki xasta onangni ko'rging kelmasa...

Tarasning ko'zlari jiqqa yosh bilan to'lib, onasiga aytmoqchi bo'lgan so'zlaridan bittasini ham aytolmadi, nimadir tomog'iga tiqilganday bo'ldi.

– Zoya xola, – Seryoja vazmin gapira boshladi, – bombardimon vaqtida maktabimiz yongan kuni hammamiz yong'inni o'chirishga bordik. Ana shunda Tarasingiz shunday g'ayrat ko'rsatdiki, hamma qoyil qoldi. Uning jasorati bolalarga namuna bo'ldi. Biroq, yong'in endi o'chirilganda tepamizda yana nemis samolyotlari paydo bo'ldi, bu gal pulemyotdan o'q yog'dirdi. Taras shu paytda yarador bo'ldi. Misha bobo bilan Ivan Ivanovich hushdan ketgan Tarasni qo'llarida ko'tarib keldilar-u, darhol suv qaynatib, yaralarini yuvdilar, avaylab bog'ladilar. Shundan keyingina qon ketishi to'xtadi. Bu yog'iga mana Ira qarab turdi. Endi ancha tuzalib qoldi, xola.

Seryoja so'zini bo'ldi. Zoya Andreyevna sal o'ziga kelgandan keyin o'qituvchi Ivan Ivanovich haqida, Misha bobo haqida, ular Tarasni parvarish qilganlari, saninstruktor Valentina Kirillovna, feldsher Matvey Semyonovichlar haqida gapirib berdi.

Zoya Andreyevnaning yuzlariga qon yugurganday bo'ldi. U endi yig'lamas, diqqat bilan bolalarning so'zlarini eshitardi.

– Menga bor gapni ochiq aytib, to'g'ri qildinglar, bolalarim, – iqror bo'ldi u. – O'zimni ancha yaxshi sezyapman. Ancha yaxshiman. Rostini aytsam, ne xayollarga borib, qanaqa azoblar tortmadim, deysiz. Mana hamma shubhalar bartaraf bo'ldi, bu juda yaxshi... – U xayol surib qoldi. Keyin nimanidir eslagandek so'zida davom etdi: – Fashistlarning urug'iga qiron kelsin, yosh bolalarni ham ayamaydilar. Shuncha musibat. Mamlakatimizga qo'qqisdan hujum qilsalar, shaharlarimizni, qishloqlarimizni vayron qilsalar!

Rayon markazidagi cherkovni ham bombardimon qilishibdi deb eshitdim...

– Ha, – dedi Ira. – Men kasalxonaga doriga borayotganimda ko'rdim. Pop ham halok bo'lgan deyishdi.

– Pop emas, valiy degin, aziz avliyo degin, – tuzatdi Zoya Andreyevna. – Pop desang gunohga botasan. Tushunib turibman, Irochka, sen xudoga ishonmaysan. Har holda... – deb cho'qinib qo'ydi.

«Qiziq, – o'ylardi Seryoja. – Zoya xolaning xudojo'y-ligini bilmas ekanman».

– Ira, Ira... bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Mening ham, Tarasimning ham xastaligi sening bo'yningga tushdi, bolam. Xudoyo xudovando seni ikki dunyoda kam qilmasin.

– Hamma og'irlik akam Seryojaning ustiga tushdi, xolajon.

– Bizni kechiring, Zoya xola, – dedi Seryoja odob bilan gap boshlab, – Tarasning yaradorligini sizdan yashirdik. Misha bobo bilan Ivan Ivanovich «bemorning dardiga dard qo'shmanglar» dedilar. Mana endi o'g'lingiz tuzalib, o'zi oldingizga keldi. Diydor ko'rishdilaringiz. Taras, qani ko'ylagingni yech, yaralaring tuzalganini o'zlari ko'rsinlar.

Taras o'rnidan turib, chap qo'li bilan ko'ylagini yechib: (o'ng qo'li hali ham ishlamasdi) «Yara ham orqamda, ham ko'kragimda», – dedi onasiga.

Zoya Andreyevna o'g'lining o'ng yelkasidan qornigacha tang'ib bog'langan yarasini ko'z oldiga keltirib, o'pkasi to'lib ketdi:

– Ey xudo, bu qanday ko'rgulik, bu qanday xo'rlik, bu qanday musibat. Otang bo'lsa tirik murda, onang bo'lsa kasaldan ko'z ocholmaydi, sen bo'lsang ona suting og'zingdan ketmay, yarador bo'lib o'tirsang, o'ng qo'lingdan ajralibsan. – U piq-piq yig'ladi.

Seryoja Zoya Andreyevnaga suv tutib, uni yupatdi.

– Yig'layvermang, xola, Taras oz o'tmay tuzalib ketadi, siz ham.

– Aytganing kelsin, bolam. Bizlarga shunchalar yaxshilik qilyapsizlar, Ira ham, sen ham, Misha bobo ham, ilohim bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin.

Seryoja hovliga chiqib, suv tortish uchun quduq bo'yiga kelishi bilanoq, hovlining daryoga tutashib ketgan yerlarida yurgan qizil askarlarga ko'zi tushib hayron bo'ldi. Ular juda ko'p, ikki yuzdan oshardi. Daryoning o'ng qirg'og'i juda baland bo'lib, undan qaraganda chap qirg'oq kaftdek yaqqol ko'rinib turardi. Seryoja qizil askarlar tomon bir necha qadam tashladi-yu, o'tlar ustiga o'tirib, ularning harakatlarini kuzatdi. Qizil askarlardan biri pilotkasi bilan ikki chakkasidan oqib tushayotgan terni arta turib, Seryojaga ko'zi tushdi va iljaydi. Seryoja ham unga tikilib iljayib qo'ydi.

– Salom, – dedi qizil askar kulimsirab.

– Salom, – dedi Seryoja irg'ib o'rnidan turib.

– Ichishga suv bormi?

Seryoja darrov quduqdan bir paqir suv tortib, qizil askarga uzatgan edi, u pastda ishlayotganlarni ko'rsatib, «Ularga ham suv kerak», dedi. Seryoja quduqdan yana suv tortdi. Ular qizil askar bilan birgalikda ko'prik atrofida qo'li qo'liga tegmay ishlayotgan jangchilarga suv yetkazib berishdi. Ikki paqir suv bir zumda ichildi. Pulemyot rotasining komandiri yoshgina leytenant Seryojaga qo'lini uzatdi:

– Tanishaylik, og'ayni – leytenant Temirov.

– Sergey, – javob berdi u komandirga.

– Suv uchun katta rahmat. Nechanchi sinfda o'qiysan?

– Oltinchida. Maktabimiz bombardimon vaqtida yonib ketgan.

– Yoshing nechada?

– O'n uchga yetdim!

– O'n uch, o'n uch... – dedi komandir uning so'zlarini takrorlab.

– Yana chekinasizlarmi? – so'radi Seryoja o'zini tutolmay.

– Nima desam ekan... Aniqrog'i yangi marralarda mahkamroq o'rnashib olyapmiz. Mana shu daryo bo'yida. – Leytenant jim qoldi.

– Chegaradan chekinib kelyapmiz, hamma shu savolni beradi. Nima javob berish kerak? Hozircha nemislar kuchli. Soldatlari ham, tank va samolyotlari ham, to'p va pulemyotlari ham ko'p. Shuning uchun ham u ustun. Ammo, do'stim, bu vaqtincha. Yaqinda ustunlik bizning qo'limizga o'tadi.

– Qachon qo'shinlarimiz hujumga o'tadi?

– Yaqinda. Sovuq tushishi bilan.

– Sovuqning nima aloqasi bor?

– Birinchidan, rezerv kuchlarimiz yo'lda, kelyapti. Ikkinchidan, dushman bizning qishimizni hisobga olmagan. Birinchi zarbadayoq majaqlab tashlamoqchi bo'lgan. Uchinchidan esa, janglarning har bir kuni – biz uchun juda muhim, tajribamizga tajriba qo'shmoqda. Masalan, men o'ninchi sinfdan keyin harbiy bilim yurtini tamomladim. Bilim yurtida o'qiganimizda o'tmagan mashqlarni mana shu ikki oyda bilib oldim.

– Yaxshi bo'lardi, – dedi xayol surib Seryoja.

– Nima yaxshi bo'lardi? – tushunmadi leytenant.

– Nemislarni to'xtatsalaring yaxshi bo'lardi.

– Ehtimol, mana shu marrada to'xtatarmiz ham.

– Nemislar yaqinmi?

– Bu yerdan uch-besh kilometr.

– Yaqin ekan...

– O'zing nima qilmoqchisan, biron gap bo'lsa, shu yerda qolasanmi? – so'radi leytenant.

– Albatta shu yerda qolaman. Shundoq topshiriq olganman.

– Kimning topshirig'i ekan, sir bo'lmasa.

– Partiya topshirig'i.

– Eh-ha, shunaqa katta odamsan deb o‘ylamagandim!
– Hozir har bir kishi dushmanga qarshi jang qilishi kerak, – dedi Seryoja chertib-chertib.

– Bu gapiing to‘g‘ri, – uning fikriga qo‘shildi leytenant. – Keksa ham, yosh ham, harbiy ham, grajdan ham. Dushman bilan yuzma-yuz uchrashishdan qo‘rqmaysanmi?

– Rostini aytaymi?

– Albatta rostini ayt.

– Rostini aytsam, qo‘rqaman. Nemisdan emas, uni yengolmayman deb qo‘rqaman. Mana mening dadam kapitan, batalyon komandiri, u hech narsadan qo‘rqmaydi, chunki u harbiy kishi. Qo‘lida quroli bor. Mening qurolim yo‘q. Qo‘rqoqlikka nafrat o‘qiyman.

– Barakalla, o‘g‘lon, asl ota o‘g‘il ekansan. Halolliging uchun rahmat. Otang to‘g‘ri tarbiya beribdi.

– Istehkom quryapsizlarmi? – so‘radi Seryoja.

– Ha, Tixaya daryosining chap qirg‘og‘ida. Ertalabgacha tamomlashimiz kerak!

– Men ham yordamlashsam maylimi? Faqat uyga suv olib borib beray.

– Mayli! – rozilik berdi leytenant.

Seryoja paqirni Tarasning uyiga olib borib qo‘ydi-da, darhol soldatlar oldiga qaytib keldi. Tun bo‘yi u qizil askarlarga yordamlashdi, okoplar, aloqa yo‘llari qazidi. Tong yorishganda uning yoniga tanish leytenant keldi.

– Otishni bilasanmi?

– Kichik kalibrli miltiqdan otaman.

– Haqiqiy miltiqdan-chi?

– Yo‘q, otib ko‘rmaganman.

– Otib ko‘rishni istaysanmi?

– Bo‘lmasam-chi!

Leytenant Seryojaga oldin miltiqdan otishni ko‘rsatdi, keyin pulemyot oldiga boshlab keldi.

Seryoja otishni tez o‘rganib oldi.

– Hozircha o‘zimizning avtomatimizdan yetishmaydi, – dedi leytenant, – mana bu o‘lja olingan nemis avtomati. Ke, ko‘rsataman.

U Seryojaga nemis avtomatini tutqazdi:

– Mana, qara...

Keyin Seryoja avtomat stvolini osmonga to‘g‘rilab, ketma-ket o‘q uzdi. Qo‘li allanechuk yoqimli titrardi.

– Endi o‘zingni jangga tayyor deb bilsang bo‘ladi, – maqtab qo‘ydi leytenant.

– Rahmat sizga, o‘rtoq leytenant, endi jangda mening ham foydam tegishi mumkin, – Seryoja o‘zi bilganicha chest berdi.

V

Tixaya daryosi bo‘yida istehkomlar qurish ishlari ertalabgacha tugallanmadi.

– Oldimizga qo‘yilgan vazifa yanada murakkablashdi, – tushuntirdi leytenant. – Artilleriyachilar bilan birgalikda to‘p zambaraklarining pozitsiyalarini, pulemyot nuqtalarini tayyorlashimiz va tankka qarshi otadigan miltiqlar o‘rnatishimiz kerak.

Seryoja uyiga ketmadi, kuni bo‘yi va kechasi pulemyotchilar bilan birga bo‘ldi, ularning aytganini bajarib, dastyorchilik qilib yurdi. Endi u o‘zini haqiqiy frontchi-jangchi deb hisoblar, bu haqda otasiga, bobosiga, Ivan Ivanovichga xabar qilib maqtanmoqchi ham bo‘lardi-ku, ammo buning iloji yo‘q edi-da. Otasi uzoqda... Bobosi bilan Ivan Ivanovich esa bir kechada g‘oyib bo‘lib, o‘rmonga jo‘nashdi. Ehtimol, hozir bobosi temirchilik ustaxonasini ishga tushirib, otlarga taqa qoqayotgandir. Ehtimol, keksa o‘qituvchi partizan otryadida pisarlik xizmatidadir.

Bir gal Temirov bilan gaplashib turib, leytenant she‘r o‘qishni juda yaxshi ko‘rishini aytib qoldi.

– Bilasizmi, ilgari meni hatto Sergey Yesenin deb ham chaqirishardi... – dedi o'shanda Seryoja uyalinqirab.

Temirovga bu gap yoqib tushdi shekilli:

– Qani, Yesenin, durbinni olib, u yoqqa, daryoning narigi qirg'og'iga qara-chi, – dedi u bo'ynidagi durbinini Seryojaga tutib. – Qani, axborot ber, nimalarni ko'ryapsan?

Seryoja Tixaya daryosining narigi tomoniga tikildi.

– O'rmon yaqinida to'plarni ko'ryapman. Tankka qarshi to'pga o'xshaydi.

– Barakalla!

– Uch qayin yonida pulemyotni va qizil askarlarni ko'ryapman.

– To'g'ri. Bu serjant Nikonovning pulemyot raschyoti.

– Jarlikda jangchilar chuqur qaziyotganlarini ko'ryapman.

– To'g'ri, – tasdiqladi Temirov. – Biz jordan mudofaa uchun foydalanishga qaror qildik. Ham tez bo'ladi, ham mustahkam, jarning ancha chuqurligi ham yaxshi.

– Siz qaysi rotaga komandirlik qilyapsiz? – so'ryadi Seryoja.

– O'zi, artilleriyachilarni hisobga olmaganda, bu yerda uchta rota. Men ikkinchi rotaning komandiriman.

– Urushda juda qo'rqinchlimi?

– Nima desam ekan senga? Rostini aytsam, qo'rqinchli, albatta, chunki hech kimning o'lgisi kelmaydi. Ammo dushmanni yengish, ona yurtimizni himoya qilish istagimiz qo'rqishdan ming marta kuchli. Mening rotamda hammasi bo'lib o'n bir nafar qizil askar qoldi. Boshqalari janglarda halok bo'ldi. Ulardan birontasi ham tasodifan, daydi o'qdan halok bo'lgani yo'q. Hammalari ongli ravishda, tushunib jangga kirishdi va jonajon yurtini himoya qilib, ongli ravishda, tushunib turib halok bo'ldi.

Temirov daryo tomonga tikilib, kimnidir chaqirdi.

– Safarov, menga o'lja olingan durbinni olib keling! Ilinskiyda olingan edi.

Oyog'iga katta botinka kiyib, rangi o'chib ketgan obmotka o'rab olgan qizil askar komandirning oldiga keldi:

– O'rtoq leytenant...

– Rahmat, Safarov! – minnatdorchilik bildirdi Temirov va u olib kelgan durbinni Seryojaga uzatdi. – Bu senga mendan sovg'a! Xizmatlaring uchun va do'stligimiz ifodasi.

– Oh! – deb yubordi Seryoja.

– Ol! Olaver! Biz bu durbinni asir tushgan nemis oberidan olganmiz. Senga yarab qolar... Shunaqa, o'rtoq Yesenin! – dedi leytenant kulimsirab va Seryojaning jingalak sochlarini silab turib so'zida davom etdi: – Endi, o'rtoq Yesenin, uyingga marsh, maza qilib uxla! Muncha uzoq uyqusiz dam olmasdan yurish yaramaydi!

– Lekin... – e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi Seryoja.

– Hech qanaqa «lekin»i yo'q! Buni jangovar buyruq deb qabul qil!

– Siz-chi?

– Bizlarga bu marradan ketish mutlaqo mumkin emas. Kim biladi, bordi-yu nemislar yopirilib kelsa...

Seryoja istar-istamas uyiga ketdi. Endigina u yelka-suyaklari zirqirab, oyoqlarining osti olovdek yonib og'riyotganini sezdi. «Nimadan ekan? – derdi o'ziga-o'zi. – Kasallik alomatimi yoki charchaganlikdanmi?» Bari bir qanchaki charchagan, oyoq-qo'llari, suyaklari zirqirab og'riyotgan bo'lsa ham, u sira nolimasdi. Chunki oz bo'lsa-da, sevimli otasining topshirig'ini ado etdi, frontga yordam qildi. Ertasiga-chi? Ertaga ham azonda turib yana shavkatli jangchilar yoniga keladi, charchash nimaligini bilmay frontga yordam qiladi. Shu bilan Taras oldida, Ira oldida, hatto bobosi bilan sevimli o'qituvchisi oldida izzat-obro'si oshadi. Endi unga ham havas qiladigan bolalar otilib chiqadi.

Uyiga kirib kelganida Ira bilan Taras shamchiroq yorug'ida domino o'ynab o'tirishardi. Beryozovkada keyingi kunlarda tez-tez chiroq o'chib turardi.

– Bormisan? – unga tashlandi Ira. – Qorning ochdir?

– Yo'q. Uyqudan boshqa narsa kerakmas, – dedi Seryoja.
– Charchadim.

– Ira bilan biz seni qizil askarlar qismiga qabul qilishdimi deb o'tiribmiz, – hazillashdi Taras.

Seryoja hazilni tushunmadi:

– Qaniydi, jon derdim!.. Bobom bilan Ivan Ivanovich ketishdimi? – so'radi Seryoja o'rniga yota turib.

– Ketishdi, – dedi Ira. – Bobom ham, o'qituvchi ham. Seni ehtiyotlashni iltimos qilishdi.

– O'zimni o'zim ham ehtiyotlayman, – jerkib berdi Seryoja va esiga tushib, durbinni ko'rsatdi. – Yaxshisi manavini qaranglar! Rota komandiri sovg'a qildi. Nemisniki, ofitserniki. – U durbinni Iraga uzatdi-da, o'zi shu ondayoq uyquga ketdi.

Tushida transheya va aloqa yo'llari qazilib, o'yilib ketgan daryo sohilini, uzunasiga tizilgan qizil askarlar safini, artilleriya pozitsiyalarini, pulemyot uyalarini, shularning hammasi ustiga yopirilib kelayotgan ko'ppaklarni ko'rdi, ko'ppaklar xuddi «Aleksandr Nevskiy» kinofilmidan chiqib kelgan ritsarlarni eslatardi. Uzundan uzun nayzalar, qalqonlar va jiring-jiring, qiyqiroq, g'alati bir yot marsh ovozlari, ko'ppaklar kelishyapti, kelishyapti, nimagadir bir metr ham siljishmayapti, xuddi bir joyda marsh qilib turishgandek. Qo'shinlarimiz ularni bitta ham o'q uzmasdan kutib olishdi. Mana ko'ppaklar qatoridan bittasi ajrab chiqdi, u endi bir joyda deysinib turmasdan, tez-tez qadam tashlab yurib ketdi. Seryoja uni darhol tanidi – bu Tarasning otasi Gerasim Shulga edi. Shu payt to'dadan Taras otilib chiqdi-yu, «O'ldiraman uni!» deganicha otasiga tashlandi. Seryoja:

– O'ldira ko'rma! O'ldira ko'rma! – deya baqirib yubordi va uyg'onib ketdi. Uy qop-qorong'i, Beryozovka vahimali tun og'ushida edi. Uzoq-uzoqlardan artilleriya gumburi, ketma-ket otilgan pulemyot ovozlari eshitilardi. Seryoja o'yladi: «Kim aytgan edi nemislar kechasi jang qilishmaydi deb?» U quloq soldi. Daryo bo'yidan odamlarning eshitilar-eshtilmas ovozlari, belkuraklar, misrangelarning zarbi qulog'iga chalindi. «Demak, qizil askarlar ishni davom ettirishmoqda».

Seryoja yana uyquga ketdi, lekin uzoq uxlamadi. Portlash ovozidan uyg'onib ketdi. Ira ham sakrab o'rnidan turdi. Ular ko'chaga chiqishdi.

Dushman Beryozovkani uzoqqa otadigan to'plardan o'qqa tutardi. Uylar vayron bo'lib, yong'in chiqardi, har bir uyda qiy-chuv ko'tarilar, butun qishloq o't alangasida yonardi.

– Men Taraslarnikiga ketdim! – dedi-da, Ira uylar orqasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Seryoja daryo tomon g'izillab ketdi. Uning tepasidan g'uvillab o'tgan bir snaryad bo'm-bo'sh kolxoz fermasining qoq ustiga tushdi-yu, yaqinda qurilgan binoning yog'och-taxtasi va temir-tersagi osmonga ko'tarildi, fermada yong'in chiqdi. «Yaxshiyam Shaxov sigirlarni o'rmonga yashirgani», – deb qo'ydi ichida Seryoja.

Leytenant Temirov Seryojani ko'rib qoldi va uzoqdan qichqirdi:

– Tez ket bu yoqdan! Eshityapsanmi, tez ket!

Seryoja Taraslarning uyi tomon tashlandi. Ko'chaga chiqqan Ira bilan Taras uni ko'rib, qichqirib yuborishdi:

– Qara! U yoqqa qara!

Seryoja o'girilib, nemislar asosan daryoning o'ng qirg'og'iga o't yog'dirayotganlarini ko'rdi, u yerdagi qizil askarlar yerga yotib olishgandi.

– Fermani vayron qilishdi, – to'satdan dedi negadir Seryoja.

– Vayron qilishsa qilishgandir, bari bir mollar front orqasida yoki o'rmonda-ku, – dedi Ira.

Portlash ovozlari sal tinishi bilanoq, Ira bilan Taras Zoya Andreyevnadan xabar olishga yugurdilar.

Zoya Andreyevna esa o'zidan emas, bolalardan xavotir olib, qo'rqib, ranglari quv o'chib yotardi. Eshikdan kirib kelgan Ira bilan Tarasni sog'-omon ko'rdi-yu, ko'ngli tinchib, boshini shilq etib yostiqla tashladi.

– Xudoga shukr, bolalarim, parvardigor sizlarni o'z panohida asrabdi. Axir, o'sha la'nati bosqinchilarga ham qarab turgan balo bordir, ta'zirini berar...

Taras onasining bag'riga boshini qo'ydi. Eshik oldida rangi o'chib turgan Ira Zoya Andreyevna bilan salomlashdida, nonushta tayyorlagani oshxonaga kirib ketdi.

Zoya Andreyevna o'g'lini erkalab, yuzlaridan, peshonasidan o'pdi, kaftlari bilan bintlangan yaralarini siladi, hol-ahvolini surishtirarkan, qo'qqisidan so'rab qoldi:

– Seryoja qani?

– Jangchilar ichida, – javob berdi Taras g'urur bilan.

– Qanday jangchilar?

– Jangchilar daryo bo'yida istehkomlar qurishyapti. U ham o'sha yerda.

– Xudoga shukr, – dedi Zoya Andreyevna chuqur xo'rsinib, – bizni ham qo'riqlaydigan, himoya qiladigan jangchilar bor ekan-ku. O'zi sog'mi axir yoki senga o'xshab o'q yeganmi?

– Xavotir qilmang, Zoya xola, – dedi eshikdan kirib, dasturxon tuzatayotgan Ira uni yupatib, – nonushta tayyor.

U hamisha gapirganida shirin tabassumi yuzlarini yoritib turardi. Qizning bu yoqimtoyliги Zoya xolani maftun etar va u «Omon bo'lsam, bo'y yetgach Tarasga olib beraman» degan fikrni ko'nglining bir uchiga tugib qo'ygan edi.

Shu payt qizil askarlar dushman snaryadlaridan zarar ko'rgan okoplarni, artilleriya pozitsiyalarini tuzatish bilan

band edilar. O'qqa tutish natijasida bitta to'p zararlangan, uni bir chekkaga sudrab olib borib qo'yishdi.

– Dushman hademay hujumga o'tishi mumkin, – dedi leytenant Seryojaga, ular Tixaya daryosining tikka qirg'og'iga yetganlarida, – nemislar qishloqni tasodifan o'qqa tutishmadi. Aftidan, ular bizning bu yerda yangi istehkomlar qurayotganimizdan xabar topishganga o'xshaydi.

Leytenantni kimdir chaqirdi.

– Kechir, Seryoja! – dedi u ketayotib. Leytenantni yaqindagi okoplardan birida telefonga chaqirishgan edi.

Seryoja Temirovning trubkaga: «Yest! Yest! Xuddi shunday!» – deganini eshitib turardi. Nihoyat leytenant okopdan chiqdi.

– O'rtoq Yesenin, balki uyingga borarsan?

Seryoja komandirning hazil aralash «O'rtoq Yesenin» deganidan ruhlandi-yu, «balki uyingga borarsan?» deganidan hayron bo'lib so'radi:

– Nima uchun?

– Hayron bo'lma, Seryoja, – dedi Temirov, – qismlarimiz yangi, qulay marralarga joylashib oldilar. Fashistlar bo'lsa bu marralar Beryozovkada deb o'ylab, Beryozovkani o'qqa tutdilar. Endigi hujum jangga tayyor turgan katta qismlarimizga emas, balki Beryozovkaga bo'ladi. Tushundingmi?

– Tushundim, o'rtoq komandir.

– Tushungan bo'lsang, uyga marsh!

Seryoja bir zum yerga tikilib qoldi, «Bu nima, ishonchsizlikmi?» degan fikr ko'nglidan o'tdi, leytenantning ko'ziga tik qarab so'radi:

– Ishonchingizni qozonish uchun nima qilay, o'rtoq leytenant?

Temirov bolaning ko'ngli ich-ichidan o'ksiganligini sezdi-da, vaziyatni yumshatish maqsadida javob berdi:

– O'rtoq Yesenin! Qonli jang paytida biror falokat yuz bersa nima bo'ladi? Axir, hali yoshsan-ku?

– Siz qarib qolgansizmi?
– Men soldatman!
– Men pionerman, o‘rtoq leytenant.
– Pionerlar qasam ichgani yo‘q, o‘rtoq Yesenin!
– Bo‘ynimizga taqqan qizil galstugimiz siz ichgan qasam bilan baravar.

– Ofarin, o‘rtoq Yesenin! Maqsading nima?
– Maqsadim frontga yordam qilish, dadamga yordam qilish, yoningizda jangovar safda bo‘lish. Axir endi men otishni bilaman-ku! O‘zingiz o‘rgatgansiz!

– Yosh bola bo‘lsang ham, – komandir unga jilmayib, ancha yumshadi, – senday pionerga ishonmay bo‘ladimi, mayli, yonimda qol. Okopga bor. Hozir aytaman, senga miltiq berishadi. Lekin shartim bor, jang paytida buyruqsiz okopdan chiqmaysan.

– Yest, o‘rtoq leytenant! Buyruqsiz okopdan chiqmayman!

Shu-shu Seryoja oldingi marrada qoldi.

Leytenant okopga tushib, aloqa yo‘llaridan qayoqqadir shoshilarkan, qizil askarlardan biriga buyruq berdi:

– Sokolov, bu bolaga miltiq ber!

Kun notinch kutish bilan o‘tdi. Havo dim, issiq tinkani quritardi. Qizil askarlar galma-gal dam olishardi.

Kech kirib, quyosh qo‘shni Ignatovka qishlog‘i tomon botib borgan paytda o‘rmondan guruh-guruh va yakka holda chekinayotgan jangchilarimiz – qizil askarlar va komandirlar chiqa boshlashdi. Ko‘plari yarador edi.

– Shu atrofda medsanbat yoki gospital bormi? – so‘rashardi ular. Qishloqda na medsanbat, na gospital bor edi. Seryoja ularga tushuntirdi.

– Bor edi, ketib qolgan, qaysi tomonga ketganini aytolmayman.

Yaradorlar mudofaadagi qizil askarlar bilan yonma-yon okoplarga joylashib olishdi. Ular oldingi marralardagi ahvol haqida suhbatlashar edilar.

- Nemis yopirilib kelyapti!
- Ko‘p talafot ko‘ryapmiz.
- Polkimizdan ikkita rota qoldi, ular ham to‘liq emas.
- Jangchilarimiz oxirgi tomchi qonigacha qattiq qarshilik ko‘rsatishyapti.

Tun bir qadar tinch o‘tdi. Lekin tong otar-otmas nemis qo‘shinlarining oldingi qismi o‘rmondan ochiq dalaga chiqib, Beryozovkaga olib keladigan yo‘ldan shiddat bilan yopirilib kela boshladi. Mashina va mototsikllarning chiroqlari tong qorong‘iligida ilondek o‘rmalab kelardi. Bosqinchilar bir hamla bilan Beryozovkani ishg‘ol qilib, so‘ngra sal naridagi temiryo‘l stansiyasiga chiqmoqchi edi. Ular katta yo‘ldan daryoga yaqinlashib qolsalar ham, o‘t ochishga buyruq berilmagan edi. Dushmanning har bir qadami to‘pchilarimiz, pulemyotchilarimiz va tankka qarshi o‘t ochuvchilarning qattiq nazorati ostida edi.

Sal-pal tong yorishdi. Tap-tap etib qadam tashlayotgan hisobsiz fashist soldatlari ham, gumbur-gumbur qilib kelayotgan tank va bronetransportyorlar, mototsikllar ham endi bemalol ko‘rina boshladi. Kolonnaning oldingi qismi kolxoz fermasiga yaqinlashganda, telefonda o‘tirgan navbatchi leytenantga trubkani tutdi. Leytenant telefonda berilgan buyruqqa bir og‘iz so‘z bilan «Yest!» deb javob qildi-yu, darhol pulemyotchilarga «Ogon!» deb buyruq berdi. Pulemyotlar bir me‘yorda sayray ketdi. Xuddi shu paytda to‘plarimizdan o‘q uzildi, tanklarga qarshi o‘q otuvchilar qizg‘in ishga kirishib ketdilar. To‘plardan otilgan snaryadlar ko‘zlangan joyga tushib portlar, dushmanning soldatlarini ham, texnikasini ham qiyratardi. Tong yorishi bilan o‘t ichida yonayotgan tanklar, to‘plar, bronetransportyorlar ko‘zga yaqqol ko‘rinardi.

Ayniqsa, pulemyotlardan yog‘ilib turgan o‘q, ochiq daladagi yo‘ldan kelayotgan nemis-fashistlarni qiyratardi.

Chindan ham o'q tinim bilmay, yomg'irday yog'ardi. Atrofda biror pana joy topolmagan nemislar yer bag'irlab yotardilar. Seryoja yerto'la-okopdan ochiq dalada yer tishlab yotgan soldatlarni ham, yonayotgan tanklar, transportyorlar, mototsikl va mashinalarni ham ko'rib, ich-ichidan quvonardi.

Kutilmaganda osmonda fashist samolyotlari paydo bo'ldi. Samolyotlar jang maydoni ustidan pastlab uchib, askarlarimiz o'rnashgan joylarni bombardimon qila boshladi. O'ng qirg'oqdagi hamma narsa xirmonday sovurildi, faqat daraxtlarning shilingan tanalari tikkayib turardi. Uzoqqa otadigan to'plar ham qirg'oqdagi jangchilarimizni nishonga olib ota boshladi. Ko'p talafot berildi. Biroq, azamat jangchilarimiz dushmanga qaqshatqich zarba berishni tobora kuchaytirardilar, jang tobora qizib borardi.

– Ogon! – komanda berdi Temirov.

Seryoja ham ikki marta o'q uzdi, lekin taxminlab otdi, nemislar ancha uzoqda edi. To'plarimiz, tankka qarshi otadigan miltiqlarimiz, pulemyotlarimiz o'q yog'dirardi.

Dushman maydon bo'ylab to'zg'ib ketdi. Katta yo'lda harakat ancha susayib qoldi. Bronetransportyorlar va tanklar o'rmalab yo'ldan chekkaga chiqardi. Mototsiklchilar besaranjom nari-beri yugurishib qolishdi.

Seryoja yana bir marta o'q uzdi. Nazarida undan yuz metrcha narida chopib ketayotgan nemis ag'darilib tushdi. Sal nariroqda ikki nemis o'tirgan mototsikl ko'rindi. Seryoja uni nishonga ola boshladi. Lekin nima sababdandir qo'llari titrar, nishon titrardi. Nihoyat, u o'q uzdi va mototsikl birdan to'xtab, yon tomonga og'a boshladi. Mototsikldan yiqilib tushgan nemislar avtomatlaridan o't ochishdi.

Nemislarning artilleriyasi o'rmon yoqasidan Beryozovkani o'qqa tutdi.

– Qani, yondagi okopga, pulemyotchilar oldiga yugur! – qichqirdi leytenant Seryojaga. – Ko'p talafot ko'rishdi. Yordam qil!

Seryoja qo'shni okopga tashlandi. Birinchi pulemyotga yetib oldi-yu, birdan hamma ovozlari allaqayoqqa yo'qolib, hammayoqni zim-ziyo qorong'ilik bosdi.

U ag'darilib tushdi.

VI

– Yaxshiyamki oskolka suyakka tegmagan, yomon bo'lardi, – dedi sochlari mosh-guruch oqargan, past bo'yli, to'ladan kelgan o'rta yoshlardagi hamshira. – Bu yog'idan qo'rqma, hammasi joyida bo'ladi.

– Men qayerdaman? – tushunolmasdi Seryoja.

– Jim yot, uydasan, – dedi hamshiraning orqasida turgan Ira.

– Qanday qilib uyga kelib qoldim?

– Qanday bo'lmasin kelibsan-da, u yog'ini o'ylama, – dedi hamshira. – Soningdan yaralanibsan, xavfli emas, oskolkani oldim. Bir-ikki kunda tuzalib ketasan. Endi men boray. Otishmalar tobora zo'rayyapti, yaradorlar ham ko'pdir. Vaziyat og'ir, ehtiyot bo'linglar, – dedi-da, sanitar sumkasini qo'lga oldi, xayrlashib, chaqqonlik bilan eshikdan chiqib ketdi.

Ira nima bo'lganini Seryojaga aytib berdi. U jang vaqtida qizil askarlarga suv olib borganida leytenantni ko'rib qolibdi. «Yeseninlarning uyi qayerda?» – deb so'rabdi u. «Ehtimol Yesinlardir», – debdi Ira. «Yesinlar bo'lsa, Yesinlardir, bari bir emasmi? O'zing kim bo'lasan?» – deb so'rabdi leytenant. «Men ham Yesinaman», – debdi Ira. «Yesina bo'lsang men bilan yur», – debdi leytenant. Ira bilan leytenant daryo qirg'og'iga tushib, kichkina bir yerto'laga kirishibdi. O'sha joyda Ira plashpalatkada yotgan Seryojani ko'ribdi. «Hamshira sizlarni kuzatib boradi, yarasini ham bog'laydi. Bu yerdan tez ketinglar, biron kor-hol bo'lmasdan...» – debdi leytenant. Ira bilan hamshira Seryojani uyga olib kelishibdi.

- Shuncha vaqt hushimga kelmadimmi?
- Yo‘g‘-e! Aksincha! Nuqul so‘kina berding! – uni ovutdi

Ira.

- Qiziq. Hech narsani eslolmayman.

Deraza orqasida Taras ko‘rindi.

- Kirsam maylimi?

Taras kirishi bilan Seryoja bu yoqda qolib, Iraga yuzlandi.

- Seryojaga nima bo‘ldi?

Ira hammasini aytib berdi.

– Tarasik, – dedi Seryoja boshini ko‘tarib,– endi ikkalamizning ham tanamizda fashistlar otgan o‘qning izi bor.

Taras darhol uning karavotiga engashdi:

– Demak, fashistlar o‘qidan senga ham, menga ham nasib qilibdi-da.

– Bu ularga qimmatga tushadi, – dedi tetik ohangda Seryoja. – Zoya xolamning sog‘liqlari qanday?

– Yomon, juda yomon, dori-darmonlar ham naf bermayapti, – dedi ma‘yuslik bilan Taras.

– Har holda onangni yaxshi vrachga ko‘rsatish kerak, – dedi Ira.

- Hozir yaxshi vrachni qayoqdan topasan?

– Ha-ya.

Taras Seryojaning yoniga o‘tirdi.

- Nemislarni o‘z ko‘zing bilan ko‘rdingmi?

– Ko‘rdim. Juda ko‘p. Bilasanmi, nazarimda bittasini o‘ldirdim ham shekilli...

- Rostmi! Zo‘r-ku!

– Ammo qanday yarador bo‘lganimni sira eslolmayapman.

Seryoja yarador bo‘lganidan ich-ichidan xursand ham bo‘lardi. Har holda u haqiqiy jangda qatnashib yarador bo‘ldi-da. Yarasi esa, hamshira aytganidek, xavfli emas, tezda tuzalib ketadi.

– Qo‘ling qalay?

– Hozircha yaxshi emas, – iqrор bo‘ldi Taras. – Ko‘tarish qiyin. Bukish ham.

– Sen, og‘ayni, qo‘lingni mashq qildir, zo‘rma-zo‘raki mashq qildir. Og‘riq bersa ham, bari bir mashq qilaver... Bilasanmi, suv solingan paqirni ko‘tarib mashq qilib ko‘r-chi... Oldiniga yarmidan kam suv solingan paqirni ko‘taraver, ko‘taraver, keyin yarim paqir... So‘ngra to‘la qilib ko‘tar. Har kuni mashq qilaver, mana meni aytdi dersan, qo‘ling ishlab ketadi.

– Hozir, sizlarnikida mashq qilib ko‘rsam maylimi? – so‘radi Taras. – Paqir qayerda?

Ira oshxonadan paqir olib keldi.

– Men quduqdan suv olib kelay, – dedi Taras.

Uzoq qolib ketdi. Xomush kirib keldi.

– Nima, bo‘lmayaptimi? – so‘radi Seryoja.

– Yo‘q, bo‘lyapti, hatto og‘rimayapti ham. Boshqa narsa...

– Nima bo‘ldi?

– Nemislar hujum boshlashdi. Qo‘shinlarimiz chekinib, daryoning bu qirg‘og‘iga o‘tib olishdi.

– Yur, ko‘ramiz, – dedi Seryoja.

– Turishing mumkin emas-ku, – dedi Ira.

– Nega mumkin emas? Bo‘lmagan gap! O‘zimni juda yaxshi sezyapman, – Seryoja karavotdan sakrab tushdi va oyog‘ini polga bosdi.

– Og‘riyaptimi?

– Aslo! – dedi Seryoja tetiklik bilan. Aslida esa og‘riqdan ko‘zlari tinib ketgandi.

Ostonadan hatlab tashqari chiqishdi. Bu yerdan daryo qirg‘og‘ining katta bir qismi yaqqol ko‘rinib turardi. Goh u yoqdan, goh bu yoqdan otishmalar, snaryadlarning portlashi, pulemyotlardan ketma-ket otilgan o‘q ovozlari eshilib turardi. Osmonni qop-qora tutun qoplab olgandek edi.

– Men oyimning oldiga boray, – dedi bo'shashibgina Taras.

– Bizlar ham boramiz, – dedi Ira.

– Menam... – duduqlandi Seryoja.

– Senga mumkin emas-ku, mayli yurib ko'r-chi, – dedi Ira. – Ehtimol menga rayon markaziga borib kelish zarur bo'lib qolar, Taras bilan ikkoving Zoya Andreyevnaning oldida bo'lib turarsizlar.

Ular kirib kelishganda Zoya Andreyevna nafasi bo'g'ilib, entikib yotardi. Lablarigacha ko'karib ketgandi.

– Men g'izillab kasalxonaga borib kelay, – dedi Ira. – Bu ahvolda vrachsiz bo'lmaydi... – u darhol uydan chiqib ketdi.

Taras Zoya Andreyevnaning boshini sal balandroq ko'tarib, o'ng'ayroq qilib yotqizdi. Keyin sut ichirdi. Bemor sal yengil tortgandek bo'ldi. Lekin ko'p o'tmay yana yo'tal boshlandi, yana nafasi bo'g'ildi. Kasalning xuruji yana takrorlandi. Shunday xurujlardan birida u chudur entikib, boshini o'ng tomonga tashladi-da, hushidan ketdi. Taras beixtiyor dodlab yubordi.

– Nashatir bormi? – so'radi Seryoja.

– Qayerdadir bor edi. Hozir...

Nihoyat, Taras nashatirni topdi. Seryoja tiqinini ochib, shishachani Zoya xolaning yuziga tutdi. Uning qovoqlari sal titrab ketdi, so'ngra og'ir va astagina nafas olib, ko'zlarini ochdi.

– Rahmat, o'g'lim!

Ira uch soatlardan keyingina qaytib keldi va shilq etib stulga o'tirarkan, umidsizlarcha dedi:

– Hammasi tamom, kech qolibmiz. Kasalxona evakuatsiya qilinayapti. Vrachlar ham, hamshiralar ham bemorlar bilan, birga aravalarga tushish bilan band. Yuraklariga qil sig'adigan emas...

– Bo'lmagani ham yaxshi, – dedi sekingina Zoya Andreyevna. – Hech kasalxonaga borgim yo'q.

Xayriyatki, kechasiga borib uning ahvoli ancha yengillashdi.

– Xudoga shukr, – deb qo‘ydi u. – Ertalabdan beri birinchi marta ovqat yegisi kelib qoldi.

– Ko‘chaga qaranglar! – birdan qichqirib yubordi Seryoja. – Bu nima o‘zi?

Uchalasi ham yugurib ko‘chaga chiqib ketishdi. Uy oldidan boshlarini quyi solgan qizil askarlar, ularning orqasidan to‘plar ortilgan ikkita yuk mashinasi va aravalar o‘tib borardi.

– Qayoqqa? – dedi Seryoja yo‘lga tushib.

Qizil askarlar churq etmasdan qadam tashlab borishardi, hech kim javob bermadi.

– Leytenant Temirov qayerda? – qichqirdi Seryoja. – Kim biladi, qayerda leytenant?

Yana hech kim javob bermadi. Seryoja soldatlar ketayotgan yo‘l bo‘ylab yugurdi:

– Temirov! O‘rtoq Temirov! O‘rtoq!..

– Leytenant yo‘q bu yerda. Qidirma, – dedi kimdir. – Komandirimiz yarador. Medsanbatga yuborishdi.

– Medsanbat qayerda?

– Kim biladi deysan, hozir medsanbat qayerdaligini. Hamshira uni aravada olib ketdi.

Tunni hammalari bedor o‘tkazishdi. Qismlarimiz Beryozovka qishlog‘idan chekinib, Suxaya daryosidan to rayon markazigacha cho‘zilgan dalani kesib o‘tadigan chuqur jar bo‘ylab mudofaa marrasini egallab olganlaridan Seryoja ham, Ira ham, Taras ham bexabar edilar.

Uy oldidan kolonnaning eng oxirida dala oshxonasi o‘tib borardi.

– Nemislar qayerda? – so‘radi Seryoja yoshi anchaga borib qolgan aravakashdan.

– Hozircha narigi qirg‘oqda, – tushuntirdi aravakash, – lekin ertalab bu yerga kelib qolishsa kerak...

Ertalab qishloq jimib qoldi. Ko'chada qimir etgan jon yo'q edi.

– Ehtimol, nemislar madad kutishayotgandir? – dedi o'zicha Seryoja.

Ira ham, Taras ham uning taxminiga hech nima deyishmadi. Zoya Andreyevna ham churq etmadi. Saharga borib uning ko'zi ilingandi.

Nemislar qishloqqa ertalab soat to'qqizda kirib kelishdi. Bolalar tashqaridan nemis tilida gaplashayotgan yoqimsiz ovozlarni eshitdilar. Hamma narsani tuman qoplagandek edi. Qishloq ko'chalari nemis qo'shinlari bilan liq to'lib ketgan. Ustidan brezent tortilgan obozlar, mashinalar, tanklar, mototsikllar galasi, artilleriya qurollari, har xil kalibrli to'plar, ot-aravalar... shuncha aslahalar katta yo'l, uning yon-verilariga, qishloq ko'chalariga, maydon va chorrahalariga shu qadar betartib joylashgan va tiqilib ketgan ediki, bular hammasi tun qorong'isida, bir kechaning o'zida bo'lganiga aql bovar qilmasdi.

Beryozovkani vahimali jimlik chulg'ab olgandi. Peshinlarda qishloqqa dushmanning yangi qismlari kela boshladi. Ularning oxiri ko'rinmasdi. Seryoja bilan Ira uylariga ketishga jur'at etolmay, Taraslarnikida qolib ketishdi. Kechqurunga borib Beryozovkaga tank batalyoni yetib keldi.

Qishloqni chulg'ab olgan vahimali jimjitlik Seryojaga sira tinchlik bermasdi. Shu yo'sinda bir kun o'tdi, ikkinchi kun o'tdi, mana uchinchi kun ham o'tib borardi. Birdan Taraslarning uyi oldiga kolyaskali mototsikl kelib to'xtadi.

Bolalar derazaga tashlanishdi.

– Nahotki?.. – deya oldi Taras.

– Nima? – tushunolmadi Seryoja.

– Qara... – dahshat va kutilmagan holdan Tarasning nafasi ichiga tushib ketdi.

Mototsikldan bo'yniga avtomat taqqan nemis, kolyas-kadan esa qo'lida tuguncha ko'targan grajdan kiyimidagi bir

kishi tushdi. Ularning oldiga ikki ofitser keldi. Hammalari gaplashib qolishdi.

Taras onasiga tashlandi:

– U yerda...

Eshik ochilib, uyga Gerasim Shulga kirib keldi:

– Salom! Himm... Kutmagan edilaringmi?

Oraga og‘ir sukunat cho‘kdi.

– Yo kelishimdan xursand emasmisizlar? – dedi ranjib Shulga.

– Bizlar boraylik, – dedi birinchi bo‘lib Seryoja. – Ira... – U sal oqsoqlanib uydan chiqib ketdi, ketidan Ira ham chiqdi.

– Himm... Xo‘sh, qanaqasan? – sovuqqina so‘radi Gerasim Zoya Andreyevnaning karavotiga yaqinlashib. – Tirikmisan hali?

– Mana, yotibman, – sekingina shivirladi Zoya Andreyevna. – O‘zing butunlay qaytib keldingmi? Muhlating tamom bo‘lmagan edi shekilli...

– Himm... Sovet qonunlariga ko‘ra tamom bo‘lmagan, nemis qonunlariga ko‘ra ayni payti, – dedi u zaharxandalik bilan.

Gerasim besh yil turmada o‘tirib, tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketgandi. Qarilik nuqsi urib, qalin soqoli oppoq oqargan, yuzlari burishib, peshonasini ajin bosgan edi.

Endigina uning ko‘zi o‘g‘liga tushdi:

– Himm... Katta bo‘lib qolibsan...

– Tarasik, bu yoqqa kel, jonim, bu otang, Gerasim bo‘ladi, – o‘g‘lini chaqirdi Zoya Andreyevna nimjon ko‘zlarini zo‘rg‘a ochib. U g‘amgin qo‘shib qo‘ydi: – Nemislar uni og‘ir yarador qilishdi...

Gerasim uning so‘nggi so‘zlariga e‘tibor bermadi.

– Turmaysanmi? – dedi u xotiniga.

– Turolmayman, – dedi Zoya Andreyevna.

– O‘g‘lim, himm... sen otang bilan salomlashmading ham-a? – qovog‘ini solib ta‘na qildi Gerasim Tarasga. – O‘pib

quchoqlasang arzimadimmi, shuncha turmada yotganimda ham biron marta mendan xabar olmading-a.

– Salom! – dedi zo‘rg‘a Taras.

– Himm... Bu bolalar kim edi?

– Qo‘shnimizning bolalari. Esingda yo‘qmi? – dedi Zoya Andreyevna.

– Qaysi qo‘shni?

– Yesinning. Otalari frontda. Anna Vladimirovnani esa nemislar bomba tashlab o‘ldirishdi.

– Sergey bilan Irami?

– O‘shalar... Menga qilgan yaxshiliklari uchun men ulardan o‘la-o‘lgunimcha minnatdorman.

– Himm... Minnatdor bo‘laver o‘sha la‘natilardan! – jahl bilan dedi Gerasim. – Bu – sovet hokimiyatidan minnatdor bo‘lish bilan bir.

– Sovet hokimiyati sizga nima yomonlik qildi? – g‘a-zablendi Taras.

– Jim tur, himm... menga aql o‘rgatishga hali yoshlik qilasan!

Gerasim qo‘shnisini ko‘rgani ko‘zi yo‘q edi. Yesinning ko‘p ishlarini sira-sira kechirolmasdi. Shulganing rayon matlubot jamiyatidagi nojo‘ya ishlarini birinchi bo‘lib fosh qilgan o‘sha Yesin edi. Shulga haqida raykomga Shaxov bilan birgalikda axborot bergan, Gerasimning ishi bilan prokuratura shug‘ullanishiga sababchi bo‘lgan o‘sha Yesin edi. Sudda guvoh sifatida unga qarshi chiqqan o‘sha Yesin bilan Shaxov edi. Boshqa guvohlar ham qatnashgan bo‘lsa-da, asosiy guvohlar Yesin bilan Shaxov edi. Undan oldin, rayon matlubot jamiyatigacha Shaxovning qat‘iy talabi bilan Shulga kolxoz a‘zolidan chiqarilganda birinchi bo‘lib shu taklifni quvvatlab ovoz bergan Yesin edi. Shunisiga chidolmasdi Shulga, shunisi alam qilardi. Hozir ham Yesin nomini eshitdi-yu, qishloqdan chiqib ketishi vaqtida yuz bergan janjalni esladi.

...Kolxozning umumiy majlisi davom etardi. Majlisda kolxoz ishiga chiqmay, hamisha savdogarchilik qilib yurgan, mast-alast holda bezorilik qilib, to'g'ri kelgan kishini haqoratlagan, undan ish talab qilgan brigadirga pichoq olib yugurgan Gerasim Shulgani kolxoz a'zolidan chiqarish masalasi ko'rilardi. Uning nojo'ya ishlari to'g'risida ko'pgina kolxozchilar g'azab bilan so'zladilar. Shular qatorida kolxozning bosh agronomi va boshlang'ich partiya tashkiloti sekretari Yesin ham so'zga chiqadi. U so'zini boshlashdan oldin Shulgaga: «Otang kim bo'lgan?» – deb savol beradi. Shulga bo'lsa unga xo'mrayib: «Otamning kimligini bilsang, aytaver», – deb zarda bilan javob qaytargandi. Shundan keyin Yesin majlis ahliga Shulganing otasi quloq qilinganini, sovet tuzumiga qarshi kurashganini, qishloq soveti raisini bo'g'izlab o'ldirganini, sud qililib, oliy jazoga hukm etilganini gapirib beradi va Shulgaga qarab: «Sen ham otangning izidan boryapsan», – deydi. Nafratlangan, g'azabga to'lgan xalq bir og'izdan «kolxozdan haydalsin», deb talab qiladi. Majlisga raislik qiluvchi Shaxov klubda ko'tarilgan shovqin-suronni bosib, oxirgi so'zni Shulgaga beradi. U bo'lsa o'rnidan ham turmay, o'tirgan joyida: «Kolxozsiz ham kunim o'tadi», – deb to'ng'illaganicha majlisdan chiqib ketadi. Shu-shu bo'ldi-yu, Gerasim dom-daraksiz yo'qoldi. Oradan bir necha yil o'tgach, u rayon matlubot jamiyatining mol saqlaydigan omboriga shofyor bo'lib ishga kirdi va to'rt oy o'tmasdanoq o'g'irlangan mol bilan qo'lga tushib, qamalib ketgan edi.

Kechasi Zoya Andreyevnaning ahvoli yana og'irlashdi. Taras birinchi bo'lib uyg'ondi va onasining oldiga yugurdi. Gerasim qattiq uxlardi. Taras uni yordamga chaqirmoqchi bo'lganida zarda bilan so'kib berdi.

Uch kun o'tgach, Gerasimni uyga olib kelgan fashist qayoqqadir chaqirib olib ketdi. Gerasim ko'p o'tmay shirakayf, shod-xurram, ixcham kiyinib, uyga qaytdi, yengiga oq bog'ich taqib olgan edi.

...Taras boshini quyi solib, sarosimaga tushgan holda Yesinlarnikiga kirib keldi.

– Tinchlikmi? – so‘radi Seryoja.

– Bilasizlarmi... Dadamni... Bilasizlarmi, dadamni starosta qilib tayinlashibdi. Uni turmadan bo‘shatgan ham nemislar ekan.

– Endi nima bo‘ladi?

– Bilmadim, – Taras g‘ujanak bo‘lib olgan, butun vujudi qalt-qalt titrardi.

VII

Partizan otryadining komandiri Fedotov keltirgan muhim axborotlar bilan tanishardi.

Sentabrning boshlarida qo‘shinlarimiz qarshi hujumga o‘tishlari kerak edi. Stavkaning rejasiga ko‘ra G‘arbiy front Smolenskning shimoli-g‘arbiy tomonida aktiv harakat boshlab, shu rayondagi dushman gruppasini tor-mor qilishi va Rezerv fronti qo‘shinlari bilan birgalikda harakat qilib, sakkizinchi sentabrda Velij – Demidov – Smolensk liniyasiga chiqishlari lozim edi. Rezerv frontiga Ostashkov – Selijarovo – Olenino – Dnepr daryosi – Spas – Demyansk – Kirov marrasida istehkomlar qurishni to‘xtatmagan holda, chap yon tomondagi ikki armiya bilan birgalikda hujumga o‘tish, dushmanning Yelnya gruppasini tor-mor etish, Yelnyani ozod qilib, Pochinsk va Roslavlga qarab hujumni davom ettirish haqida buyruq berildi. Bryansk fronti ikkinchi sentabrda hujumga o‘tishi, Pechen – Suraj rayonida dushman gruppasini yakson qilib, Pegrovichi – Osmolovichi – Belaya Dubrava – Guta – Koretskaya marrasiga chiqishi lozim. Shu vazifalarning hammasini bajarish G‘arbiy frontda vaziyatni o‘zgartirishi va Markaziy frontda dushmanning hujumini barbod qilishi kerak edi.

Xuddi shu paytda partizanlar dushmanga orqa tomondan bir necha joyda qaqshatqich zarba berishlari lozim edi.

Shaxov gruppasi komissarlarini yerto'lasiga chaqirib, o'z fikrlarini bayon etishlarini iltimos qildi. Birinchi bo'lib Ivan Ivanovich so'z oldi:

– O'rtoqlar, garchand yosh bo'lmasam ham, shunday taklif kiritmoqchiman. Ma'lumki, nemislar hash-pash deguncha rayon markazini ishg'ol qildilar, endi u yerda isgehkomlar qurmoqdalar. Bu tabiiy, chunki unda temiryo'l stansiyasi, tosh yo'llar va tosh terilmagan yo'llar birga kelib tutashadi. Agar...

Rayon markazi Durasovo degan g'alati nom bilan atalardi. G'alati nom bo'lsa ham, ammo uning tarixini bilganlar bu nomni hurmat bilan tilga olishardi.

O'tgan asrning boshlarida Durasovo o'rnida qandaydir pomeschchikka qarashli yer-mulklar va qishloq bo'lgan. Hozirda qishloqning nomini ham, yer-mulklar xo'jayinining nomini ham hech kim eslamaydi. Faqat shuni bilishadiki, u qattiqqo'l, g'arazgo'y kishi bo'lgan, o'ziga qarashli krepostnoylarni rahmsiz ravishda ekspluatatsiya qilgan. Nihoyat, krepostnoylar isyon ko'tarishgan. Bu qo'zg'olonga Durasov degan yosh dehqon boshchilik qilgan. Krepostnoylar pomeschchikning, uning qarindoshlari va yaqin kishilarining jazosini berganlar, ish boshqaruvchilarini qirib tashlab, mulklarini o'z qo'llariga olganlar. Pomeschchik o'rniga Durasovni o'tqizganlar. U uch haftadan ko'proq vaqt davomida, to chor qo'shinlari kelib, qo'zg'olonni bostirgunlarigacha qishloqqa hokimlik qilgan. Qo'zg'olon ko'targan dehqonlarning boshlig'i nima bo'lgani ma'lum emas, lekin bu joyni o'sha vaqtdan boshlab Durasovo deb atashadigan bo'lishibdi.

Shaxovga Ivan Ivanovichning fikri ma'qul tushdi:

– Haqiqatan ham, nemislar hali Durasovoda mustahkam o'rnashib olganlaricha yo'q. Bu – bir tomoni. Masalaning ikkinchi muhim tomoni shundaki, Durasovoga o'rmonlar orqali o'tib borish mumkin. Bu ham ahamiyatga ega.

Nihoyat, biz u yerda garnizonni tor-mor qilishgina emas, stansiyadagi eshelonlarni va yuradigan hamma sostavni yer bilan yakson qilishimiz mumkin.

– Ayt-chi, Ivan Ivanovich, bu operatsiyaga necha kishi kerak bo'ladi? – so'radi Konstantin Petrovich.

– Nazarimda ellik kishidan kam emas.

– Bu ko'p. Butun otryadimizda hozircha ikki yuz kishi. Bir emas, birato'la bir necha operatsiya o'tkazishimiz kerak.

– Kam bo'lsa qiyinroq bo'ladi. Buyoqda stansiya ham bor, – o'z aytganida turib oldi Ivan Ivanovich.

Bir fikrga kelib, qirq kishi ajratishga qaror qilishdi.

Yana ikki operatsiyaning planini ishlab chiqishdi. Biri Beryozovkaga olib boradigan katta yo'lda o'tkaziladigan operatsiya. Bu yo'lda dushmanning qo'shinlari va texnikasi beto'xtov qatnab turardi. Ikkinchi operatsiyani Ignatovka qishlog'ida o'tkazish mo'ljal qilindi. Bu yerda nemislar harbiy asirlar uchun lager tashkil etishgan edi.

Uchala operatsiyani bir kunda – birinchi sentabrda o'tkazishga qaror qilindi. Durasovodagi operatsiyaga suvoriylar gruppasini yuborishadigan bo'lishdi. Ivan Ivanovich Durasovo operatsiyasida shaxsan o'zi qatnashish istagini bildirdi.

– Har holda men otliq askar bo'lganman, bu menga mos ish, – dedi u.

Shaxov Ivan Ivanovichning ra'yini qaytarishga urindi:

– Axir, yarang tuzalmagan-ku, hali...

– Tuzalganmi, tuzalmaganmi – bari bir boraman. Operatsiya planini o'zim o'ylab topdimmi, demak, bu xuddi menbop ish, – dedi kekxa o'qituvchi.

Birinchi sentabr sahar paytida qirq otliqdan iborat gruppaga o'rmonlar osha rayon markazi tomon yo'l oldi.

Durasovogacha yigirma besh kilometrdan mo'lroq edi. Dastlabki o'n besh kilometr tinch o'tdi. Lekin o'n oltinchi kilometrda kutilmagan hol ro'y berdi: o'rmonni kesib

o'tadigan tosh terilmagan yo'ldan nemislarning otliq obozi o'tayotgandi. Hamma ma'lumotlarga ko'ra bu yo'l odamsiz bo'lishi kerak edi.

Partizanlar otlaridan tushib, yerga yotib oldilar. Ivan Ivanovich o'tayotgan obozlarni sanay boshladi: o'ttiz arava, qirq arava, obozning oxiri ko'rinmasdi. Birato'la obozga ham hujum qilish fikridan qaytishga to'g'ri keldi. Obozni mototsikllar va ikkita tanketka qo'riqlar, ularning biri obozning boshida, ikkinchisi oxirida borardi. Ko'rinib turibdiki, oboz Durasovoga ketyapti. Shu sababdan partizanlar marshrutni o'zgartirishga majbur bo'ldilar.

– Oboz o'tishini bir-ikki soat kutib turganimiz ma'qulmikin? – taklif qildi Ivan Ivanovich gruppaga komandiri Meshkovga.

– Vaqt bekor ketadi, – e'tiroz bildirishga urindi Meshkov.

– Boshimiz ketgandan ko'ra, vaqtimiz ketgani yaxshimi, deyman. Nima deysan?

– Mayli, sizning tajribangizga tan berdim, – istar-istamas rozi bo'ldi komandir.

– Boshqa variant ham bor, – dedi Ivan Ivanovich. – Sal chapga qarab yursak-chi. Shunisi ham borki, u yoq botqoqlik, unday desa hozir qurib qolgan ham bo'lishi kerak. Malkovoga chiqib, Zagorega o'tib olsak, u yog'iga yana o'rmonlar orqali yurish mumkin. U yerdan Durasovo juda yaqin.

– Bordi-yu, Malkovoda va Zagoreda nemislarning gornizonlari joylashgan bo'lsa-chi?

– Razvedka qilish mumkin.

– Bunga vaqt ketadi-da.

– Har qalay xavf-xatardan olisroq bo'lganimiz yaxshidir. Axir, bu yo'l o'rmonlar osha to'ppa-to'g'ri Durasovoga olib boradi-ku.

Partizanlar o'rmon ichkarisiga kirib, atrofi qalin malina butazori bilan o'ralgan katta yalanglikka joylashib olishdi.

Nemis obozlarini kuzatib turish uchun ikki jangchini yo'l yoqasida qoldirishdi. Bir soat o'tdi, bir yarim soat o'tdi. Birdan yo'lda yana qandaydir sharpani eshitishdi.

– Borib ko'ray-chi, – dedi gruppа komandiri. Ko'p o'tmay hayajonlangan holda qaytib keldi.

– Qani, tezlikda uch kishi men bilan yursin!

Talabgorlar ko'p chiqdi-yu, komandir faqat uch kishini tanlab oldi.

– Qani, tezroq bo'linglar! Har ehtimolga qarshi granatalarni ham taxt qilib qo'yinglar.

Hammalari diqqat bilan yo'l tomonga quloq solishardi. Nihoyat, kuchsiz otishma, portlash ovozlari eshilib, darhol jimib qoldi. Partizanlar o'lja bilan qaytib kelishdi.

– Buni qaranglar! Ikkita ofitser, denshchik, shofyor va bir dasta hujjatlar.

Gruppа komandiri ikkita planshetkadan xaritalar va qog'ozlar chiqarib, dedi:

– U yerda hali mashina ham bor, uni o'rmonga olib kirib qo'yish kerak. Qaytishda olib ketamiz. Yap-yangi «Mersedes-bens» kunimizga yarab qoladi.

Ko'p o'tmay ular yana yo'lga tushishdi, peshinda Durasovoga yetib qolishdi. Rayon markazi atrofida, partizanlar turgan o'rmon tomonda hech kim yo'q edi.

– Hujum yashin tezligida bo'lishi kerak! – uqtirdi o'rtoqlariga Meshkov. – Toki fritslar es-hushini yig'ib olishga ulgurolmasin. Bir gruppа – markazga. Ikkinchi gruppа – stansiyaga. Shishasi borlar hammasi stansiyaga.

Meshkov Ivan Ivanovichni ikkinchi gruppaga rahbar qilib tayinladi.

– Sizga stansiya topshiriladi, – dedi u.

Meshkovning komandasi bilan partizanlar o'rmondan otilib chiqishdi va qishloq tomon yeldek yugurib ketishdi.

Qishloqqa kiraverishdagi birinchi uydан sarosimaga tushgan uchta qurolsiz nemis chopib chiqdi. Ularni darhol

yer tishlatishdi. Faqat markaziy ko'chadagina dushman partizanlarga qarshilik ko'rsatdi – bir uyning muyulishidan ikkita qo'l pulemyoti o't ochdi. Meshkov o'sha muyulishga granata tashlagan edi, pulemyotlar darhol jimib qoldi.

Maydonda nemislar komendaturasining ikki tomonida pulemyot o'rnatilgan ikkita xandaq bo'lib, ikkita yengil to'p qo'yilgan edi. Lekin partizanlar ularning qarshiligini ancha tez bartaraf qildilar.

– Qani, stansiyaga! – qichqirdi komandir Ivan Ivanovichga.

Ivan Ivanovich o'z gruppasini boshlab, shitob bilan o'ng tomondagi teraklar o'tqazilgan ko'chaga kirib ketdi. Stansiya maydonga yaqin edi. Ivan Ivanovich stansiyaga hujum qilish oson bo'lmasligini darhol tushundi: vokzal binosi oldidagi maydonda u yuzdan ortiq nemisni ko'rdi.

Partizanlar o't ochgan holda maydonga yopirilib kirib, shitob bilan platformaga va temiryo'l izlariga tashlandilar.

Stansiyada benzin sisternalari sostavi tirkalgan parovoz burqirاتب tutun chiqarib turardi, sal narida tovar-nassajir sostavi ko'rindi. Sisternalar va vagonlarga granatalar va yonilg'i solingan shishalar otildi, parovozga dasta qilib bog'langan uchta granata tashlandi. Es-hushini yo'qotgan nemislar stansiyada avtomatlardan ketma-ket otilgan o'q yomg'iri ostida yiqila-tura u yoqdan-bu yoqqa yugurishardi. Besh minut ham o'tmasdan hammasi jimib qoldi. Ikkala sostav ham buruqsib yonardi.

– Orqaga! Orqaga, o'rtoqlar! – qichqirdi Ivan Ivanovich. Qishloqdan yakka-yakka otishma va portlash ovozlari eshitilardi, aftidan, Meshkov gruppasi ham o'z ishini oxiriga yetkazayotgandi. Ivan Ivanovich partizanlarni stansiyadan to'g'ri dalaga, u yerdan esa o'rmonga olib chiqdi. Meshkovning partizanlari ham shu yerda edi.

– Talafotingiz qancha? – so'radi Meshkov. – Bizda uch kishi halok bo'ldi, ikki kishi yengil yarador.

– Bizda halok bo‘lganlar yo‘q, – Ivan Ivanovich o‘z partizanlariga bir-bir ko‘z yugurtirib chiqdi. – Yaradorlar ham yo‘q. Buni qarang, ajoyib-g‘aroyib ishlar-a!

– Afsuski, halok bo‘lganlarning jasadini olib ketishga ulgurmadik, – dedi alam-iztirob bilan Meshkov. – Petrovchikov, Kudasov, Solonitsin... Ularning xotirasi qalbimizda abadiy saqlanadi!

Ikki soat o‘tar-o‘tmas ular lagerga yetib kelishdi. Kechqurunga borib boshqa gruppalar ham topshiriqni bajarib qaytishdi.

– Bu sizga, Konstantin Petrovich, bizdan sovg‘a, – hazillashdi Meshkov. – Bunisi kaliti, bunisi – mashinaning o‘zi. Endi parad qabul qilsangiz ham bo‘ladi!

– Men senga aytsam, juda xursandman, do‘stim, – dedi Misha bobo Ivan Ivanovichga. – Senga havasim keladi! Meni esa topshiriqqa yuborishmaydi. Partizan ustaxonasidan chiqmay qurol-aslahalarni remont qilib o‘tirganim-o‘tirgan!..

10-sentabrda Shaxov partizanlarni yig‘ib miting o‘tkazdi.

– Birinchi sentabr kuni biz anchagina ish bajardik, – dedi u. – Sizlarga yashirin partiya raykomi va Qizil Armiya qo‘mondonligi nomidan tashakkur e‘lon qilaman. Endi frontdan olingan xabarlarini eshitinglar. 16-armiya Vop daryosini jang bilan kesib o‘tgan, Duxovshchina rayonida dushmanga qaqshatqich zarba bergan. Dushman katta talafot ko‘rgan: 130 ga yaqin tanki, 100 dan ortiq avtomashinasi, juda ko‘p o‘q-dorilari, ko‘plab qurolli kuchlarini yo‘qotgan. 24-armiya Yelnya rayonida dushmanning qarshiligini sindirib, uni g‘arb tomonga uloqtirib tashlagan. Yelnya ustida yana sovet qizil bayrog‘i o‘rnatilgan. G‘arbiy front qo‘shinlari Velikiye Lukidan to Mozirgacha bo‘lgan katta frontda nemis-fashist bosqinchilarni o‘z kuchlarini bo‘lib-bo‘lib yuborishga majbur etishgan. Rogachevo, Jlobin, Yarsevo rayonida Qizil Armiya gitlerchilarga katta talafot yetkazgan.

Qizil armiyaning sentabr boshlaridagi qarshi hujumi dushman uchun sira kutilmagan zarba bo‘ldi.

VIII

Otasining qo'qqisidan qishloqqa kirib kelishi Tarasning boshiga osmon o'pirilib tushganday bo'ldi. Kelganda ham qanday keldi deng, o'z qishlog'i, kindik qoni to'kilgan, o'sib-ulg'aygan, uyli-joyli, bola-chaqali bo'lgan ona qishlog'iga ta'zim qilib, salom beribmas, dushman bo'lib, jonajon yurtimizga bostirib kirgan yirtqich fashistlarning yuvindixo'ri bo'lib, amaldori bo'lib, starosta sifatida kirib keldi. Ana shunisiga chidolmasdi Taras. Bu hol bemor xotini uchun ham, bo'y cho'zib, aqlini tanib qolgan o'g'li uchun ham or-nomus, sharmandalik edi. Endi qishloq aholisi ularni «sotqinning xotini, sotqinning o'g'li» deb atashadi, har birining bosgan qadamiga, har birining og'zidan chiqqan so'ziga shubha bilan qaraydi. Taras-chi? Endi Taras kim? U qishloqdagi o'rtoqlariga ham, ayniqsa, o'zi uchun ardoqli bo'lgan Seryoja bilan Iraga ham qaysi yuz bilan qaraydi? Taras endi ko'chaga ham chiqolmay qoldi. Tanish-bilishlar bilan yuzma-yuz bo'lishdan qo'rqardi. Mana bir haftadan beri Seryoja bilan ham, Ira bilan ham ko'rishgani yo'q. Ayniqsa, sevimli do'sti, onasining panohgohi Iraning: «Endi sen kimsan, Tarasik?» – deb ta'na bilan aytgan so'zlari uning qulog'i ostida muttasil eshitilib turardi. Axir, bu savolni o'rtoqlari ham, barcha tanish-bilishlari ham berishi mumkin. Bunday so'roqqa nima deb javob bersin? Og'riq azobini chekayotgan onasining oldida o'tirib, dahshatli o'y-xayolga cho'mardi va har zamonda o'tin saqlanadigan saroyga kirib, piq-piq yig'lab olardi. Unsiz, behol yotgan onasi bir kun «bu qanday qismat, bu qanday musibat?» deya chuqur uh tortib shunday nolish qildiki, bu so'zlar Tarasning yuragiga xanjar bo'lib qadaldi. Otasidan qanchalik nafratlansa, onasiga shunchalik rahmi kelardi.

Nima qilishini bilmay, o'y-xayol zulmatiga sho'ng'ib ketgan Taras qo'qqisidan Ivan Ivanovichning: «Ota uchun bola javobgar emas», degan so'zlarini esladi. Qani endi,

Ivan Ivanovich qishloqda bo'lsa-yu, Taras unga yuragida kechayotgan tug'yonni, boshiga tushgan musibatlarni aytib, maslahat so'rsa. «U ham Misha bobo bilan til biriktirib, partizanlarga qo'shilib ketgan. Qayoqdan topib bo'lardi. Bari bir, men sotqinning o'g'liman, – dedi u o'kinch va alam bilan saroyda ko'z yoshlari yuzlarini yuvib o'tirarkan. – Urush paytida sotqinning jazosi bitta – o'lim!» U xo'rliги kelib, o'pkasi to'lib, yana yig'ladi. Shu paytda ichkaridan otasining qo'pol ovozi eshitildi:

– Taras... Himm... Taras deyman!

Taras ko'z yoshlarini artib, chopib chiqdi, otasiga yaqinlashdi. Gerasim shapkasini burnining ustiga tushirib kiyib, ko'cha eshik tomonga yo'l oldi. Keta turib, o'g'liga buyruq ma'nosida dedi:

– Himm... Onangni pastki xonaga ko'chir, uyni yig'ishtir. Kechqurun oliy martabali mehmonlar keladi.

Taras otasining sovuqqonlik bilan qilgan buyrug'i o'zi uchun xo'rlik, onasi uchun haqorat va zulm bo'lsa ham og'zini ocholmay, yog'ochday qotib qoldi. U nima qilishni bilmay, bir nafas xayol surib turdi-da, Seryojaning oldiga chiqdi va or-nomus azobida undan maslahat so'ramoqchi bo'ldi.

Seryoja ham, Ira ham uni sovuqqina kutib olishdi, yuziga ham qarashmadi, Seryoja qo'lidagi jurnalni varaqlash bilan ovora, Ira qandaydir yirtiq-yamoq bilan band bo'ldi. Oraga o'zaro shubha aralash jimlik cho'kdi.

– Balkim bekor kelgandirman? – duduqlandi Taras.

– Nimasi bekor, o'tir, – to'ng'illadi boshini ko'tarmasdan Seryoja.

– Maslahatlashmoqchi edim...

– Nimani?

Seryojaning qalbini turli-tuman shubhalar timdalardi. O'rtogi Tarasni qanchalar yaxshi ko'rsa-da, unga qanchalar suyanib qolgan bo'lsa-da, Gerasimning qaytib kelishi,

starosta bo'lib tayinlanishi Seryojani o'rtog'idan tobora uzoqlashtirardi. Nimasi bilandir yoqmay ham qolgan edi unga. Bir chekkasi «sen sotqinning o'g'lisan», deb uni nafrat bilan ko'krigidan itarishni o'ziga ep ko'rmasdi, «Taras aybdor emas-ku», – derdi o'ziga-o'zi. Gap faqat undagina emas. Nemisning ishonchli vakili Shulganing Tarasga munosabatini o'zgartirsa, Gerasim hukmron bo'lgan qishloqda o'zining, singlisining taqdiri ne kechadi? Shulganing qo'lidan hamma narsa keladi. Ularni kommunistning bolalari, partizanning nevaralari deb otishdan ham, osishdan ham toymaydi.

Ikkinchidan, Taras bilan yuzaki bo'lsa ham iliq munosabatni davom ettirib, shu bilan starostaning va starosta orqali nemis qo'mondonligining planlarini bilib turish ham foydali.

Seryoja uzoq o'yladi. Miyasiga kelgan ikki fikrni qayta-qayga sinchiklab taqqosladi.

– Kechqurun dadamning oldiga oliy martabali mehmonlar keladi. Ovqatlariga biron narsa solib, jonlarini jahannamga yuborsammikin?

– Esingni yeb qo'yibsan! – deb yubordi Seryoja.

– Nega? – tushunmadi Taras. – Birato'la dadamdan ham qasdimni olardim.

– O'zingning ham boshing ketadi, boshqalarning ham boshiga yetasan, – qat'iyon bu fikrga qo'shilmadi Seryoja. – Haqiqiy vatanparvarning ishi emas bu! Sabr-toqat, dadillik, qolaversa, hiyla ham kerak. Biron ishni boshlashdan oldin hamma narsani o'ylab-chamalab ko'rish zarur.

– Menimcha, Taras, Seryoja haq, – akasini quvvatladi Ira. – Ehtimol, ba'zi narsalarga aqlim yetmayotgandir-ku, ammo, menimcha ishimiz uchun otangdan foydalanish kerak.

– Qandoq?

– Bu yog'ini o'ylab ko'rish kerak, – mujmal javob berdi Seryoja. – Hozircha shundoq qilamiz. Sen onangni pastki

xonaga ko'chirasan, begona odamlardan uzoqroq bo'lgani yaxshi. Stol tuzab otang bilan mehmonlarni kutib olasan. Ira senga yordam beradi.

– Men-a? – jahli chiqdi Iraning.

– Ha, sen, tortishma, qarshilik qilma, – so'zida davom etdi Seryoja. – Kechqurun mehmonlar kim ekanini, o'rtada qanday gaplar bo'lganini bilish kerak. Bularning hammasi yarab qolishi mumkin.

– Yo'g'-e? – Ishonqiramay, lekin xursand bo'lib so'radi Taras.

– Ishonchim komil! – dedi Seryoja. – Gap tamom, ishga kirishaver.

Taras o'rnidan turib, uyiga shoshildi.

– Ketingdan men ham yetib boraman, – dedi Ira.

Otasi uyda yo'q edi. Taras onasini bezovta qilgisi kelmadi, hozircha unga hech narsa demadi.

Nihoyat otasi kirib keldi:

– Himm... Bu nima gap? Nega aytganimni qilmading?

– Oyimga rahmim kelyapti, – dedi Taras. – Axir qanday ko'nglingiz bo'ladi. U og'ir kasal bo'lib yotibdi-ku.

– Himm... Ko'z yoshi qilishingni qara-ya, – kulib yubordi otasi. – Kim seni er-yigit deydi. – «Hozir bajarasan» degandek o'qraydi Gerasim.

Taras noiloj boshini egib pastki xonani hozirlashga ketdi. Hammasini tayyorlab, onasi oldiga keldi.

– Oyijon, sizni pastki xonaga ko'chiray, u yer xoliroq, tinchroq... Xullas, dadamdan nariroq.

– Mayli, bolam, ko'chirish zarur bo'lsa...

– Zarur, oyijon, zarur...

U yostiqni, ko'rpani, choyshabni pastki xonaga olib tushdi, joy soldi, so'ngra onasini turg'izishga yordamlashdi.

– Sekin, sekin!

– Xavotir olma, o'g'lim, tuzukman, ancha durustman...

Hammasini tugatgach, Taras bo'shab qolgan xonani supurib-sidirib yig'ishtirdi, stolni xonaning o'rtasiga surib atrofiga stullar, kursilarni qator qilib qo'ydi.

Ira kirib keldi:

– Qani, nima qilish kerak, ayt.

– Hozir dadam keladi, o'zi aytadi, hozircha sen bilan stol tuzaymiz.

– Mehmonlar kimlar ekan, bildingmi? – so'radi Ira.

– Yo'q hozircha. Ulgurmadim. Yana o'ylab qoldim...

– Tentak ekansan! – jahli chiqdi Iraning.

Ira ichida o'ylardi: «Agar Taras mehmonlar kimligini bilganida edi, Vasiliy amaki bilan maslahatlashib olish mumkin bo'lardi. U qanaqa ma'lumotlar muhimligini aytib berardi...»

– O'sha oliy martabali mehmonlar fashistlar bo'lsa-chi? – so'radi Taras.

– Juda soz! – dedi Ira. – Nahotki tushunmayapsan?

Ular stol yasatishdi, likopchalar, stakanlar, ryumkalar qo'yishdi, quduqdan ikki paqir suv olib kelishdi.

Kech kiryapti. Yozning jazirama issig'i allaqachon o'tib ketgan. Sentabrning o'rtalari. Kechalari ancha salqin va zax. Tez-tez maydalab jonga tegadigan yomg'ir yog'ib turadi.

Soat yetti bo'lmasdan otasi yoshgina va silliqqina, sartaroshga o'xshagan bir ayolni boshlab kirib keldi. Hamma ish o'zi aytganicha tappa-tayyor qilib qo'yilganini ko'rib, quvondi.

– Himm... Hammasi tayyormi? Juda soz! Ofarin! Endi boringlar, o'ynanglar. Mariya bilan biz... Mariya xolang ovqat pishiradi.

Gerasim Mariya bilan rayon matlubot jamiyatida ishlay boshlagan kezlaridanoq yaqin aloqada edi.

...Rayon matlubot jamiyati omborining mudiri Proxorovning bitta-yu bitta arzandasi Masha husn-jamolda

tengqurlaridan ajralib turardi. Bilmaganlar uni Proxorovning qizi desa ishonmasdi. Chunki otasining beso'naqay gavdasi, badbashara, hamisha so'lg'in, sap-sariq yuzlariga, milklari qizarib yuradigan ko'zlariga hech qayeri o'xshamasdi. Masha onasiga tortgan edi. Qo'g'irchoqniki singari kulcha yuzlari hamisha yonib turadigan ohu ko'zlariga qo'shilib, chaq nab turardi. Bo'yi yetib, hali maktabni tamomlamagan kezaridayoq, turli xil ko'ylak kiyib, tovlanib, yigitlarning halovatini buzadigan bo'lib qoldi. Mariya yetti sinfni tugatib, sartaroshxonada ishlay boshlagan kezlarda Gerasim ombor atrofida girdikapalak bo'la boshlagan edi. Albatta, u o'zini bo'ydoq ko'rsatib, qizga muhabbat izhor etdi. Ishga joylashib olgach, otasi bilan yaxshi til topishdi. Hech kimi yo'qligini aytib, ichkuyov qilsa, bir umr unga o'g'illik qilajagini izhor etdi. Keyinchalik Gerasim Mashalarnikida yotib qoladigan ham bo'ldi. Masha rasmana uning nikohsiz xotini bo'lib yashar, shunga ko'nikib ham qolgandi. Shu kezlarda ichkilikka berilib ketgan Proxorov yo qizi bilan Gerasim o'rtasidagi munosabatni bilib-bilmaslikka olardi, yo o'zining moddiy jihatdan batamom Gerasimga qaramligini o'ylardi. U ombordagi mollarni Shulgaga yetkazib berar. Gerasim esa uni chayqovchilarga oshirib pullar, Proxorovning cho'ntagiga o'zidan o'zi pul oqib kelardi. Biroq bu uzoqqa bormadi. Sal o'tmay Gerasim qo'lga tushdi. Masha, aftidan, uning aybsizligiga, qamoqdan chiqishiga ishonar va otasi bergan ovqatlarni unga olib borardi. Tergov Proxorovni chetlab o'tdi, Gerasim uning sirini ochib bermaganidan minnatdor edi.

Nemislar Shulgani turmadan ozod qilganlarida u Beryozovkaga, o'z uyiga emas, to'g'ri Proxorovlarnikiga kelib tushgan edi. Proxorov ham, o'zini ancha oldirib qo'ygan qizi ham Gerasimni mehribonchilik bilan kutib olishdi.

Gerasim Beryozovkaga starosta qilib tayinlanguncha bir hafta ularnikida yashagan edi.

Taras otasiga bo'lgan g'azabidan sira qo'li ishga bormasdi. Nahotki odam shunchalik berahm, beshafqat bo'lsa, axir, otasi bemor onasining oldiga kirishni, holahvol so'rashni ham unutsa-ya? Bu xo'rlik va haqorat yetmagandek Mariyani yetaklab kelibdi. Taras jo'rttaga otasi bilan Mariyaga ko'rsatib, Zoya Andreyevnaning yoniga ketdi. Ira ko'chaga chiqdi.

– Kim keldi, o'g'lim? – so'radi Zoya Andreyevna.

– Dadam bilan qanaqadir... – Taras nima deyishini bilmasdi.

– Ayolmi? – onasi uncha ajablanmadi.

– Ayol shekilli...

– O'zim ham o'ylagandim. Shuning uchun ham u meni bu yoqqa ko'chiribdi-da. Ko'zidan nariroq...

– Bezovta bo'lmang, oyijon! – iltijo qildi Taras.

– Bezovta bo'layotganim yo'q, Tarasik, tinchman, – u dastro'moli bilan yuzlarini arttdi. – Bor, aylanib kel, Irochka u yoqda-ku?..

– U...

– Shu qiz menga juda yoqib qoldi-da, baraka topkur, – dedi Zoya Andreyevna, – kelishgan, epchil, mehnatsevar.

Taras qo'shni xonaning eshigini ochgan edi, divanda Mariyani quchoqlab o'tirgan otasiga ko'zi tushdi.

– Himm... Hali ham shu yerdamisan? – jahl bilan qichqirdi u o'rnidan sapchib turib.

Taras lip etib ko'chaga chiqib ketdi.

Beryozovka qishlog'iga kech salqini tushdi. Qop-qora bulutlar osmonni qopladi. G'arbdan qandaydir izg'irin kelardi. Qishloq asta-sekin o'rmalab kelayotgan qorong'ilik og'ushida sukunat chekardi.

Uydan totli taom hidi dimog'ga urardi.

– Nima tayyorlashyapti? – so'radi Taras.

– Menimcha qovurilgan cho‘chqa bolasining hidi kelyapti, – dedi Ira. – Yo menga shundoq tuyilyaptimi?

– Ehtimol, cho‘chqa bolasidir, – dedi e‘tiborsizgina Taras. Ira jim qoldi. U nimanidir o‘ylardi.

– Bilasanmi, Taras, men bir joyga borib kelaman. Uzoq emas. Keyin uchrashamiz. Xo‘pmi? Lekin mehmonlar haqida hamma narsani bilib ol...

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi Taras.

Ira yugurganicha uyiga kirib ketdi.

– Seryoja! – qichqirdi u ostonadanoq. – Zarur ish chiqib qoldi.

– Qanaqa ish? – Seryoja eshik oldida turardi.

– Yur. Fedotovning oldiga borib, maslahatlashaylik. Shulganikiga e‘tiborli mehmonlar keladigan, lekin kimligini bilmaymiz, balkim biron narsani aniqlash zarurdir, deymiz. Biz hammasini Tarasdan bilib olardik...

– Gapingda jon bor, – ma‘qulladi Seryoja. – Yur, ketdik!

Fedotovnikiga ketayotib ular yo‘lda hadeb mashinalar va aravalar yonida ivirsib yurgan nemislarga duch kela berishdi. Nihoyat, Vasiliy amakining uyiga yetib olishdi. Eshikni taqillatishdi. Hech kim javob bermadi, tortib ko‘rishdi, eshik berk edi.

– Tushunmadim, – Seryoja hayratda qolib, Iraga qaradi.

– Yur, Martinovnikiga boramiz, – taklif qildi Ira. – Esingdami shofyor, Vasiliy amakinikida uchratgan edik. U uyda bo‘lishi kerak. Yaqinda xotinining ko‘zi yorigan...

– Yur...

Martinov qo‘shni hovlida yashardi. Eshikni o‘zi ochdi.

– Tinchlikmi? – deb so‘radi-da, – Vasiliydan xavotir olmanglar, – dedi u gap nimadaligini bilgach. – Ikki kunlardan keyin qaytib keladi. Gerasimning mehmonlari haqida bilib olishni to‘g‘ri o‘ylabsizlar, ofarin! Albatta u yerda nima gaplar bo‘lishini bilib olish zarur. Agar kelgan mehmonlar nemis bo‘lsa, ularning kayfiyatlari qanaqaligini bilib olinglar. O‘zlaringdan qolar gap yo‘q, keyingi vaqtlarda

Qizil armiya o'xshatib ularning ta'zirini berdi. Nazarimda Fedotov ham sizlardan shularni iltimos qilgan bo'lardi.

Seryoja bilan Ira qaytib ketishdi.

– Sen uyga boraver, – dedi Ira o'z ko'chalariga yetganda. – Men Tarasning oldiga kiray. Xo'pmi?

– Ha, hozircha u yerda mening keragim yo'q, – ma'qulladi Seryoja.

Ira yugurganicha Taraslarnikiga kirib ketdi. Mehmonlar hali kelmagan ekan. Taras ostonada turardi.

– Kelishgani yo'qmi?

Qorong'i tushganda ko'cha eshik oldiga qora mashina kelib to'xtadi. Undan juda shinam kiyingan ikki kishi chiqdi. Ularning biri jandarmeriya boshlig'i oberleytenant Klaus bo'lsa, ikkinchi jazo otryadining boshlig'i Ebert edi. Eshik oldida ularni Shulga izzat-hurmat bilan kutib oldi.

Allaqayoqdan ilgarigi nemis tili o'qituvchisi, hozirda politsay bo'lib ishlayotgan Kudimov paydo bo'ldi. Mehmonlarga ta'zim qilib, nemis tilida nimalarnidir gapirdi.

«Maktabda munaqa xushomadgo'yligini ko'rmagandim, – xayolidan o'tkazdi Ira. – Savlat bilan, kibor yurardi. Endi binoyidek laganbardor bo'libdi-qo'yibdi... Ko'rib nafrating qaynaydi, kishi!»

Gerasim Kudimovga mashinada o'tirgan yefreytorni ko'rsatib imladi-yu, o'zi mehmonlar bilan birga uyga kirib ketdi.

Mehmonlar o'lguday qorinlari och qolib kelishgan ekan, o'tirishlari hamona darhol stol to'la ovqatga yopirilishdi. Ularning shu paytdagi qiyofasi o'laksaga tashlangan quzg'unlarni eslatardi. Gerasim yarim litrlik shishadan oldin o'ziga, so'ngra mehmonlarga aroq quydi. Birinchi qadahni Fyurerning yengilmas armiyasi uchun ichdilar. So'ng Fyurer qo'shinlarining Sharqiy frontdagi g'alabasi uchun ichildi. Gerasimning buyrug'i bilan shu bugun so'yilgan cho'chqa bolasining go'shti tamom bo'lguncha ular bir-birlarining sog'ligi uchun ichdilar.

Gerasim xushomad qilib, nemislarga yaxshi ko'rinishga urinardi. Bir necha ryumka ichganlaridan keyin u patefon qo'ydi.

– Bo'lmaydi, bunisi bo'lmaydi! – tarjima qildi Kudimov jandarmeriya boshlig'i oberleytenant Klausning so'zlarini va g'izillab ko'chaga chiqib ketdi. Bir minut o'tmasdan mashinadagi plastinkalarni ko'tarib kirib keldi. Klaus bilan jazo otryadining boshlig'i Ebert patefonga o'zlari yangi plastinkalar qo'ydilar. Nemis marshi ohanglari yangrab ketdi. Mehmonlar stolni bir chekkaga surib qo'yishib, tansa boshlashdi. Baland bo'yli, oriq, yuzlari burishgan, istarasi sovuq Klaus Mariyani tansaga taklif qildi:

– Bitte, frau!

Past bo'yli, ko'zoynagi burniga tushgan Ebert hayosiz ko'zlarini tansa qilayotganlardan uzmasdi. Gerasim bilan Kudimov bo'lsa beparvo nimalar haqidadir suhbatlashardi.

Bir plastinkani aylantirib qo'yishdi, ikkinchisini aylantirib qo'yishdi, Klaus bo'lsa hamon Mariya bilan tansa qilardi. Uning qulog'iga nimalarnidir shivirlardi. Shunda Taras Klausning rus tilini bilishini payqab qoldi. Aftidan, u odatdagi tartibga rioya qilish yuzasidangina Kudimovni tarjimon qilib olib yurardi.

– Himm... janob Klaus – mening xaloskorim! O'z qo'lingiz bilan meni turmadan chiqardingiz, starosta qilib katta ishonch bildirdingiz. Sizning sog'ligingizga ichaman. O'la-o'lgunimcha...

– Yaxshi-yaxshi, – sal duduqlanib uning so'zini bo'ldi oberleytenant. – Ichamiz!

Mariya stol ustiga tort keltirib qo'ydi va qaynab turgan samovardan hammaga choy quyib uzatarkan:

– Qani, janoblar, olinglar, o'z qo'lim bilan pishirdim, marhamat, janoblar, – dedi noz bilan ko'zlarini suzib, Klaus uning chiroyli qo'llaridan o'pib, tortni yeya boshladi. Oz

o'tmay kattakon tortdan ushog'i ham qolmadi. Klaus xonani bir ko'zdan kechirib oldi-da, Shulgaga buyruq qildi:

– Ertadan boshlab... Tishsh... tishsh... – Xuddi saharda atrofga alanglab tumshug'i bilan go'ng titayotgan qarg'adek shivirlagan ovoz bilan maxfiy topshiriqni uqtirardi: – Kelishib qo'yganimizdek, qishloqdagi barcha kommunistlar, yahudiylar, barcha aktivlarning ro'yxatini tuzing. Bu ishda ishonchli odamlardan foydalaning. Bilaman, ko'plarini o'zingiz ham bilasiz. Har holda...

– Fyurerning buyrug'i asosida, – dedi kayf aralash Ebert ko'zlarini ochib-yumib, Klausning so'zlarini oshkora davom ettirib, – hammalarini jahannamga jo'natamiz.

– Himm... Tushundim, jonim bilan, – hovliqib ishontirdi Gerasim. – Hammasi joyida bo'ladi!

– Qani, – taklif qildi Klaus, – oxirida yana bittadan ko'taraylik!

Hammalari ryumkalarini to'ldirishdi, urishtirishdi.

Mehmonlar mast-alast, turtinib-surtinib o'rinlaridan turishdi. Kiyinib, o'zlariga oro berib, ketishga otlanisharkan, eshik oldida Mariyani galma-gal qayta-qayta o'pib, tashqariga chiqishdi. Gerasim ularni ko'chada ikki bukilib turgan holda mashinaga chiqarib qo'ydi, anchagacha orqalaridan qarab qoldi.

Taras ham ko'chaga chiqdi.

– Himm... Qayerda eding? – jiddiy ohangda so'radi otasi.

– Oyimning oldida...

Shulga uyga kirib ketdi, Taras bo'lsa ko'chada qoldi, Irani poyladi.

– Xo'sh, nima gap?

Taras eshitganlarini aytib berdi.

– Yashavor! Bu juda zarur gaplar!

Ira yugurganicha uyga kirib, Seryojani boshlab chiqdi, ular birgalashib Martinovnikiga ketishdi. Uyga yarim kechada qaytib kelishdi.

IX

Shu kechasi ular deyarli mijja qoqmay chiqishdi. Soat uchda Ira bilan Seryoja olis safar taraddudini ko'ra boshlashdi. To'g'ri, endi bu yo'l ularga yaxshi tanish edi.

Martinov haq, albatta. Darhol Shaxov otryadiga borib, Tarasdan bilib olgan hamma gapni aytib berish zarur. Martinovning aytishicha, Fedotov ham, yashirin partiya raykomining sekretari Kolosov ham o'sha yerda.

Barvaqt bo'lishiga qaramay, qishloqda nemislar izg'ib yurishardi. Garchand Beryozovkada hozircha ular o'zlarini osoyishta tutayotgan, yovuzliklar qilmayotgandek tutsalar ham, biroq vajohatlarida itning harakatini eslatadigan nimadir sezilib turardi – irg'ib, qo'lga tushirish uchun mo'ljallangan o'ljaga tashlanish oldidan hamma yoqni iskab diqqat bilan ko'zdan kechirishayotgandek, vaziyatni o'rganishayotgandek edi.

Hozir ham nemislar Ira bilan Seryojani to'xtatmagan, qayoqqa borishlarini surishtirmagan bo'lsalar-da, ularni diqqat bilan kuzatib qolishdi.

Qishloqdan chiqqanlaridan keyin ular o'zlarini ancha xotirjam sezdilar. Katta yo'ldan har zamonda bitta-yarimta mashina-yu, ancha yoshga borib qolgan, kitellari eskirib ketgan aravakashlar haydab borayotgan aravalargina uchrab turardi.

Martinov ularga yangi parol bergandi: «Osechka», javobi: «Birinchisi emas».

Katta yo'ldan o'tib, o'rmonga chiqishdi. Birinchi marta o'rmonga ham urush nuqsi urganini ko'rishdi. Daraxtlarning ko'pini snaryadlar ag'darib tashlagan, tanalarida snaryad parchalari va o'q izlari, har qadamda bomba yoki to'p o'qi tushgan joylardagi chuqurlar, portlashlar natijasida ag'dar-to'ntar bo'lib ketgan yerlar ko'zga tashlanardi.

«Urush dastidan o'rmonning ham holi xarob bo'libdi», ko'nglidan o'tkazdi Ira.

– Tarasning otasi starosta bo'lgani bir hisobda yaxshi ham...

– Ehtimol...

O'rmon ichi zax va sovuq edi. Oyoq ostidagi ho'l barglar qavat-qavat bo'lib ketgan, namiqqan o'rgimchak inining tolasi hadeb yuzlarga yopishadi. O'rmon mevalarining pallasi o'tib bo'lgan, ammo qo'ziqorin behisob. Hozir Seryoja ham, Ira ham ularga ahamiyat berishmasdi. Oldilarida, butalar orasida nimaningdir sharpasi ko'rinib ketdi.

– Qara!

Bolalar taqqa to'xtab qolishdi.

– Bo'ri emasmi? – cho'chib tushdi Ira. Birdan akillagan, so'ngra g'ingshigan ovoz eshitildi.

– It-ku, bu, – quvonib ketdi Seryoja. – Qani, ko'raylik-chi!

Ular tog'-terakzor yonida o'sgan bir tup yong'oq daraxti tagiga borishdi, qurib qolgan shoxlarni ikki tomonga yorib, hayron bo'lishdi.

– Voy, seni qara-ye! Qanday qilib bu yoqqa kelib qolding, o'zing?

Barg to'shama ustida malla rangli it, yonida uchta bolasi bilan uymalashib yotardi.

– Ovqat bersak yaxshi bo'lardi-yu, nimani beramiz? – Ira Seryojaga qaradi.

– Yonimizda hech narsa yo'q-ku, – dedi Seryoja qo'llarini ikki tomonga yozib.

– Bilasanmi, – dedi Ira, – uyga qaytayotganimizda ovqatlantiramiz. To'rt soatlardan keyin qaytamiz-ku. Otryaddan biron narsa so'rab olarmiz, axir.

– Shunday qilishga to'g'ri keladi. – Seryoja engashib itni erkalab siladi: – Sabr qil, ozgina sabr qil. Tezda senga ovqat olib kelamiz...

Ular yana yo'lga tushishdi, it bo'lsa ularning ketidan ma'yus qarab qolgandek bo'ldi.

– She'r o'qib beraymi? – dedi Seryoja birdan esiga tushib.

– O'qi.

– Mana, eshit:

Oqshom cho‘kar, mehmonxonada
Kampir to‘qib o‘ltirar paypoq.
Paxmoq ukpar yostiq yonida,
Oyog‘ida kuchuk ham paxmoq.

Kampir yumshoq yostiqqa singib
To‘qir edi, goh mudrar edi.
Bir payt uning ko‘zi ilinib
Kalavasi yumalab ketdi

Va kuchukka tegdi bexosdan,
Kuchukcha «vang» etib yubordi.
Cho‘chib tushgan kampir bilmasdan
Paxmoqvoyni tepib yubordi.

Paxmoqvoy ham vangillab qochib
Derazaga o‘zini urdi.
Kampir dod der: «Darchani ochib
Soldat mening xonamga kirdi!

Yordam bering, yordam bering, oh!
Xalos eting mol-u jonimni».
«Odamlarni chaqir, – deb, – tezroq!»
Tepib haydar xonadan meni.

Yig‘iladi xaloyiq: – «Kim? «Kim?»
«Nima bo‘ldi?», «Nima falokat?»
Faryod qilar kampir: «Kuchugim!»
Olib qochdi uni bir soldat!
Voh kuchugim, evoh, kuchugim!
Olib qochdi uni bir soldat!

– Qiziq ekan-a, – dedi Ira kulimsirab.
– Bu Tolstoydan.

– «Petr Birinchi»ni yozgan Tolstoymi?

– Yo‘q, Aleksey Konstantinovich. Shoir va dramaturg.

– Bari bir qiziq.

Shu payt ularni kimdir chaqirib qoldi.

– Osechka, – dedi Seryoja.

– Birinchisi emas. O‘taver! – javob qilishdi unga.

Ikki yuz metrcha o‘tgach, bu ovoz yana takrorlandi.

Ko‘p o‘tmay ular partizanlar lageriga kirib kelishdi. Shaxov band, u operativka o‘tkazayotgan ekan. Kutib turishga to‘g‘ri keldi.

Yerto‘ladan Fedotov va ko‘zoynakli yana bir kishi bilan Konstantin Petrovich chiqdi.

– Mana bizning yosh qahramonlarimiz, – dedi Shaxov bolalarni notanish kishi oldiga boshlab.

– Ular haqida eshitganman, – dedi notanish kishi. – Yesinning bolalari xuddi shundoq bo‘lishlari kerak ham.

– Bu Kolosov, raykom sekretari, – tushuntirdi Shaxov. – Xo‘sh, qanaqa shoshilinch ish bilan keldilaring?

Seryoja gapira ketdi. Uning so‘zini hech kim bo‘lmadi.

Faqat Konstantin Petrovich «xo‘sh», «xo‘sh» deb takrorlardi...

– Diqqatga sazovor gaplar, – dedi Fedotov Seryoja so‘zini tugatgach. Birinchidan, biz Beryozovkada jandarmeriya va jazo otryadi joylashganini bilishimiz muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan esa, biz Shulganing ro‘yxatiga kirgan odamlarni qutqarishimiz lozim.

– Shoshilinch ravishda, bolalar bilan birga qishloqqa qaytishing kerak deb o‘ylayman, – dedi Shaxov Fedotovga. – Yana, Vasiliy, Shulganing ro‘yxatini qanday qilib qo‘lga kiritishni o‘ylab ko‘r. Balki sizlar yordam berarsizlar? – u bolalarga yuzlandi.

– Harakat qilamiz, – ishontirdi Seryoja. – Ehtimol Tarasning o‘zini ishga solarmiz...

– Bo‘lmasa tezgina tamaddi qilib olinglar-da, yo‘lga otlaninglar, – dedi Shaxov. – Qani, mening yerto‘lamga marhamat.

Ular boshqa, kichik yerto‘laga tushishdi. Yerto‘lada choqqina yog‘och stol va burchakda pichan ustiga o‘rin to‘shab qo‘yilgan edi.

– Bobomiz tinchmilar? – so‘radi Seryoja. – Ivan Ivanovich yaxshimilar?

– Bobongizni hozir chaqiramiz. Lekin Ivan Ivanovichni borib ko‘rish kerak. Hech narsadan hech narsa yo‘q, to‘satdan bezgak bo‘lib qoldi, – tushuntirdi Shaxov va kimgadir buyurdi: – Yesinni bu yoqqa chaqiringlar!

Bir necha minut o‘tmasdan yerto‘laga Misha bobo kirib keldi. U yosharib ketganday ko‘rinardi, ixchamgina kiyingan, brezent etak tutib olgan edi.

– Yo pirim-e, – Misha bobo qo‘llarini yozib, Seryoja bilan Irani quchoqlab oldi.

– Nevaralarningning ishi besh, – tantanavor ohangda dedi Konstantin Petrovich. – Ikkinchi jangovar topshiriqni bajarishdi. Aytganday, ikkinchigina emas, uchinchi.

– Men senga aytsam, oralaringda faqat men topshiriqsizman, xolos, – nolidi Misha bobo.

– Xafa bo‘lma, hali hammasi oldinda.

Bolalar ovqatlanib bo‘lgach, bobolari bilan sanitariya yerto‘lasiga ketishdi. Bu yerto‘la ancha keng bo‘lib, ikki qator so‘ri o‘rnatilgan edi. So‘rilarda yaradorlar, to‘rdagi burchakda esa Ivan Ivanovich yotardi.

– Mana, azizim, o‘quvchilaringni boshlab keldim. Ularni qahramon deyishdi! – dedi Misha bobo.

Ivan Ivanovich o‘zini oldirib qo‘ygan, ranglari za‘faron edi.

– Bolajonlarim... – quchoqlab oldi u bolalarni.

Hash-pash deguncha vaqt o‘tib ketdi, tezda bolalarni olib ketgani Fedotov keldi.

– Vaqt bo‘ldi!.. – dedi u. Fedotov yelkasidan o‘tkazib nemis avtomatini taqib olgan edi. Seryoja bilan Ira uni birinchi marta qo‘lida qurol bilan ko‘rishlari. Fedotov ularning taajjublanganliklarini tushundi:

– Faqat yo‘lga taqib oldim. Uyda qurolsiz yuraman. O‘zlaring bilasizlar, qurol bilan yurishim mumkin emas.

Ular tanish yolg‘izoyoq yo‘lga chiqqanlarida Seryoja nimanidir eslab, taqqa to‘xtadi.

– Nima bo‘ldi, biron narsa esingdan chiqdimi? – so‘radi Fedotov.

– Ha...

Seryoja it to‘g‘risida qanday gap boshlashni bilmasdi, Ira ikkalasini yengiltak deb o‘ylashidan cho‘chirdi. Ira joniga ora kirdi.

– Vasiliy amaki, biz o‘rmonda bolalari bilan bir itni uchratdik, och yotibdi. Ovqatlantirish kerak edi. Ehtimol, shu yerdan biron narsa olib ketarmiz?..

– Bu jiddiy ish, albatta, – hazillashdi Fedotov. – Biron yo‘lini toparmiz. Qani, oshxonaga boraylik-chi!..

X

Har ehtimolga qarshi ular lagerga borganlarini Tarasga bildirishmadi.

– Nafratlanaman undan! Yuziga qarolmayman! – iqrор bo‘ldi Taras Seryoja bilan Iraga. – Oyimning ko‘z oldida o‘sha sartarosh ayol bilan... Bu nima degan gap-a. Hayvondan battar-a. Uni ko‘rishim bilan titrayman, qo‘lim beixtiyor mushtga aylanadi, bo‘g‘ib tashlagim keladi.

– O‘zingni bos! – nasihatomuz dedi Seryoja. – Shoshilish yaramaydi. Otangning hali bizga foydasi tegib qolishi mumkin. Tushundingmi? Esingdami, sen ro‘yxat haqida gapirgan eding.

– Esimda, xo‘sh, nima gap? U hali ro‘yxatni tuzganicha yo‘q.

– Qayoqdan bilasan?

– Bilaman-da.

– Tuzmagan bo'lsa, juda soz. Shu ro'yxat tayyor bo'lganida uni qanday qilib o'g'irlab olish mumkin? – dedi Seryoja. – Yaxshisi o'g'irlamasang, balki ko'chirib olsang, o'g'irlanganda bilinib qoladi. Shuni qila olasanmi?

– O'ylab ko'rish kerak...

– O'yla! Kechqurungacha o'yla, keyin aytasan. Men kutaman.

Taras sekin-sekin qadam tashlab uyiga chiqib ketdi.

– Yur, cho'milib kelamiz, – dedi Seryoja Iraga. – Yoz o'tdi, biz bo'lsak deyarli cho'milmadik ham.

– Yur, ketdik, – rozi bo'ldi Ira, – lekin men cho'milmayman. Qirg'oqda o'tirib turaman.

Ular Tixaya daryosi bo'yiga chiqishdi. Lekin bu yerda nemislar otlarini yuvib-tarayotgan edilar. Nariroq o'tishgan edi, u yoqda ham nemislarga duch kelishdi. Bu yerda ular mashinalarini yuvishardi.

– Qurib ketsin, bu fritslardan cho'milgani joy ham qolmagan, – to'ng'illadi Seryoja. – Yur, nariroq o'tib ko'raylik-chi.

Daryoning pastrog'ida tolzor orasida ular bo'sh, toza joy topishdi.

– Balki cho'milarsan-a! – so'radi u Iradan.

– Cho'milgim kelmayapti. O'tirib turaman.

Seryoja kiyimlarini yechib, suvga tashlandi.

– Iliq emas!

– O'zimam aytuvdim...

Seryoja daryoning o'rtasiga suzib ketdi.

– Uzoq ketma, suv narisi opqochib ketmasin tag'in, – dedi Ira. Aftidan Seryoja eshitmadi shekilli, narigi dirg'oqqa yaqinlashib qolgan edi. Ira uning oyoqqa turib, asta-sekin suvdan chiqayotganini ko'rdi. Daryo bo'yidagi tikka

tepalikka yetganda Seryoja taqqa to'xtab qoldi. U nimanidir diqqat bilan sinchiklab ko'ra boshladi. Bir minut o'tdi, besh minut, o'n minut, Seryoja hamon qirg'oqda qimir etmay turar, oyoq ostidan ko'zini uzmasdi. Mana u o'girildi, Iraga qarab qo'lini siltab qo'ydi-da, daryoga tushib ketdi. Seryoja xomush bo'lib qaytdi, hech narsa demasdi.

– Tinchlikmi? – tushunolmadi Ira.

– Bilasanmi, u yerda biz qizil askarlar bilan – leytenant Temirov bilan qazigan okoplarimiz hammasi ostin-ustun bo'lib ketgan. Ko'p jangchilarimiz halok bo'lganga o'xshaydi...

Ular daryo bo'yidan xomush, g'amgin xayollarga g'arq bo'lgan holda qaytishdi. Taras ularni kutib turardi.

– Hammasini o'ylab qo'ydim. Menga biron-bir uxlatadigan dori topib bersalaring bo'lgani.

– Qanaqa uxlatadigan dori? – tushunolmadi Seryoja.

– Qanaqa bo'lsa ham, kuchlirog'i. Dadam bilan Mariya xola kechasi qotib uxlaydigan bo'lsin.

– Nega?

– Nega deysanmi? Bo'lmasa gaplarimga diqqat bilan quloq solinglar, – dedi Taras. – Uyga kelsam, haligi Kudimov o'tiribdi. Dadam bilan birga ro'yxat tuzib o'tirganlari ustidan chiqdim. Gaplaridan shuni tushundimki, dadam ro'yxatni Klausga ertaga ertalab topshirishi kerak. Agar dadam bilan Mariyani uxлата olsam, kechasi ro'yxatni ko'chirib olardim.

– Bu yaxshi fikr, lekin uxlatadigan dorini qayerdan topamiz? – Seryoja o'ylanib qolgandi.

– Balki Matvey Semyonovich? Feldsher-chi? – esga soldi Ira.

– Balki... Yuringlar, oldiga boramiz.

Feldsher yonib ketgan maktabdan uch hovli narida yashardi.

– Matvey Semyonovich, kirsak maylimi? – dedi Seryoja derazani taqillatib.

– Kiringlar, kiringlar! Yana nima bo‘ldi?

Uchalasi ham uyga kirishdi.

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q, – dedi Seryoja. – Lekin bizga uxlatadigan dori kerak. Sizda biron narsa topiladimi?

– Uxlatadigan dori deysizlarmi... – Matvey Semyonovich xayol surib qoldi. – Menda xloralgidrat bor, – dedi u, – lekin odamlarga qanday ta‘sir etishini bilmayman. Bu hayvonlar bop dori.

– Xuddi hayvonga ishlatadigani zarur bizlarga! – deb yubordi Taras.

– Hozir qidirib ko‘ramiz, – dedi feldsher va devorga osig‘liq ko‘krang xoch shakli solingan tokcha yoniga bordi. – Qayerdadir mana shu joyda bo‘lishi kerak... U shishalar-u paketlarni bitta-bittalab ko‘rib, ancha uzoq qidirdi, nihoyat oq qutichani topib oldi.

– Mana shu bo‘lishi kerak...

– Dozasi qancha? – so‘radi Seryoja.

– Aytaylik, sigirga bo‘lsa, yarim quti yetadi, – tushuntirdi Matvey Semyonovich. – Echkiga bo‘lsa, chorak quti.

– Bizga sigir uchun kerak, – dedi Taras.

– Unga quloq solmang. Echkiga, – dedi Seryoja.

– Lekin ehtiyot bo‘linglar! Men uni hech qachon ishlatmaganman. Shunaqa deb eshitgan edim.

– Nimaga aralashtirib bermoqchisan? – so‘radi Seryoja ko‘chaga chiqqanlarida.

– U har kuni kechqurun o‘sha sartarosh ayol bilan aroq ichadi, – tushuntirdi Taras. – Aroqni choyga qo‘shib, tasavvur qilasanmi? Ularga o‘zim quyib beraman. Uchta ryumkadan keyin qo‘shaman.

– Ehtiyot bo‘l! Yo‘qsa o‘zing ham kuyasan, ishni ham barbod qilasan.

– Men hamma ishni qilishga tayyorman, boplab dadamning ta'zirini bersam bo'lgani. Nafratlanaman undan! O, nafratim shunday qaynaydiki! – deb yubordi Taras darg'azab bo'lib.

– Zoya xola qalay? – so'radi Ira.

– Bularning hammasidan og'ir azob chekyapti, – dedi Taras, – yurak kasali bo'lsa, nazarimda ilgarigidan ancha yaxshi. Sababi nima, bilmadim... O'zlaring kira qolinglar biznikiga.

– Keyin, keyin, – dedi Seryoja. – Hozircha shubha tug'dirmaganimiz yaxshi.

– Men kira qolay, – dedi Ira. – Shunday qilganim yaxshidir. Hamisha kirib yurardik, birdan o'zimizni ko'rsatmay qo'ydik. Sen to'g'ri aytding, birga kirmaganimiz ma'qul. O'zim kiraversam bo'ladi...

Ira bilan Taras ketishdi. Uyda Gerasim yo'q edi. Mariya haqiqiy uy bekasi bo'lib olgan, polizda nimalardir qilib yurardi.

– Oyimga ovqat bermadingizmi? – rasmiy ohangda so'radi Taras.

– Nima, men oqsochmanmi unga? – dedi achchiqlanib Mariya. – O'zi turib ovqat tayyorlasa bo'lardi.

– «Ilon», – shivirladi Taras.

Zoya Andreyevna «Tom Soyev»ni o'qib yotardi.

– Irochka, Tarasik! – quvonib ketdi u. – Kutaverib ko'zim to'rt bo'ldi.

– Qorningiz ochdimi, oyi?

– O'zim ham bilmayman, o'g'lim...

– Hozir tayyorlab beraman, – dedi Ira, – o't yoqib qo'yay, keyin g'izillab Matryona xolanikiga sutga borib kelaman.

Tezda hammasi tayyor bo'ldi, Ira Zoya Andreyevnani ovqatlantirib chiqib ketishi bilanoq Gerasim kirib keldi.

...Ertalab barvaqt Yesinlarnikiga Taras chopib kirdi.

– Hammasi tayyor! Mana! – U ro'yxatni Seryojaga uzatdi.

– Qandoq qilib uddalading?

– Uddaladim-da.

– Dadang-chi?

– U hali qotib uxlab yotibdi.

– Mariya-chi?

– Mariya ham.

– Tag'in uyqu doridan o'lib qolishgan bo'lishsa-ya.

– Yo'g'-e, men quloq soldim. Pishillab yotishibdi, demak, tirik.

– Rahmat, Taras, yordaming uchun rahmat.

Endi Seryojaning ko'nglida Tarasga nisbatan shubha qolmagan edi. Taras bilan xayrlashgach, Seryoja bilan Ira shu zahotiyuq Fedotovnikiga jo'nashdi. Vasiliy amaki ularni ko'rib hayron bo'ldi.

– Nahotki, uddaladilaring?

– Hammasi, to'la-to'kis.

– Judayam to'la-to'kis emasdir. Qani ko'rsatinglar-chi.

– O'n yetti familiya, – dedi Seryoja ro'yxatni Vasiliy amakiga uzata turib.

Fedotov ro'yxatni shoshilmasdan tekshirib chiqdi.

– Ahmoqlar! Ularning mantiqi nuqtayi nazaridan qaraganda ham bu uchiga chiqqan bema'nigarchilik-ku, – dedi u.

Shu payt tashqarida multiqlar otilib, itlarning uvullashi eshitildi.

– Shu yerda bo'linglar, – dedi Fedotov va irg'ib, ko'chaga chiqdi. Ko'p o'tmay otishma to'xtab, Vasiliy amaki qaytib kirdi.

– Yolg'ondakam trevoga! Fritslar o'zlariga tir qurishibdi!

– Fedotov yana ro'yxatni tekshirib ko'ra boshladi. – Juda

muhim ishni bajardilaring! Juda muhim! Sizlar anchagina ajoyib kishilarning hayotini saqlab qoldilaring. Bu ro'yxatni shu bugunoq Nikolayevga topshiraman, u yog'iga nima qilishni kelishib olamiz...

– Nikolayev kim o'zi? – so'radi Ira.

– Nikolayev o'zimizga qarashli odam. U Shaxovning partizan otryadiga komissar qilib tayinlangan. Bugun u o'sha yoqqa boradi. Ro'yxatni ham olib ketadi. U yoqda Kolosov va Shaxov bilan maslahatlashadi...

– Aslini olganda, – dedi Seryoja, – bu bizning xizmatimiz emas. Hammasini Taras qildi – Gerasim Shulganing o'g'li.

– Unga mendan rahmat aytib qo'yinglar!

– Balki kerakmasdir.

– Nega?

– Axir, sotqinning o'g'li-ku. Biz unga hamma gapni aytayotganimiz yo'q, – dedi Seryoja. – Uning otasiga nafrat bilan qarashidan foydalanib, topshiriq berib turibmiz. Nimaga, kimga ekanini aytmaymiz... Har holda...

– Ehtimol, sizlar haqdirsizlar, – ma'qulladi Fedotov. – Ehtiyotkorlik hozirda hamma uchun zarur. Sizlar biz uchun, yashirin partiya tashkiloti uchun, partizanlar uchun, Vatan uchun juda ko'p narsalar qilishingiz mumkin. Lekin o'zlaringga shubha tug'dirsalaring, hammasi tamom bo'ladi. Shuni tushunasizlarmi?

– Tushunamiz, albatta, – dedi Seryoja.

Bolalar uyga qaytishdi.

– Juda charchadim, Seryoja, yotsam maylimi? – dedi Ira. Karavotga o'zini tashlab, yostiqqa bosh qo'yishi bilanoq uyquga ketdi. Uyqusida u yonidan-bu yoniga ag'darilar, nimalarnidir g'o'ldirar, qichqirib-qichqirib yuborar, ko'r-pasini ochib tashlardi. Seryoja singlisini qulayroq qilib yotqizib qo'ydi.

– Nima qildi, Ira? – so‘radi u.

Ira uyqusida vahimali tush ko‘rdi. Tushida ko‘zoynakli, boshiga kaska kiygan, panjalari uzundan uzun fashist uni bo‘ynidan bo‘g‘ardi. «Sotqin» degan so‘zni yozganing uchun o‘limga hukm qilinding, derdi. Jon-jahdi bilan unga qarshi kurashgan Ira: «Kim hukm qildi?» deya fashistning qo‘llarini tishlardi. Fashist esa yuzlarini burishtirib, ko‘zlarini olaytirib, yo‘lbarsning tishiga o‘xshash beso‘naqay tishlarini g‘ichirlatib: «Fyurerning buyrug‘i bilan hukm qilinding», – der edi. U uzun panjalari bilan qizni qattiq bo‘g‘di. Ira ovozi boricha: «Bobo!» deb qichqirdi. Misha bobo esa nevarasining ovozi eshitib, darhol yordamga yugursa hamki, sira-sira yo‘li yurishmay, uning oldiga yetib kelolmasdi. Bundan foydalangan fashist tobora quturib, battarroq bo‘g‘ardi. Ira uning panjasini qattiq tishlagan edi, og‘rig‘iga chiday olmagan fashist qizning yuziga shapaloq bilan urdi. Shu payt Ira uyg‘onib ketdi.

– Ira, Ira deyaрман, – Seryoja chala uyqudagi singlisini o‘ziga keltirmoqchi bo‘lib, sochlarini siypalardi, yupatishga urinardi. – Senga nima bo‘ldi, qo‘rqma, men yoningdaman.

Vahima ichida qizning butun vujudi sovuqotganday qaltirardi. Seryoja unga stakanda suv ichirdi va yelkalariga qo‘lini qo‘yib, boshini ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Bari bir a‘zoyi badanining dir-dir titrashi bosilmasdi.

– Ko‘zingni och, Ira, qo‘rqma, – Seryoja singlisining ikki qo‘lidan ushlab, boshini ko‘ksiga qo‘ydi, shu holatda birpas bag‘riga bosib, titrog‘ini to‘xtatdi. Anchadan so‘ng o‘ziga kelib, es-hushini yig‘ib olgan Ira ko‘rgan tushini bir chekkadan akasiga aytib berdi.

– Xayrli tush, Seryoja, – dedi qiz gapini yakunlab. Seryoja singlisining iztirob ichida aytgan so‘zlarini eshitib, o‘ylanib qoldi.

– Ira, – dedi u shivirlab, – bundan buyon hayotimiz, har bir kunimiz xavf ostida o'tadi. Shu xavf-xatarli kunlarga hamisha tayyor bo'lmog'imiz lozim.

U jim qoldi. So'ngra qo'shib qo'ydi:

– Shu ishlarning hammasidan keyin nemislar bizning izimizga tushishsa ajab emas. O'zimizning odamlarimiz orasida ham ablahlar topilishi, qo'rqoqlar bo'lsa, pashshadan fil yasab, o'sha Shulga yoki Kudimovga chaqishlari ham mumkin. Shuning uchun bobomizning aytganlaridan chiqmay, har bir qadamni bilib bosishimiz, har bir gapni bilib gapirishimiz, har bir ishni bamaslahat qilmog'imiz lozim. Umuman, ehtiyotkorlik va yana ehtiyotkorlik zarur!..

Kimdir derazani ohista chertdi. Seryoja orqasiga o'girilib qaradi.

– Kim u? Kiraver!

Uyga Slava Kotov degan bola kirib keldi. U Seryojadan to'rt yosh kichik edi.

– Nima gap, Slavka? – so'radi Seryoja.

– Men sizdan bir narsani so'ragani kirdim, – dedi Slava. – Bilasizmi, Sergey aka, Taraslarning uyi oldidan o'tayotsam, eshiklariga plakat yopishtirib qo'yilibdi. Plakatga «Sotqin» deb yozilgan. O'zi plakatmas, qog'oz, lekin harflari juda aniq yozilgan. Bilmayman, balki to'g'ridir-ku, rostdan ham Tarasning otasi starosta, sotqin. Lekin nimagadir bu menga yoqmadi. Yozgan odamni nemislar ushlab olsa, otib tashlashadi-ku.

– Plakatni oldingmi?

– Yo'q...

– Qani, Slavik, yur-chi, tezroq. Ira, sen meni kutib tur!

Ular yugurganlaricha Shulganing uyiga yetib kelishdi. Hech kim yo'q edi. Seryoja darhol plakatni ko'rdi. Sekingina eshikka yaqinlashib, uni yulib oldi-da, g'ijimladi. «Taras qayerda ekan?» – xayolidan o'tkazdi u.

– Rahmat, Slavik! Lekin hech kimga lom-mim demaysan. Tushunyapsanmi?

– Tushundim...

Seryoja uyga kirdi. Hech kim ko‘rinmadi. Zoya Andreyevnaning xonasiga o‘tdi.

– Salom, Zoya xola! Taras qani?

– Bir soatcha bo‘ldi, qayoqqadir ketib qoldi, – dedi Zoya Andreyevna, – Kir, kira qol, Seryoja! Tarasik hademay kelib qolar. Qayoqqa ketardi!..

Ammo Taras kechqurun ham, kechasi ham kelmadi. Seryoja bilan Ira butun qishloqni aylanib chiqishdi – Tarasdan darak yo‘q edi. Ular qo‘llaridan kelguncha Zoya Andreyevnani tinchitishar va yana ko‘chaga chiqib ketishardi, lekin Tarasni topisholmasdi.

Kechqurun Shulga Mariya bilan uyga kirib kelishdi. Ketma-ket Kudimov keldi. Ular kechki ovqatga o‘tirishdi. Ovqat odatdagicha ichkilikdan boshlandi. Tarasning yo‘qligidan ularning parvoyi palak edi. Seryoja bilan Iraning tashvishlari borgan sari oshardi.

«Demak, «Sotqin» so‘zini Taras yozibdi-yu, qo‘rqib qochibdi-da, – o‘ylardi Seryoja. – Qayoqqa? Uning g‘oyib bo‘lishini tushunish mumkin. Otasidan qo‘rqqan. Lekin qayoqqa ketib qoldiykin?»

Kechasi kayfi ancha oshib qolgan Shulga ham tez-tez deraza oldiga yugurib qoldi.

– Bo‘ldi-da, hadeb kuyib bo‘g‘ilaverasanmi, – dalda berdi Mariya. – Arzanda itvachchangga balo ham urmaydi, yurgandir sanqirab biron o‘rtog‘i bilan.

– Himm... O‘rtoqlari shu yerda o‘ralashib yurishibdi, – dedi Gerasim. – Ko‘rmayapsanmi! O‘zi-ku ko‘rgani ko‘zim yo‘q o‘sha Yesinlarni. Ammo jon kuydirayotganlari, qidiraverib holdan tolganlariga qaramay uxlamayotganlariga qoyilman.

Yarim kechada Kudimov ketdi. Gerasim bilan Mariya yana bir ryumkadan nemis shnapsidan ichib, yotib qolishdi.

Ira Zoya Andreyevnaning oldida qoldi, Seryoja bo'lsa hamon qishloq aylanardi. U Tixaya daryosi bo'yidagi ag'darilgan qayinga kelib o'tirganida tong yorisha boshlagandi. Havo salqin, sovqotib g'ujanak bo'lib olgandi. Hozir bu yerda nemislar yo'q, qishloqda ham hammalari uy-uylariga kirib bekinib olishgan. Faqat yonma-yon turgan Klaus bilan Ebertning uylari oldida ikki soqchi yakka-yakka yurishardi.

Seryojani uyqu bosdi. Shu kechada hammaning tinchini buzgani uchun ham, «Sotqin» degan so'zni yozib, ahmoqona ish qilib qo'ygani uchun ham Tarasga ichida la'natlar o'qirdi. Oldida ertalabki tuman ichidan o'rmonlarga borib tutashgan katta yo'l ko'rinib turibdi. Seryoja birdan sergak tortdi. Katta yo'lda o'rmon tomondan kelayotgan kichkinagina yakka sharpaga ko'zi tushdi. «Nahotki Taras bo'lsa» – xayolidan o'tdi Seryojaning. Sharpa tobora yaqinlashib kelar, endi shubha qolmagandi. Seryoja Tarasning qarshisiga yugurdi:

– Hoy, Taras!

Taras hayron qolib taqqa to'xtadi. Seryoja qadamini tezlatib, nihoyat, unga yetib oldi.

– Qayoqqa g'oyib bo'lding?

Taras indamadi.

– «Sotqin» degan so'z yozilgan qog'ozni uyingga sen yopishtirdingmi?

– Ha, men. Nima bo'пти? Sotqin-da!

– Ahmoqsan! – Seryoja hozir Tarasni savalab tashlashga tayyor edi.

– Qayerda eding, sendan so'rayapman?

Taras indamadi. Bir ozdan keyin zo'rma-zo'raki dedi:

– Partizanlarning oldiga boruvdim...

– Yana bir karra ahmoqsan! Ho'sh, topdingmi partizanlarni?

– Topolmadim, – iqrор bo'ldi Taras.

– Topolmaysan ham, – dedi jahl bilan Seryoja. – Ular ahmoqmas, seni kutib turgani.

– Men adashdim...

– Bizlarga rahmat degin, ahmoqona yozuvingni yulib olib tashladik, – dedi Seryoja. – Otang ko'rganida bilasanmi nima bo'lardi? Hammamiz qo'lga tushardik!..

– Nega?

– Hammadan oldin sen...

– Shuning uchun ketib qoldim-da...

– Ketding, kelding... Boshqalarni o'ylamadingmi? Xo'p, gap tamom! Yur, ketdik.

Taras Seryojaga so'zsiz bo'ysundi. Ular Seryojalarnikiga kirib kelishdi.

– Men hozir, – deb Seryoja ichkariga kirib ketdi. Sal o'tmay bo'sh savatcha ko'tarib chiqdi.

– Ol! Hammaga qo'ziqorin tergani o'rmonga boruvdim, adashib qoldim, zo'rg'a yo'l topib qaytdim, shuning uchun ham savatim bo'sh deysan. Tushundingmi?

– Tushundim, – to'ng'illadi Taras.

Gerasim va Mariya hali uxlab yotishgan edi. Seryoja bilan Taras lip etib, Zoya xolaning xonasiga o'tib ketishdi. Taras Seryoja o'rgatgan gaplarni aytdi. Zoya Andreyevnagina emas, Ira ham xursand bo'lganlaridan yig'lab yuborishdi.

XI

Mariya haftada ikki marta rayon markaziga, akasinikiga ketar, u yerda yotib qolardi. Uning bu ketib qolishlari Gerasimga yoqmasdi. U Mariyaga o'rganib qolgan, usiz jonini qo'ygani joy topolmay qolardi. Zoya Andreyevnaga u mutlaqo befarq edi, hatto ichida, tezroq o'lsa-yu,

qutula qolsam deb orzu qilardi. Garchand Mariya ham ichkilikni yaxshi ko'rsayam, Gerasim uning oldida o'zini sal tiyib turar, odatidan kamroq ichardi. Mariya ketib qoldi deguncha, o'zini bilmay mast bo'lguncha ichardi. Shu darajaga borardiki, keyinchalik o'zidan o'zi nafratlanardi. Hammasini tushunardi-yu, o'zini tiyib turolmasdi.

Bugun ham Mariyaga yalindi:

– Himm... Bormay qo'ya qol, jonim, xo'p degin, meni yolg'iz tashlab ketma!

– Muncha hiqillamasang! Ertaga tushgacha qaytib kelaman. Aytmoq-chi, Durasovodan oziq-ovqat ham olib kelaman.

– Himm... sensiz yana och o'tirar ekanman-da.

– Nega och o'tirasan. Irkaga buyur, ovqat pishirib bersin. Muhtarama xotiningning xizmatida yuribdi-ku, undan ham ko'proq sening xizmatingda bo'lishi kerak.

Mariya ketdi. Gerasim anchagacha ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha o'tirib qoldi, so'ngra kiyinib, ko'chaga chiqdi. U yerda Kudimovni uchratdi.

– Men oldingga kelayotgan edim, – dedi Kudimov. – Gap bor.

– Himm... Yur, yaxshisi senikiga boraylik, – taklif qildi Shulga. – Mariya yo'g'ida uyga kirmasam deyman, ustiga-ustak, bolalar tinmay o'ralashib yurishibdi. Senda ichadigan biron narsa topiladimi?

– Bunisi hamisha muhayyo, – dedi Kudimov. – Ebert menga doimo o'z zapasidan berib turadi.

Kudimov o'z uyida emas, boshqa birovning uyida yashardi. Urush boshlanmasdan bir xonani ijaraga olgan edi. Uy egasi evakuatsiya qilingan kolxoz mollarining birinchi qismini jo'natgandayoq ketib qolgan edi. Kudimov nemislar kelmasdanoq ularning uyini egallab olgan. O'zining uyida esa ajrashgan xotini qolgan edi.

– O‘tir, Gerasim, – dedi Kudimov Shulgaga, kichkinagina, yorug‘, yangi qurilgan yog‘och devoridan smola hidi anqib turgan xonaga kirishlari bilan. U nemis tilida etiketka yopishtirilgan shishani, tuzlangan bodring, karam, piyoz va yarimta buxanka qora non qo‘ydi.

– Nega buncha hiqillab qolding, Gerasim? – so‘radi u.

– Himm... Mariya ketdi deguncha jonimni qo‘ygani joy topolmay qolaman, ko‘nglim bir nimani sezganday g‘ash bo‘laveradi.

– Ketib qayoqqa borardi?

– Himm... Unaqa dema, u hali juda yosh...

– Nima, nemislarning boshini aylantirarmidi...

– Himm... Klaus anchadan beri unga ko‘z tikib yuribdi, – dilkashlik qila ketdi Gerasim. – Men unga atayin Durasovodan bir juvon ham olib kelib berdim. Mariyadan ham yoshroq va xushro‘yroq. Bir amallab turar...

– Ro‘yxatni oberleytenantga topshirdingmi?

– Himm... Topshirdim, – dedi Gerasim. – Nima edi?

– Gap xuddi o‘sha xususda, – dedi qat‘iy ohangda Kudimov. – Shoshilmay tursang bo‘larmidi.

– Himm... Nima uchun?

– Vaziyat og‘ir, Gerasim, juda og‘ir, – tushuntira ketdi Kudimov. – Nemislarning hamma ishlari ham mo‘ljallaganlaridek bo‘lmayapti. Moskvani ishg‘ol qilish haqida og‘iz ko‘pirtirishgan edi, bo‘lmadi. Leningrad ham qattiq turibdi. Bizning qo‘shinlarimiz frontda boplab ularning adabini beryapti. Bu yoqda mana bu partizanlar ham, Durasovo haqida eshitdingmi? Demak, ular achcha kuchli. Ro‘yxatni topshirishga shoshilsang, ikkalamizning ham boshimiz ketdi deyaver...

Gerasim o‘ylanib qoldi:

– Himm... Yo‘q, – dedi u. – Bekorlarni gapiryapsan. Bari bir nemislar bolsheviklarni yengadi. Ishonchim komil!

– Bilmadim, bilmadim, – dedi gumonsirab Kudimov.
– Sen bilan ikkalamiz bu nemislardan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Har ehtimolga qarshi. O'zini asraganni xudo ham asraydi!

Gerasim tez mast bo'lib qoldi. U tobora ishonchsizlik bilan gapirardi.

– Himm... Xo'sh, nima qilish kerak? – u Kudimovga savol nazari bilan qaradi. – Qani, maslahat ber!

– O'ylab ko'rish kerak. O'ylash kerak. Ro'yxatni topshirgan ekansan, endi hech narsa qilib bo'lmaydi, shoshilmaganingda yaxshi bo'lardi...

Ular yana ichishdi.

– Himm... Sovet hokimiyatidan nima yomonlik ko'rganding o'zing? – birdan so'rab qoldi Gerasim. – Men-ku, boshqa gap. Hammasi aniq-ravshan. Men necha marta jabr ko'rganman, sen-chi?

Kudimov indamadi.

– Himm... Nega javob bermayapsan? – dedi shirakayf Gerasim unga yomon ko'z bilan tikilib.

– Nima desam ekan senga? – Kudimov qiynalib-qiynalib so'z tanlardi. – Yayrab yashashim uchun erkinlik yo'q edi o'sha hokimiyat davrida. O'zimni o'zim yaxshi bilaman, shu arzimagan o'qituvchilikdan ko'ra kattaroq ishga, mundoq ko'lami kengroq ishga qurbim yetardi... Lekin...

– Himm... Lekin deganing nimasi?

– Nemislar menga ana shunaqa erkinlik beradiganlardanmas, – dedi qovog'ini solib Kudimov.

– Himm... Bu nima deganing?

– Amerikaliklarmi, inglizlarmi kelganida edi, – tushuntirishga urinardi Kudimov.

– Ular kelganida nima bo'lardi?

– Ular shaxsiy tashabbusni quvvatlaydi, nemislar bo'lsa... Nemislar rus xalqini va xalq bilan birga Rossiyani ham yo'q qilib yuborishmoqchi.

– Himm... Balosan, balosan! – dedi sarxush Gerasim to'ng'illab. – Nima demoqchisan o'zing, tushunib olish ham qiyin. Qani, yaxshisi yana bittadan olaylik.

Ular yana ichishdi.

– Himm... Qo'rqqoq! – Gerasim tobora asabiylashib, aroqli stakanni changalladi, qip-qizarib ketgan ko'zlarini Kudimovga olaytirib, qo'lidagi aroqni nafas olmay shimirdi.

– Og'zingga qarab gapir, – dedi Kudimov, bo'shatgan stakanini taq etib qo'yib. – Qo'rqqoq emasman, do'stim. Axir, rayon jandarmeriyasi deganing qani bu qishloqda? Gestapong qani? Politsaylar-chi? Qorasiyam ko'rinmaydi-ku.

Shulga yana jahl ichida ko'zlarini battarroq olaytirib unga o'qraydi va sun'iy ravishda iljayib:

– Himm... Hushyorsan, Kudimov, balosan, – dedi. – Men ham shunday talab bilan Klausga murojaat qiluvdim, u: «Hammasi yaqinda bo'ladi», deb javob berdi. Lekin kommunistlarni ertaga ertalab soat sakkizda olib ketadilar. Jazo otryadining odamlari saharga kelishadi... Himm... sen bilan bizning dushmanlarimizni birma-bir terib stansiyaga haydaydilar.

– Stansiyadan qayoqqa?

– Bilmadim.

– So'ramadingmi, do'stim?

– Himm... So'rab bo'larmidi, Kudimov? Biz emas, ular bizdan so'rashga haqli. Bizning vazifamiz qo'l qovushtirish, buyruqni bajarish! Bilib qo'y, Kudimov, kommunistlar hukmron bo'lgan yer biz uchun do'zax... Ular qishloqdan badarg'a qilinsalar, biz osoyishta yashamog'imiz mumkin. Himm... Kel endi, Kudimov, shuning uchun bir ichaylik. Bizning hecham qo'rqadigan joyimiz yo'q. Klaus bilan Ebertning jazo otryadi shay turibdi, o'shalar o'rinlaydi hamma ishni. Sen bilan bizlarning nima aloqamiz bor?

– Bizlarning emas, sening aloqang bor, – uning so‘zini bo‘ldi Kudimov. – Men ro‘yxat tuzmaganman.

– Himm... Po‘pisangni qara-ya! Tuzmagan bo‘lsang tuzmabsan-da, yolg‘iz o‘zim javob berishim ham mumkin. Lekin men hech narsadan qo‘rqmayman, – qat‘iy va g‘azab bilan qichqirdi Gerasim va ovozinig boricha yig‘lab yubordi: – Mariyasiz qolishdan qo‘rqaman, juda qo‘rqaman...

Kudimov uni yupatishga urindi.

– Himm... Bo‘ldi, hech yoqqa bormayman bugun! Qurib ketsin hammasi! – deb yubordi birdan Gerasim yuzlaridan oqayotgan yoshlarini arta turib. – To Mariya qaytib kelgungacha ichaveraman! Qani, quy! Umuman aytganda, uyqum kelyapti!

Kudimov Shulgani o‘z karavotiga yotqizdi-da, o‘zi yoniga o‘tirdi.

– Ana xolos... Nima bilan tugarkan hammasi?

Gerasim uch soatcha uxladi, hamma yog‘i shishib, ko‘pchib uyg‘ondi.

– Himm... Uyimga ketaman! – dedi-da, chiqib ketdi.

Uyiga kelgach, ostonadan baqirdi:

– Himm... Taras! Hoy, Taras! Choy ber!

Uydan Ira chiqdi.

– Taras Seryojaning oldida. Hozir o‘zim sizga choy olib kelaman.

– Himm... O‘zing bo‘lsang o‘zing! Ha, aytganday, choyni achchiq qilib damla! Tez bo‘l, boshliqlar oldiga borishim kerak!

Gerasim stolda uzoq o‘tirib qoldi. U maza qilib, shoshilmasdan choyxo‘rlik qilar, «Qani, yana quy!» deb takrorlar, Ira unga ketma-ket choy quyib berardi. Choy ichib bo‘lgach, Gerasim shoshilmasdan, pishqirib-pishqirib yuvindi, keyin hamma yog‘iga atir purkab, chiqib ketdi.

«Ablah! – derdi ichida Ira. – Yana xotinining ahvolini bir og‘iz so‘ramadi-ya!»

Gerasim jandarmeriya boshlig‘i oberleytenant Klaus huzuriga shoshilardi. Klausning uyi oldida u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotgan soqchi Gerasimga g‘alati bir jirkanch bilan qaragandek tuyuldi.

– Himm... Mumkinmi? – Shulga sekingina eshikni taqillatdi.

Eshikni Klausning denshigi ochib, uni ichkariga kiritib yubordi. Klaus yolg‘iz emas, Ebert ham bor edi.

– Kelganingiz yaxshi bo‘ldi, – dedi u, – sizni qidir-tirmoqchi bo‘lib turgandik.

– Himm... Xizmat?

– Nima xizmat deysizmi? – Klaus o‘rnidan turdi. – Siz yo xizmat qilishni istamaysiz, yo qo‘lingizdan kelmaydi, – dedi u qat‘iy va jiddiy ohangda.

Shulgani qo‘rquv bosdi.

– Qani, aytib bering-chi, Shulga, – so‘zida davom etdi Klaus, – qanday qilib, ro‘yxatingizdagilardan besh kishi qishloqdan g‘oyib bo‘libdi?

Shulga dovdirab qoldi, tiliga hech gap kelmadi.

– Sizdan so‘rayapmanmi yo devordan? – jahli chiqa boshladi oberleytenantning.

– Himm... Bilmadim!

– Aytdim-ku sizga, borib turgan galvars, to‘nkaning o‘zi deb, – gerdayib dedi Ebert.

– Asli to‘nka yo galvarsmi, yo bizni laqillatyaptimi? Xo‘sh, nima qilish kerak endi sizni? Otib tashlash kerakmi?

– Himm... Rahm qiling, sira ham aybdor emasman. Haqiqatan hech narsani bilmayman... – Gerasim tap etib uning oyog‘iga yiqildi.

– Kelib-kelib, yana xuddi kommunistlar g‘oyib bo‘lishibdi-ya, – so‘zida davom etdi Klaus. – Ataylab ularni ogohlantirib qo‘ygandek.

– Himm... Ro'yxatni hech kimga ko'rsatgan emasman, – g'o'ldiradi Shulga. – Ont ichaman! Hech kimga ko'rsatgan emasman! O'zim tuzdim, sizga o'zim topshirdim. Bu ro'yxatdan hech kimning xabari yo'q.

Nihoyat, Klaus sal shashtidan tushdi:

– Ha, mayli, turing!

Shulga turdi.

– Himm... Xudo haqqi, ont ichaman, sira aybim yo'q...

– Axir, Ebert, ertaga ularni Durasovoga, stansiyaga jo'natishi kerak-ku, – dedi qat'iy ohangda Klaus.

– Kelishib qo'yganimizdek, ertaga soat sakkizda, – tasdiqladi jazo otryadining boshlig'i.

– Siz, Shulga, ularni kuzatib borasiz, – qo'shib qo'ydi Klaus.

– Himm... Xo'p bo'ladi!

– Sizga javob!

– Himm... Xo'p bo'ladi!

Shulga Klausning oldidan shalpayib chiqdi. Bu hol qanday sodir bo'lganiga aqli bovar qilmasdi. «Himm... Axir, men Kudimovga faqat ro'yxat haqida gapirdim, ro'yxatning o'zini ko'rsatmagan edim-ku», o'ylardi u.

Ertasi kuni Gerasim barvaqt kolxoz idorasi binosi oldiga yetib keldi. Kommunistlar ro'yxatidagi o'n ikki kishi ham shu yerga haydab keltirilgan edi. Idora oldida jazo otryadining soldatlari itlari bilan izg'ishib yurishardi.

Chekkaroqda qishloq aholisidan bir to'da odamlar to'planishgan, biri olib-biri qo'yishardi:

– Qayoqqa olib ketisharkan?

– Lagerga deyishyapti...

– Lagermas. Germaniyaga, ishlashgamish...

Soat sakkizga yaqin Klaus bilan Ebert yetib kelishdi. Ular soldatlarga oxirgi topshiriqlarini berishdi. Bir chekkaga sekingina Kudimov kelib, nariroqda to'xtadi. Birdan kechagi

gaplar Shulganing esiga tushib, unga yaqinlashmadi ham. Nihoyat, ro'yxatga tushganlarni urib, so'kib, haqorat qilib bir joyga to'pladilar, ikkita-ikkritadan safga tizdilar. Ulardan to'qqiztasi erkak, uchtasi o'spirin edi.

– Nega endi bolalarni ham?..

– Komsomol ular...

– Yoshlarga ham rahm qilishmaydi-ya, zolimlar...

Nemislar o'n ikki kishilik kichkina kolonnaning boshi, oxiri va ikki tomonini qurshab, katta yo'l tomon boshlab ketdilar. Shulga kolonnaning ketidan borardi.

Kudimov esa qimir etmay, bir chekkada turganicha qolaverdi.

Qo'riqchi itlar soldatlar bilan yonma-yon jimgina borishar, hatto vovillamasdi ham. Yovuzlikda nemis-fashistlarning o'zlari ham, itlari ham bir-birlaridan farq qilmas edilar. Ularning tabiati – bosqinchilik, yirtqichlik. Mana hozir ham har bir fashist kolonnada borayotgan gunohsiz kishilarni otishga, osishga, hatto pichoqlari bilan bo'g'izlab tashlashga ham tayyor. Bu o'rinda gunohi bormi, yo'qmi bari bir, ular uchun farqsiz, kommunist bo'lsa bas. Sovet kishisi bo'lsa bas. Har bir sovet kishisi nemis-fashistlarning ko'ziga kommunist bo'lib ko'rinardi. Fashistlarning yuragi ham, vijdoni ham allaqachon toshga aylangan bo'lib, bosqinchilik, yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlik asosiy kasblari bo'lib qolgan edi.

– Zoya xolaning oldiga kir, – shivirladi Seryoja Iraga. – Men...

Lekin uning gapi chala qoldi.

Shu payt Klaus bilan Ebert ham kolonna tomon yurib, Shulgaga yetib oldilar.

– U yog'iga bormay qo'ya qoling, – dedi Klaus. – Qishloqdagi kommunistlarni olib ketganimizdan keyin, janob starosta, siz zerikib qolsangiz kerak?..

Shulga yelkasini qisib qo'ydi.

– Himm... Zerikishga vaqt bo'lmas, – dedi nihoyat. – Bizda hech kimga ishonib bo'lmaydi.

– Bu gapingiz to'g'ri, starosta, – uning fikriga qo'shildi Klaus. – Shuning uchun ham hozir odamlarning oldiga boring, kimki yangi tartibotga qarshi chiqsa, Germaniyaga ishga jo'natiladi, deng. Yoki undan ham battar bo'ladi – konslagerga tashlanadi, deng!

– Himm... Xo'p bo'ladi, – ishontirdi Gerasim.

Qora «Mercedes-bens» mashinasida Klaus bilan Ebert jo'nab ketishdi. Shulga orqasiga qaytib, sekingina pravleniye binosi tomon yo'l oldi. U yerda hali xaloyiq tarqamagan edi. Shulga qo'lini ko'tardi:

– Himm... Eshitinglar, xaloyiq!..

Odamlar hushyor tortib, starostaga sovuqqina nazar tashlashdi. «Kudimov qani, – o'ylardi Shulga. – Nahotki darrov ketib qolgan bo'lsa?» Shu payt xaloyiq orasida Kudimovni ko'rib, ko'ngli tinchidi. O'zini sal xotirjam sezib, so'z boshladi:

– Himm... Janob oberleytenant sizlarga quyidagi gaplarni aytib qo'yishimni iltimos qildi. Kimki nemis qo'mondonligiga biron-bir qarshilik ko'rsatgudek bo'lsa, qattiq jazolanadi. Tushundinglarmi?

– Tushunarli. Tushunmay bo'larmidi? – dedi kimdir bo'shashibgina.

«Konslager haqida aytsammikin, yo'qmikin? – o'ylanib qoldi Shulga. – Hozircha aytmay turganim ma'quldir...»

– Himm... Itoat qilmaganlar hammasi Germaniyaga, mehnat frontiga yuboriladi, – so'zida davom etdi u. Birpas o'ylanib turdi-da, to'satdan qo'shib qo'ydi: – Partizanlar bilan aloqada bo'lganlar, ayniqsa, qattiq jazoga tortiladi! Shuni unutmanglar, quloqlaringga quyib olinglar!

Odamlar tarqay boshlashdi. Kudimov Gerasimning oldiga keldi.

– Klaus senga nimalarni gapirdi?
– Himm... Aytarli gap yo‘q.
– Yangi ro‘yxat to‘g‘risida gapirmadimi?
– Himm... Yo‘q, nima edi?
– Qiziq, – dedi Kudimov. – Menga u ishonchsiz odamlar-
ning yangi ro‘yxatini tuzishni topshirdi-ku. Lekin oldin ham-
mani diqqat bilan, sinchiklab qarab chiqing, undan keyingina
ro‘yxat tuzishga kirishing, dedi, bir hafta muhlat berdi.

– Himm... Ha-ha! – aftidan Shulga mamnun edi. –
Tabriklayman seni!

Kech kirib, qorong‘i tushganda qishloqda har xil mish-
mishlar tarqaldi: «Kolonna oldidan partizanlar to‘sib
chiqqanmish». «Ikki o‘rtada qattiq otishma bo‘lganmish». «Partizanlar jazo otryadining soldatlarini va ularning itlarini
qirib tashlaganmish». Yashin tezligida tarqalgan bu xabarlar
har bir uyda muhokama qilinar, partizanlar sha‘niga ming
bor tahsinlar o‘qilardi.

Seryoja yugurib uyiga keldi.

– Rostmikin? – so‘radi Ira akasidan.

– Hammasi rost! Nemislar qirib tashlangan, biznikilar
xavf-xatardan qutqarilgan.

To‘satdan Taras kelib qoldi:

– Eshitdinglarmi?

– Nimani? – so‘radi Seryoja o‘zini taajjublanganday
ko‘rsatib.

– Partizanlar haqida...

– Yo‘q, hech narsadan xabarim yo‘q.

– Men ham eshitmadim, – dedi Ira akasini quvvatlab.

XII

Gerasimning quvonchi uzoqqa bormadi. Ertalab uni
Klaus chaqirib, Kudimovga bergan topshiriqni unga ham
berdi: ikkinchi ro‘yxat tuzishni buyurdi.

Kechasi bilan yomg'ir yog'ib chiqdi. Ertalabga borib tingan bo'lsa ham, qop-qora bulutlar osmonni qoplab olgan edi. Izg'irin shamol qishloq ko'chalarini kezib yurardi. Havo ham ancha sovib qoldi. Bu esa yaqinlashib kelayotgan kuzdan darak berardi.

Gerasim uyining tunuka tomiga taqillab tushayotgan yomg'ir tomchilari ovozidan mizg'imag chiqdi. Asablari shuncha tarang ediki, bu tomchilar tomga emas, go'yo uning boshiga yog'ayotganday, har bir tomchisi naq qo'rg'oshinday kelib tushardi. Yarim kechada – yomg'ir zo'rayganda uyqusi qochganicha bezovta bo'lib uxlayolmay chiqdi. Ertalab karavotdan turib, yuvinishga borganida boshini ko'tarolmas, zirqirab og'rirdi, ko'zlari xiralashib ketardi. O'zining bunday lanj holatini yomg'irdan, tunukaning taka-tumidan ko'rardi-yu, aslida kecha bo'lib o'tgan mudhish voqealar dengizida xayolan bitta somonday suzib yurardi. Birinchidan, partizanlarning mana shu qo'qqisidan qilgan hujumi. Ko'rinib turibdiki, shu atrofda partizanlar yaxshi uyushtirilgan, ular ko'p. Ko'p bo'lmasa bunday jiddiy operatsiyaga jazm eta olishmasdi. Ikkinchidan, kolonnaning o'rmon ichidagi shu yo'ldan o'tib borishini ular qayoqdan biladi? Kim aytgan? Beryozovkada yashovchi kimdir aytgani aniq. Bu fikrlar uni garang qilib, esankiratib qo'ydi, o'ziga-o'zi savol berardi-yu, javobini topolmay xunob bo'lardi, asabiylashardi. Kudimovning «xalq bizdan o'ch oladi» degan so'zlari qulog'i ostida muttasil eshitilib turardi.

Gerasim stakanni to'ldirib samogon quyib shimirdi, ustidan gazak ham tatimadi. Birpas to'xtab, o'ylanib qoldida, yana yarim stakan quydi. «Kudimov ham allaqayoqqa g'oyib bo'lib ketdi!» ko'nglidan o'tkazdi u. Yana ichdi.

«Aftidan partizanlar ancha kuchliga o'xshaydi, – mulohaza qilardi Shulga. – Durasovoga hujum qilishdi – bu bir. Kolonnaga hujum qilishdi – bu ikki. Bular chakana gaplar emas. Lekin partizanlar o'zi qachon tashkil bo'lgan?

Kim tashkil qilgan? Yo bolsheviklar urushga hamma narsani oldindan tayyorlab qo'yishganmikin? Aftidan, Kudimovning xalq qasosidan qo'rqishi bejiz emasga o'xshaydi».

Shu paytda ko'cha eshik taqilladi. Yoqinqiramay, bir chekkasi xavotirroq bo'lib, ohista borib eshikni ochdi. Qay ko'z bilan ko'rsinki, uning qarshisida kolxozning sobiq hisobchisi – Shulganing amakisi Irinarxiy, ko'zlari olazarak, tipirchilab turardi. Shu daqiqada amakisi ham Gerasimning ko'ziga yomon ko'rinib ketdi, ari iniday g'uvillab turgan kallasida bir fikr lip etib o'tdi: «Topgan vaqtingni qara-yu, turqingga o'xshaydi-ya...»

Shulga Irinarxiyni uch oydan buyon ko'rmagan edi.

– Qayoqda eding? – so'radi u.

– Yo'q edim... Kirsam maylimi?

– Kira qol, – dedi ikkilanib Gerasim. Aslida u Irinarxiyni yomon ko'rardi. Amakisi siyqa, indamas, pismiqlik, odamovi edi. Akasi, Shulganing otasi qamalib ketgandan keyin u ko'p vaqtlargacha yer yutganday allaqayoqqa g'oyib bo'lib ketdi. Ammo yillar o'tishi bilan akasi va o'zi to'g'risidagi mish-mishlar bosilgach, qishloqqa qaytib, kolxozga hisobchi bo'lib o'rnamashib oldi. Kolxoz buxgalterining soyasida qo'yday yuvosh bo'lib, imi-jimida ishlab yurdi. Biroq u hisobchi bo'lib ishlasa ham, odamlarga qo'shilmasdi, qishloqda va kolxozda bo'ladigan katta-yu kichik ma'rakalardan chetda turardi. Qo'shnilari bilan yuzma-yuz kelib qolgan kezlarda, «la'nati yurak», deya xastalikdan shikoyat qilib, ikki bukilib yurardi.

– Ozod qilinganingga ancha bo'ldi shekilli? – so'radi Irinarxiy ko'proq rasm yuzasidan. U nemislar jiyani qachon turmadan chiqarishganini ham, starosta qilib tayinlashganini ham bilardi. Biroq Irinarxiy jiyani nikiga kelishga shoshilmas, qulay paytni poylardi. Mana endi kelishga qaror qildi.

– Himm... Ancha bo'ldi, ancha, – dedi Gerasim, – O'zing qayoqda g'oyib bo'lib yuribsan?

– Sen bo'lgan joyda emasdim har qalay, – mujmal javob berdi Irinarxiy, hamon unga tik qaramasdan. – Men oldingga bir ish bilan keluvdim... Yangi hokimiyat bilan aloqam ham yo'q. Yordamlashib yubormaysanmi?

Shulga olazarak bo'lib, amakisiga boshdan oyoq ko'z yugurtirib chiqdi.

– Himm... Qarib qolibsan! – dedi u miyasiga boshqa so'z kelmay.

– Faqat yoshimga qarab qariman, aslida o'zim durustman. Hali tetikman.

– Himm... Ichasanmi?

– Ichsam ichaveraman.

– Himm... Ichsang, o'tir.

– Xotining qani? – so'radi Irinarxiy.

– Himm... Kasal, yotibdi, qo'shni xonada, o'g'lim ham o'sha xonada. Himm... Taras! – qichqirdi u. – Bu yoqqa kel!

Taras kirdi, qovog'ini solgan holda salomlashdi.

– Nima kerak?

– Choy ber.

Irinarxiy tashqi ko'rinishda Shulganing tamomila aksi edi, u uzun bo'yli, xipchadan kelgan, yuzlari Gerasimnikiga o'xshash yapaloq va semiz bo'lmay, aksincha, cho'ziq va qotmadan kelgan edi, allaqachon oppoq oqarib ketgan sochlari ancha siyraklashib qolgan, sho'r yerda ko'kargan o'tlarga o'xshardi. Soqoli esa xuddi echkinining soqoli edi bamisoli. Ovqat yeganida va tez-tez gapirganida o't chaynagan echkini eslatardi.

– Xudoga shukr, ko'rishar kun ham bor ekan, jiyan, – dedi nonushta tayyorlangan stolga o'tirib. – Bu taqdir degani goh seni, goh meni u yoqdan-bu yoqqa itqitaverdi, itqitaverdi... Ha, yovuz taqdir! Qani, ichamizmi?

Ular stakanlarini urishtirmasdan ichishdi. Hozircha gaplari qovushmasdi. Taras kartoshka aralash dimlangan cho'chqa go'shti olib keldi, katta mis choynakda choy keltirdi. Choynakni stolga qo'yarkan, otasining yag'ir bosib, terdan qotib ketgan maykasiga, qirilmagan soqoliga, xira tortgan ko'zlariga ijrig'anib qarab qo'ydi.

– Men boray.

– Himm... Bor, o'g'lim, – dedi Gerasim ko'proq Irinarxiyni o'ylab. Yana jim qolishdi.

– Himm.. Ishga qo'l urmoqchimisan? – kutilmaganda so'rab qoldi Gerasim.

– Yomon bo'lmasdi...

– Himm... Bir ish bor. Menga bir yordam qilib yuborsang yaxshi bo'lardi.

– Jonim bilan.

– Himm... Bo'lmasam quloq sol, – Gerasim shkafning ustki xonasidan qandaydir qog'ozlarni olib, salobat bilan joyiga o'tirdi va odatdagicha ko'zlarini olaytirib so'zida davom etdi. – Himm... Nemislar uchun barcha kommunistlarning oila a'zolari, umuman, aktivlarning ro'yxatini olish lozim. Tayyormisan?

Irinarxiy qarib qolgan bo'lsa ham ishtahasi karnay bo'lib, stoldagi vetchinani ikki buklab og'ziga tiqardi, bodring va piyozni karsillatib chaynardi, ammo... aroqqa kelganda me'yorini bilardi, ruju qilmasdi. Bu yerda esa jiyanining ra'yini qaytarolmadi. Ancha kayfi taraq bo'lgach, jiyaniga yaqinlashib, qulog'iga shivirladi:

– Nega tayyor bo'lmas ekanman. Tayyorman. Xudoga shukr, hammasini bilaman, buyog'iga g'am yema.

Gerasim unga xo'mrayib g'o'ldiradi:

– Himm... Bu nemis qo'mondonligi tomonidan berilgan maxfiy buyruq! Buni sen bilasan-u, men bilaman, xolos.

– Xudo haqqi tushundim, xotirjam bo‘l, Gerasim, – dedi Irinarxiy og‘zi to‘la ovqat bilan. – Fahmlab turibman, sovet qo‘mondonligi uchun emas...

– Qochirig‘ingni qo‘y!

– Ha, aytdim-qo‘ydim-da...

– Himm... Bu faqat nemislarga kerak emas, – tushuntirdi Shulga, – qishloqdagi barcha xavfli kishilardan qutulish kerak!

– Xudo xohlasa qutulasan, tinchiysan, jiyan, – dedi Irinarxiy.

Ko‘chadan uy oldiga kelib to‘xtagan mashinaning ovozi eshitildi. Gerasim seskanib tushdi.

– Himm... Yana kim keldiykin?

Klaus, Ebert va qora kiyimda yana bir notanish kishi Gerasimning uyiga kirib kelishdi.

– Janob Shulga, tanishing, bu kishi kapitan Meyer, gestapodan.

– Himm... Minnatdorman, janob kapitan, xush kelibsiz, – dedi Gerasim hayajon ichida unga ta‘zim qilib. – Amakim bo‘ladilar, – tushuntirdi u hammalariga Irinarxiyni ko‘rsatib, so‘ng shoshib choy quyishga taraddudlangan edi, kapitan mezbonning xushomadini cho‘rt kesdi:

– Biz choy ichganimas, sizni tekshirgani kelganmiz, – dedi-da, ko‘zoynagi ostidan Shulgaga olayib qaradi.

Busiz ham hayajonini bosolmay turgan Gerasim kapitanning sovuqdan sovuq so‘zlaridan ham, murdaga o‘xshagan yuzlaridan ham qo‘rqib ketdi.

– Pistirmadan chiqqan partizanlar soldatlarimizni qirib tashlaganidan xabardordirsiz? Kommunistlar partizanlarga qo‘shilib o‘rmonga kirib ketganidan ham xabardordirsiz?

Shulga nima deyishini bilmay turardi, kayfi tarqab, butun vujudi dir-dir qaltirardi.

– Himm... Bilmadim... janob kapitan...

– Bilishingiz shart! – Kapitan jahli tez, achchig‘i zo‘r, juda asabiy odam bo‘lganidan, qo‘lini musht qilib bor kuchi bilan stolni shunday urdiki, stoldagi stakanlar jiringlab, shishalar sakrab ketdi. – Ha, mayli, bu haqda keyin yana gaplasharmiz, – dedi u. – Partizanlar va kommunistlar bilan o‘zim shug‘ullanaman. Siz hozir men bilan kelgan tergovchilarni hamda jazo otryadining soldatlarini joylashtiring. Xo‘sh, qayerga joylashtirmoqchisiz?

– Hotiringiz jam bo‘lsin, janob kapitan. Ularni kolxoz klubiga joylashtirish mumkin, deb o‘ylayman. U yerda mudirning katta kabineti bor. Yana kolxoz pravleniyesining binosiga joylashtirsa bo‘ladi.

– «Kolxoz klubi», «kolxoz pravleniyesi» – buni nima deb tushunish kerak? – tutoqib ketdi Meyer. – Nega og‘zingizda nuqul sovet iboralari, starosta?

– Afv eting meni, gunohimdan o‘ting.

– Darrov ishga kirishing! – Buyruq berdi kapitan. – Sizni ham shaxsan o‘zim... – u so‘zini tamomlamasdan shartta orqasiga o‘girildi-da: – Ketdik, janoblar! – dedi zarda bilan.

Klaus va Ebert ham Shulgaga g‘azab bilan nazar tashlab, Meyerning orqasidan chiqishdi.

Gerasimning hozirgi holatini shunchaki bir ayanchli holat deb bo‘lmasdi. Uning ahvoli egasining ko‘nglini olishga urinib, dumini likillatib, xushomad qilgan itning haqoratlangani, kaltak yegani va shu kaltak azobi ichida ham «Meni haydab yubormasmikan?» degan vahima bosgani holatiga o‘xshardi. Buni o‘zi ham his etardi, faqat sotqinlik tuyg‘usi bilan his etardi. Mehmonlarni kuzatdi-yu, alamidan bir stakan aroqni nafas olmay ichib, mushtining orqasi bilan lablarini artib, yana hayron bo‘lib qotib qoldi.

– Ishing oson emas, jiyan, – dedi Irinarxiy jo‘nab ketgan mashina ovozi uzoqlashgach. – Mayli, men boray... Kechqurun yana kelarman, – dedi Irinarxiy. Lekin uning

gaplari Gerasimning qulog'iga kirmasdi. U oyog'ini qo'liga olib, klub bilan pravleniye joylashgan katta maydonga shoshildi. «Yaxshi ham bombardimondan zarar ko'rmadi, – o'ylardi u. – Bo'lmasa qayerga joylashtirardim...»

Meyer klub mudirining kabinetini ko'zdan kechirdi.

– Hammasini yig'ishtirib, tartibga solib, taxt qilib qo'ying. Men shu xonada turaman. Yordamchilarimga boshqa xonalarni tanlang.

Shulga tergovchilar uchun kapitanning xonasiga yaqin uch xona topdi. Jazo otryadining o'n ikki soldati pravleniye binosiga joylashtirildi. «Qiziq, jazo otryadi qo'lga olganlar ham o'n ikkita edi, hozir nemislar ham o'n ikkita, – o'ylardi Gerasim, – Shunchaki tasodifmi bu?»

Gerasim ishlarini tugatmasdanoq uni Meyer chaqirib qoldi.

– Sizdan boshlaymiz, starosta.

Uning yonida qora ofitser kiyimida yana uch nemis o'tirishibdi.

– Himm... Tarjimon kerakmi? – so'radi Shulga xushomadgo'ylik bilan.

– O'zim hammasini tarjima qilib beraman, – dedi Meyer. – Rus tilini sizdan yaxshiroq bilaman... – U tergovchilarga nemis tilida nimalardir dedi. – Xo'sh, starosta, savollarimizga javob bering! Dangal javob bering! – Kapitan ko'zlarini olaytirib Gerasimga qaradi. – Partizanlar otryadi qayerda joylashgan? Komandiri kim? Otryadda qancha kishi bor?

– Himm... Bilmayman, janob kanitan, – dedi Shulga qo'llarini yozib.

– Siz bilmaysiz deb faraz qilaylik. Lekin buni albatta va iloji boricha tezroq bilish zarur. Tushundingizmi?

– Himm... Tushundim, janob kapitan!

– Qishloqda ishonchli odamlaringiz bormi?

Shulga dovdirab qoldi. Kim ishongan odami? Kudimov, mana endi Irinarxiy paydo bo'ldi. Boshqa hech kimi yo'q shekilli.

– Himm... Afsuski, juda oz, janob kapitan, – dedi u mujmal.

– Bizning ishimizda, starosta, o'zingning odamlaringga tayanib ish tutish kerak, – dedi nasihatimiz Meyer. – Boring, yaxshilab o'ylab ko'ring. Hozircha sizga javob.

Kapitanning dili g'ash, o'y-fikrlari chigallashib, boshi berk ko'chaga kirib qolgan ediki, undan chiqish ilojini topolmasdi, xunob bo'lardi. Mana uch oydan buyon u Rossiyada. Lekin bu yerda u Polshada ham, Gollandiyada ham, Avstriyada ham, Fransiyada ham bo'lmagan bir holatga duch keldi. Ruslar nemislarga sira yaqin yo'lamsdilar, qo'rqitib, avrab ham ularni biron ishga solib bo'lmasdi va mana bu starosta Shulgaga o'xshaganlar kamdan kam uchrardi. Kapitan tabiatan jahli tez, achchig'i zo'r bo'lsa ham vaqt ziqligi, vaziyat taqozosi uni o'z tabiatiga ters ish tutishga majbur etardi-yu, g'azabini tizginlab, jazo qo'llarini ushlab turardi. Boshqa iloji ham yo'q edi. Shulgaga o'xshaganini yana qayoqdan izlaydi-yu, qachon bunaqasini topadi, vaqt qarab turmaydi. Bo'lmasa-ku, bunaqangi noshud starostaning bahridan o'tish nima bo'пти unga. Haliyam bo'lsa o'zini ishga solgan ma'qul, deya xayolidan o'tkazardi kapitan.

– Aytganday, – dedi kapitan Gerasimni to'xtatib. – Men sizga yana bir yordamchi beraman, yosh, g'ayratli yigit. Sizning vatandoshingiz. Unga mehribon bo'ling, yordam qiling, u ham sizga yordam qilar. Tushunarlimi?

– Himm... Xuddi shunday, janob kapitan! – dedi Gerasim.

Aroqning kuchi bilan dahshat va qo'rquvni bosib, so'roqqa kirgan va kattaroq jazo kutgan Gerasim

kapitanning oldidan shalpayib chiqdi va sal fursat o'tmayoq a'zoyi badani qiziy boshladi. Yo hozirgacha jim turgan aroq bir necha qadam yurmayoq o'z kuchini ko'rsatdi, yo bo'lmasa qattiq shamollab qolgan-u, isitmasi chiqqan kasal kishiday uyiga yetib keldi. Xonaga kira solib, o'zini karavotga tashladi.

Yotgan joyida uzoq o'ylandi, o'ylandi-yu, bu savollarga javob topish mashaqqati ichini timdalay boshladi. Axir, partizanlar otryadi qayerda joylashganini, komandiri kim ekanini, kolxoz raisi Shaxov qaysi o'rmonga yashiringanini starosta qayoqdan bilsin? Kolonnadagi kolxoz kommunistlari qayerdaligini kim biladi, axir? Starosta bularning hammasini bilsa, darhol kapitanga aytmasmidi! Bilmaydida. Kapitan ham, oberleytenant Klaus ham, jazo otryadi ham, uning komandiri Ebert ham bilmaydi. Bilishsa aytishsin, marhamat!

U uzoq o'yladi, o'ziga-o'zi qanchadan qancha savollar berib, unga javob qidirdi. Yuragi o't bo'lib yonayotganini sezdi. Bu nima? Qo'rquvdanmi yoki xastalikdanmi? Har holda u gestapo tomonidan so'roq qilinganidan qo'rqqani aniq edi, oyoqlari va qo'llari qaltirardi, boshi garang bo'lib, ko'zlari xiralashdi. U og'ir xastalikka chalinib qolish xavfini ham o'ylab vahimaga tushdi. Nahotki shuncha yil turmada o'tirib kasal bo'lmagan odam, endi kelib, ozodlikda yurib xastalikka uchrasa. Miyasiga turli-tuman mudhish fikrlar kirib-chiqardi. Shu holatda o'zi bilan o'zi yolg'iz olishib, karavotida yotganida Mariya kirib keldi.

Gerasim kasalligini ham unutib, Mariyaga tashlandi, uni quchoqlab o'pa ketdi.

– Bo'ldi, bo'ldi deyman! Tavba, xotin ko'rmagan odamga o'xshaysan-a! – deganicha quchog'idan chiqishga urinardi Mariya.

Gerasim bo'lsa o'zicha bidir-bidir qilardi:

– Himm... Qayoqda eding? Qayoqda shuncha uzoq qolib ketding? Sensiz ahvolim yomon! Juda yomon!

Uy sovuq va besaranjom edi.

– Hech bo'lmasa pechkani yoqib yuboraylik, qo'ygin, – dedi Mariya.

Stolga o'tirishib, Mariya sumkasidan ikki shisha rus arog'i chiqarganidan keyingina Shulganing ko'ngli joyiga tushdi.

– Xudoga shukr-e, borakansan-ku, koni aqlsan-da, o'zing. Mana bu samogon ham, bularning nemis shnapsi ham rosa jonga tegdi-ye, – iqrор bo'ldi Gerasim. Shu zahotiyoq uni g'am bosdi. – Kasal bo'lib qolmasam deb qo'rqyapman. Masha...

– Nima bo'ldi?

– Suyaklarim zirqirab og'riyapti, hammayog'im bo'shashib ketyapti. Haroratim ham balandga o'xshaydi... – dedi u. – Xudo ko'rsatmasin hozirgi paytda kasal bo'lib qolishni. Ish boshdan oshib yotibdi.

Gerasim tuzishi lozim bo'lgan ro'yxat haqida ham, kapitan Meyerning savollari haqida ham Mariyaga og'iz ochmadi. Faqat amakisi Irinarxiy kelib-ketganini aytdi, xolos. Lekin xuddi o'sha sir saqlagan gap uning ko'nglini hozir ko'proq g'ash qilayotgan edi.

Shu paytda Taras kirib keldi. Gerasim o'g'liga tikilganicha baqrayib qoldi, boshidan oyog'igacha qarab turib, bo'yi ancha o'sib qolganini ko'nglidan o'tkazdi. Bo'yiginamas, aft-angori, husni ham o'zgarib ketgan, juda chiroyli edi. Qop-qora sochlari bejirim, silliq taralgan, qalin qoshlari, yonib turgan ko'zlari, nur tomib turgan yuzlari... Nahotki shu Gerasimning o'g'li bo'lsa? O'g'li, albatta.

– Himm... O'g'lim, – dedi qandaydir yolvorgan va xazin ohangda, – men ham kasalga o'xshayman.

– Nima bo‘ldi, dada?

– Himm... Bilmadim, boshim aylanib, ko‘zim tinib, xiralashib ketyapti.

– Issiq choy ichasizmi?

– Himm... Mayli, – Gerasim o‘g‘lining mehribonligidan ko‘ngli yumshab ketdi...

Oz o‘tmay Taras choynakda choy keltirib, otasining yoniga o‘tirdi.

– Kudimov xavfli odam, – dedi Taras otasiga qarab, qat’iy ohangda.

– Himm... Qayoqdan bilasan?

– Yuragim aytib turibdi.

Dahshat, qo‘rquvlardan birpasgina chalg‘igan Gerasim yana xavf-xatarli o‘ylarga botdi. Taras chiqib ketdi.

«Kudimov, Kudimov... – karavotga chalqancha tashlanib, shipga qarab o‘ylardi Gerasim, – O‘zi kim? Odam o‘ldirib qamalganini, turmada o‘tirganini bilaman. Hozir-chi? Hozir u kimga xizmat qilyapti? Nima uchun u kommunistlarni ro‘yxat qilayotganimizda «xalq bizdan o‘ch oladi» dedi? Buni u biramas, bir necha marta takrorladi. Bu meni qo‘rqitish uchun aytilgan gapmi? Yoki o‘zi kommunistlarga xayrixohmi? Ichimizga suqilib kirgan partizan bo‘lsa-chi? Ehtiyot bo‘lmoq, uning iziga tushmoq zarur...»

Ko‘cha eshik taqilladi. Mariya eshik ochgani chiqib ketdi.

Eshikdan karabin taqqan yoshgina yigit kirdi. Bu Yura edi. Yigit yaqindagina politsay bo‘lgan edi. U starostaning yoniga o‘tirib, hozir so‘roqdan chiqib kelayotganini, kapitan undan partizanlar qayerda, kolxoz raisi Shaxov qayerda turishi, shubhali va xavfli kishilar to‘g‘risida axborot talab qilganini aytdi. Shu bilan birga o‘zidan oldin Kudimov ham so‘roq qilinganini bildirdi. U kolonnani stansiyaga jo‘natish to‘g‘risidagi xabarni partizanalarga Sergey yetkaz-

gan debdi. Kapitan: «Nima bilan isbot qilasan?» – deb so‘ragan ekan: «O‘rmonga yugurib ketayotganini o‘z ko‘zim bilan ko‘ruvdim», – debdi.

Sarosimaga tushgan Gerasim Tarasni chaqirdi:

– Himm... O‘rtog‘ing Sergey qayerda?

– U kasal yotibdi.

– Himm... Qanday kasal?

– Oyog‘iga oskolga tekkan. Yurolmaydi.

Gerasim «Eshitdingmi?» demoqchiday politsayga tikilib qoldi. Politsay yigit Yura ham hayron bo‘ldi va o‘ylanib turgan Gerasimga tik qarab, dedi:

– Partizanlarga xabar qilgan Kudimovning o‘zi bo‘lsa-chi?

– Himm... Ehti...mol, – Gerasim cho‘zib gapirdi, boya miyasida yilt etgan shubhani politsay yigit tasdiqlaganday edi.

Starosta nima qilarini bilmay o‘rnidan turdi, quloch-kashlab kerishdi, xonada bir-ikki qadam u yoqdan-bu yoqqa yurib, g‘ovlagan miyasini bo‘shatmoqchi, fikrlarini tinchitmoqchi bo‘ldi, bari bir xavf-xatar girdobidan chiqolmadi, Yuraning yoniga o‘tirib, Kudimovning «xalq bizdan o‘ch oladi» degan so‘zlarini unga takrorladi. Yura jiddiy qiyofada starostani o‘ziga yaqin olganday uqtirdi:

– Bu yerda bir sir borgan o‘xshaydi, Gerasim aka, axir, oyog‘iga oskolga tekkan bola qanday qilib o‘rmonga yugura olsun? U loaqal yurolmaydi-ku, cho‘loq-ku. Bu bir, ikkinchidan, kommunistlarning ro‘yxatini tuzgan kim? Siz bilan Kudimov. Ularni stansiyaga jo‘natishni kim bilardi? Siz bilan Kudimov! Uyida kasal bo‘lib yotgan bola bu sirni qayoqdan bilsin. Yo‘q, Gerasim aka, agar partizanlarga kimdir xabar qilgan bo‘lsa, u faqat yo siz, yo Kudimov bo‘ladi. Siz o‘zingizga o‘zingiz dushman emassiz, deb o‘ylayman. Demak, Kudimov.

Shu paytda derazaning orqasida kimningdir boshi ko'rindi. Bu Ira edi. Gerasim uni ko'rmadi. Ira hayron bo'lib, xonaga ko'z tashladi-yu, yengiga oq tasma tutgan politsayni ko'rib, o'z ko'zlariga o'zi ishonmay qoldi. Tanish ko'zlar to'qnash kelib, uzoq tikilib qolishdi. Bu o'sha, o'rmonda daraxt ustida soqchilik qilib o'tirgan, Irani cho'chitib, qo'rqitib yuborgan yigit ekani qizning esiga tushdi. Yura unga ko'zini qisib qo'ydi. Ira esa salgina iljayib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

XIII

Kechasi bilan achchiq izg'irin turdi. Azonga kelib qishloq ustida qor uchqunladi. Tong yorishgandan keyin ham osmonni qop-qora bulutlar qoplab turardi. Kuzning achchiq-achchiq sovuqlari g'arbdan sharq tomonga ilondek o'rmalab kelardi va Beryozovkadagi har bir uyga zaharli nafasini sochardi. Kolxoz klubiga o'r mashgan jazo otryadining soldatlari ham, idoraga joylashgan kapitan Meyer va gestaponing tergovchilari ham birinchi marta ana shunday achchiq sovuqqa duch keldilar, kechasi bilan qaltirab, mijja qoqmay chiqdilar.

– Binoni isitishning iloji yo'qmi? – so'radi kapitan Klausdan.

Klaus Shulgani chaqirdi:

– Pechkalarni yoqing!

Shulganing tashvishi boshidan oshib yotganiga qaramay, buyruqni bajo keltirishga kirishdi. U partizanlarning iziga tushgandek edi nazarida. Kecha Irinarxiy kelganida Gerasim unga zorlanib:

– Himm... Bu gestapo kapitanining topshirig'ini qanday qilib bajarishni bilmay xunobman, – degan edi, Irinarxiy jonlanib ketdi:

– Qishloq sovetining sekretari Fedotovni taniysanmi? – deb so‘radi darhol.

– Himm... Eslayman, nimaydi, bir gap bormi?

– Gap shuki, uni qarmoqqa ilintirsang, kalavaning uchi topilgani shu bo‘ladi.

Irinarxiy bir necha ishonchli dalillar keltirgan edi, Shulga sevinib ketdi, Klausning huzuriga yugurdi.

– Himm... Janob oberleytenant! Fedotovni qamoqqa olish kerak. Ro‘yxat tuzganimda darhol buni fahmlamaganimga hayronman.

Klaus Gerasimning so‘zlarini diqqat bilan eshitdi.

– Yaxshi, qamoqqa olamiz, – dedi u. – Kapitan mamnun bo‘lishi kerak.

Kechasi Fedotov qamoqqa olindi. Uni soldatlarini ergashtirib kelgan Ebert olib ketdi. So‘ngra Vasiliyni Klaus huzuriga keltirishdi.

– Kommunistmisan?

– Partizanmisan?

Fedotov javob bermadi. Klaus Vasiliyning yonog‘iga musht tushirdi.

– Javob berasanmi?

– Beraman, – dedi Fedotov.

– Xo‘sh, partizanmisan?

– Yo‘q, partizan emasman, – ochiqdan ochiq javob berdi Vasiliy. «Darhaqiqat, men partizan emasman, balki partizanlarning aloqachisiman», deya ko‘nglidan o‘tkazdi u va kulib qo‘ydi.

Klaus Fedotovdan hech qanaqa gap ololmay uni Meyer huzuriga olib keldi.

Kapitanning xonasi isib, o‘zi ham ancha shaxtidan tushib qolgandi.

– Yaxshi, yaxshi, Klaus! Ofarin! Starostangiz ham oldin o‘ylaganimdek juda ham noshud emas...

Meyerning nazarida Fedotov tashqi ko'rinishidan kommunistga ham, partizanga ham o'xshamasdi. Yosh emas, chehrasida bolsheviklarga xos vazminlikning asari ham ko'rinmasdi. O'zini xotirjam, hatto allanechuk sust ham tutardi.

– Urdilaringmi? – so'radi Meyser Klaudan Fedotovning yuzidagi ko'kargan qontalash dog'larni ko'rib.

Klaus nima deb javob berishni bilmay, yelkasini qisib qo'ydi.

– Menimcha, agar urgan bo'lsalaring, yaxshi qilmabsizlar, – dedi kapitan va shartta Fedotovga o'girilib, iltifot bilan taklif qildi: – Marhamat, o'tiring!

Vasiliy stulga o'tirdi.

– Siz, sovet hokimiyatining xizmatchisi bo'lganmisiz? – so'radi Meyer.

– Qishloq sovetining sekretari edim, – tushuntirdi Vasiliy.

– Uzoq vaqt ishladingizmi?

– Birinchi saylovdan boshlab. Uch yildan ko'p deya-vering.

– Xo'sh, qanaqa vazifalarni bajardingiz?

– Aslini olganda hamma vazifani ham. Qishloq obodonchiligiga oid hamma ishlar, maktab va mana shu klub qurilishi, yo'llarni remont qilish va boshqa ishlar.

– Yo'llaringiz yomon, – dedi kapitan. – Bittasigina durust, boshqalari...

– Ulgurolmadik... Urush xalaqit berdi...

– Urush xalaqitgina emas, balki yordam ham beradi, – dedi nasihatomuz Meyer.

– Biror narsa deya olmayman.

Kapitan Fedotovga oyog'idan boshigacha yovuz va sovuq nazar tashlab, anchagacha tikilib turdi-da, «san»lab gapira boshladi.

– Kommunistmisan?

– Qishloq soveti deputatlari nuqul kommunistlardangina iborat emas.

– Xo'sh, sen kommunistmisan, – jahl bilan takrorladi kapitan. – Kommunistlar bilan aloqadamisan?

– Yo'q, aloqam yo'q.

– Partizan otryadi qayerda?

– Bilmayman.

– Shaxov qayerda?

– Bilmayman.

– Kolosov qayerda?

– Bilmayman.

– Kolonnaning qishloqdan jo'natilishi haqida partizanlarga kim xabar qildi?

– Bilmayman.

Tergovchilardan biri o'rnidan turib, Meyerdan nimanidir so'radi. Kapitan boshini qimirlatdi. Tergovchi Fedotovning oldiga kelib, qorniga bir tepgan edi, Vasiliy yog'och oyoqlarida tebranib, yiqilib tushdi. Tergovchi uning qorniga, biqiniga, hatto boshiga etiklarining poshnasi bilan tepdi...

Xona ancha isib qolgandi. Lekin Meyer shinelini yelkasiga tashladi, stakanga konyak quyib ichdi.

Fedotov g'ing demasdan jim yotardi.

– Turg'izinglar! – baqirdi Meyer.

Ikki tergovchi Fetodovni poldan azod ko'tarib, stulga o'tqizishdi. Vasiliyning chehrasida na og'riq, na nafrat ifodasi bor edi. Birdan uning rangi o'chib, bir tomonga engashib stuldan polga ag'darilib tushdi. Eshik oldida turgan soldat tergovchilar bilan birga yana uni ko'tarib, stulga o'tqizishdi.

– Suv! – dedi sovuqqina kapitan.

Soldat g'izillab bir kotelok suv olib kelib, Fedotovning boshidan quydi. Fedotov nimjon ko'zlarini ochdi. Kapitan oyoqlarini kerib, ovozing boricha qichqirib, po'pisa qila boshladi:

– Yo partizanlar qayerda ekanini aytasan, yoki shu yerning o'zida otilasan, – kapitan to'pponchasini qinidan chiqarib, Vasiliyning peshonasiga tiradi.

Vasiliy indamadi. Kapitan aql-hushini asabiga almash-tirib, yelkasidagi shinelini uloqtirib tashladi-yu, mushtlari bilan, to'pponchasining dastasi bilan ura ketdi, Fedotov yana ag'darilib tushgach, endi etiklari bilan tepa boshladi. Soldatlardan biri chidash berolmay, orqasiga o'girildi. Meyer charchagandan so'ng hansirab, soldatlarga imo qildi:

– Olib ketinglar!

Sal o'ziga kelgach, Meyer buyurdi:

– Starostani olib kelinglar! Kudimovni! U aytgan... Yesinni ham!

Xonaga Kudimov bilan birga Seryoja, ularning ketidan shalpayib Shulga kirib kelishdi.

– Hammalaring o'tiringlar, sen tikka tur! – dedi Meyer Seryojaga.

– Xo'sh, gapir, – dedi kapitan Kudimovga, Seryojaga imo qilib.

– Qo'lga olinganlarni pravleniye oldiga to'plaganda uning o'rmonga chopib ketayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim, – dedi hovliqib Kudimov.

– Xo'sh, sen nima deysan? – Kapitan Seryojadan so'radi.

– Men o'rmonga emas, uyimga shoshildim, – dedi Seryoja.

– Yarador bo'lganmisan?

– Ha.

– Ko'rsat.

Seryoja shimining pochasinini ko'tardi. Sonida katta yara dog'i ko'karib turardi.

– Lekin ancha yaxshi yurasan-ku? Shundoqmi?

– Ha, yuraman, lekin chopolmayman.

– Bilib qo'y, agar sen bor gapni to'g'ri aytsang, butunlay qo'yib yuboramiz, – dedi kapitan.

– Aytadigan gapim yo'q, – dedi Seryoja.

– Starosta! So'z sizga!

– Himm... Bilmadim, janob kapitan... Haqiqatan bilmayman, – iqrор bo'ldi Gerasim. – Yesinlarning hammasini yomon ko'raman. Lekin bu bola haqida hech narsa deya olmayman. Yuvosh, bosiq bola, singlisi bilan ikkalasi o'g'limga ko'maklashib yurishibdi. Mening shubham yo'q...

– Hech kimga ishonmang, ishonmang! – o'rnidan sapchib turib ketdi Kudimov. – Partizanlarga xabar bergan o'shaning o'zi!

Shulga Kudimovga jahl bilan qarab qo'ydi. Seryoja o'zini osoyishta tutardi. Kudimov jaholat olovida yonib, qahr-g'azab bilan yirtqichday unga tashlandi va maymunning qo'liday uzundan uzun qo'llari bilan Seryojani do'pposlay ketdi. Shundan keyin Meyer unga konyak tutdi.

– Himm... Biron narsani bilsang ayta qol, – maslahat qildi unga Shulga.

Seryojadan sado chiqmasdi. «Sotqinlik qo'rqqoqlikdan kelib chiqadi», ko'nglidan o'tkazdi u Shulga haqida, Kudimov haqida o'ylarkan. Fedotovga nisbatan Seryoja bilan ko'proq ovora bo'lishdi. «Qiynoqqa solish kerak emas, urish ham, – mulohaza qildi Meyer. – Bu qochmaydi. Bola bilan muloyim suhbat qilish, bolalik ko'nglini topish lozim. Aybdor bo'lsa, bari bir oxiri hammasini aytib berishi kerak».

Lekin Seryoja miq etmasdi. Bunga chiday olmagan Meyer jaholat olovida yonib, qahr-g'azab bilan unga tashlandi, yerga yotqizib, charchagunicha urdi. Qorniga,

yarasiga tepgan edi, hali bitmagan yara qonab ketdi, burnidan va og'zidan ham qon keldi. Seryoja hushidan ketdi. Uzoq vaqt hushsiz yotdi.

– Olib ketinglar! – buyruq berdi kapitan.

Uni sudrab, nemislarning qorovulxonasiga olib borishdi va nimqorong'i xonaga qamab qo'yishdi.

Kechga borib Seryojaning ko'zi ochildi. U qonga belanib yotardi. Og'zi-burnidan yuziga va iyagiga, bo'ynigacha oqib tushgan qonni artmoqchi bo'ldi-yu, ikki qo'li ham orqasiga bog'langanidan qimir etolmadi. «La'natilar, – dedi u ichida,– qamoqda yotsang ham qo'lingni bog'lab qo'yadilar». Shu paytda yarasidan oqib, shimini ivitgan qonga ko'zi tushdi. Yarasi xuddi tuz sepganday achishib og'rirdi. «Bu kapitan tepgan etik izlari», o'ylardi u boya tepasida quturgan yirtqichday turgan dahshatli gavdani eslab. Seryoja ursalar ham, tepsalar ham «ih» demadi. Og'riq qancha zo'r bo'lmasin tishini-tishiga qo'yib bardosh berar, anavi ablahlar og'riqdan azob chekayotganini ko'rib, xursand bo'lishlarini istamasdi. Og'riq azoblarini ichiga yutardi.

Ertalabga borib nimjon ko'zlarini salgina ochganida, boshida Kudimov turganini ko'rdi va sotqinning basharasidan jirkandi. Kudimov qonli ko'zlarini olaytirib, dedi:

– Partizanlarga xabar qilganingga iqror bo'l...

Seryoja indamadi.

– Sen xabar qilmagan bo'lsang, kim xabar qildi?– qayta so'radi Kudimov.

– Sen! – dedi Seryoja keskin ravishda. – Sen! Sen! Sen!

Uning javobi Kudimovni qo'rqitib, sarosimaga soldi.

– Nima? Esingni yedingmi? Men sotqin emasman!

– Borib turgan sotqin o'zingsan, – qat'iy suratda takrorladi Seryoja.

Kudimov o'qday otilib, chiqib ketdi. Ko'p o'tmay Seryojaning oldiga Shulga keldi. Seryoja yana takrorladi:

– Kudimov xabar qilgan!

Klausga ham Seryoja o'sha so'zni takrorladi:

– Kudimov xabar qilgan!

Tergov tugamasdan Klaus Shulgani chaqirtirib qoldi.

– Eshitdingizmi, Shulga, partizanlar tosh yo'lda yana ikki topqir qo'poruvchilik qilishganini? Oziq-ovqat ortilgan bitta obozni va yonilg'i ortilgan uchta avtomashinani yer bilan yakson qilishibdi.

– Himm... Eshitdim, oberleytenant.

– Bu xususda nima deysiz?

– Himm... Bilmadim.

– Qanday qilib bo'lsa ham o'sha la'nati partizanlar bilan bog'laydigan ipning uchini topish kerak.

– Himm... Ehtimol Kudimov orqali topish mumkindir?

– Siz ham shubha qilasizmi?

– Himm... Ha, nima desam ekan sizga... – mujmal javob qildi Shulga. – Ochig'ini aytsam, u menga yoqmaydi...

Tergov boshi berk ko'chaga kirib qolgandi. Meyer, uning yordamchilari, Klaus va Ebertning urinishlari hech qanday natija bermadi. Kapitanning so'nggi ishonchi yangi politsayda edi.

– Yangi politsayni chaqiring, oti nima edi, ha, Yuramidi?

Yurani chaqirishdi. U kapitanga ma'nodor qarab, tayoze bilan ta'zim bajo keltirdi-da, iltimos qilishga ijozat so'radi.

– Marhamat, – dedi kapitan ensasi qotib, asablari tarang holda bo'lsa ham sezdirmaslikka harakat qilib.

– Marhamatingiz uchun tashakkur, muhtaram kapitan janoblari.

Meyer bu yaqin kunlarda bunaqangi yoqimli iborani ham, samimiyatni ham eshitmagan, ko'rmaganidan sal chigili yozilganday bo'ldi-yu, tag'in o'zini tutib olib, jiddiy tusga kirdi.

– Gapiring, qanday iltimos? – qovoqlarini solib so‘radi.

– Siz janoblariga bo‘lgan hurmatim, sadoqatim haqi shu ish bilan shug‘ullangan ba‘zi bir mo‘tabar xodimlaringiz ishtirok etishsa, zarurat tug‘ilganda ularga savol bersam, shunga ruxsat etasizmi? Bu bilan sizga ham, muhtaram kapitan, hamrohlaringizga ham yordam berishdan boshqa muddaoyim yo‘q.

– Ayting, kimlar?

– Janob Klaus bilan janob Ebert, Shulga bilan Kudimov.

Kapitan Meyer «bu nayrangning tagida biron gap bo‘lmasin tag‘in», degan ma‘noda politsayga shubhali qarash qildi-yu, ammo iltimosni qondirishni lozim topdi. Hamma yig‘ilib bo‘lgach, Yura lo‘nda-lo‘nda qilib gapira boshladi:

– Janob kapitan! Siz va sizning hurmatli hamrohlaringiz partizanlar otryadining qishloqdagi aloqachilarini qidirib topish va ularni tor-mor qilish ustida jonbozlik ko‘rsatib, tergov olib boringiz. Ammo qattiq urinishlarga qaramay, tergov natija bermadi. Sababi: partizanlar va ularning aloqachisi nima bilandir bizlarni chalg‘itishdi. Shu masala yuzasidan menga bergan alohida topshirig‘ingiz va oliy ishonchingizni oqlash ustida uzoq o‘yladim. Qishloq kezib, odamlar bilan suhbat qildim. Endi siz janoblariga axborot berishga ruxsat etgaysiz. Janob kapitan! Kommunistlarni stansiyaga jo‘natish to‘g‘risidagi buyruqni kimlar bilar edilar? Buni faqat to‘rt kishi bilardi: janob Klaus, janob Ebert, starosta bilan politsay Kudimov. Modomiki, shunday ekan, ana shu to‘rt kishidan biri ushbu xabarni partizanlarga yetkazgan. Janob Klaus bilan janob Ebert bundan mustasno, albatta. Shulga ham mustasno. U sidqidil xodim. Nihoyat, ro‘yxatni uning o‘zi tuzgan-ku. Ro‘yxat tuzgan odamning

o'zi partizanlarga xabar qilishi aqlga sig'maydigan gap. Endi o'zidan o'zi ko'rinib turibdiki... – Yura jim qoldi.

– Men emas! Men emas! Yolg'on! Tuhmat! – deya baqirdi Kudimov.

– Nima yolg'on-u, nima haqiqat, bilmadim, – dedi Yura. – Mana janob Shulganing o'zi tasdiqlasin. Kudimov uni «xalq bizdan o'ch oladi», deb qo'rqitib, kommunistlar ro'yxatini berishga shoshilmay turishga ko'ndirmoqchi bo'lganini, kechirasizlar, janoblar, amerikaliklar bilan inglizlar, ya'ni Sovetlarning ittifoqdoshlari shavkatli nemis soldatlaridan ko'ra yaxshi deganini aytib bersin.

– Xuddi shunday, – tasdiqlashga shoshildi Gerasim. Hozir u Kudimovdan nafratlanar, uni halok qilib, o'zi qutulib qolishni o'ylandi.

– Nazarimda, bu ishga Sergey Yesinning aloqasi yo'q, – qo'shib qo'ydi Yura. – Anqov bola bo'lsa, yana oyog'idan yarador bo'lgan. Yugurolmaydi. Aytganday, qaranglar, janoblar, Kudimov savalagandan keyin oyog'idagi yara ochilib, qonagan...

– Bola qamoqdan chiqarilsin! – buyruq berdi Meyer. – Darhol chiqarilsin. Haqiqiy dushman burnimizning tagida turibdi-yu, bizlar mishig'ini eplay olmagan bolalar bilan ovora bo'lib o'tiribmiz. Kudimov qamoqqa olinsin!

Kudimov hammaning oyog'iga yiqilib, nimalardir g'o'ldirar, ingrar, hiqillab yig'lardi. Soldatlar uni qo'ltig'idan ushlab, sudrab xonadan olib chiqib ketishdi.

– Sizga aytish esimdan chiqibdi, janob kapitan, – Yura Meyerning oldiga keldi. – Kudimov nemis qo'mondonligiga xayrixoh bo'lgan bir oilani qishloq yaqinidagi jarlikka olib borib, qirib tashlagan. Endi bilsak, bu odamlar o'sha Kudimov o'ldirgan kishining ota-onasi, aka-ukalari ekan. Shu munosabat bilan qonuniy savol tug'iladi: nima uchun Kudimov birorta kommunistga qarata o'zi o'q uzmagani, nemis qo'mondonligiga xayrixoh bo'lgan butun bir oilani

qirib tashlagan? Bundan hatto starosta Shulga ham bexabar. Xulosa qilib aytganda, janob kapitan, Kudimov ichimizga yashirinib kirgan, partizanlarning topshiriqlarini bajarib yurgan odam.

– Sidqidil bilan qilgan xizmatingiz uchun ofarin, – dedi kapitan. – Shu sababli Kudimovni otib o‘ldirishni shaxsan o‘zingizga topshiraman. Buyruqqa shu zahotiyoyq o‘zim imzo chekaman.

– Fedotov nima bo‘ladi? – so‘radi Yura.

– Fedotovmi?

– Menimcha uning bu ishga aloqasi yo‘qligi endi aniq-ravshan bo‘ldi.

– Shunday deb o‘ylaysizmi?

– Albatta, bundan tashqari, men tekshirib ko‘rdim, haqiqatan ham u kommunist emas.

– Mayli, buyruq beraman, – va‘da qildi Meyer.

XIV

Xursand bo‘lgan Ira, qushday uchib, Zoya Andreyevnaning oldiga keldi.

– Seryojani qamoqdan chiqarishdi! Lekin uni qattiq urishibdi. Oyog‘idagi yarasi ham ochilibdi.

– Bechora bolakay...

Seryoja bir haftadan keyingina Zoya xolaning oldiga chiqdi. Seryoja o‘ng oyog‘ining yarasiga og‘ir tushmasin deb qo‘ltiqtayoqqa suyanib yurardi, u Zoya Andreyevna bilan quyuq salomlashgach, Ira ko‘rsatgan stulga o‘tirdi-yu, yarador oyog‘ini qo‘ltiqtayoq ustiga qo‘yib, Zoya Andreyevnaga qaradi.

– Sog‘lig‘ingiz yaxshimi, Zoya xola?

– Bolaginam, – dedi u xo‘rligi kelib, – meni qo‘yaver, bedavo kasal meniki. O‘zing qandaysan, bolaginam? Seni qamoqqa olganlarini, qiynaganlarini Ira bilan Tarasdan

eshitib, yuragim achishdi, jon-jonimdan o'tib ketdi. Bu qanday zulm, bu qanday musibat deyman. Bolalarda ne ayb? Urushning nomi qurib ketsin, urushni boshlagan fashistlarga qirg'in kelsin.

Seryoja ko'zidan tirqirab yosh chiqqan Zoya Andreyevnani yupatishga urindi.

– Xolajon, xafa bo'lmang. Mana haqiqat yuzaga chiqdi. Kudimov otib o'ldirildi, men bo'lsam oqlandim. Sog'lig'im bo'lsa kundan kun yaxshilanib bormoqda. Yaqinda qo'l-tiqtayoqni ham tashlab, chopib-chopib yuradigan bo'laman.

– Ko'zlaring kirtayib, ko'karib ketibdi. Yuzlaring shishgan. Qamoqda rosa ham qiynalibsan-da, bolaginam? Senday gunohsiz bolani urgan kishining qo'llari sinib, shol bo'lsin. Tepgan kishining oyog'i sinsin, xudodan tilagim shu! Gerasim seni urmagandir-a?

– Yo'q, u urmadi.

– Xudoga shukr! – so'zida davom etdi Zoya Andreyevna.

– Garchand Gerasim...

Ular gaplashib o'tirganlarida Taras xonaga bir-ikki marta kirib-chiqdi.

– Mana sen ham shu zolimlarning dastidan ikki topqir jabr ko'rding, – dedi Zoya Andreyevna. – Mening Tarasigim ham. Uning kuragi haligacha zirqirab og'riydi.

Taras Irani imlab qayoqqadir chaqirdi. Ira uning ketidan ko'chaga chiqdi.

– Seni birov qidiriyapti, – dedi Taras.

– Qayerda?

– Yur.

Ular polizdan o'tib, daraxtzorga chiqishdi.

– Hozir, – dedi Taras va shu zahotiyuq daraxt orqasidan lip etib chiqqan shofyor Martinov Iraning oldida paydo bo'ldi.

- Qulog‘im sizda.
- Fedotovdan shoshilinch topshiriq bor, – dedi Martinov.
- Uni qo‘yib yuborishdimi?
- Qo‘yib yuborishdi. Lekin, o‘zing bilasan, ketida ayg‘oqchilar yuribdi. U endi uydan chiqolmaydi. Seryojang ham hali kuchga kirgani yo‘q....
- Ha, – uning fikriga qo‘shildi Ira.
- Shu sababli Shaxov sening kelishingni iltimos qilibdi. Indinga o‘n ikki-yu nol-nolda kelishib qo‘yilgan joyda seni kutadi. Men bu joyni senga ko‘rsatib qo‘yaman. Ma‘qulmi?
- Albatta, ma‘qul! – qat‘iy ohangda dedi Ira.
- Ikkinchisi. Shulga ikkinchi ro‘yxatni tuzmoqda. Bu ro‘yxatga tushganlar ko‘p emas-u, har holda yigirmaga boradi. Taras ro‘yxatni ko‘ribdi. Ertaga kechqurungacha ro‘yxatning so‘nggi variantini bilib berishni va‘da qildi. Uni Shaxovga topshirasan. Tushundingmi?
- Tushundim.
- Yana Shaxov iltimos qildi, Seryojaga aytib qo‘y, uning mardligi bilan hammalari faxrlanishyapti.
- Albatta aytaman. Vasiliy amakining ahvollari qalay?
- Uning qovurg‘asini sindirishibdi.
- Zoya Andreyevna Tarasdan so‘radi:
- Dadang keldimi? Kelgan bo‘lsa chaqir, aytadigan gaplarim bor, aytay.
- Oz o‘tmay xonaga Gerasim kirdi. Kirdi-yu, Seryojaga qandaydir g‘alati, aybdordek nazar tashladi, lekin hech narsa demadi. Xotiniga ma‘yus boqib, hol-ahvol so‘radi.
- Himm... Ahvoling qalay?
- Durust, durust... Senga aytadigan gaplarim bor edi, – u bolalarga qarab, – sizlar boringlar, azizlarim, aylanib kelinglar! – dedi.

Bolalar chiqib ketgach, Zoya Andreyevna gap boshladi:

– Gerasim, ishing ko‘p odamsan. O‘lim to‘shagida yotgan xotiningdan ham xabar olmaysan. Mana endi qishloqqa kelding, kelding-u mendan yuz o‘girding. Ikki oy ichida seni ikkinchi marta ko‘ryapman. Oldimga kirishga or qilasan. Axir, odam o‘zining moliga ham kuniga ikki-uch marta qaraydi-ku, itiga ham qaraydi-ku. Mayli, men sendan roziman, Gerasim. Faqat bitta iltimosim bor: Seryoja bilan Iraga qo‘l tegizma, ularni ham Taras qatorida ko‘rgin. Agar shular bo‘lishmaganida men allaqachon o‘lib ketgan bo‘lardim. Har holda yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish har bir kishining insoniy burchi!

Gerasimning diydasi qattiq edi. Ayniqsa, kolxozdan haydalgandan so‘ng, jinoyat qilib, uzoq muddatga qamalib ketgandan keyin uning yuragi muzdek sovib, toshdek qotib ketgan edi. Shuning uchun ham erim deb bor-u yo‘g‘idan ajralgan va endilikda og‘ir kasalga duchor bo‘lgan xotiniga ham shafqatsiz edi. Xotiniga rahm qilmagan, yakka-yu yagona o‘g‘liga ham begonadan battar yotsirab qaragan odam, endi birovning bolalariga mehr qo‘yarmidi? Yana kelib-kelib kimning bolalariga deng? O‘sha umumiy yig‘ilishda, Gerasimning taqdiri hal bo‘layotgan paytda «kolxoz a‘zolidan chiqarilsin», degan Yesinning arzandalari Ira bilan Seryojagami? Gerasim bu alamni yuragining bir uchiga tugib qo‘ygan-ku, axir. To‘g‘ri, jinoyatni Yesin emas, balki Gerasim qilgan. Biroq Gerasim o‘z aybiga iqror bo‘ladigan va aybidan tegishli xulosa chiqarib, el tanbehi bilan tuzaladigan anoyilardan emas. U hamisha o‘zini oq, boshqalarni qora deyishga odatlangan. O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymaganidek, u ham endi shu odatidan qaytarmikin? Ammo hozir yuragida o‘t olib, tutun ichida

buruqsib yotgan fikrlarini aytib, xotinini xafa qilgisi kelmadi. Shu bilan birga Zoya Andreyevnaning ko'z yoshi qilib aytgan ta'nalariga ham javob bermadi. Hatto xotinining kasali og'irlashgan mushkul kunlarida uning joniga ora kirgan, barcha uy xizmatlarini chin dildan ado qilgan Sergey bilan Iraga ham minnatdorchilik bildirishni ep ko'rmadi. U qovog'idan qor yog'ilib: «Xudo o'zi senga shifo bersin», – deya chiqib ketdi.

Ko'p o'tmay xonaga bolalar kirib kelishdi. Shipga termilib yotgan Zoya Andreyevnaning o'pkasi to'lib, xo'rliqi kelib yig'lab yubordi. Seryoja shirin so'zlar bilan uni yupatishga urindi. Bolaning yoqimtoy iltijosi Zoya Andreyevnaning ko'nglini bo'shatdi, boshini ko'tarib, bolalarning peshonasidan, yuzlaridan o'pdi, ich-ichidan sevinib, uchalasini ham bag'riga bosdi.

– Hozirgacha bolam bitta – Tarasginam bor deb yurardim. Xudoga shukrki, endi uchta bolam bor. Sog' bo'lsam qaraysizlar, o'lsam ko'masizlar. Jonim bolalarim! Hamisha mening ruhim shod bo'lsin desanglar, bir-birlaring bilan abadiy aka-uka bo'linglar, bir-birlaringga ishonib ish ko'ringlar, bir-birlaringga madad, quvvat bo'linglar. Hamisha birga bo'linglar. Kuch birlikda, do'stlikda, sodiqlikda. Shundagina taqdir yuborgan azob-uqubatlarni, urush keltirib chiqargan musibatlarni yengish mumkin. Fashist gazandalardan va o'zimizdan chiqqan mana bunaqangi (Gerasim kirib ketgan xonani ko'rsatib) sotqin, jallodlardan yaxshilik kutmanglar. Shirin-shakar bolalarim, sizlarga qiladigan nasihatim shu.

To'lqinlanib ketgan bolalar hayajon ichida sukut saqlardilar.

– Irochka, qizim, – dedi Zoya Andreyevna birdan yodiga tushib, – esingda bormi, bir safar menga dadangning

fotoapparati haqida gapirgan eding? O'sha apparating o'zingdami?

– Ha, o'zimda, Zoya xola. U fotoapparatni dadamga Moskvada, Qishloq xo'jalik ko'rgazmasida sovg'a qilishgan.

– Bizlarni suratga ololmaysanmi?

– Olishim mumkin, nimaydi?

– Sizlar bilan, Tarasik bilan suratga tushishni juda istardim. Ola qol, xo'pmi?

– Jonim bilan. Men hozir, – dedi-yu, Ira yugurganicha uyiga chiqib ketdi va bir zumda fotoapparatni olib keldi.

– Men tayyorman.

Ira oldiniga Seryoja bilan Tarasni Zoya Andreyevnaning ikki yoniga o'tqizib suratga oldi. So'ngra Taras Ira va Seryojani onasi bilan suratga oldi.

– Endi o'lsam ham armonim yo'q, – allanechuk g'amginlik bilan dedi Zoya Andreyevna. – Do'stligimiz, sadoqatimizdan xotira qoladi. Hozirgi og'ir damlarda esa bu juda zarur.

Qo'shni xonadan Gerasimning Tarasni chaqirgan ovozi eshitildi. Taras chiqib ketdi. Uyga echki soqol Irinarxiy kelgan edi.

– Qani, u-bu tayyorlab, stol tuzatinglar, – dedi Gerasim va o'zi Irinarxiy bilan suhbatini davom ettirdi.

Taras stolga qaradi, dasturxonga yaxna cho'chqa go'shti, bodring, piyoz, non va bir shisha samogon qo'ydi. Ira unga qarashdi. Ira damlangan choyni keltirganida Gerasim uning bo'y-bastiga ma'nodor tikilib qoldi-da, Taras bilan qizning do'stligini ko'nglidan o'tkazib, «mayli», deb qo'ydi ichida. Irinarxiy hurmatli mehmondek tuzalayotgan dasturxon hamda bolalarning chaqqon harakatlarini zimdan kuzatib, savlat to'kib o'tirardi. Shu o'tirishda u avvalgi kolxoz hisobchisi, isqirt Irinarxiyga sira o'xshamasdi. U

endi kundan kun o'zgarib, yangidan yangi kiyimlarni kiyar, galstuk taqar, soqol-mo'ylovini kuniga qirdirar edi. Ilgarigi eski-tuski kiyimlari-yu soqol-mo'ylovini o'stirib, enkayib yurishlari qolmagandi. Qaddi-qomatini ko'tarib, xuddi yosh yigitlarday g'ayrat bilan qadam tashlardi. Axir, endi u shunchaki Gerasimningmas, starosta Gerasimning tug'ishgan amakisi, shu bilan birga kommunistlar, ularning oila a'zolarini, partizanlar va boshqa aktivlar ro'yxatini tuzishdek maxfiy ish bilan band odam. Bu nihoyatda mas'uliyatli ish. Ana shunday mas'ul va maxfiy ish zo'r ishonch bilan shaxsan unga topshirilganidan ich-ichidan shod edi, o'zini qo'ygani joy topolmasdi. Shuning uchun ham bayramga chiqayotgan kishidek, yasanib-tusanib, soqol-mo'ylovini qirdirib, rango-rang galstuklar taqib kerilib yurardi.

– Mana ro'yxat, – dedi Irinarxiy bolalar chiqib ketgach va stakanga to'latib quyilgan samogonni nafas olmasdan ichib yubordi. So'ngra ochko'zlik bilan ovqatga tashlandi.

Gerasim ham samogonni ichib, bodringdan tishlaganicha ro'yxatga ko'z yugurtirdi.

– Himm... Yesinning bolalarini ham yozibsan-ku. – Gerasim boshini ko'tarib, ko'zini olaytirdi. Irinarxiy esa muk tushib ovqat yeyish bilan band edi. Echki soqoli xuddi shamolda silkinayotgan qamishning popiltirig'iga o'xshardi.

– Ilonning bolasi ilon, chayonning bolasi chayon, – dedi Irinarxiy va shishani qo'lga olib, o'ziga yana samogon quydi-da, nafas olmay shimirdi. Stakanni qo'ya-yotganidagina Gerasim esiga tushdi. Shoshib-pishib unga ham quyarkan, birato'lasi o'ziga ham quyib qo'ya qoldi-da, so'zida davom etdi:

– Agronom Yesin ashaddiy dushmanimiz. Hozir u urushda, frontda deb eshitdim. Birorta daydi o'q pesho-

nasidan yoki ko'krigidan tegsa, jahannamga ketadi. Agar o'sha o'q yoki oskolka tegmasa-chi, u bizlarni otadi ham, o'ldiradi ham. Tinchlik vaqtida senga kun bermagan dushman, urush vaqtida rahm qilarmidi? Kommunist bo'lgani uchun bir marta, komandir bo'lgani uchun yana bir marta, shaxsan ashaddiy dushmanimiz bo'lgani uchun yana va yana bir marta jahannamga yubormog'imiz zarur. Hozircha o'zi yo'q. Shuning uchun bolalarini qiramiz. So'ngra o'zi qo'limizga tushsa...

– Himm... Uning bolalari, axir, mening xizmatimda-ku, – Gerasim xayol ichida so'radi. Irinarxiy og'zi ovqatdan bo'shamay, g'o'ldillab javob berdi:

– Xizmatingda bo'lsa-chi, nima bo'пти, bari bir sen, Gerasim, starostasan. Kommunistlarning oila a'zolarini jo'natish vaqtida ular mening xizmatimda deyolmaysan. Buning ustiga yana bir Kudimov paydo bo'lib, kommunistlarning bolalarini o'z uyingda yashirganingni gestapoga xabar qilsa bormi... Gestapoga ishing tushmasin, Gerasim.

Gerasim o'ylanib qoldi. O'zini oqlaydigan dalillar qidirdi. «Axir, men uyimda partizanni yashirsam, javobgar qilsin, kommunistni yashirsam, javobgar qilsin. Ona suti og'zidan arimagan, burnini eplab artolmaydigan go'daklar uchun ham javobgar qilarmikin? Bu yoqda xotinim og'ir kasal bo'lsa, bu sir emas, janob Klaus ham, janob Ebert ham bilishadi. Bolalar shu kasalga qarab tursalar gunohmi?» Shu topda Zoya Andreyevnaning: «Yaxshilikka yaxshilik qilish – har bir kishining insoniy burchi», degan so'zlari esiga tushib ketdi va Irinarxiyga javob qildi:

– Himm... Kudimov bo'lganida gestapoga emas, partizanlarga xabar qilardi, – e'tiroz bildirdi Gerasim. – Kudimovning bunga nima daxli bor o'zi? Menga gestaponi ko'pam pesh qilaverma, Irinarxiy! Gestaponi ham, jan-

darmeriyani ham sendan yaxshiroq bilaman. Shuni unutmaginki, janob Klaus ham, javob Ebert ham mening do'stlarim, tushundingmi? Sen bo'lsang meni gestapo bilan qo'rqitmoqchi bo'lasan.

– Gapning sirasini aytib, seni ogohlantirib qo'ydim-da, Gerasim, – dedi Irinarxiy. – Ro'yxatni tuz deding, tuzdim. Mana qo'lingda. Endi bilganingni qilaver. Har holda mening so'zlarim qulog'ingda tursin. Ilonning bolasi ilon, chayonning bolasi chayon. Vaziyat og'ir kelgan bir paytda qo'qqisdan nishini sanchib qolmasin deyman, xolos.

– Himm... «Vaziyat og'ir kelgan bir paytda». Bu nima deganing, Irinarxiy? Nemis Moskva ostonalarida jang qilyapti. Sen bo'lsang «vaziyat og'ir kelganda», deb vahima qilmoqchisan? Irinarxiy, menga qara, sen mening jigarimsan-a? Shundaymi? Qarindosh bo'la turib, nahotki kasal xotinimning, axir, u senga kelin bo'ladi-ya, biror marta holidan xabar olay demaysan-a? Hatto kunora shu yerga kelib turasan-u, ko'rish tugul, biror marta loaqal so'rashga tiling bormaydi-ya. Lop etib ertaga men kasal bo'lib qolsam ham tanimay qo'yarkansan-da, a?

– Unday dema, jiyan, xudoyim unga shifo bersin, sening boshing toshdan bo'lsin, – tilyog'lamalik qildi Irinarxiy.

– Himm... O'sha kommunistning ona suti og'zidan ketmagan bolalari kecha-yu kunduz kasal boqishadi, uyning xizmatini qilishadi. Senday qarindoshdan, ko'pni ko'rgan mo'ysafiddan ko'ra o'sha yetti yot begona va yosh bolalar kunimga yaradi, og'irimni yengil qildi.

– Hadeb ta'na qilaverma, Gerasim. Aybsiz parvardigorning o'zi, – deyishdan boshqa chora topolmadi Irinarxiy. U umr bo'yi Zoya Andreyevnaning holidan biror marta bo'lsa ham xabar olmaganiga o'zicha iqror edi. Shu bilan birga u Tarasga ham begona edi.

Irinarxiyga qolsa, Beryozovkada istiqomat qiluvchi har bir inson xavfli edi. Hammasini gestapoga tutib berishni istardi.

Shu paytda eshik taqilladi. Gerasim qadamlarini og'ir-og'ir tashlab borib eshikni ochdi, tashqarida Ebert, uning yonida uchta nemis soldati turganini ko'rdi. Ebert indamay ichkariga kirdi, stolga ham o'tirmay, shoshilinch ravishda topshiriq berdi.

– Janob starosta! Ish chiqib qoldi! Erta yo indinga oliy martabali mehmonlar kelishadi. Ular qishloqda bir necha kun bo'ladilar. Ishlashlari uchun, yotishlari uchun joy hozirlang... Ha, aytganday, oziq-ovqatlari o'zlaridan.

Ebert ketishi bilanoq Gerasim bolalarni chaqirdi:

– Himm... Qani, yuringlar-chi men bilan! Menga qarashvoringlar! Yangi ko'rpa-yostiqlar topish, joy tayyorlash, oziq-ovqatlari o'zlaridan bo'lgani bilan bari bir ichimlik g'amlash lozim, – dedi-da, shu zahotiyoyq amakisiga nisbatan tulkilik qildi. Xonada go'yo Irinarxiy yo'qdek, unga endi ko'zi tushib, hayron bo'lgandek dedi:

– Himm... Senmisan, boraver Irinarxiy, ishingdan qolma! Bor!

XV

Borib-borib oxiri otryadga Iramas, Seryojaning o'zi jo'nadi.

– Men soppa-sog'man, o'zim boraman! – deb turib oldi u.

Seryoja Beryozovkadan tong yorishar-yorishmas chiqib ketdi. U bosib o'tgan bu safargi yo'l avvalgilariga sira o'xshamasdi, bu yo'lni Ivan Ivanovich bilan Misha boboning o'zlari ko'rsatib, tushuntirib berishgan va mo'ljalidan chetga chiqmaslikni qattiq ogohlantirishgan edi. O'rmon ichidagi yolg'izoyoq yo'ldan keyin quyuq

qamishzor boshlandi, keyin butalarning orasini yorib o'tishga to'g'ri keldi, hatto yurish imkoni bo'lmagan botqoqliklardan, daryoning tik qirg'oqlaridan ham yurishga majbur bo'ldi. Har qadamda keksa o'qituvchining «yetti o'lchab bir kes» degan so'zlari hamisha qulog'ida bo'lardi.

Partizanlar otryadiga qilgan bu safari avvalgilariga o'xshamadi. Ilgarilari har kelganida tanish-bilishlar bilan uchrashar, suhbatlashar edi. Bu safar uni hammadan yashirdilar. Faqat bobosi-yu, qadrdon ustози Ivan Ivanovich bilan uchrashdi, xolos.

– Bilasanmi, Seryoja, kommunistlarni ozod qilishdagi nozik ishimiz fashistlarni sarosimaga solib qo'ydi, – dedi Ivan Ivanovich soqolini tutamlab, – shundan keyin otryadimizda ayg'oqchilar paydo bo'ldi. Bittasini tutdik. Fashistlar otryadimizning iziga tushgan, yana kimnidir yuborgan bo'lishi mumkin. Hali bu noma'lum. Bilasanmi, Seryoja, biz doim seni ehtiyot qilishni o'ylaymiz. Qani, yur, ketdik.

Seryojani qorong'i kechada otryad komandirining yerto'lasiga olib borishdi. Yo'l-yo'lakay Misha bobo yana nevarasiga o'rmonga kelishda ham, ketishda ham o'ta hushyor bo'lishni takror-takror uqtirardi. Yerto'lada u kutilmagan voqeaga duch keldi. Eski qadrdoni Temirov bilan uchrashib, quchoqlashib ko'rishdi. Temirov partizanlar otryadida shtab boshlig'i edi.

– Tutingan o'g'lingni, – dedi Shaxov Temirovga, – nemislar qattiq qiynoqqa solishibdi. Ofarin, o'zini eng yuksak talablar darajasida mag'rur tutibdi, azamat! Hammasiga bardosh beribdi, hech kimning nomini aytmabdi! Matonatli bola! Haqiqiy pioner!

Otryad komandiri Seryojaning axborotini qunt bilan, qiziqib tingladi va ich-ichidan mamnun bo'lib, otryad

nomidan tashakkur bildirdi. So'ngra u Seryojani yoniga o'tqizib, katta mis choynakdan choy quyib, oldiga qo'ydi:

– Marhamat, o'g'lim, sen choyni issiq-issiq ichaver, ammo qulog'ing menda bo'lsin, topshiriqni yaxshilab uqib ol. Birinchidan, starostaga yaqin bo'laver, qanchalik ishonchini qozonib bag'riga kirsang, shunchalik yangiliklarni aniqroq, puxta bilib olasan. Ikkinchidan, Irinarxiy to'g'risidagi taklifing to'g'ri. Ivan Ivanovich hamma mulohazalaringni aytib berdi. Beryozovkada paydo bo'lgungacha Irinarxiy nemislar tomonidan Ignatovkada tashkil etilgan harbiy asirlar lagerida anchagina nojo'ya ishlar qilibdi. Shu lagerda shaxsan o'zi yuzdan ortiq asirning yostig'ini quritibdi. Otryad harbiy tribunalining qaroriga binoan u sotqin oliy jazoga hukm qilindi. Hukmni ijro etish Yuraga topshirildi. Uchinchidan, qishlog'ingda yaqin kunlar ichida juda katta voqealar bo'ladi. Bir jallod, kallakesar boshchiligida alohida jazo otryadi tuzilmoqda. Bu jazo otryadi Beryozovkaga joylashadi, kattani ham, kichikni ham, hammani ta'qib qiladi. – Komandir qalin qoshlarini chimirdi va bir qultum choydan ho'plab, salobat bilan so'zida davom etdi: – Seryoja, o'g'lim, Sharqiy frontda fashistlarning tinkasi quridi. Mana bir oy mobaynida qancha hujum qilsa ham, bir qadam oldinga siljigani yo'q. Fyurerning buyrug'i bilan qanchadan qancha diviziyalar g'arbdan sharqqa tashlanmoqda. Shu diviziyalarning bir qismi Beryozovka orqali o'tish ehtimoli bor. O'g'lim, o'rtoqlaring bilan ana shundan xabardor bo'lsang, zudlik bilan otryadimizga xabar yetkzsang deymiz. Endi oxirgi topshiriq: hamma yerda fashist josuslari izg'ib yuribdi. Iltimosimiz shuki, hushyor bo'li!

Seryoja qishloqqa sogʻ-omon yetib keldi-yu, loyga botgan botinkasini, shudringda ivigan shimini yechib, shu zahotiyoq shilq etib oʻzini karavotga tashladi.

Seryoja oz boʻlsa ham qattiq miriqib uxladi va yuziga yorugʻ tushishi bilanoq uyqusi boʻlindi, yorugʻdan qamashgan koʻzlarini yumgan holda koʻrpaga burkanib yotganicha, otryad komandirining buyruqlarini bajarish rejasini tuzdi.

Yoʻq, bir oʻzi tuzmadi. Yumuq koʻzlarida paydo boʻlgan qorongʻi bir olamda: «Qiziq, – oʻylardi oʻzicha hayron boʻlib, – zimiston boʻlsayam, saroydek yorugʻ-a?» – roʻparasida Shaxov, Nikolayev va Temirov turardi. Ularning oldida xarita, Nikolayevning qoʻlida koʻrsatkich tayoqcha. «Mana, darang, Yesin, – deydi Nikolayev. – Mana bu yerda fashistlarning pozitsiyalari, bu yerda boʻlsa bizning mudofaa liniyamiz. Fashistlar Oder, Neyse, Shpreye daryolari boʻylab joylashgan. Daryolarning naryogʻida Berlin. Bizning vazifamiz – fashistlarni yon tomonlardan oʻrab qurshovga olish va yer bilan yakson qilish!»

«Beryozovka-chi, Beryozovka qayerda? – soʻraydi Seryoja. – Tixaya daryosi qayerda?»

«Eh-a, Beryozovka endi juda uzoqda qoldi, – tushuntiradi Nikolayev. – Tixaya daryosi ham uzoqda. Lekin sokin Tixaya daryosi hozir joʻshqin Burnaya daryosi deb ataladi, endi qoq Suxaya daryosi ham bu yil serob daryo boʻlib qolgan». Tush boʻlib tushmas, oʻng boʻlib oʻngmas. Oʻzi uygʻoq yotibdi, faqat koʻzlarini yumib olgan, xolos. Ochib yuborishdan qoʻrqardi. Ishqilib, Ira xalaqit bermasin-da. Iye, koʻzlari yumuq-ku, qayoqdan bilardi u.

Nikolayevning boʻyi baland, qaddi-qomati kelishgan, istarasi issiq, hali yosh boʻlsa ham mosh-guruch qalin sochlari oʻziga yarashib turibdi.

Temirov qorachadan kelgan, juda yosh, ko'zlari qop-qora.

Shaxov to'ladan kelgan, sochlari oqarib ketgan, lekin yosh ko'rinadi, ko'zlari yosh bolalarnikidek charaqlab turibdi.

«Olg'a, o'rtoqlar, Berlinga! Vatan uchun! Stalin uchun! Berlinga!» – deyishadi uchalasi birdaniga...

Tashqaridan yugurib kelgan Ira akasini uyg'otib yubordi:

– Tezroq chiq! Qara!

Seryoja sakrab karavotdan tushib, bir zumda tashqariga chiqdi.

– Qara! – takrorladi Ira va osmonni ko'rsatdi.

Uchta samolyotimiz bir gala nemis samolyotlarini quvib kelardi. Ularning pulemyotlari to'xtovsiz o'q yog'dirar, osmondan bamisoli uzunasiga olov yomg'iri yog'ayotganday edi.

– Qoyil! – dedi Seryoja quvonib.

– Qoyil! – ma'qulladi Ira.

Birdan Beryozovkadan sal narida, daryoning o'ng qirg'og'idagi keng yalanglik ustida bitta fashist samolyoti osmonda yonib, quyuq, qop-qora tutun ichida qulab tusha boshladi. Qolgan beshta «Yunkers» esa, aksincha, yuqorilab uzoqlashdi. Bizning qiruvchi samolyotlarimiz birdan burilib, sharqqa, o'z bazalariga uchib ketdi.

Urib tushirilgan bombardimonchi o'rmonga yetib oldi-da, qanotlari bilan daraxtlarning uchiga tegib o'tib, yerga qulab tushdi va oradan bir daqiqa o'tmay portlab ketdi. Bolalar havo jangini maroq bilan tomosha qilib, uchuvchilarimizning chapdastligiga, uchqurligiga qoyil qoldilar. Bu havo jangi ikkala yosh qalbida faxr-iftixor his-tuyg'ularini qanchalik jo'sh oldirgan bo'lsa, shonli Sovet

armiyamiz jangda yerda ham, osmonda ham dushman ustidan g'olib chiqishiga shunchalik ishonch, qat'iy ishonch uyg'otdi.

Kechga borib kimsasiz tosh yo'lda qishloq tomon kelayotgan nemislarning birinchi kolonnasi ko'rindi. Seryoja bilan Ira daryo bo'yiga borib, baland qirg'oqdan turib kolonnani kuzata boshladilar. Tanklar, ularning ketidan bronetransportyor va mototsikllar kelardi.

– Konstantin Petrovich aytgan yangi diviziyalarning bir qismi shu bo'lsa kerak, – dedi Seryoja. – Qani, sanaylik-chi.

Ular sanashga kirishishdi. Kolonna ketidan turnaqator tizilishib obozlar o'ta boshladi. Yashiklar. Qoplar. Yana yashiklar. Behisob fashistlar chumoliday o'rmalab kelishardi. Uyga borib, qog'oz va qalam olib kelishga to'g'ri keldi.

– Hisobda adashib ketish hech gapmas...

Ikki soatdan keyin, qorong'i cho'kkandagina yo'lda harakat to'xtadi. Taras yetib keldi.

– Ko'rdilaringmi?

– Nimani? – so'radi Seryoja.

– Yo'ldagi harakatni?

– Ko'rdik, nima edi?

– Har ehtimolga qarshi hammasini sanab chiqdim, – dedi faxrlanib Taras, – yelkalarim ham zirqirab og'rib ketdi.

– Yashavor, Taras! – uni maqtab qo'ydi Seryoja, – Ira bilan bizlar ham sanadik.

– Aytganday, yodimdan ko'tarilay debdi! – dedi Taras esiga tushib, – bir noxush xabar bor.

– Nima xabar?

– Ertaga qishlog'imizga alohida jazo otryadi kelarmish, – dedi Taras.

– Kim aytdi?

– Dadam. O‘zi ham toza charchadi. Har kuni kechqurun mehmon. Allaqanday yangi-yangi ofitserlar.

– Quloq sol, Taras, – iltimos qildi Seryoja. – Senga yana bir muhim topshiriq. Yangi kelgan nemislarning hammasini eslab qol. Otlarini, mansablarini, unvonlarini. Tushundingmi?

– Harakat qilaman.

– Yaxshisi yozib ol, lekin ehtiyot bo‘l.

– Tushundim.

XVI

Ertasiga, darhaqiqat, jazo otryadining soldatlari baloqazodek yopirilib, qishloqni egallashdi, yana ikki kundan keyin esa, yangi o‘qchi-diviziyasi keldi. Bu diviziyaga, Tarasning aytishicha, general Shnayder qo‘mondonlik qilarkan. Hozircha generalning o‘zini hech kim ko‘rmagan. Deyarli hamma uylarga soldatlar va ofitserlar joylashtirildi. Uy egalari esa, bola-chaqalari bilan saroyga, molxonalarga haydab chiqarildi. Yesinlarning uyiga nemis mayori va uning denshigi joylashtirildi. Seryoja bilan Ira ham saroyga ko‘chib chiqdilar. Beryozovkaning ko‘chalari, maydonlari mashinalar, ot-aravalar, qurol-yarog‘lar, aslahalar bilan to‘lib ketgandi. Bir qarashda qishloq chumolining uyasini eslatardi. Soldatlar va ofitserlar kecha-yu kunduz u yoqdan-bu yoqqa chopishib, yugurishar, uylarning oldida patrullar yurardi.

Shulga hammaning – nemislarning ham, o‘zimiznikilarning ham ko‘nglini olishga harakat qilib tinmay yugurar, tunlari mijja qoqmay ishlardi. Unga politsay Yura yordam berardi. Yura tirishqoq, chaqqon va ishchan yigit chiqib qoldi, og‘irini yengil qilayotgan yigit bilan

ishlash Shulgaga oson edi, albatta. Lekin nemislar ko'p va hammasining ko'nglini olish qiyin bo'lganidan bari bir ojizlik qilardi: goh xonalar uncha yorug' emas, goh tomidan chakka o'tar, goh havo zax, qishdagidek sovuq bo'lib turganda yosh bolali onalarni qayoqqa joylashni bilmasdi.

Seryoja bilan Ira kuzatishlarini davom ettirishar, nemis ofitserlarining otlari va lavozimlarini Taras aytib turardi. Shunisi yaxshi ediki, hozir Beryozovkada bo'layotgan yugur-yugur, ola-g'ovurlar ularga juda qo'l kelardi.

Bir gal ular ko'chada Martinovni uchratib, quvonib ketishdi.

– Biron narsa bormi? – so'radi Martinov.

– Bor, – dedi Seryoja. – O'zimiz Vasiliy amakinikiga bormoqchi edik.

– Hozircha Fedotovnikiga bormay turinglar, – maslahat berdi Martinov. – Uning ketidan kuzatib yurishibdi. Unga ham ziyon yetkazishingiz, o'zingizni ham fosh qilib qo'yishingiz mumkin. Yaxshisi shundoq kelishaylik. Men har kuni unikiga borib, chaqaloqqa sut olib kelyapman. Ertaga shu joyda, ertalab soat sakkizda uchrashaylik. Ma'qulmi?

– Biz hammasini olib kelamiz, – dedi Seryoja. – Yozib olganlarimiz anchagina.

Ertalab ular yozib to'ldirilgan varaqlarni Martinovga topshirishdi.

Yana Taras yugurib kelib qoldi:

– Ira, menga qarashib yubor. Biznikiga ketma-ket mehmon kelyapti. Bugun kechqurun yana kelishadi.

– Bu juda soz, – dedi Seryoja. – Men ham yordamlashishga boraymi?

– Kel, albatta.

Seryoja qulay vaziyat tug'ilayotganidan o'zida yo'q xursand edi. «Shulganing mehmonlarini o'z ko'zim bilan ko'raman, ehtimol biron qiziqarli gap ham eshitarman», ko'nglidan o'tkazdi u. Ular Taraslarnikiga kelganlarida Mariya xola quvonib ketdi.

– Ko'makchilar kelganidan xursandman. Anchadan buyon ko'rmagan edim sizlarni. Hammalarimiz birgalashib, birpasda uddalaymiz!

– Himm... Taras, – chaqirdi otasi, – yur men bilan!

– Qayoqqa?

– Himm... Yangi kelayotgan qismlarni joylashtirish uchun xonalar topishimiz kerak, yordam berasan.

– Yana kelishadimi?

– Himm... Yana bir qism kelyapti.

– Oxiri bormi?

– Himm... Oxiri Berlinda. Fyurerning kabinetida, – mujmal javob berdi Shulga. – Yur, ketdik. Bu yerda bizsiz ham ishlari bitar.

Seryoja bu gaplarni yaxshilab eslab qolishni o'ylardi. U Zoya Andreyevnaning oldiga kirdi.

– Qalaysiz, Zoya xola?

– Durustman, Seryoja, durustman, – dedi Zoya xola. – Sizlar ishlaringdan qolmanglar, menga qaramanglar. Irochka, baraka topkur ovqatlantirdi, hamma yoqni yig'ishtirdi. Umidim bitta. Xudoyim sening ham, Irochkaning ham, Tarasikning ham boshlaringni toshdan qilsin, urushning balo-qazolaridan o'z panohida saqlasin. Urushning oti o'chsin, bosqinchilarga qiron kelsin.

Oliy martabali mehmonlar qorong'i tushganda kelishdi. Gerasim va o'ziga oro berib yasanib-tusanib olgan, sepkan atiri hamma yoqni tutgan Mariya xonadan xonaga chopishib qolishdi. Harakatlaridan mehmonlardan birontasi yotib qoladiganga o'xshardi. Ammo kelganlar

judayam yuqori mansabdagilar emasligi ko'rinib turardi: ular orasida uch ofitser, ikkitasi grajdan kiyimida va bir tarjimon bor edi. Mehmonlar stol atrofiga o'tirdilar va sovqotib kelganlari uchun ichimiz isisin deya, hammadan avval ichkilikka tashlandilar. Hech qanaqa tost aytmadan, churq etmasdan ichishdi. Faqat Shulga beto'xtov gapirar va tarjimon har zamonda uning so'zlarini nemis tilida takrorlab turardi.

Kechasiga borib mehmonlar tarqalishdi. Shulganing uyida hech kim yotib qolmasligi aniq bo'ldi. Seryoja bilan Ira ham uylariga ketishdi.

– Bir ish bor, bolalar, – dedi Taras orqalaridan yetib kelib, Seryoja bilan Ira taqqa to'xtab qolishdi.

– Qanaqa ish?

– Hozirgina dadamdan eshitdim, ertaga general Shnayder o'z mulozimlari bilan bizlarnikida bo'lar ekan. Men o'ylab qoldim...

– Nimani?

– Axir, ular qo'llarini qovushtirib kelishmaydi-ku, – tushuntirdi Taras va o'z planini aytib berdi.

U Irani saroyga berkitib qo'yadi. Yo bo'lmasa onasi oldida o'tirsa ham bo'ladi. Nemislar ichib mast bo'lganlaridan keyin hujjatlarini suratga olish mumkin. Axir, ofitserlarning planshetlari hamisha yonlarida bo'ladi-ku.

– Yoritgich moslamang bormi? – so'radi Taras Iradan.

– Bor-u, lekin men uni ishlatishni bilmayman. Dadam bilardilar.

– Qo'rqma, o'zim o'rgatib qo'yaman, – so'z berdi Seryoja. – Yordam beraman.

– Bo'lmasa, men ketdim, ertaga soat oltida kutaman sizlarni, – dedi Taras.

Ertasi kuni Ira Tarasning oldiga keldi. Taras uni onasining xonasiga olib kirdi. Ira fotoapparatni o'sha yerda qoldirib, Mariyaga qarashgani chiqdi.

Bugun Gerasimning kayfi chog' edi. Bir soat oldin generalning denshigi unga tappa-tayyor oziq-ovqatlar olib keldi. Faqat ularni taqsimchalarga solish qolgan edi, xolos. Odatdagi nemis shnapsidan tashqari fransuz konyagi, nomi chet tilida yozilgan allaqanaqa vino va tunuka bankalarda pivo ham keltirildi.

Mehmonlar roppa-rosa soat yettida yetib kelishdi. General Shnayder va diviziya shtabining boshlig'i polkovnik Galler mo'yna sirmali shinellarini yechdilar. General va polkovnik bilan birga to'rtta adyutant, tarjimon ham kelishgan edi.

– Salom, janob mezbonlar! – generalning so'zlarini tarjima qildi qotmadan kelgan, yuzini sepkil bosgan nemis.

Ira general ham, polkovnik ham planshetlarini stullarining suyanchig'iga osib qo'yishganini ko'rdi.

– Men boray, Mariya xola, – dedi Ira va Zoya Andreyevnaning xonasiga kirib ketdi.

– Himm... Bora qol, bora qol, kerak bo'lsang chaqiramiz, – dedi nimagadir Mariyaning o'rniga Shulga. Bugun u ayniqsa tirishib yelib-yugurardi. Axir, oz emas, avliyo emas, kimsan general-a, polkovnik-a, hazil gapmi? Ataylab unikiga Durasovodan kelishgan, bu katta sharaf-ku starostaga. Hatto o'z diviziyalari joylashgan Beryozovkada qolishni istashmagan. Bu yerga faqat kunduzlarigina kelib-ketishar, kechasi rayon markaziga borib yotishardi. U yerda ularga eng yaxshi uy – nemislar kelmasidanoq xotini va ikkita o'g'li bilan allaqayoqqa – Rossiyaning ichkarisiga ko'chib ketgan popning uyi ajratilgan edi.

– Uylaring ozoda! – dedi sal tili chuchuk tarjimon, generalningmi yo polkovnikning so‘zini tarjima qilib.

– Himm... Bajonidil, xizmatlari bosh ustiga! – dedi ovozinig boricha Gerasim xushomadgo‘ylik bilan, bir daqiqadan so‘ng qat’iy ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Himm... Marhamat qilib general va polkovnik janoblariga ayting, har ehtimolga qarshi men ular uchun ikkita juda yaxshi xonani tayyorlab qo‘yganman. Ozoda, issiq, juda shinam. Shoshilmasdan o‘tirishlari, keyin biznikida yotib qolishlari, bahuzur yayrashib dam olishlari mumkin.

Tarjimonning so‘zi tugashi bilanoq, general Shulgaga mamnun tikilib:

– Danke! – dedi.

Gerasimning quvonchi ichiga sig‘masdi. Ziyofat boshlanib ketdi. Shulga birinchi bo‘lib tost aytishga botinmadi. Hozir bunday qilish o‘rinli ham bo‘lmasdi. Nemislar o‘zlari nimalardir deb, qadahlarini bir-birlari bilan urish-tirisharkan:

– Gut! Zer gut! Gut! – deb qayta-qayta takrorlashardi.

Generalning shofyori tashqaridan patefon olib kelib, Gerasimga tutqazdi. Bu yappa-yangi sovet patefoni edi. Plastinkalari nemischa ekan. Shulga patefon qo‘ydi. Qandaydir tantanavor kuy jarangladi.

– Betxoven, – dedi tarjimon.

Nihoyat Gerasim tost aytishga jur‘at qildi va tarjimondan ruxsat so‘radi. U generalga bir nima degan edi, general muruvvat bilan kulimsirab qo‘ydi.

– Janob general qarshi emaslar!

– Himm... Men, janoblar, oddiy rus kishisiman, – so‘z boshladi Shulga. – Lekin rus xalqi nomidan aytishim mumkinki, bizlar baxtiyormiz. Shuning uchun ham baxtiyormizki, bizlarni bolsheviklar zulmidan ozod qilishdi. Biz ruslar, bizga ozodlik berilganidan baxtiyormiz. Men

xaloskorlarimiz uchun, g'olib german armiyasi uchun, janob Gitler uchun, janob general Shnayder uchun, janob polkovnik Galler uchun va barcha mehmonlar sog'lig'i uchun ichishni taklif qilaman.

Nemislar og'izlari quloqlariga yetgudek xursand bo'lib, bir-birlari bilan qadahlarini urishtirib ichishdi.

– Zer gut! – yana takrorladi general.

Ira qiya ochiq eshik tirqishidan dasturxon ustida bo'layotgan hamma gaplarni eshitib turardi, lekin hozircha ahamiyatga molik biron gapni ilg'agani yo'q. Soat o'n ikki bo'lib qolyapti-yu, dasturxondan turish mehmonlarning xayoliga ham kelmasdi.

– Siz uxlang, Zoya xola, men oldingizda o'tira turaman, – dedi sekingina rahmdillik qilib Ira.

– Ha, hozir uxlayman. O'zing-chi, nega sen uyingga ketmayapsan?

– Yana bir oz o'tiray...

Onaizor. Qizning javobi xayolini o'g'liga olib ketdi. Bir lahza shirin orzularga g'arq bo'lib, ko'zlarini yumdi.

Nemislar qandaydir ashulani birgalashib ayta boshlashdi. Ira xunuk, baqiroq ovoz bilan aytilgan so'zlarni tushunmasdi-yu, ich-ichidan quvonardi: demak, mast bo'lishyapti. Ajabmas uylariga ham ketishmasa. Ammo, gap-so'zlarida na mantiq bor, na maza-matra! Gerasim, Mariya va Taras ham jonlariga tegib zerika boshlagani ko'rinib turibdi. Mariya bir-ikki homuza tortib oldi. Nihoyat, general tarjimonga nimadir dedi:

– Janob general sizdan xonalarni ko'rsatishingizni iltimos qilyaptilar, – dedi tarjimon.

– Himm... Marhamat, marhamat, – dedi Gerasim o'rnidan sakrab turib.

Nemislar xonadan torgina dahlizga chiqdilar. Shulga galma-gal ikkita eshikni ochdi:

– Himm... Marhamat, janoblar, ko‘ringlar!

General bilan polkovnik xonalarni ko‘rib, boshlarini mamnun qimirlatib qo‘ydilar.

– Janob general xonalar juda joyida dedilar, – dedi tarjimon. – Ular yana bir oz o‘tirishmoqchi, keyin dam olishar.

– Himm... Mayli, nimani xohlasalar bosh ustiga, – xushomad qildi Gerasim, – ixtiyor o‘zlarida. Jon deb bajo keltiramiz.

Mehmonlar yana stolga o‘tirib olishdi. «Planshetlarini olishmadi», o‘yladi ichida Taras. Ziyofat yana bir soatcha davom etdi. Zoya Andreyevna uxlab qolgan, Ira zoriqib kutib o‘tirardi. Yoritgich moslama bilan apparatni shay qilib turardi.

Mehmonlar shnaps ketidan konyakka o‘tishdi. Shulga irg‘ib o‘rnidan turib, ehtiyotlik bilan qadahlarga konyak quydi. Polkovnik Galler o‘rnidan turib, patefon oldiga keldi. Plastinkalarni ko‘zdan kechirib, bittasini tanladi.

– Vebermi?

General boshini silkitib dedi:

– Vagner...

Endi nemislar muzika eshitishardi. General temir krest taqilgan kitelining tugmalarini yechdi-da, stulga yozilib o‘tirib oldi. Muzika tugagach yana ichishdi. Gerasim yana tost aytdi:

– Sizlarning rafiqalaring uchun, janoblar! Sizlarning farzandlaring uchun! G‘oliblarning rafiqalari va farzandlari uchun!

General bilan polkovnik ma‘qullab bosh irg‘itib qo‘yishdi.

– Zer gut! Gut! Zer gut!

Mana ular o‘rinlaridan turishdi, planshetlarini olib, o‘z xonalariga kirib ketishdi. So‘ngra general xonasidan

chiqib, polkovnikning xonasiga kirdi, unga nimadir dedi. Polkovnik chiqib, ikkalasi ham shinellarini kiya boshlashdi.

– Janoblar yotish oldidan ochiq havoda sayr qilishga odatlanganlar, – tushuntirdi tarjimon.

Adyutantlar ham kiyinib, ularning ketidan chiqib ketishdi.

– Ira, tez bo‘l! – shivirladi Taras.

Ira Zoya Andreyevnaning xonasidan chopib chiqdi.

– Bu yoqqa! – dedi Taras. – Men shu yerdaman.

Hammasi bir zumda bo‘lib o‘tdi, mana Ira qo‘shni xonada. Planshet ochildi, yoritgich moslama shiq etdi. Planshet qaytib o‘rniga qo‘yildi.

– Hech kim sezmadimi? – so‘radi Ira lip etib dahlizga chiqarkan.

– Hech kim. Yur, oyimlarning oldiga!

Qo‘rquv va zo‘riqishdan Iraning butun vujudini titroq bosgan, sovuq qotgandek tishi-tishiga tegmay qaltirardi. Bir daqiqa o‘tdi, ikki daqiqa, uch daqiqa, hech kim qaytmadi. Ira bo‘lsa shoshilardi. Lip etib, ikkinchi xonaga kirdi, u yerda to‘rtta emas, ikkita surat ola oldi, xolos. «Aslida shoshilmasdan olaversam ham bo‘lardi-ku», o‘ylardi o‘zicha.

Endi kun yorishini kutish kerak edi.

Taras ham, Ira ham sahargacha mijja qoqmay chiqishdi. Ira Taras bilan xayrlashganida hali soat sakkiz ham bo‘lmagan edi.

– Men sekingina chiqib ketaman. Zoya xola uxlab yotibdilar. Aqlli bolasan-da, o‘zing, Taras.

– Sen aqlli qizsan, Ira! Qarab tur, Seryoja biram xursand bo‘ladiki...

– Faqat Seryojamiki...

Ular xayrlashishdi. Ira saroyga qaytganida Seryoja ham tun bo‘yi mijja qoqmay poylab o‘tirgan edi.

– Voy bo‘... Seni o‘ylayverib jinni bo‘lib ketdim, juda xavotir oldim. Qani gapir, ishlaring qalay?

– Hammasi joyida, – dedi Ira. – Lekin bir ahmoqlik qilib qo‘ydim shekilli. Generalning planshetida nima bo‘lsa, hammasini suratga olaverdim, polkovniknikida qo‘rq-qanimdan ikkitagina surat ololdim. Negadir juda shoshildim...

– Hechqisi yo‘q, ammo ofarin senga, singlim! Bu zo‘r jasorat!

– E, nimasi jasorat buning!

– Hoy, menga qara, ko‘rsatgan jasorating mukofotga munosib jasorat, bildingmi?

– Shu arziyas ish uchun ham mukofotmi? Axir, biz mukofot uchun emas, vijdon burchimizni bajarish uchun bu ishni qildik, xolos. Dadamlar o‘z xatlarida har bir inson o‘zidan «sen front uchun nima qilding?» – deb so‘ramog‘i lozim degan edilar. Ammo xatda mukofot to‘g‘risida bir og‘iz ham aytilmagan-ku. Yaxshisi, bu plyonkani qanday qilib otryadga yetkazib berishni o‘ylaylik.

– O‘zim boraman! – dedi Seryoja qat‘iy ohangda. – Qaytaraman deb ovora bo‘lma, soppa-sog‘man. Leytenant Temirovni ham juda ko‘rgim kelyapti.

– Qachon ketmoqchisan?

– Kechasi yo‘lga chiqqanim ma‘quldir, deyman. Kunduz kunlari nemislar ko‘p, xavfli.

– Ha, to‘g‘ri o‘ylaganing, – ma‘qulladi Ira.

– Qani, endi ozgina bo‘lsayam uxlab olaylik, – dedi Seryoja.

Ular bor-yo‘g‘i qirq minutcha uxlashdi, xolos. Taras kelib uyg‘otib yubordi.

– Men hozirgina Irinarxiyning oldida bo‘ldim, – dedi u. – Dadam uni aytib kelgin deb yuborgan edi. Borsam, xuddi ro‘yxat tuzib o‘tirgani ustidan chiqdim. Oldida yana

birov bor edi. «Dadam sizni chaqiryaptilar», dedim. Irinarxiy shu zahotiyoq, darrov otlandi. Men bilan birga keldi. Haligi odam uyda yolg'iz qoldi.

– Dadangda ro'yxat bor edi-ku, axir? – hayron bo'ldi Seryoja.

– Qaytib bergan bo'lsa kerak-da, bilmadim tag'in, tushunib bo'lmaydi...

– Xo'p, mayli, Irinarxiy bilan o'tirgan kim edi?

– Ko'rinishi sovuq bir odam. O'rta yoshli. Bo'yi past. Yuzlari sap-sariq, silga o'xshaydi, sochlari tegi bilan qirilgan... – ta'riflab berdi Taras. – Uni men bu atrofda ko'rmaganman. Sotqinligi shubhasiz.

– Demak, Irinarxiy dadangning oldiga keldimi?

– Darhol keldi. Ro'yxat ham qo'lida.

– Unday bo'lsa, Taras, senga bir ish bor, – dedi Seryoja. – Juda shoshilinch, kechgacha qilishing kerak. Tushundingmi?

– Tushundim, qanaqa ish?

– Kechgacha oxirgi ro'yxat menda bo'lishi kerak. Dadangdan yoki Irinarxiydan o'sha odamlarning kimligini bilib olishga harakat qil. Xo'pmi?

– Harakat qilaman.

– O'sha odam derazaga yadin o'tiribdimi? – so'rab qoldi birdan Ira. – Balkim uni suratga olarman?

Seryoja bilan Taras xayol surib qolishdi.

– Xavfli emasmi? – ikkilandi Seryoja.

– Juda ehtiyotlik bilan olaman. Taras bilan birga boramiz. Fotoapparatni savatchaga solib qo'yaman. Kim biladi nimaga ketayotganimni.

– Sen nima deysan? – so'radi Seryoja Tarasdan.

– Menimcha mumkin, – dedi sal ishonqiramay Taras.

– Bo'lmasam yur, hoziroq ketdik!

XVII

Seryoja tun og'ib ketganda, tong-saharda otryadga yetib keldi. Plyonkani, ro'yxatni, nemis ofitserlarining familiyalari, Beryozovkada joylashgan o'qchi-diviziya va sapyorlar batalyonining taxminiylarini sostavi haqidagi yozuvlarini Konstantin Petrovichga topshirdi. U Nikolayev bilan tanishdi, Kolosov, Ivan Ivanovich, bobosi bilan uchrashdi. Mana endi Temirovning kichkina, torgina yerto'lasida choy ichib, suhbat qurib o'tiribdi.

– Plyonkalar doridan chiqquncha o'tira tur, – dedi Shaxov. – Ehtimol, yana biron narsa zarur bo'lib qolar.

Temirov bilan u o'z dadasini ko'rgandek quvonib ko'rishdi. Temirov ham xuddi o'g'lini ko'rgandek behad xursand edi.

– Omonmisan, Seryoja, jon o'g'lim! – deya takrorlar, uni bag'riga bosganicha yuzlaridan o'pardir Temirov.

«Qiziq, – o'ylardi Temirov. – Mana shu Sergey Yese-ninni bir necha soatgina ko'rdim-u, bir umr menga yoqdi qoldi. Yo hozircha o'z bolalarim yo'qligidan shundoqmikin? Dilorom bilan biz urushgacha turmush qurib ulgurmadik. Bir chekkasi shundoq bo'lgani ham yaxshidir balki, munaqangi urushda men nima bo'lishimni kim biladi. Lekin omon qolsam biz albatta turmush quramiz, Seryojaga, uning singlisi Iraga o'xshagan far-zandlarimiz ko'p bo'ladi...»

Seryoja bo'lgan voqealar, ko'rganlari, eshitganlarini batafsil gapirib berdi. Diqqat bilan gaplarini eshitib turgan Temirov bir narsaning tagiga yetolmasdi. Keyingi kunlarda-ku, Seryoja har gal kelganida o'zgarib borayotganini, o'zgargandayam juda tez o'zgarib, oy sayinmas, kun sayin o'sib, aqli tinib, quyuqlashib, o'zi jiddiylashib, tadbirkor, pishiq, omilkor bo'lib borayotganini sezib yurardi-yu, ammo

bugungisi hammasidan ham oshib tushdi. «Urushning ta'siridan shunday bo'lyaptimi yo bu bolaning o'zi tug'ma iste'dod-u, buni men fahmlab qolyapmanmi?» – deb o'ylar va bari bir o'yining oxiriga yetolmasdi. Ikki do'st keyingi kunlarda bo'lib o'tgan voqealar yuzasidan fikr olishar edi. Temirov Seryojani allaqachon «yosh bola»likdan, «g'ayrati ichiga sig'magan pioner»likdan chiqarib qo'ygan, u bilan anchadan buyon turmushning oq-u qorasini chuqur tushungan, urush azoblarida chiniquqan jiddiy razvedkachi sifatida gaplashardi, muomala qilardi, hurmatini o'rniga qo'yib, unga ishonardi. Shuning uchun ham ularning suhbatlari hamisha bir-biriga sodiq ikki do'st o'rtasidagi suhbat tusini olardi. Seryojaning yulduzi issiqligi, ko'm-ko'k ko'zlarining hamisha kulib turishi, sezgirligi va ishchanligi o'sha jang davom etib turgan paytdayoq, birinchi bor jangga kirib, yarador bo'lganidayoq, Temirovga juda yoqib qolgan edi. Shu-shu har galgi uchrashuv bolaga mehrini oshirsa oshirardiki, zarracha kamaytirmasdi. Endi u Seryojani o'g'lidek sevardi, u bilan tez-tez uchrashishni, shoirona so'zlarini eshitishni yoqtirardi. «O'rtoq Sergey Yesenin», – deya hazillashib qo'yardi.

Ularning suhbatlari tobora qizib borardi. Seryojaning bu gal keltirgan ma'lumotlarigina emas, balki ana shunga bo'lgan munosabati, yondashishi, tahlili kuchliligi. Ira bilan Tarasni oqilona ishga sola bilishi, ish bo'lgandayam mayda-chuyda, ikir-chikirlarga o'ralashib qolmay, ularning diqqat-e'tiborini muhim, zarur tomonga qaratayotgani, eng muhimi – o'zining dadilligi, sovuqqonligi va bu fazilatlarini singlisiga ham, Tarasga ham yuqtirayotgani Temirovni shunchaki qoyil qoldirib qolmay, lol etardi. Bugun u shunday xulosaga kelib qo'ydi: «Yo men yangi iste'dodning tug'ilishi, tez kamol topishining jonli guvohi bo'lyapman, yoxud urush dahshati kattanimas, go'dakni ham tez ulg'aytiradi, uchinchisi bo'ishi

mumkinmas. Bordi-yu, bo'lsa ham men bilmasam kerak...» Mana uning oldida hozir partizanlarning aloqachisi va yordamchisigina emas, fashistlar qiynog'i va so'rog'idan o'tgan, lekin kuchli va makkor dushman oldida o'zini mardonavor tutgan Seryoja o'tiribdi.

Temirov ikki tirsagini stolga tirab, iyagini mushti ustiga qo'yib, bolaga tikilgancha shu xayollarni miyasidan o'tkazarkan, Seryojaning ko'zlari yonib, hayajonlanib aytayotgan so'zlari, otryadning har qanday topshirig'ini bajarishga o'zi ham, singlisi ham, Taras ham hamisha tayyor ekanliklari, qo'rqqulikdan hazar qilib jirkanishlari, pionerlik sharafiga sadoqatlari haqidagi gaplari soldatning muqaddas qasamidek qulog'iga kirib turardi.

Suhbat oxirida Temirov nima uchundir Seryojaga o'zi haqida gapirib bergisi kelgan edi. Seryoja ham xuddi uning bu istagini yuragidan sezib turgandek birdan so'rab qoldi:

– Urushgacha siz qayerda yashardingiz?

– Menga qara, Seryoja, ichimdagini topding-a! Xuddi o'zim shuni o'ylab turuvdim. Men asli Toshkentga yaqin Sirdaryo bo'yidagi kolxozdanman. Ota-onamning kasbi paxtakor. O'zim o'ninchi sinfni tamom qilib, Toshkentdagi Lenin nomli piyodalar harbiy bilim yurtida ta'lim oldim. Leytenant unvoni bilan g'arbiy chegaralarimizda joylashgan harbiy qismlardan biriga xizmatga tayinlandim. Urush boshlangach, o'sha joyda dushman hamlasiga bardosh berib, nemislarni uch kecha-yu uch kunduz to'xtatib turdik. So'ng qanchadan qancha talafot ko'rib, jang bilan chekinish alamlarini kechirdik. Siyraklashgan saflarimizni yangidan kelgan qismlar hisobiga to'ldirib yana chekindik. Nihoyat Beryozovkagacha yetib keldik. Tixaya daryosi bo'yidagi jangda yarador bo'ldim. Sanbatdan chiqqach, meni polk komandiri, mayor chaqirtirdi. Uning oldida sizlarning

rayoningiz partiya komitetining sekretari Kolosov o'tirgan edi. U mendan partizanlar bilan qolishimni, otryad shtabiga boshliq bo'lishimni iltimos qildi. Kolosov otryadda harbiy mutaxassislar kamligini aytdi.

O'ziga bo'lgan ishonch va hurmatdan Seryojaning qalbi faxrlanish his-tuyg'ulariga g'arq bo'ldi. Yo'l yurib nihoyatda charchab kelgani ham unutilib, qushday yengil, yangi parvozga shayday o'tirardi. Hozir hamma narsani unutgandi, faqat Temirovning gaplari sira-sira tamom bo'lmasligini istardi. Mayli, tong otadimi, kun chiqadimi, hech uyqusi kelmasdan, charchamasdan tinglashga tayyor. Temirov hikoyasidagi ko'p narsalar uni qiziqtirib qolgandi, hammasini so'rab, bilib olgisi kelardi. Faqat uyalardi, vaqtini olishdan andisha qilardi. Shu tufayli iymانبgina gapirdi:

– So'rasam maylimi?

– Ha, voy, seni qara-yu, do'st degan ham shunaqa bo'ladimi. So'rayver.

– Dadam, oyim paxtakor dedingiz-a?

– Ha.

– Paxtakor deganingiz o'zi nima?

Temirov beixtiyor bir zum o'ylanib qoldi. Undan hozir «Osmondagi oy nima?» deb so'rashganday bo'lib tuyuldi.

– Iye, ha, shoshma, shoshma, paxtani ko'rganmisan o'zing?

– Ha, oppoq, yumshoq bo'ladi-da. Buni bilaman.

– Bilsang, ana shu paxtani biz tomonlarda ekishadi.

– Voy, paxta ekiladimi? Yerdan chiqadimi?

Avvaliga Temirovga g'alati tuyulgan bu savol, keyinchalik bundoq o'ylab qarasa, juda o'rinli, to'g'ri savol ekan. Axir, bu tomonlarda g'o'za o'stirilmasa, bu bola qayoqdan bilsin, bola tugul, ehtimol, kattalar ham bilmasa hech ajablanadigan joyi yo'q.

– Do'stim Sergey Yesenin, – dedi kulimsirab Temirov, – to'g'ri so'rading. Paxtaning o'zi ekilmaydi, uning urug'i bo'ladi, chigit deyiladi. Ana shu chigit bahorda ekiladi, undan g'o'za unib chiqadi, g'o'za butun bahor, yoz bo'yi jazirama oftobda toblanadi, bir necha marta suv ichadi, parvarishlanadi, ozuqa berilib, begona o'tlardan tozalanadi, qarabsanki, kuzga kelib, har tupida o'nlab, yigirmalab, o'ttizlab, hatto ellik-oltmishlab gullari, ko'saklari paydo bo'ladi, ko'saklar pishib-yetilib, chanoqlar ochiladi, har chanoqda lo'ppi-lo'ppi paxtalar yetiladi...

– Voy bo'... juda qiyin bo'lsa kerak-a? Yerdan paxta o'sib chiqishini bilmasdim.

– To'g'ri topding. Mehnati juda qiyin bo'ladi. Shu paxtadan yuz-yuz ming tonnalab yetkazamiz.

– O'ho'... yuz-yuz ming tonnalab deysizmi?

– Ha.

– Paxta o'zi juda yengil bo'ladi-ku, yuz minglab tonnasi qayoqqa sig'adi?

Temirov o'zini tutolmay kulib yubordi. Seryoja bo'lsa ishonqiramay hayron bo'lib turardi. Yo Temirov unga hazil gapni aytib kalaka qilyapti, yo bo'lmasa chinakam mo'jizani tushuntirib berdi unga.

– To'g'ri, paxtani kaftingga qo'ysang uchib ketadi; g'alla bo'lsa og'irligi sezilib turadi. Xuddi shu paxtadan yuz-yuz ming tonnalab yetishtiriladi, bir million tonnaga ham yetgan.

Seryoja uchun bu mo'jiza edi va u hozir ana shu mo'jizakor oilaning o'g'li bilan suhbat qilib o'tirganidan faxrlanardi.

– Toshkentni men bilaman, – dedi bolalarga xos qiziquvchanlik bilan Seryoja.

– Rostdan-a. Qayoqdan bilasan?

– Neverovning «Toshkent – non shahri» degan kitobini o'qiganman.

– E-e... bundoq demaysanmi? Toshkent chindan ham juda chiroyli, katta shahar.

– Men Saltikov-Shchedrinning «Toshkentlik janoblar» kitobini ham o‘qiganman. Siz boya Toshkentda harbiy bilim yurti bor dedingiz. Saltikov-Shchedrin bo‘lsa, aholisi muncha, ibodatxonasi muncha, kutubxona – qiroatxonasi yo‘q, bilim yurti yo‘q, turmasi bitta bo‘lgan shaharga tushib qolsangiz, hech ikkilanmasdan o‘zingizni Toshkentning qoq markazidaman, deb bilavering, yanglishmaysiz, degan-ku.

Temirov o‘zini tutolmay, qah-qah otib kulib yubordi. O‘rnidan turib ketdi, sira o‘zini bosolmasdi. Seryoja nimaligiga tushunolmay hayron edi. Anchadan keyin Temirov yoshlangan ko‘zlarini arta turib, tushuntira ketdi:

– Shchedrin yozgan paytlarda, to‘g‘ri, Toshkent o‘shanaqa shahar bo‘lgan. Endi ko‘rsang, tamomila boshqa, do‘stim. Yaxshisi, urush tamom bo‘lsin, bir borsang o‘zim ko‘rsataman.

– Rahmat, albatta boraman. Temirov aka, yana bir narsa so‘rasam maylimi?

– Ha, so‘rayver, og‘ayni.

– Uylanganmisiz? – Seryoja uyalinqirabroq unga tikildi.

Temirov urush boshlanmaganida shu yili kuzda to‘ylari bo‘lishi kerakligini, endi urush g‘olibona tamom bo‘lgach, albatta uylanishini va «o‘rtoq Sergey Yesenin»ni ham to‘yga taklif qilajagini aytdi.

– Qaylig‘ingiz kutib turarmikan? – so‘radi u ochiq ko‘ngillik bilan.

– Shunga umid qilaman, o‘rtoq Sergey Yesenin.

– Kechirasiz, so‘rasam maylimi, ismlari nima?

– Dilorom, hamqishlog‘imiz. Hozir sirtidan o‘qib, maktabda til va adabiyotdan dars beradi.

– Boshqaga tegib ketsa nima qilasiz?

Temirov savolga savol bilan javob berdi:

– Mening o‘rnimda sen bo‘lsang nima qilarding?

Seryoja shu savolni berganidan noqulay ahvolga tushib, ancha o‘ng‘aysizlandi-yu, bari bir kulimsirab turib, dilidagini aytdi:

– Sevgiga sodiq, vafodor qizga uylanardim.

Seryojaning dabdurustdan bunday savol berishi yoshiga nisbatan yarashmagandek, noqulay ko‘rinib, Temirovning g‘ashiga tekkan edi, bora-bora o‘ylab qarasa, yoshimas, aql-idrokiga nisbatan tabiiy va o‘rinli savol berayotgan ekan, endi tushundi. Shu vajdan ham hamisha xayolini band qilib yurgan nozik va murakkab bu masalada hamdard topganday, tengquri bilan suhbatlashayotgandek gaplasha boshladi. Mana, ko‘rib turibsizki, eng nozik, qaltis joyidan tutdi Yesenin tushmagur.

«Bari bir u hali yosh, boshiga muhabbat savdosi tushib, Majnun-u Tohir bo‘lishiga besh-olti qovun pishig‘i bor, – deya ko‘nglidan o‘tkazib, o‘zini o‘zi yupatib qo‘yardi, ammo vafodorlik haqidagi fikrlari pishiq, puxta. O‘zimni qiynayotgan ham shu-da. Urush cho‘zilib ketaversa, Dilorom kutib o‘tirarmikin? Yo‘q, Dilorom undaylardan emas, u menga: «Sevgi vafosi bilan, sadoqati bilan sevgi», deb qat‘iy so‘z bergan. U o‘z so‘zida turadi...» Temirov ozgina o‘ylanib turdi-da, Seryojaning so‘zlarini takror qildi:

– Men ham sevgi va vafoga sodiq qizga uylanaman. Diloromim shunday qiz.

Temirov fikrini boshqa yoqqa chalg‘itish uchun shu tobda esiga tushgan bir she‘rni o‘qib berdi:

Ishon, neki bordir doimo –

Beibtido va beintiho.

Neki o‘tgan, neki bo‘lajak,

Aldab kelgan va aldayajak.

Duch kelsa bu jahonda
Ikki oshiq yosh yurak,
Visolda ham hijronda
Faqat sukunat kerak.

– Bilasanmi? – so‘radi Temirov.

– Lermontov, – darhol javob berdi Seryoja.

Yerto‘laga Misha bobo kirib keldi.

– Sizlar bu yerda otamlashib o‘tiribsizlar, – hazillashdi u. – U yoqda Konstantin Petrovich sizlarni kutib o‘tiribdi.

Keksalar: odam ich-ichidan quvonsa, quvonchlari yuzlariga chiqib, nuroniylik baxsh etadi, deyishardi, rost ekan. Misha boboning yuzlari hozir shunday tusda, nuroniy tabassumda edi. Seryoja unga tikilib, hayron bo‘lib qoldi.

– Meni hammi? – so‘radi Temirov.

– Ikkalalaringni.

Ular o‘rmondagi sal yaxlagan yolg‘izoyoq yo‘ldan yurib, kichkina bir maydonga chiqishdi. Maydon to‘rt tomondan bargi to‘kilgan qayinlar va katta-katta eman daraxtlari bilan o‘rab olingan edi. Maydonning chap va o‘ng tomonlarida uchta yerto‘la qurilgan bo‘lib, ulardan bittasi komandirning yerto‘lasi edi.

– Oq yo‘l sizlarga, endi men o‘zimning temirchilik ishlarimga qaray, – dedi Misha bobo.

Temirov bilan Seryoja Shaxovning yerto‘lasiga tushib ketishdi. Yerto‘lada Konstantin Petrovich bilan birga Nikolayev va raykom sekretari Kolosov o‘tirgan edilar.

– Juda qimmatli ma‘lumotlar olib kelibsiz, – dedi Shaxov Seryojaga negadir sizlab. Uning hayron bo‘lganini ko‘rib, tushuntirdi: – Siz deyayotganim, sizlarning hammalaringni ko‘zda tutayotibman, sababi shuki, bu ma‘lumotlarni axir sen ham, Seryoja, singling Ira

ham, Taras ham birga to'plagansizlar, shundaymi? Ha, barakalla, xarita va shtabga oid ma'lumotlar juda muhim, bizga u nemislarning planlarini, ayniqsa, yangi kelgan diviziya oldiga qo'yilgan vazifalarni bilib olish imkonini beradi. Ofarin sizlarga, nemislarning qismlari va obozlari haqida ma'lumotlar to'plab, juda yaxshi ish qilibsizlar. Irinarxiy jo'rasining surati ham o'rinli. Biz bu sotqinning kimligini surishtirib bilib olamiz. Qani, endi choy ichamiz! O'tiringlar!

– Seryoja, bu senga! – Nikolayev kulimsirab, unga ikkita surat berdi. – Bularning ishga daxli yo'q.

Seryoja suratlarni oldi. Bu Zoya Andreyevnaning Ira va Seryoja bilan hamda uning Taras va Seryoja bilan tushgan suratlari edi.

– Shoshilib buni esimizdan chiqaribmiz, – dedi Seryoja. – O'sha plyonkada edi.

– O'zimiz ham shundoq deb o'ylagan edik, – dedi Konstantin Petrovich va qo'shib qo'ydi: – Sizlar to'plagan ma'lumotlarni front shtabiga xabar qilamiz.

«Front shtabiga?! – Hayajon aralash faxrlanish his-tuyg'ulari chulg'ab oldi uni, – Ehtimol Moskvaga ham xabar qilishar?»

Krujkadagi choy allaqachon sovib qolgan bo'lsa ham, har zamonda undan bir qultum ichib, tomog'ini ho'llayotgan, qanddondagi har xil qilib chaqmoqlangan qanddan bittasini butunligicha og'ziga solgisi yo bo'lmasa tishlab-tishlab choy ichgisi kelib turgan bo'lsa ham, rahmatli onasining: «Odam degan nafsiga erk bersa, burdini yo'qotadi», degan gaplari esiga tushib, o'zini tiyib o'tirgan Seryoja quruq choydan ho'plardi-yu, nima bo'lishini sabrsizlik bilan kutardi.

Choy ichib bo'lishgach, Shaxov taklif qildi:

– Zarbdor gruppalarining komandirlarini chaqiraylik. Vaziyatni muhokama qilamiz. Seryoja, sen ham ketmay tur. Bizlar bilan birga bo‘l.

Bir necha minutda yerto‘la odamlar bilan to‘lib ketdi. Ular orasida Ivan Ivanovich ham bor edi.

– So‘z senga, komissar! – dedi Shaxov.

Nikolayev o‘rnidan turdi.

– Mana noyabr ham keldi, o‘rtoqlar! Nemislarning yoz oylariga mo‘ljallangan hujum qilish planlari barbod bo‘ldi. Shonli jangchilarimiz bitmas-tuganmas jasorat, qahramonlik va fidokorlik ko‘rsatib, mudofaa janglarini olib bordilar va fashizm mashinasiga zo‘r talafotlar yetkazib, uni to‘xtatdilar. Ha, to‘xtatdilar, xolos. Ammo bu degan gap nemis fashizmining tinkasi quridi, holdan ketdi degan gapmas. Hali u kuchli. Yana hujum qilishi, kuchlarini yig‘ib, hujumga o‘tishi tayin. Biz Beryozovkadan olgan, Seryoja Yesin va uning o‘rtoqlari singari vatanparvarlar yordamida qo‘limizga kiritgan ma‘lumotlar ham shu fikrni tasdiqlab turipti. Nemislar frontga yangidan yangi kuchlarni to‘plamoqdalar. Qo‘limizda Beryozovkaga kelgan va qishloq orqali o‘tib ketgan yangi qismlarning sostavi, Fransiya dan olib, bu yoqqa yuborilgan o‘qchi-diviziyaning operativ xaritalari, nemis bo‘linmalari komandirlarining familiyalari bor. Ma‘lumotlarga ko‘ra, gitlerchilar Moskvaga hal qiluvchi shturmga hozirlik ko‘rmoqdalar. Aftidan, ular poytaxtimizni Oktabr bayramigacha ishg‘ol qilmoqchilar. Ammo ular bunga erisholmaydilar! Chunki vatanimizning siyosiy shtabi – partiya Markaziy Komiteti Moskvada, mamlakatimizning strategiya shtabi – Oliy Bosh Qo‘mondonlik Stavkasi va Davlat Mudofaa Komiteti Moskvada. Ammo poytaxtimiz mudofaasiga yordam berish uchun, Qizil armiyamizning qahramonona kurashiga o‘z

hissamizni qo'shish uchun biz dushmanga orqa tomondan zarbani kuchaytirishimiz lozim. Buning uchun...

Nikolayev partizanlar otryadining oktabr oxirlari va noyabr boshlariga mo'ljallangan barcha operatsiyalarini bir-bir aytib chiqdi.

Seryojaning qishloqqa jo'nash vaqti ham yetdi. Nikolayev, Temirov, Ivan Ivanovich Seryojani birma-bir bag'rilariga bosib xayrlashdilar.

– Yura o'zimizning odam, qulog'ingda bo'lsin, – tayinladi Shaxov Seryojani quchoqlab turib.

Misha bobo nevarasini ancha yergacha kuzatib qo'ydi. «Boshing toshdan, ustixoning po'latdan bo'lsin, olgin, oldirmagin, bolam», – deya qattiq quchoqlab, peshonasidan o'pdi-da, zo'rg'a bag'ridan chiqardi. Qorong'ida orqasidan qarab qolarkan, o'pkasi to'lib, yuragi uvishdi.

Seryoja tong otar-otmas sog'-omon qaytib keldi, tun bo'yi mijja qoqmay xavotir ichida akasini kutgan Iraga ko'zlarini yoqimtoy qisib qo'ygan edi, shuning o'zi kifoya qildi, gapga ham, so'zga ham o'rin qolmadi.

So'ngra u singlisiga suratlarini berdi.

– Zoya xola bilan tushgan suratlarimiz. Apparatda qolib ketibdi, – dedi va darhol o'zini karavotga tashladi.

Seryoja hamisha har qancha charchab, uyqudan qolgan bo'lsa ham kayfi chog' holda yostiqqa bosh qo'ysa, darrov uyquga ketar, oz, ammo soz uxlardi, qattiq, miriqib uxlardi-da, tiniqib ko'z ochardi. Bu gal ham shunday bo'ldi. O'rnidan turib, yuz-qo'llarini yuvarkan, derazadan tashqariga qarab, karabinini yelkasiga osib yurgan Yurani ko'rib qoldi. Unga tikilib turarkan, yonida Ira paydo bo'ldi, xuddi ichidagini bilib turgandek, gap-so'zsiz, tushundim, degan ishorani qildi-yu, paqirni ko'tarib, hovliga chiqib ketdi. Darvozaning tirqishidan tashqariga

mo'raladi, ko'chada Yura bilan birga yana bir notanish politsay yurardi. U yurish-turishidan va kiyimlaridan jazo otryadidan kelgan fashistga o'xshardi. Nikolayev aytganday qishloqqa jazo otryadining kallakesarlari kelgan edilar. Ira uni ko'rdi-yu, boshidan sovuq suv quyilganday seskanib ketdi. Politsay darvoza bilan quduq o'rtasida bo'zchining mokisiday u yoqdan-bu yoqqa borib kelar. Ira Yuraning notanish politsaydan ajralishini sabrsizlanib kutardi.

Nihoyat, Yura yakka qoldi. Ira darhol darvozani qiya ochdi-yu, yo'talib qo'ydi. Yura yalt etib shu tomonga qaradi va qiya ochilgan darvoza tirqishidan yuzining yarmi ko'rinib turgan Iraga ko'zi tushib, unga yaqinlashdi.

– Seni Seryoja so'rayapti, – dedi Ira shivirlab. Yura to'rt tomonni ko'zdan kechirib, lip etib o'zini hovliga urdi, oyoq uchida yurib, Iraning orqasidan saroyga kirdi. Seryoja boshini stolga qo'yib, pinakka ketgan edi. Ira akasining yelkasiga qo'lini qo'yib, uni ohistagina uyg'otdi va Yurani ko'rsatib imladi.

– Salom, – dedi Yura unga tashvishli ohangda.

Seryoja Yuraning vajohatidan hayron bo'ldi, Yura lablariga qo'lini qo'yib, shivirlagan ohangda so'radi:

– Fashistlar Moskvani ishg'ol qilganmish, eshitdingmi?

– Kim aytdi?

– Kolxoz idorasini egallagan jazo otryadining soldatlari Fyurer qo'shinlari Moskvani ishg'ol qilgani munosabati bilan ichkilikbozlik qilishdi. Muzika chalib, mast-alast holda ashula aytishdi, tantana ertalabgacha davom etdi.

– Yolg'on!

– Yolg'onligini bilaman-u, Gerasim ham radiodan eshitibdi-ku.

– Qaysi radiodan?

– Germaniyadan bo'lsa kerak-da...

– Yolg'on! Fyurerning Moskvani jadal hujum bilan olish plani barbod bo'ldi. Bundan keyin yana jon-jahdi bilan hal qiluvchi hujum boshlaydi. Gitlarning bu hujumi ham barbod bo'ladi. Mana, ko'rasan. Butun xalq bir qatra qoni qolguncha ko'kragini qalqon qilib Vatanimiz yuragini himoya qiladi. Shuning uchun ham Moskva yengilmas shahar!

– Menda bir taklif bor edi, – dedi Yura, – o'zim bu ish bilan shug'ullanishim noqulay, qaltis, sizlar qilsalaring bo'ladi.

– Nima ish?

– Varaqalar tayyorlash kerak. Elliktami, yaxshisi yuzta. Varaqada Moskva yengilmaydi, hech qachon fashistlarga taslim bo'lmaydi, deb yozish kerak. Varaqalarni sekin-sekin hamqishloqlarimizga tarqatamiz. Odamlarning ruhini ko'tarish kerak. Haqiqatni bilishsin hammalari!

– Men tayyorman, – dedi Seryoja.

– Men ham, – unga qo'shildi Ira.

– Juda yaxshi, – dedi Yura. – Lekin nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak. Bosma harflar bilan yozinglar, nemislar kimning qo'li bilan yozilganini bilolmasin. Tushundiraringmi?

XVIII

Bir soat o'tar-o'tmas kutilmaganda aka-singil Yesinlar uchun quvonchli voqea sodir bo'ldi. Nemislar ularning uyidan chiqib ketishdi. Beryozovkadagi boshqa uylar ham bo'shadi, aftidan, ba'zi qismlar frontga jo'natilgan edi. General Shnayder bilan polkovnik Galler ham jo'nashdi.

Kayflari chog' Seryoja bilan Ira qog'oz va bo'yoq olib ishga tushib ketishdi.

– Tekst qisqa bo‘lishi kerak. Menimcha, shundoq yozsak bo‘ladi, – taklif qildi Seryoja. – «Fashistlarning ig‘vosiga ishonmanglar! Moskva yashab keldi, yashaydi, hamisha barhayot! Yashasin Qizil Armiya! Yashasin Vatanimiz! Dushman tor-mor qilinadi! Biz g‘alaba qilamiz!» Ma‘qulmi?

– Ma‘qul, – dedi Ira.

– Shuni bilib qo‘y, biron hol ro‘y bersa, hammasini darrov kleyonka tagiga bekitasan, – dedi Seryoja.

Ko‘chada qor kuchayib, achchiq izg‘irin zaptiga olardi. Yer yalab shamol bo‘roni esmoqda. Beryozovkada g‘ala-g‘ovur ancha bosilib qolgan, nemis qo‘shinlari va texnikasining bir qismi qishloqdan chiqib ketgan edi. Qor yog‘ib, bo‘m-bo‘sh qolgan uylar, bombardimondan kulga aylangan xarobalar sal oqardi. Kechasi sovuq tushdi.

Yura shu sovuqda navbatchilikka chiqishni istamasdi-yu, lekin chiqish zarur edi. Bugun-ku biramas ikki karra zarur edi. U issiq kiyinib ko‘chaga chiqdi. Bir necha nemis soqchilari yonidan o‘tdi, ular bilan salomlashdi, bittasi bilan unchalik ahamiyati bo‘lmagan u-bular haqida so‘zlashdi.

Muzdek shamol yuzlariga ignadek sanchilar, yaraga tuz sepgandek achitardi. Ko‘zlaridan oqqan yoshni ro‘molchasi bilan artib, to‘xtovsiz odimlar, to‘xtaganida tepinardi. Oyog‘iga issiq pima kiyib olgan bo‘lsa ham tirnoqlarining osti zirqirar, chidab bo‘lmas darajada og‘rir, zahar sepilgandek achishardi. U Shulganing uyida chiroq yonib turganini ko‘rdi-yu, birpasgina isinib chiqishni ko‘nglidan o‘tkazib, o‘sha tomon yura boshladi. Ehtiyotlik bilan ko‘cha eshigini ochib, derazadan qaradi. Stol yonida Gerasim, Mariya, Irinarxiy o‘tirardi. «Demak, hammasi joyida», – dedi Yura.

Qor bo‘roni zabtiga olardi. Allaqayoqdan itning uvullagan ovozi eshitilardi. Yura o‘zini muyulish panasiga oldi. Soatiga qaradi. Chorak kam o‘n ikki bo‘libdi.

Eshik g'irchillab ochilgani eshitildi va ostonada Irinarxiy ko'rindi. U ko'cha eshik tomon odimladi. Eshikni ochdi-da, qaysi tomonga yurishini mo'ljallab turganida, Irinarxiyning qarshisidan Yura chiqib qoldi.

– Salom, hamkasb! Yaxshi kayf-safo qildingizmi?

Irinarxiy kayfi taraq bo'lsa ham Yurani tanidi.

– Senmisan?

– Belgilangan tartibga muvofiq postdaman, – dedi tetiklik bilan Yura. – Yur, kuzatib qo'yaman.

– Fonarchang bormi? Men olmagan edim, hammayoq zimiston-ku, qurib ketsin.

– Fonarcha topiladi.

Ular pastga qarab, Irinarxiyning uyi tomon yurishdi. Yolg'izoyoq yo'l devor va bargi to'kilgan butalar bo'ylab o'tardi. Chap tomonda urushgachayoq axlatxonaga aylantirilgan chuqur jarlik boshlanardi. Yura Irinarxiyni qo'ltig'idan ushlab, birdan chapga qayrildi.

– Nega bu yoqqa? – so'radi Irinarxiy.

– Yur. Bir narsa ko'rsatmoqchiman!

Ular butazor oralab jar chekkasiga chiqdilar. Yura Irinarxiyni qo'yib yubordi, fonarini o'chirdi va karabinini yelkasidan oldi.

– Vatanning buyrug'i bilan qotil va sotqinga it o'limi!

Irinarxiy g'ing deyishga ulgurmasdanoq Yura tepkini bosdi. Irinarxiyning gavdasini oyog'i bilan jarlikka itarib yubordi. Taqab otilgan o'q ovozi sekin chiqdi, uni birov eshitmagan ham bo'lishi mumkin. Yura bir nafas to'xtab turdi-da, karabinini yelkasiga osib, katta ko'cha tomon yurdi.

Ertalab kolxoz idorasi oldida ikkita qora mashina va uning atrofida kelgan to'rtta mototsikl to'xtadi. Mashinadan tushgan amaldorlar shoshilganicha ichkariga kirib ketishdi. Xo'jayinlarini mototsiklda qo'riqlab kelgan

soldatlar esa shu yerda qolishdi. Ular sovuqda qotib, yer tepinar va «huv-huv»lashib, u yoqdan-bu yoqqa chopardilar. «Shoshmay turinglar hali, gazandalar, – dedi Yura ichida, yer tepinayotgan fashistlarga ko‘z qirini tashlab, – yaqinda haqiqiy rus ayozi boshlanib, chigirtkadek qirilasanlar».

Shu paytda ichkaridan chiqqan ofitser Yurani chaqirib qoldi. Yura yugurib uning oldiga borgan edi, ofitser jahl va zarda bilan: «Hoziroq starostani topib, oldingga solib kel», – deya buyruq berdi.

Harbiycha itoat qoidasini o‘rniga qo‘ygan Yura o‘qdek uchib ketdi, uyga kira solib, baqirdi:

– Gerasim, ho, Gerasim!

Hech kim javob bermadi. Yura uning karavoti oldiga borib uyg‘ota boshladi. Ammo Gerasimni hozir to‘p otib ham uyg‘otib bo‘lmasdi. Kechagi ichkilik o‘z kuchini ko‘rsatardi, o‘q o‘tmaydigan qilib, zirhlab qo‘ygandi, jonsiz murdadek cho‘zilib yotardi. Taras ham kelib, otasini uyg‘otishga urindi. Biroq Gerasim ularning baqirib-chaqirishiga xurrak bilan javob berardi.

Taras bir paqir sovuq suv keltirib otasining boshidan quydi. Gerasim xushyoqqanday bir to‘lg‘andi-yu, narigi tomonga qarab o‘girilib yotdi. Taras uning boshidan yana suv quydi. Nihoyat, u uyqu aralash bir ko‘zini ochdi-yu, tepasida kim turganini ham, boshiga kim suv quyganini ham ko‘rmay, jirkanch so‘zlar bilan so‘kina boshladi. Taras bu so‘kinishlarni nazar-pisand qilmay, yana uning yuziga suv quya boshladi, hech bo‘lmagandan keyin qulog‘ining ostiga og‘zini qo‘yib: «Gestapo», – deya qichqirdi. Gerasim gestapo desa yuragi yorilib ketguday qo‘rqardi. Hozir ham shunday bo‘ldi, bu dahshatli so‘zni eshitib, boshini shartta ko‘tardi, tepasida Yura bilan Tarasni ko‘rib, yana shilq etib o‘zini yostiqaqqa tashlandi.

Yuraning sabri chidamadi, jahli chiqib, ovozinig boricha qichqirdi:

– Gestaponing amaldorlari seni so‘rayapti. Tur, kiyin!

Gerasim o‘rnidan turmoqchi bo‘luvdi, biroq zil-zambil boshi tars yorilguday og‘rib, ko‘zi tinib, karavotdan yiqilib tushdi. Yura miltig‘ini devorga suyab qo‘ydi-da, uning gavdasini baquvvat qo‘llari bilan ko‘tarib yuvintirdi, kiyintirdi va nihoyat, yosh bolani yetaklaganday qo‘lidan ushlab, tashqariga olib chiqishdan boshqa iloji qolmadi. Oyoqlaridan darmon ketgan, boshining og‘rig‘iga chiday olmay ingragan Gerasim ko‘chaga chiqdi-yu, ancha narida, kolxoz idorasi oldida turgan mashina va mototsikllarni ko‘rgach, ko‘zlari yorishib, hushyor tortdi. Yura to idoraga yetguncha unga mehribon bo‘lib, nasihat qilib bordi. «Starostaning ishonchidan chiqmaslik» to‘g‘risidagi buyruq shunday qilishni taqozo etardi.

Havo kundan kun sovib borardi. Tinmasdan yog‘gan qor olamni oppoq ko‘rpaga burkadi. Daraxtlarning shoxi qor va muzdan qo‘ng‘iroqlar bog‘ladi. Buning ustiga tez-tez izg‘irin shamol turib, yuzlarga ignadek urilardi, turgan gapki, fashistlarning yuziga bigizdek qadaldardi. Shunday izg‘irin shamol ko‘tarilganda nemis qo‘shinlarining katta bir qismi Beryozovka qishlog‘i orqali Sharqiy frontga o‘ta boshladi.

Kolxoz idorasidan lattaday bo‘shashib, ma‘yus bo‘lib chiqqan Gerasim sovuqda qotib, qishloqdan o‘tayotgan soldatlarni bir zum kuzatib turgandi, ko‘zlari tinib, gindiraklab ketdi. Uning ahvolini ko‘rib, harakatlarini nazardan qochirmay turgan Yura, «rosa adabini yeganga o‘xshaydi», deb ko‘nglidan o‘tkazdi-da, epchillik bilan yoniga o‘tib oldi.

– Himm... Saharda jazo otryadi keladi, – dedi u Yuraga. – Ro‘yxatga tushganlarni maydonga yig‘amiz. Ular hammasi Germaniyaga jo‘natiladi.

– Ular Germaniyaga borib nima qiladi?

Gerasim bu savolga istar-istamas javob berdi:

– Himm... Juda g'alati odamsan, Yura. Nima qilardi, qul bo'lib eshakday ishlaydi.

– Endi tushundim, – dedi Yura.

Gerasim yerga tikilib, o'y-xayolga botib kelayotgan Yuraga bir nimani aytmoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, yana to'xtadi. Nihoyat, u hamrohiga xuddi yolvorganday ohangda so'zladi:

– Himm... Kechasi bir-ikki stakan ko'proq ichildi, Yura. Endi afsus qilyapman. Himm... Birovga ayta ko'rma, do'stim. Ha, aytganday, Germaniyaga jo'natiladigan odamlar to'g'risidagi buyruq qat'iyan maxfiy. O'zing bilsang bas! Uqdingmi?

– Sen ham g'alati odamsan, Gerasim. Axir, bu qishloqda sendan boshqa ishonadigan odamim bormi? Yo'q. Birov bilan bordi-keldim ham yo'q. Faqat yakka-yu yagona sen bilan sirdoshman, do'stim. Bilib qo'y – og'am ham, do'stim ham, o'rtog'im ham o'zing. Sen bilganing – men bilganim, men bilganim sen bilganing. Axir, shunday og'ir urush ikkalamizning ham taqdirimizni bir zanjir bilan bog'lagan. Men sen uchun jonimni berishga tayyorman.

– Himm... men ham, Yura, kel, do'stligimiz hurmatiga bir stakandan ichaylik. Boshim tars yorilguday og'riyapti.

Ular starostaning uyiga kirib ketishdi.

Ertasi kuni azonda qishloqda oblava boshlandi. Bolshheviklar va qishloq aktivlarining qarindoshlarini ushlashdi. Hamma yoqni oh-voh, yig'i-sig'i ovozlari tutdi. Bor-yo'g'i sakkiz kishini topib, pravleniyega haydab kelishdi. Klaus chollarga tegmaslikni buyurdi. Ushlanganlar ayollar va o'smirlar edi.

Ebert yetib keldi.

– Ko‘z-quloq bo‘lib turinglar! – dedi u soqchilarga qarab.
– Hozir mashina keladi.

Yarim soatdan so‘ng ushlanganlarni usti yopiq yuk mashinasiga o‘tqizishdi. Shofyor yoniga unter ofitser, ushlanganlar bilan birga kuzovga uch soldat o‘tirdi. Mashinani to‘rtta mototsikl qo‘riqlab borardi.

Gerasim bu operatsiyadan xabardor edi. Lekin bu safar nemislar nima sababdandir uni bu ishga aralashtirishmadi, shundan yuragi g‘ash edi. «Nima, ishonchdan chiqdimmi?» – deb ich-etini yeyardi. Nima qilarini bilmay, o‘zini u yoqdan-bu yoqqa tashlardi. Besabr bo‘lib, asabiylashib turganida, politsay Yura kirib keldi.

– Janob starosta, jarlikda amakingiz Irinarxiyning jasadini topishibdi, – dedi u.

Kechqurun uni Klaus chaqirtirdi.

– Partizanlar ushlanganlar tushgan mashinaga hujum qilishibdi. Soqchilar qirib tashlangan. To‘qqiz kishi. Ushlanganlarni o‘g‘irlab ketishgan. Bunga nima deysiz, janob starosta? Umuman, nima qilyapsiz o‘zingiz?

Shulga qo‘rqqanidan dir-dir qaltirardi.

– Sizdan so‘rayapmanmi yo devordan? – ovozi boricha baqirdi oberleytenant.

– Himm... Mendan... – g‘o‘ldiradi Gerasim, – Himm... Lekin siz meni chaqirmagan edingiz, oberleytenant.

– Buning nima ahamiyati bor? Kechasi kimdir sizning jigaringizni o‘ldirib ketibdi. Bundan ham xabaringiz yo‘qmi?

– Himm... Xabarim bor...

Klaus uyning u boshidan-bu boshiga borib kelardi. Birdan unga o‘girildi-da, baqira boshladi:

– Osaman sizni, tushunyapsizmi?

– Himm... Tushundim, – dedi zo‘rg‘a g‘o‘ldirab Gerasim.

– Butun oilangiz bilan!

– Himm... Tushundim...

– Hech narsani tushunmayapsiz! – dedi Klaus. Endi u ancha bamaylixotir gapirardi. – Tushunganingizda edi...

Shulga dam u, dam bu oyog'ini bosib turardi.

– Boring, qabristonda to'qqizta go'r qaziting. Zudlik bilan! – buyurdi oberleytenant. – Men halok bo'lganlarning jasadlarini olib kelish uchun mashina yuborganman... Arzimagan sakkizta rus uchun armiyamizning to'qqizta jasur jangchisi halok bo'ldi. Bu qanday adolatsizlik!

XIX

Zoya Andreyevnaning kasali kundan kunga zo'rayib, og'irlashib borardi. Mana bir haftadirki, Taras bilan Ira navbatma-navbat uning boshida parvona, yonidan jilishmaydi. Bemorga qo'shilib dard chekardilar, kasal bilan olishardilar. Ira anchadan buyon ishtahadan qolgan bemorga turli-tuman parhezli taomlar pishirar, sut qaynatar, choy damlardi. Ranglari za'faron, ko'zlari ich-ichiga tushib ketgan Zoya Andreyevna shu hafta ichida odam tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Eti borib suyakka yopishdi, cho'pday ozib, xazonday so'lib-qurib, kuch-quvvatdan qoldi. Ira pishirib keltirgan tovuq sho'rvadan zo'rg'a bir-ikki qoshiq ichardi-da: «Ko'nglim tortmayapti», «ko'nglim ayniyapti», – deya tarelkani surib qo'yardi. Qon bosimi qiynagandan qiynardi, tobora ko'tarilib, boshini tars yorguday og'riq berardi.

Shunday daqiqalarda Ira sirayam chidolmasdi, bab-baravar dard chekardi, tikilib turib, Zoya xolaning bardoshiga hayron bo'lardi. «Nahotki davosi bo'lmasa, shifo dori tonilmasa, – o'zicha kuyib-pishib, yum-yum yig'lardi Ira, – nima qilsam ekan? Qayoqqa borsam bo'larkin? Loaqal vrachga ko'rsatib, hech bo'lmaganda ukol bilan dardini yengillatsa bo'lardi-ku, axir. Shoshma, Ira, Gerasim amakiga

yalinib ko'rsang... Axir, xotini-ku, o'libdimi shu holidayam yordam qilmasa. Istasa o'sha xo'jayinlarining vrachini ham chaqirtira oladi... – O'z yog'ida o'zi qovurilardi Ira. – Haliyam yosh bola ekansan, – deya o'ziga-o'zi dakki bera boshladi, – Gerasim odam bo'lganida xotinining oldiga kirib, loaqal hol so'ramasmidi? Sen davolatish, vrach chaqirishni aytasan-a. Taras judayam bekordan bekorga otasidan yuz o'girayotgani yo'q, aslini o'ylasang, Zoya xolaning dardini og'irlashtirayotgan narsa ham erining mana shu kirdikorlari, iflosliklari bo'lyapti. Shunday bo'lsayam Zoya xola «erim ablah» deb o'zi ham aytmaydi, «otang xoin» deb Tarasga ham bir og'iz gapirmaydi, hammasini ichiga yutadi, yutgan sari dardi og'irlashadi. Iloji boricha bizlarning oldimizda eri sha'niga bo'lgan la'natini yashiradi, bolalarning yosh qalbini zaharlamay, deydi Zoya xola. Men bilmaymanmiki shularni, hammasiga aqlim yetadi. Faqat Zoya xolaga jabr bo'lyapti-da. Bechora...»

Bugun Zoya Andreyevna yotgan pastki xonada o'tgan tun juda og'ir kechdi. Saharga borib yurak og'rig'i xuruji kuchayib ketdi. Og'riq azobiga chiday olmagan Zoya Andreyevna to'xtovsiz ingrardi, yuragini xanjar bilan tilib azob berganida, dod solib yuborardi. Taras ham, Ira ham unga qo'shilib yig'lardilar, bedavo dardga qanday shifo topishni o'ylab, iztirob chekardilar. Ammo qo'llaridan nima ham kelardi?

Tongotarga borib og'riq sal pasaydi, bemor biroz tinchlandi. Biroq gapirishga ham, ko'zlarini ochishga ham holi kelmasdi. Chilparchin bo'lib yotardi.

Ira choy qaynatib, yaxshilab damladi-da, ikki qoshiq asalni choyda eritib, kechadan buyon tuz totmagan Zoya xolaga issiqqina tutdi, zo'rma-zo'raki qoshiqlab ichirdi. Og'riq azobidan salgina qutulgan Zoya Andreyevna

ko'zlarini ohista ochib, qizga mehr bilan nigoh tashladi-yu, holi kelmay, yana ko'zini yumib oldi.

– Irochka, jonim qizim, – deya nimjon qo'lini cho'zib, Iraning bilagiga qo'ydi, – boshimga tushgan azob-uqubatlariga sherik bo'lding. Bu oliyjanob fazilatlarining xuddi onangnikiga o'xshaydi. U rahmatli ham kimning boshiga kulfat yog'lsa, kimning uyida notinchlik bo'lsa, hammadan oldin yordamga yetib kelardi, katta-yu kichik hammaning g'am-alamiga sherik, dardiga hamdard bo'lardi. Ke, ko'z yoshlaringni art, qizim. Mana yurak og'rig'i ham o'tib ketdi, tinchlandim. Lekin mana shu xurujning o'ziyoq kuchquvvatimni olib ketdi. Jonim qizim, sendan o'la-o'lguncha minnatdorman. Bu odamiyliging uchun mendan qaytmasa, Tarasdan qaytar. Tarasdan qaytmasa, xudodan qaytar xudoyim omadingni bersin, baxtingni bersin, bolaginam.

Ira oppoq ro'molcha bilan bemorning yarim ochiq ko'zlaridan oqayotgan yoshlarni artar ekan, iltijo qildi:

– Zoya xola, o'zingizni bosing, jon xola. Urinsangiz tag'in yomon bo'ladi, rost, kechasi judayam qo'rqitib yubordingiz. Taras ham, men ham vahimaga tushib yig'ladik. Yaxshiyam Yura bor ekan, og'riqning zo'rayishi, xuruji tezda o'tib ketadi, deb bizlarga dalda berdi, yupatdi.

– Gerasim-chi? – so'radi Zoya Andreyevna. Ira kutilmaganda berilgan savolga javob topolmay, yalt etib Tarasga qaradi. Taras ham nima deb javob berishni o'ylab sarosimaga tushdi va «Uyda yo'q edilar», deb qo'ya qoldi.

Tashqari eshik taqilladi. Qo'lida tuguncha ko'targan Seryoja kirib keldi:

– Zoya xola, – dedi u mehribonlik bilan karavotga yaqinlashib, – sizga sariyog' keltirdim. Yumshoq nonga sariyog'ni asalga qo'shib surkab yesangiz, tezda tuzalib ketar ekansiz.

– Kim aytdi?

– Bir tabib.

– Barakalla, senga ham, o'sha tabibga ham, bolam. Ammo shuni unutmaginki, yurak kasalining davosi odamlarning mehri, sizlarning mehrlaring, – dedi u Seryojaning ko'nglini ko'tarib.

Zoya Andreyevna bir bemorga ko'rsatilayotgan bu qadar zo'r e'tibor va mehribonlik uchun ich-ichidan quvonardi. Shu bilan birga begona bolaning muruvvatini o'z erining sovuq munosabatlariga solishtirib, «biri inson, biri hayvon», deya ko'nglidan o'tkazardi.

Zoya Andreyevnaning yuzlari salgina yorishdi, boshini ko'tarib, Seryojaning peshonasidan o'pdi va xastalik azobini birga tortib, hamdard bo'lgan bolalarga bir-bir minnatdorchilik bildirdi. Shu urinishning o'zi ham charchatdi shekilli, behol ko'zlarini yana yumib oldi, oraga jimlik cho'kdi. Bolalar ham «bemor orom olsin», degandek boshlarini quyi solib jimgina o'tirar ekanlar, har kim o'z fikri-xayoli bilan band edi, bemor so'ramagan tabibni Ira ham, Taras ham so'rashmadi, surishtirishmadi. Onaning oromi – hammalarining oromi edi hozir.

Biroq bu osoyishtalik uzoqqa cho'zilmadi. Ko'cha tomondan eshik ochilishi va g'ovur-g'uvur gaplashib uyga kirgan noma'lum kishilarning sharpasi sukunatni buzdi. Zoya Andreyevna salgina bezovta bo'lib, ko'zlarini ochdi-yu, yana nimjon qovoqlari og'irlashib, yumib oldi. Ira oyoq uchida yurib oshxonaga ketdi. Taras bo'lsa uyga kirib kelgan notanish kishilarni eshik tirqishidan kuzatdi. Seryoja allaqachon uyiga chiqib ketgan edi. «Tanish va notanish odamlarning ko'zidan uzoqroq bo'lish – bu vaziyatning talabi», – derdi u o'ziga-o'zi.

Kechqurun Taras yangi xabar topib keldi.

– Men Irinarxiyning sherigini bilib oldim. Haligi-chi, birgalashib ro'yxat tuzgan, Ira suratga olgan-chi...

– Oti nima ekan?

– Dormidont.

– Dormidont, Dormidont... Qishlog‘imizda bunday ismli odamni uchratganim yo‘q edi yo sen bilarmiding? – so‘radi Seryoja.

– Yo‘-o‘q. Irinarxiy o‘ldirilgandan keyin Dormidont dadamning oldiga yana keldi. O‘tirib ichishdi. Mariya xola ham Dormidontni biladiganga o‘xshaydi.

– Buni tezroq Martinovga yetkazsak yaxshi bo‘lardi, – dedi Ira.

– Qanday qilib yetkazamiz, – xayol surib qoldi Seryoja.

– Ushlanganlar tushgan mashinaga hujum qilinganidan keyin Martinov g‘oyib bo‘ldi. Men uyiga borib ko‘rdim, uyda yo‘q.

– Xotini nima dedi? Uning chaqalog‘i bor-ku!

– Bilmayman, qayoqqadir ketdi, deydi.

– Menimcha, partizanlarga xabar qilgan Martinov, – dedi Ira.

– Taxmining to‘g‘riga o‘xshaydi, – uning fikriga qo‘shildi Seryoja. – U tajribali, aqlli va jasur odam, bunisi aniq. Xotini ham bilmasligidan ko‘rinib turibdiki, u juda ehtiyotkor.

– O‘sha Dormidontning kirdikorlarini qanday qilib bilib olsa bo‘larkin? – dedi Ira.

– Harakat qilib ko‘raman, – dedi darrov Taras, – dadamdan surishtiray-chi...

Taras uyiga chiqib ketdi.

– Oyim hech narsa yemayaptilar... – dedi u otasiga.

– Himm... Nima demoqchisan.

– Ko‘ngillariga yoqadigan biron narsa topsak bo‘lar-midi?..

Shulga o‘ylanib holdi:

– Himm... Dormidontdan iltimos qilsakmikin?

– Yaxshi bo‘lardi.

– Himm... Men uning o‘zini uncha yaxshi bilmaymanda, – iqrор bo‘ldi Gerasim. – Irinarxiy bo‘lganda boshqa gap edi, afsus, halok bo‘ldi.

– Irinarxiy amaki uni qayoqdan bilardi?

– Himm... Ignatovkada birga bo‘lishgan ekan.

– Asirlarning lageri joylashgan yerdami?

– Himm... Ehtimol, o‘shandadir. Ha, muncha surishtirib qolding uni? – hushyor tortdi Gerasim.

– O‘zim, – beparvo yelkasini qisdi Taras.

Gerasimning ko‘ngli g‘ash edi keyingi kunlarda. Klaus bilan Ebertning nazaridan qolayotganday, ishonchlarini oqlolmayotgandek tuyulardi. Irinarxiyning o‘ldirilishi va partizanlarning nemis mashinasiga hujumi uni sarosimaga solib qo‘ydi. Bu yoqda qishloqda tarqatilgan varaqalar dard ustiga chipqon bo‘ldi. Balki Moskvani olganlari haqidagi xabar chindan uydirmadir, kim bilsin tag‘in. Kudimov voqeasidan so‘ng u eshigining g‘ijirlashi-yu, ko‘chadagi har bir sharpadan shubhalanadigan, odamlarga ishongisi kelmaydigan bo‘lib qoldi. Bitta-yu bitta ishonadigani Irinarxiydan ham ayrildi. Dormidontni hali yaxshi bilmasdi, shu vajdan ishonmasdi. Unga faqat Yura yoqardi: o‘z kishisi, ishonchli, ishchan, nemislardan ham, partizanlardan ham hayiqmaydi. Faqat bir tomoni Shulgaga o‘xshamaydi, aniqrog‘i yoqmaydi. Ichkilikka tobi yo‘q.

Yosh yigit bo‘la turib, ichmaydi. Ichish tugul og‘ziga ham olmaydi. Ensangni qotiradi. Erkak degan nomga isnod keltiradi. Ko‘rsam ko‘nglim ayniydi, deydi-ya...

Bu yoqda yana yangi g‘alva.

Nemislar Beryozovkada avvalgi safar ushlayolmagan bolsheviklarning qarindoshlarini qidirishardi. Klaus bilan Ebert bu gal Shulgani ham bu ishga jalb etishgandi. U

nemislarning jazo otryadi soldatlari bilan birga uyma-uy yurib qishloq aylanardi, hadeb qo'lidagi ro'yxatiga qarardi, qaramasa ham yod bo'lib qolgandi. Har qalay uch kun deganda besh kishini topishga muvaffaq bo'lishdi. Turgan gap, Klaus norozi edi bundan. Bari bir qancha urinishmasin shundan so'nggi qidirishlar natija bermadi. Tutqundagi besh kishi pravleniye binosiga qamab qo'yilgan, ularni jo'natish vaqti kelgan edi.

– Ishonaman, bular endi o'rmonga, partizanlar huzuriga emas, Germaniyaga jo'nashadi, – dedi Ebert. – Nima deysiz, starosta?

– Himm... Xuddi shunday bo'ladi! – es-hushini yig'ib raport berdi Gerasim.

Shu orada u Yurani ko'rib qoldi va uning yoniga bordi.

– Himm... Partizanlar haqida nima xabar bor?

– Meni partizanlar bezovta qilayotgani yo'q, – dedi Yura.

– Shu yerdagi ishbuzuqilarni eplab tursak ham katta gap.

Qishloq aholisi haqiqatan ham nemislarning farmonlarini mensimasdi – tosh yo'lning qorini tozalashdan tortib, to german armiyasi soldatlari uchun issiq kiyimlar to'plashgacha bo'lgan topshiriqlarni bajarmasdi.

Shulga Yuraning osoyishtaligi va sabot-matonatiga havasi kelardi. Ushlangan besh kishi hamon jo'natilmay turardi. Gerasim nima bo'layotganiga tushunolmasdi.

Birdan uni Klaus chaqirtirib qoldi. Uning oldida Ebert ham bor edi.

– Janob starosta! Vaziyat o'zgardi, – dedi ancha muloyimlik bilan Klaus. – Endi biz qishloqdagi barcha aholini to'plashimiz kerak, tushundingizmi, barchasini! Ishga yaroqli kishilarning hammasini Germaniyaga jo'natamiz. Mayiblar, qariyalar, yosh bolalar kerak emas. Sizga buning uchun qancha vaqt talab qilinadi?

– Himm... Harakat qilaman, – dedi Shulga.

– Sizga uch kun muhlat! – qat'iy ohangda dedi Klaus.

– Tanlab olingan kishilarni ketma-ket o'sha tutqundagi besh kishi yoniga – to'planish punktiga yetkazib bering. Hammasi tushunarlimi?

– Himm... Xuddi shunday, javob oberleytenant!

– Leytenant sizga o'z odamlari bilan yordam beradi, – dedi Klaus Ebertga ishora qilib.

Yoshiga nisbatan ancha semiz bu ofitserni u ich-ichidan yoqtirmasdi. Uning haddan tashqari sergapligi, mahmadonaligi, maqtanchoqligi g'ashiga tegardi. Lekin nachora? Xizmat – xizmat-da!

XX

Martinov aslida Beryozovkadan hech qayoqqa chiqmagan, nemislarning tumshug'i tagida – vayronaga aylangan hammomda joylashib olgan edi. Hammomning yaxshi saqlangan yarmida yashasa bo'ladigan xona bor edi. Xotini kuniga ikki mahaldan unga ovqat olib kelardi.

Bir gal kechasi Yura oldiga kirib keldi.

– Shulganing o'g'li bergan ma'lumotlarga ko'ra Dormidont Irinarxiy bilan birga Ignatovkadagi harbiy asirlar lagerida xizmat qilgan. Lekin muhimi bu emas. Qishloqda yangi kishi paydo bo'lib qoldi. Gans ismli nemis. U grajdan kiyimida yuradi, aslida ofitser bo'lishi kerak. Men uni ikki marta jazo otryadi soldatlari bilan o'rmon yaqinida ko'rdim. Sening uying atrofida ham, Yesinlarning uyi atrofida ham. Hatto mening uyim atrofida ham o'ralashib qoldi. Judayam ehtiyot bo'lishing kerak.

– Ertaga bormoqchi edim. Nikolayev kutyapti.

– Ha, aytganday, Gans ruscha toza va ravon gaplashadi.

– Ogohlantirib qo'yganing uchun rahmat.

Martinov tong yorishini kutmasdanoq qorong'i tunda o'rmonga chiqib olishga qaror qildi. Soat ikki yarimda ehtiyotlik bilan hammomdan chiqib, yaxlagan daryo bo'yiga tushdi va kimsasiz qirg'oq bo'ylab o'rmon tomon yurib ketdi.

Oyoq bosganida qor g'irchillasin deb etiklarining tagcharmiga bir dastadan pichan bog'lab oldi. Martinov qirg'oq bo'ylab yurganda hammayoq tinch edi. Lekin nishab qiyalikdan dalaga chiqishi bilan oldinda osmonni yoritib raketa uchdi. Martinov o'zini tappa yerga tashladi. Bir-ikki minut o'tgach, yer bag'irlab sudralib ketdi. O'rmonga boryo'g'i bir necha qadam qolganda orqa tomondan osmonni yoritib uchgan sarg'ish raketa chirsillab parcha-parcha bo'lib ketdi-da, yerga yetar-yetmas o'chib qoldi. Yana to'xtab, kutib turishga to'g'ri keldi. «Shoshma! Shoshma! Oshiqma! Sabr qil!» – derdi u o'ziga. Uning yo'li bora-borguncha yoritilib turdi desa bo'ladi, o'n qadam yuradi-yu, yalt etib tepasida raketa yorishib ketadi, tappa yerga tashlaydi o'zini, ellik-oltmish qadam yuradimi-yo'qmi, tag'in shu ahvol. Xullas, fashistlar bora-borguncha to'xtovsiz raketalar otib, yo'lini kunduzday yoritib turishdi, nazarida topshiriq muhimligi, vaqt ziqligini bilib, raketachi menga rahm qilyapti deb o'ylardi.

Martinov yana yer bag'irlab sudralib ketdi. Lekin shu payt it vovillagani va yaqin atrofda qorning g'irchillashi eshitildi. O'rmonga bir qadamcha qolganda bir sakragan edi, qandaydir soylikka yiqilib tushdi. Itlarning vovillashi yaqinlashib kelardi. O'zini bildirib qo'ymaslik uchun Martinov nafasini ichiga yutib yotardi. Tun sokinligini buzib, ancha olisdan eshitilgan nemischa gaplashgan ovozlari sal o'tmay tinib qoldi. Martinov yana bir necha minut sabr qilib, quloq solib yotdi-da, o'rnidan turib, tanish o'rmon yo'lini qidira ketdi. Eng xavf-xatarli yo'l orqada qolgan edi.

Lekin Martinovni boshqa narsa shubhaga solardi. Partizanlar lagerini qidirayotgan nemislar asta-sekin o'rmonga yaqinlashib kelishayotgan edi. Bu esa otryad bilan aloqani ming bor qiyinlashtirardi. Lagerga kelgach, Martinov shu shubhalarini Nikolayevga aytdi.

– To'g'ri, aloqa qiyinlashib boryapti, lekin bu hol bizlarning harakatimizga xalaqit bermasligi kerak, – dedi Nikolayev. – Qani, mening yerto'lamda biron soat damingni ol-chi, keyin Shaxovning huzuriga boramiz.

Shaxov Martinovni samimiy kutib oldi.

– Sen nemislar kuchli deyishing mumkin. Bu to'g'ri, – dedi u. – Ammo endi biz ulardan unchalik qo'rqmasak ham bo'ladi. To'rt yuz partizanimiz bor. Shundan uch yuzi faol jangchi. Biz qanday qilib bo'lmasin hamqishloqlarimizni fashistlar tutqunligidan qutqarishimiz kerak. Xo'sh, ayt-chi, ular Germaniyaga qancha odam yuborishmoqchi?

– Bizning hisobimizga ko'ra ellikdan oshiq, – dedi Martinov.

– Demak, operatsiyani o'tkazish uchun biz kamida yuz kishi ajratishimiz kerak bo'ladi. Xo'sh, tutqunlar qamab qo'yilgan joy Klaus, Ebert va boshqa ofitserlarning uyidan qancha masofada?

– Klaus o'ttiz metrcha masofada, Ebert sal nariroqda yashaydi. Lekin uncha uzoq emas. Hammasi bir joyda.

– Ularni necha kishi qo'riqlayapti?

– Soqchilar erta-yu kech navbatchilik qilishadi. Har uyga bittadan soqchi.

– Pravleniye binosi oldida-chi?

– U yerda to'rtta soqchi.

– Juda soz. Demak...

Shaxov asosiy planni ta'riflab bo'lgach, Temirovga so'z berdi:

– Qani, leytenant, tafsilotlari bilan aytib ber.

Temirov Beryozovka xaritasini yozib qo'yib, gap boshladi:

– Biz bir vaqtning o'zida ikkita zarba berishimiz kerak. Biri kolonna katta yo'lga chiqqan paytda to'ppa-to'g'ri kolonnaning o'ziga. Mana bu yerda, yo'lning chap tomonida toshlar bor, shundan foydalanishimiz kerak. Bu ikkinchi zarba bo'ladi. Birinchisi Klaus bilan Ebertning uylariga, maydondagi soqchilarga qaratilishi, nemislarning e'tiborini asosiy zarbadan chalg'itib, o'n-o'n besh minut oldin boshlanishi kerak. Birinchi zarbaga men rahbarlik qilaman. Bevosita tutqunlarni ozod qilish bilan Nikolayev shug'ullanadi. Yana bitta gruppaga tashkil etish kerak. Shartli ravishda uni himoyachi gruppaga deb ataylik. Bu gruppaga o'rmon yoqasida joylashadi va lagerga qaytishda bizni himoya qilib turadi. Bu ishni Konstantin Petrovich o'z zimmasiga oladi.

– Qanday mulohazalar bor? – so'radi Shaxov.

– Ehtiyot shart, aniqlik uchun menda bir fikr bor, – dedi Martinov. – Shuni ham e'tiborga olish kerakki, nemislar kolonnani jo'natish vaqtini boshqa muddatga ko'chirishlari mumkin. Yemelyanov bilan biz eng so'nggi daqiqalarda hammasini qaytadan tekshirib ko'ramiz. Yura politsay sifatida bari bir maydonda bo'lishi zarur, u sizlarga signal beradi. Signal o'rnida karabinini boshi uzra ko'taradi. Pistirmada o'tirgan birinchi va ikkinchi gruppalar bu signalni aniq-ravshan ko'rib olishlari kerak.

– Ma'qul, – dedi Konstantin Petrovich.

Kechasi Shaxov Martinov bilan xayrlashdi.

– Omading kelsin.

– Rahmat.

– Xudo o'zi asrasin.

Shu paytda Temirov bilan Nikolayev har biri o'ttiz kishidan iborat o'z gruppalarini to'pladilar va belgilangan operatsiyani mukammal o'rganib chiqdilar.

Qishloq aholisini jo'natish uchinchi noyabr, ertalab soat sakkizga tayinlangan edi.

Gruppalarning lagerdan jo'nashi o'sha kunning tongiga – soat to'rtga belgilandi. Ertalab havo sovib ketdi. Partizanlar izg'irin tun shamolida tashqariga chiqib, safga tizildilar.

Tong yorishmasdanoq pravleniye oldidagi maydonda itlari bilan jazo otryadining soldatlari va o'nta rezina g'ildirakli arava paydo bo'ldi. Mototsiklchilar yetib kelishdi. Soat o'n minuti kam sakkizda maydonga Klaus, Ebert, Gans, Shulga keldilar. Yura ham shu yerda edi.

Shu paytda Temirovning gruppasi polizlar oralab, bildirmasdan qishloqqa yetib keldi va Ebertning uyi yaqinida pistirmaga joylashib oldi. Klausning uyi sal nariroqda edi. Partizanlar nemislarning ko'chaga chiqib maydonga ketayotganlarini pistirmadan ko'rib turishardi. Uylarning oldida faqat soqchilar qoldi.

Nikolayevning gruppasi o'rmondan katta yo'lga chiqib, toshlar orqasidagi pana joydan yo'lni kuzatardi. Shaxovning gruppasi ulardan nariroqda, o'rmon yoqasida qoldi.

Nemislar tutqunlarni maydonga olib chiqdilar va aravalarga joylashtirdilar. Yura karabinini boshi uzra ko'tardi. Temirov ham, Nikolayev ham buni darhol payqab oldilar.

Ebert soldatlarga qandaydir ko'rsatmalar berardi. Klaus Shulga bilan gaplashib turibdi. Egnida barra yoqali qora charm po'stin, boshiga papaxa kiyib olgan Gans Yuraning oldiga kelib, unga papiros uzatdi, keyin zajigalkasini yoqib, oldin Yuraga tutdi, so'ng o'zi tutatdi. Shu orada kolonna saf tortdi. Kolonnaning oldinida va oxirida mototsikllar, ikki tomonini soqchilar qurshab olgan, yonlaridagi bahaybat itlari esa erinchoqlik bilan aravalardan ko'zlarini uzmay turishardi.

Nihoyat, Klaus oldinga o'tib, qo'lini ko'targan edi, kolonna qo'zg'aldi.

Temirov butun vujudi bilan hujumga shay bo'lib turardi, ammo biroz sabr qilish zarur edi. Oldinda ketayotgan ikkita mototsikl tosh yo'lga chiqib oldi. Ularning ketidan aravalar ergashdi. Birinchi, uchinchi, beshinchi, yettinchi, nihoyat, o'ninchi arava o'tdi. Oxirida kelayotgan uchta mototsikl ham tosh yo'lga chiqdi. Shu payt Temirov o'z gruppasiga xitob qildi:

– Olg'a!

Maydonda bir necha soldat va qorovuldan bo'shagan soqchilar yurishardi. Birdan maydonga qarata avtomatlardan o'q yomg'iri yog'ildi. Ebert bilan Klaus yashagan uylarga yonilg'i solingan shishalar va granatalar tashlandi.

Kolonna bir necha daqiqa tosh yo'ldan oldinga qarab yuraverdi, biroq xarsang toshlarga yetganda to'xtab qoldi. Mototsiklchilar va jazo otryadi soldatlari nima qilishlarini bilmay orqalariga o'girildilar. Itlar uvullay boshladi. Tutqunlardan biri aravadan sakrab tushdi. Xarsang toshlar orqasidan Nikolayevning jangchilari yopirilib chiqib, nemislarni shunday o'qqa tuta boshladiki, to'xtovsiz yog'ilayotgan o'q soqchilarni tutqunlardan ajratib qo'ydi.

Maydonda Klaus o'zini u yoqdan-bu yoqqa tashlab yugurib yurar, Ebert nimalardir deb baqirardi. Gans yer bag'irlab yotib olganicha mo'ljalsiz, taxminlab ota boshladi. Nemis ofitserlarining uylari alanga ichida lovillab yonardi.

– Orqaga qaytilsin! – komanda berdi Temirov va o'z gruppasi bilan polizlar oralab Beryozovkani aylanib o'tdi. Ular Nikolayev gruppasi bilan birlashishlari kerak edi. Endi Temirov tosh yo'lda nima bo'layotganini ko'rmasdi, ammo eshitilayotgan otishma ovozlari va qiy-chuvdan u yerda hamma ish joyida ekanligini bexato bilib turardi. Temirov o'z gruppasini o'ng tomondan tosh yo'lga olib chiqqanida, Nikolayevning jangchilari ozod qilingan tutqunlar bilan birga o'rmonga chekinmoqda edilar. Faqat uchta partizan

nemislarning so'nggi aravalaridan otlarni chiqarmoqda edi. Yo'lda yigirmaga yaqin soldatning jasad, uchta ot va ikkita itning murdasi yotardi. Aftidan, tirik qolgan soldatlar itlari bilan qishloqqa chekinishgan edi.

Quyosh ancha baland ko'tarilib, sovuq tuman orasidan xira yorug'lik sohib turibdi. Shaxovning gruppasi shoshilmasdan yaradorlarni aravalarga joylab, o'rmonga kirib ketishdi. Yaradorlar to'rt kishi edi.

XXI

Klaus bilan Ebert ikki kundan buyon g'azab o'tida yonib, Shulga bilan Yurani ko'z ochirtirmas, negadir ko'proq o'z yurtdoshlari Gansdan alamlarini olardilar. «Men adashgan-ga o'xshayman, – dedi ichida Yura. – Gans hech qanaqa mansabdor shaxs emas, arzimagan odamga o'xshaydi. Bo'lmasa nemislar uni bunchalik oyoq osti qilishmasdi».

Darhaqiqat, bir tomondan, Gans hammaning, shu jumladan Yuraning ham nayida yurar, politsaylar va jandarmlar bilan birga o'rmon yoqalarida izg'ib, partizanlarning izini qidirardi, ikkinchi tomondan, Klaus bilan Ebert oldida xushomadgo'ylik qilardi. Bir qarasang grajdan kiyimida yurar, qorovul xizmatini o'tamasdi, kecha bo'lsa Klausning denshigi bilan birgalashib uyiga o'tin tashib, pechkasini yoqib yurdi. Yura Gansni mast-alast holda ham ko'p uchratgan, ayollar masalasiga kelgandaku, didi po'stak. Beryozovkadagi eng yaramas bir ayol – ishratparast tegirmonchining qarib qolgan qizi Nina garchand Gansdan o'n besh yoshlarcha katta bo'lsa ham u bilan topishib oldi.

Hozir Gans Shulga bilan birga oberleytenantga yangi uy qidirib, qishloq aylanib yuribdi, Klaus starosta bilan Gans topgan uchta uyni yoqtirmadi. Oberleytenant unisi

bo'lmaydi, bunisi yoqmaydi deb inijlik qilavergach, Shulga o'z uyini taklif etgan edi, Klaus qat'iyon rad etdi.

– Yo'q, Ebert bilan biz huv anavi uyda yashaymiz...– dedi qo'li bilan bir uyni ko'rsatib.

Bu uy uncha katta bo'lmasa ham, ancha yangi, urush boshlanishidan sal oldin qurilgan, ilgari kimsan kolxoz raisi Shaxovning o'zi yashagan edi.

Klaus buni bilarmidi, bilmasmidi, Shulga bu yog'iga boshishi qotirib o'tirmadi. Mariya bilan Tarasni yoniga olib, uni saranjom-sarishta qilib qo'yishga shoshildi. Gerasimni shunisi ajablantirardiki, u o'sha to's-to'polondan keyin o'tgan vaqt mobaynida Dormidontni ko'rmagan edi, hatto o'sha kuni – uchinchi noyabrda ham u yo'q edi. «Yo qo'rqqanidan qochib ketdi, – o'ylardi u, – yoki bekinib yotibdi?» Janob ofitserlarni joylashtirib bo'lishi bilanoq, Dormidontning oldiga borib, xabar olishga qaror qildi.

Klaus, baxtsizlik alomini bab-baravar tortgan do'st sifatida Ebertga noliy ketdi.

– Hamma hujjatlarim yonib ketdi...

– Men saqlab qololdim. Xuddi ko'nglim sezgandek o'zim bilan olgan edim, – dedi Ebert.

– Ha, toleyingiz baland, – dedi oberleytenant qovog'idan qor yog'ib.

Gerasim ofitserlarni joylashtirib, Mariya bilan Tarasni uyiga yubordi. U hali maydonga ham yetmagan edi, kimdir chaqirib qoldi. Orqasiga o'girildi. Oldida kapitan Meyerni ko'rdi.

– Men sizni qidirib yuribman, starosta.

Meyer anchadan buyon qishloqda ko'rinmay qolgandi. Har holda tergovni tamom qilganidan buyon Gerasim uni ko'rmasdi. Birovlar uni harakatdagi armiyaga ketibdi desa, boshqa birovlar rayon markazida emish, deyishardi. Mana

endi Meyer bu yerga tashrif buyuribdi. O'tgan kungi voqea munosabati bilan kelmadimikin?

– Himm... Qulog'im sizda, janob kapitan.

– Yuring mening huzurimga, hoziroq! – buyurdi Meyer.

O'zining klubdagi ilgarigi kabinetida kapitan bir necha varaqani chiqarib starostaning oldiga qo'ydi.

– Bu nima degan gap?

«Yashasin Ulug' Oktabrning XXIV yilligi!» – o'qidi Gerasim. Varaqalar qo'lda yozilgan edi. Ochig'ini aytganda Gerasim indinga bayram ekanligini ham esidan chiqargan ekan. Mana endi kelib-kelib...

Meyer uning yonginasiga kelib qulochkashlab shapaloq tushirdi. Gerasim zarbani chidam bilan ko'tardi, lekin kapitan ketma-ket yana uch marta shapaloq tushirdi. Shulga stolga noqulay qoqilib ketib, yiqilib tushdi.

Kapitan endi uni yotgan holida oyog'i bilan tepa boshladi.

– Himm... Himm... Qaysi gunohim uchun? Qaysi gunohim uchun? Qaysi gunohim uchun, axir? – zor qaqshardi qonga belangan Gerasim.

– Hammasi uchun! Hammasi uchun! Ablah, hayvon rus! – deya uni battar savalardi Meyer.

Birdan hammasi jimib qoldi. Kapitan kabinetidan chiqib ketdi. Shulga turishga holi kelmay polda yotardi. Hatto ko'zi ham ilingandek bo'ldi-yu, lekin ikki soldat kirib, uni sudrab olib chiqishdi.

Gerasim uyidagina o'ziga keldi. Ko'zini ochib, peshonasi, boshi bint bilan tang'ib tashlanganini his etdi. A'zoyi badani zirqirab og'rirdi. Mariya, Taras va Ira uning atrofida o'ralashib yurishardi.

– Himm... Tirikmanmi o'zim? – so'radi Gerasim.

– Senga qo'lini ko'targan kim ekan? – yig'lardi Mariya.

– Himm... Buning ahamiyati yo‘q, – dedi qiynalib Shulga. – Tirikmanmi, bas, shuning o‘zi yetadi.

Ertalab ahvoli sal yengillashdi, lekin bir balo-qazo ikkinchisini ergashtirib kelarkan, ko‘cha tomondan kimlarningdir yugur-yuguri, ovozlar va itlarning vovillashi eshitildi.

– Himm... Taras, qara, nima bo‘lyapti u yerda? – dedi u tashvishlanib.

Taras kiyinib ko‘chaga chiqib ketdi. Anchagacha undan darak bo‘lmadi. Nihoyat, u kirib keldi.

– Himm... Nima gap?

Taras indamadi. Gerasimning nazarida uning chehrasida bilinar-bilinmas kulimsirash ko‘ringanday bo‘ldi.

– Himm... Qani, gapir, – dedi baqirib Shulga.

– Klubda, tepasida bayroq... – dedi so‘z topolmay Taras.

– Himm... Qanaqa bayroq?

– Qizil, katta, o‘roq-bolg‘a va besh qirrali yulduz shakli solingan bayroq, – dedi Taras.

– Himm... Bir kami shu edi! – deb yubordi Gerasim.

Taras so‘zida davom etdi:

– Nemislar bayroqni olishga rosa urinishyapti-yu, lekin ilojini qilisholmayapti. Tom sirpanchiq. Ular ko‘pchilik, itlari ham bor. Klaus ham, Ebert ham, hammalari to‘p-lanishgan... Yana bir qora kiyimdagi ofitser bor. Ilgari ko‘rganman-u...

«Himm... Qora kiyimdagisi Meyer, – fahmlab oldi darrov Shulga. Yaxshiyam hozir men u yerda emasman?» Og‘riqdan, alamdand, o‘jizligidan va qahr-g‘azabdan ingrab yuborishiga sal qoldi.

Gerasim bir necha kun yotib qoldi. Oldiga Yuradan boshqa hech kim kelmadi. Nemislar uni unutib qo‘ygandek edi. Dormidontdan ham dom-darak bo‘lmadi.

«Tuzalganimdan keyin Dormidontnikiga borib kelish kerak», – dedi o'ziga-o'zi.

Oxiri yara-chaqalari tuzalib, bintlari ham olindi.

– Himm... Bir aylanib kelay, – dedi u Mariyaga, – endi ko'chaga chiqsam ham bo'ladi.

U o'g'rincha ko'chaga chiqayotgandek atrof-tevarakka olazarak alanglardi. Mana Irinarxiyning uyiga ham yetib keldi. Dormidont shu yerda yashardi. Gerasim eshikka qo'l uzatgan edi, bemalol ochilib ketdi. Gerasim bitta-yu bitta bo'lsa ham ancha keng xonaga kirdi.

– Himm... Shu yerdamisan?

Dormidont stol yonida bahuzur choy ichib o'tirardi.

– Salom, – dedi u Shulganing oldiga kelib.

– Himm... Qayerlarda yo'qolib yuribsan, – so'radi Gerasim. – Butun qishloqni aylanib chiqdim, topolmadim... – yolg'on ham qo'shib qo'ydi.

– Shu yerda edim, qayoqqa ketardim. O'q yomg'irida qolishni xohlamadim, chaqirishga meni hech kim chaqirmadi ham, – dedi Dormidont. – O'tir, choy ich. Balkim o'tkirrog'ini ko'ngling tusar? Unisidan ham bor...

– Himm... Yo'q demayman, – dedi Shulga. – Ish boshdan oshib yotibdi. Keyingi kunlarda anchagina g'alvalar ham tushdi boshimga...

– Bilaman, bilaman, xo'p gap eshitib olibsan. Borib ko'rmaganim uchun xafa bo'lma... O'tir, qani, o'tir!

Dormidont bufetdan bir shisha ochilgan «Moskovskaya» arog'i bilan gazak bo'ladigan nimanidir olib stolga qo'ydi.

– Himm... Qara-ya, hali senda o'zimiznikidan bor ekan-a? – Taajjublandi Shulga xush yoqib. – Ochig'ini aytsam, chet eldan keltirilganini yoqtirmayman, har holda o'zimiznikidan yaxshisi yo'q. Sen qayoqdan topa qolding o'zi?

– Bu, o'sha Ignatovkadan. U yoqqayam nemislar allaqaysi o'zimizning zavodimizdan olib kelishgan edi.

Ular uzoq o'tirishdi, shoshilmasdan yeyishdi, ichishdi, choyxo'rlik qilishdi, lekin Dormidont biron marta Beryozovkada sodir bo'lgan voqea haqida so'ramadi. Shulga esa o'zicha gap boshlashni istamasdi, keyingi kunlarda haddan tashqari ko'p g'alvalarni boshidan o'tkazgan edi.

– Ha, Gerasim, Moskvada har qachongidek majlis ham bo'libdi, parad ham, bilasanmi? – kutilmaganda so'rab qoldi Dormidont.

– Himm... Bo'lmagan gap! Qayoqdan bilasan?

– Ha, bilaman, – mujmal javob berdi Dormidont. – Mana shunaqa gaplar, og'ayni...

Shulga hayratda qoldi. Ancha vaqt o'tgandan keyingina so'radi:

– Himm... Bilganlaringni aytib ber. Batafsilroq.

– Nimasini batafsilroq deysan. Parad Qizil maydonda bo'libdi. Bir kun ilgari majlis o'tkazilibdi.

– Himm... Shunaqa degin, – Dormidontning so'zlarini ma'qullab turdi Shulga. – Oxiri nima bo'larkin, nima deysan?!

Dormidont jim qoldi.

– Agar nemislar g'alaba qilmasa, sen bilan mening kunimiz tamom deyaver, – dedi nihoyat u.

Eshik taqilladi. Dormidont ochdi. Ostonada Taras turardi.

– Dada, men sizga keluvdim, Seryojaning ahvoli yomon. Zotiljamga o'xshaydi. Biron dori topishga yordam bering.

– Men yordam beraman, – dedi otasi o'rniga javob berib Dormidont, – menda bor...

U shkaf tomon yurdi, qandaydir poroshok va tabletkalar oldi.

– Mana, o'g'lim...

– Voy, rahmat! – deb yubordi Taras. – Xo‘p, men ketdim, uning ahvoli juda og‘ir...

Taras uydan chiqqanida muyulishda Gans bekinib turganini payqamadi.

XXII

Seryojaning ahvoli haqiqatan ham og‘ir edi. Navbatdagi topshiriqdan qaytayotib, u o‘rmondan chiqdi-da, tanish yolg‘izoyoq yo‘ldan yurib bordi-yu, o‘rmon etagida, qishloqqa kiraverishda taqqa to‘xtab qoldi. Bir necha qadam orqasiga qaytib, katta qarag‘ay panasida biqinib, qishloqni kuzata boshladi. O‘rmon ichida unchalik sezilmagan izg‘irin shamol bu yerda bo‘ralab yuzga urar, burnini uchirib ketguday bo‘lar, qalin qor ichida yer tepkilab turishdan boshqa chorasi yo‘q edi.

Qishloqda bir necha soatda vaziyat tamomila o‘zgarib, qadam bosish ham amrimahol, xavfli bo‘lib qolgandi. Butun qishloq jazo otryadining soldatlari va ularning itlari bilan to‘lib ketgandi. Seryoja qorong‘i kechada tintuv qilingan uylardan chiqayotgan qiy-chuv, yig‘i-sig‘i, dovvoy ovozlari, go‘daklarning bag‘ri-dilni ezib, yuraklarni larzaga soladigan chinqiriqlarini, fashistlarning quturib, baqirib so‘kishlari, haqoratlarini, itlarning uvullashini eshitib, qor ichida biqinib yotardi. Tong yaqinlashgan sari uning uchun xavf-xatar ham ortib borardi, nima qilishini, qanday qilib uyga yetib olishni o‘ylab, sarosimaga tushar, yo‘l axtarardi.

Qishloqqa bir tomondan, faqat daryo tomondan yetib olish mumkin degan qarorga keldi Seryoja. Qor qalin, qirg‘oq qiyalik, yurish nihoyatda qiyin bo‘lishini bilsa hamki, boshqa chora yo‘q edi. Ehtimol, hali yurishmas, emaklab, sudralib yurishga to‘g‘ri kelishini ham o‘ylab

qo'ygandi. Buning ustiga tong yorisha boshlagani yomon edi. Qimirlamay yotib, uvishib qolgan oyoqlari hadeganda yozilavermadi, unga sari asabiylashib, tez harakat qilardi. Qiyalik tik kelgan joylarda bir-ikki marta sirg'anib, pastga tushib ketdi. Shunda kimdir o'rgatgan usul esiga tushib, qorga yumalab siljiy boshladi. Shu yo'sinda ancha yergacha bordi. Hovlisi shundoq ko'rinib qolganida, birdan oyoqlari osti o'pirilib, qorning ostiga tushib ketdi, dodlab yuborishiga sal qoldi, bo'ynigacha qorda turganicha, chiqmoqchi bo'lib uringan edi, birdan quduq bo'yida bo'yniga avtomat osgan fashist u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotganini ko'rdi.

Seryoja qor ostida ancha yotib payt poyladi. Uning qaynoq nafasi, yurak hovri bilan qor ham eridi, yer ham ilidi. Endi nima qilsin? Nafasini chiqarmay qor ostida yotaversinmi? Yoki fashistning orqasidan borib, o'zini uning ustiga tashlasin-u, bo'g'ib qo'ya qolsinmi? Seryoja shu xayolda butun vujudida qahr-g'azab bilan mardlik-jasorat jo'sh urib turgan daqiqada fashist soldati Gerasimning uyiga kirib ketdi. Seryojaning fikri-o'yi yashindek tez o'tdi-yu, qulay fursatdan epchillik bilan foydalanishga undadi. Qushday uchib hovliga kirib ketdi va... bu yog'ini o'zi bilmaydi, Ira biladi, u hammasidan voqif, hammasiga balogardon. Seryoja eshikdan kira solib o'zini karavotga tashlaganicha, olov-otashday yonib yotibdi. Boya qor ichida turganida yer ham, qor ham isiganday tuyulgani hammasi isitmaning xuruji ekan. Mana harorati tobora ko'tarilib, betoqat bo'layotibdi, ko'rpasini ochib tashlaydi, tugmalarini yechaman deb uzib yubordi, o'zini bilmaydi, bo'g'ilib-bo'g'ilib alahsiraydi, ingraydi, tishlarini g'ijirlatadi. Tomog'i qaqrab ketgani bo'g'iq ovozidan bilinib turibdi-yu, suv deyolmaydi. Ira boshini ko'tarib, bir-ikki ho'plam suv ichirdi. Ira juda mushkul

ahvolda qolgan mana shu damlarda Taras joniga ora kirdi. Qayoqdandir dorilar topib keldi. Iraning nazarida akasi ana shu doridan keyin ancha yengil tortgandek bo'ldi.

Ertasiga Taras Seryojaga tovuq sho'rva olib keldi.

– Oyim berib yubordilar. Oyimlarga dadam Dormidont orqali topib keltiribdi, – dedi Taras.

Ira sho'rvani isitish uchun oshxonaga chiqib ketdi.

– Qanaqasan, yaxshi bo'lyapsanmi?

– Sening yordaming bilan, – kulib qo'ydi Seryoja.

Shu payt kimdir derazani taqillatib qoldi. Taras deraza oldiga kelib, sal yax tortgan oynadan tashqariga qaradi.

– Gans-ku, – dedi hayron bo'lib Taras va fortochkani ochib so'radi: – Sizga nima kerak?

– Iraga ayt, chiqsin, – dedi Gans sovuqda yer depsinib.

– Ira, seni so'rayapti, – uni chaqirdi Taras.

Ira hayron bo'lib deraza oldiga keldi.

– Bu yoqqa chiq, juda zarur ish bor, – dedi Gans.

– Hozir, – ikkilanib javob berdi Ira va kiyinib tashqariga chiqdi.

– G'alati-ku, nega unga Ira kerak bo'lib qoldiykin? – hayron bo'ldi Seryoja.

Taras yana derazadan tashqariga qaradi.

– Ko'rinishmayapti. Na Ira, na Gans.

Seryoja birdan hushyor tortdi:

– Eshityapsanmi? Menimcha Ira dodlayapti...

Taras eshitishga eshitmadi-yu, lekin bari bir shapkasini kiyib, yashindek otilib, tashqariga chiqib ketdi. Hammom tomon ketgan oyoq izlarini ko'rdi va o'zini o'sha tomonga urdi. Hammom eshigini qattiq tortib ochib yuborgan edi, bo'rdoqiga boqilgan cho'chqaday gavdasi bilan Iraning ustiga minib olib, qo'li bilan uning og'zini yopishga urinayotgan, kiyimlarini yulib yechayotgan Gansni ko'rdi.

– Ablah! – deya baqirib ichkariga tashlandi Taras.

Gans pishillar, hech narsa qulog'iga kirmayotgandek edi. Ira uning ko'kragiga yopishib olib, jon-holatda chinqirardi, unga qarshilik ko'rsatardi. Taras jahl va g'azab otashida qo'liga duch kelgan boltaning sopi bilan fashistning boshiga shunday urdiki, Gans qonga belangan holda shilq etib yerga yiqildi, hushidan ketdi. Taras chaqqonlik bilan uning avtomatini yelkasiga taqib oldi-da, Irani turg'azdi. Rangida rang qolmagan Ira mast odamday gandiraklab ketdi.

– Nima bo'ldi?

– Ko'rmayapsanmi, yopishib oldi.

– Yur, ketdik! Qani, qo'lingni ber! – Taras uni qo'ltiqlab oldi.

– Endi nima bo'ladi? – Ira dahshat ichida Gansga qarab qo'ydi, – O'ldirib qo'ydingmi uni? Tasavvur qilyapsanmi...

– O'ldirdimmi, o'ldirmadimmi – bari bir go'r, – dedi darg'azab bo'lib Taras.

– Unday dema. Axir, biz... – Ira jim qoldi. – Qarab ko'r-chi, balki tirikdir?

– Keyin bir gap bo'lar, – dedi Taras. – Yur, bu yerdan ketaylik.

Taras darhol ko'chaga chiqib, Yurani chaqirib keldi. U kelganda Gans hamon hushsiz yotardi. Uning oldida nima qilishini bilmay hayron bo'lib turgan Yura fashistning boshidan bir paqir sovuq suv quydi. Shundagina uning ko'zi ochildi. Yura uni devorga suyab, yuzlaridan oqib tushgan qonni artди va boshining yarasiga bir parcha latta qo'ydi. Gans hamon mast edi. U Yurani ko'rgan sari qo'rqib ketardi. Chunki Yura uning jirkanch qilmishlarini boshlig'i Ebertga yetkazguday bo'lsa, uni jahannamga, jilla bo'lmaganda frontga yuborishiga aqli yetardi.

– Qani, senlar borib o‘rin tayyorlanglar, – dedi Yura Tarasga. – Aroq bormi?

– Aroq nima qilsin bizda, yo‘q, albatta...

– Bo‘lmasa, Taras, sen g‘izillab qayoqdan bo‘lsa ham aroq topib kel. Hozircha uni bu yoqqa ko‘chirib yotqizay. Keyin bir gap bo‘lar.

– Dadamga borib ko‘raymi? – dedi Taras.

– Dadangga bo‘lsa dadangga bor, lekin nimaga kerakligini aytma, – maslahat berdi Yura. – Buning avtomatini ham qaytib ber. Hoziroq!

Taras aroq qidirib yurguncha Yura Gansning gavdasini hammomdan sudrab uyga olib keldi. Gans nimalarnidir g‘uldirar, ko‘zini ocholmasdi.

– Buncha og‘ir, to‘ng‘iz, – dedi Yura Gansni poldan ko‘tarib, karavotga yotdizarkan. Seryoja bilan Ira unga yordamlashdilar.

– Latta bilan sovuq suv olib kel, – dedi Yura Iraga.

Ira g‘izillab oshxonaga chiqib ketdi. Yura u olib kelgan lattani kuvachadagi suvda ho‘llab, Gansning peshonasiga qo‘ydi. Gans sal qimirlab, ko‘zini ochdi-yu, yana yumib oldi.

– Endi, Ira, shoshilmasdan, nima bo‘lganini bir chekkadan aytib ber, – dedi Yura. – Eng muhimi u senga nima demoqchi edi...

– Bilasizmi, u meni chaqirdi. «Muhim ish. Sergey qalay?.. Undoq bo‘lsa senga Shaxovdan topshiriq bor», dedi. Meni hammomga olib kirdi. Ayg‘oqchi u, ig‘vogar! O‘zini otryaddan kelgan o‘zimizning odamimiz qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Men uning ig‘vosiga uchmadim. Hayron bo‘lgan kishiday unga tikildim. U juda mast edi. Buni menga yopisha boshlaganidan keyingina payqadim. Meni ushlab oldi, paltomni yulib olmoqchi bo‘ldi... Chinqirib dod soldim. Shu payt, Taras...

– Xo‘sh, xo‘sh, – derdi Yura, – ushlab oladigan qaltis joyi chiqib qoldi. Demak, o‘zini Shaxovning odami qilib ko‘rsatibdi. Juda soz. Nikolayevning nomini ham tilga olibdi. Fedotov haqida ham endi u yashirinib yurishga majbur debdi...

Taras ikki shisha nemis shnapsi olib keldi.

– Dadamdan so‘roqsiz oldim. Hech kim ko‘rmadi. Oz emasmi?

– Nima deyapsan, oz emas, ko‘plik ham qiladi, – Yura Iradan suvni yangilab berishini iltimos qildi. – Sovug‘roq bo‘lsin, – dedi. Gansning peshonasidagi lattani qayta-qayta yangilab, yarasini artib turdi.

– Qayerdaman o‘zi?

Gans zo‘rga ko‘zlarini ochdi.

– Qayerda bo‘lishingizning ahamiyati yo‘q, kimlar orasida bo‘lishingiz muhim, – dedi Yura. – Xo‘sh, ahvolingiz qalay?

– Yomon, – iqrar bo‘ldi Gans va bolalarga ko‘zi tushib so‘radi: – Bular shu yerdamidi?

– Ular bizga xalaqit bermaydi, – dedi Yura, – mana siz g‘oyat katta xato qilib qo‘yibsiz.

– Qanaqa xato? – tushunmadi Gans.

– Siringizni fosh qilib qo‘yibsiz-ku...

– Qanaqa sir?

– Mayli, hozircha bundan gapirmaylik. Yaxshisi, ichaylik, – taklif qildi Yura, – Ira, marhamat qilib, bizga quyib bering-chi! Yo‘q, ryumkalargamas! Yaxshisi stakanlarga quying...

Gans yotgan karavot yoniga Ira ikkita stakan, Taras shisha olib kelishdi.

– Yana, yana, – deb turdi Yura. – Bunaqa ishdan keyin to‘latib ichsa ham bo‘ladi.

U to'latib quyilgan stakanni Gansga tutdi, urishtirdi, o'z stakanini oxirigacha ichdi.

– Qani, Gans, ichib yuboring!

Gans stakanini bo'shatdi.

– Oh, zakuska ham bo'lganda edi! – deb qo'ydi.

Ira unga bir burda qora non uzatdi. Yuraga ham tutgan edi, u olmadi.

– Xo'sh, qanday qilib men sirimni fosh qilib qo'ygan ekanman?

– Qanday qilib deysizmi? Chakagingiz ochilib, Shaxovning topshirig'i haqida aytib qo'yibsiz, – dedi Yura qat'iy sur'atda.

– Axir, men... men...

– Sen ekaningni ko'rib turibman!

Gans bolalarga ko'z qirini tashladi-da, tutaqib gapirdi:

– Tushunsangiz-chi, axir, men hammasini o'shalarni... Yesinlarni fosh qilish uchun to'qiganman. Nazarimda ular...

– Qani, yaxshisi yana ichaylik, ish haqidagi gaplar qochmas, – taklif qildi Yura. – Ira! Stakanlarga quy!

Ira uning iltimosini bajo keltirdi.

– Sizning xotirjamligingiz uchun! – dedi Yura, yana urishtirdi.

Gans yuzlarini burishtirib, stakanni bo'shatdi, lekin nonga qo'l urmadi. Yura bo'lsa, aksincha, bir burda nondan tishlab oldi.

– Bularning oldida gapirishni istamayman, chiqib ketishsin, – iltimos qildi Gans.

Yura kulimsirab qo'ydi.

– Qani, bolalar, bir aylanib kelinglar! Seryoja, sen qo'shni xonaga chiqib tura tur, kasaldan keyin tashqariga chiqishing...

Taras bilan Ira kiyinishdi. Seryoja xonadan chiqib ketdi.

– Ana endi yolg‘iz o‘zimiz qoldik, Gans, – birinchi bo‘lib so‘z boshladi Yura. – Qani ro‘y bergan ahvolga o‘zingiz to‘g‘ri baho berib ko‘ring-chi. Bordi-yu, sizning Yesina bilan bo‘lgan suhbatingizni Klaus bilib qolsa, u nima deb o‘ylaydi? Avvalo, siz Shaxovning agenti ekansiz deb o‘ylaydi...

– Lekin men tushuntirib beraman! – yalindi Gans, – men vermaxt soldatiman!

– Nima, Germaniyada antifashistlar yo‘qmi? Germaniya armiyasida ham antifashistlar yo‘q deysizmi? – so‘radi Yura. – Shunga kafillik bera olasizmi?

– Ehtimol bordir ham...

– O‘zingizning agent emasligingizni qanday qilib tushuntirib berasiz? Axir, Klaus ham, Ebert ham sizga bunaqa topshiriq berishmagan-ku. Siz o‘zingiz nemissiz va nemislarning ishda puxta odamlar ekanligini yaxshi bilasiz. Xo‘p, aytaylikki, siz haqiqatan ham Shaxovning agentisiz...

– Shunga ishonasizmi? – uning so‘zini bo‘ldi Gans.

– Faraz qilaylikki, ishonmayman, lekin shubha qilaman, – tushuntirdi Yura. – Ehtimol, siz rostdan ham agentdirliz! Partizanlar hiylagar bo‘ladi!

– Bekor gap! – deb yubordi Gans.

– Bekor gap emas, Gans, haqiqat bu. Klaus bilan Ebert partizanlarning harakatlaridan shu darajada darg‘azab bo‘lyaptilarki, siz o‘z tashabbusingiz bilan ish tutganingizga ishonishdan ko‘ra, sizning agent ekanligingizga ko‘proq ishonishadi.

– Ahmoq ekanman! – dedi g‘amgin ohangda Gans. – Qanaqa ahmoqman-a!

– Ey, juda ham oshirib yubordingiz-ku. – Kulimsiradi Yura. – Men sizning do‘stingizman va buni amalda isbot qila olaman.

– Qandoq?

– Bu juda oson. Birinchidan, siz bilan sodir bo‘lgan voqea hech kimga yetib bormaydi. Men qizchani qo‘rqitib qo‘yaman. U ham g‘ing demaydi. Biron hodisa yuz berib qolgan taqdirda siz menga yordam berasiz.

Yura Gansga diqqat bilan tikildi. Gans gap nimada ekanligini tushunib olishga harakat qilar, lekin tagiga yetolmasdi.

– Men nima qilishim kerak? – yuragi dov bermasdan so‘radi u.

– Hozircha hech narsa, – tushuntirdi Yura. – Lekin ham-mamiz xudoning bandasimiz. Men ham mushkul ahvolga tushib qolishim, ana o‘sha paytda sizning yordamingiz zarur bo‘lib qolishi mumkin. Sizni bilmadim-u, o‘zim ba‘zan Klaus bilan Ebertdek ofitserlarning cho‘rt-kesarligidan qo‘rqaman. Ular u yoq-bu yog‘ini surishtirmay ish tutishlari mumkin.

– Men ham ulardan cho‘chiyman.

– Qani, uchinchisini ko‘taramizmi? Bizda, uchta bo‘lsa, xudoga yoqadi degan gap bor.

– Mayli...

Yura Gansga va o‘ziga yana yarim stakandan quydi.

– Menga ko‘proq bo‘lsa ham mayli, – dedi Gans. – Boshim tars yorilay deyapti.

– Qani, ko‘tardik! – dedi Yura, uning stakaniga yana quyib.

Oxirigacha ichishdi. Yura stoldagi nonni olib, baravar ikki bo‘lak qilib kesdi-da, Gansga tutqazarkan dedi:

– Demak, kelishdik-a?

– Yalinaman, yolvoraman, mening sirimni fosh etmang!
– iltimos qildi Gans.

– So‘z beraman, – dedi Yura. – Endi, qani turolasizmi? Men kuzatib qo‘yaman.

Noyabrning boshlarida Durasovo, Beryozovka, Ignatovka va rayondagi boshqa qishloqlarning ko'chalarida bino devorlariga yopishtirilgan, daraxtlarga qoqilgan e'lonlar paydo bo'ldi:

«17 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan erkaklarning tosh yo'llar va qishloq yo'llarida yurishlari man etiladi. Yo'llarda qo'lga tushgan kishilar lagerga jo'natiladi. Qo'lida quroli bo'lgan shaxslar esa partizan sifatida otib tashlanadi.

Partizanlarga qay yo'l bilan bo'lmasin ko'maklashgan, ularni yashirgan yoki ularga boshpana berib, oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan shaxslar o'zlari partizan hisoblanadi.

Armiyaga va harbiy ma'muriyatga qarshi qaratilgan yovuz niyatlar haqida, ishbuziqlik niyatlari va bu niyatlarni amalga oshirish, ayrim partizanlarning yoki partizanlar to'dasining, parashutchilarning paydo bo'lishi haqida ma'lumotga ega bo'lib, bu haqda eng yaqin joylashgan nemis harbiy qismiga xabar bermagan shaxslar o'lim jazosiga tortiladi, ularning uylari buzilib, yer bilan yakson qilinadi».

13-noyabrda Gitler armiya gruppalari qo'mondonlarini Orsha shahriga to'pladi. Moskvaga yangi hujum boshlash haqida buyruq berdi. Bosh shtabdagi ba'zi oliy ofitserlarning Moskva ostonalarida nemis qo'shinlarining 1942-yil yozigacha mudofaaga o'tishi haqidagi fikrlarini qat'iyon rad etdi. Quruqlikdagi qo'shinlar qo'mondoni Brauxich, bosh shtab boshlig'i Galder va «Markaz» armiya gruppasining qo'mondoni Bok Gitlarning fikrini yoqlab chiqdilar.

Gitler Moskvani shunday qamal qilish kerakki, bitta ham rus soldati, Moskva aholisidan biron kishi – xoh erkak, xoh ayol, xoh biron bola ham shahardan chiqolmasin, dedi. Fyurer Moskvani va shahar atrofidagi joylarni maxsus inshootlar yordamida suvga bostirish uchun zarur tayyorgarlik ishlari ko‘rilganini ma’lum qildi. Moskva o‘rnida katta dengiz hosil qilinib, sovet davlatining poytaxti yer yuzidan abadiy yo‘q qilib yuboriladi, dedi. Gitler tobora tutaqib-tutaqib gapirdi-da, birdan kayfiyati buzilib, boshqacha qarorga keldi, qamaldagilarning shahardan chiqib sharqqa ketishlari uchun qamal halqasida yo‘lak qoldirish, o‘zlari Moskvani ishg‘ol qilib, shu tarzda millionlab kishilar uchun oziq-ovqat sarflash zaruratidan xalos bo‘lishga qaror qildi. Gitler Moskvani aylanma temiryo‘l bo‘ylab qo‘shinlarning zich halqasi bilan qurshab olish haqida ko‘rsatma berdi. Gitlarning buyrug‘iga ko‘ra, to bo‘m-bo‘sh qolgan shaharni egallash haqida komanda berilmaguncha bironta nemis soldati ana shu qurshov chizig‘ini kesib o‘tmasligi lozim edi.

Moskvaning shimoli-g‘arbida Volokolamsk – Klin va Istra – Solnechnogorsk tomonlarida o‘n uch diviziyadan iborat ikkita tank armiyasi hujumga o‘tishi lozim. Tula – Kashira tomonida shaharning janubi-g‘arbida to‘qqiz diviziyadan iborat tank armiyasi zarba berishi kerak. «Markaz» armiya gruppasining harakatdagi kuchlari shimolda va janubda maxsus ajratilgan ikkita armiyani himoya qilishi zarur edi. G‘arbiy frontning asosiy kuchlariga ro‘paradan hujum qilib, ularni bo‘lib-bo‘lib yuborish va yakson qilish to‘rtinchi armiyaga yuklatildi.

Nemislar bir necha tank diviziyasini frontning boshqa tomonlaridan olib, Moskva tomonga ko‘chirdilar, armiya

korpuslariga madad uchun qo'shimcha tanklar va aviatsiya ajratdilar.

Raykom sekretari Kolosov to'plangan bu ma'lumotlarning hammasini darhol partizan otryadi qo'mondonligiga xabar qildi. Nemislarning Moskvaga yangi hal qiluvchi hujumi boshlangan kunlarda dushmanga qarshi bir necha jiddiy operatsiya o'tkazishga qaror qilindi.

– Esingizdami, – dedi Shaxov Kolosovga, – beryozovkalik bolalar starostaning va qatl etilgan Irinarxiyning do'sti Dormidont haqida axborot berishgan edi. Biz buni aniqladik, u hech qanaqa Dormidont ham emas, Sobolyak ham. Uning asl familiyasi Ditrix, Gustav Ditrix. U ruslashib ketgan nemislardan. Otasi revolutsiyagacha Litvada, Volga bo'yida va Toshkent yaqinida, Chirchiq bo'yida katta yersuv mulkiga ega bo'lgan serfarzand pomeschchik o'tgan. O'ttiz yettinchi yilda Ditrix siyosiy jinoyat bilan qamoqqa olingan, lekin lagerdan qochgan va qirqinchi yili nemislar tomonidan bosib olingan Polshaga borib qolgan. U yoqdan Germaniya armiyasi bilan bizning mamlakatimizga kelgan. Nemislar uni yashirin ish olib borishga, aniqrog'i Ignatovkadagi harbiy asirlar lagerida ig'vogarlik ishiga jalb etmoqchi bo'lishgan. Lekin asirlar uni fosh qilib, o'zlari qochib ketganlar. Aytganday, shulardan uchitasi bizga kelib qo'shildi. Ditrix do'sti Irinarxiy bilan topishib, Beryozovkada joylashib qolgan. Uni qatl etish zarur degan fikrimiz bor.

– Juda to'g'ri fikr, – quvvatladi Kolosov. – Operatsiyalardan birini Ignatovkada o'tkazishni mo'ljallaganingiz ham to'g'ri. Garchand Ignatovka bu yerdan ancha olisda bo'lsa hamki, asirlar lageriga hujum qilish kechiktirib bo'lmaydigan ish.

Stol ustidagi shamchiroq xiragina yonib turardi. Seryoja o'z olovida o'zi erib, umri tugab borayotgan, nuri birgina xonani ham yoritishga ojiz bo'lgan shamchiroqqa tikilib, g'amgin o'tirardi. Zoya Andreyevnaning g'arib umrini ana shu o'chib borayotgan shamchiroqqa o'x-shatardi. Uyning boshqa xonalari, dahliz va ayvon ham qop-qorong'i, uy ichi og'ir sukunatda edi. Taras bilan Iraning ko'zlari jiqqa yosh, boshlarini quyi solib, og'ir musibatda ovozlarini chiqarmay, yum-yum yig'lar edilar. Do'stlar eng yaqin, eng qadrdon, eng mo'tabar kishilaridan judo bo'lmoqdalar.

Bolalar kechasi bilan Zoya Andreyevna yonidan jilmay, kasallik bilan olishib chiqdilar, ko'chma hospital doktori qoldirib ketgan dorilardan ichirdilar, hushidan ketgan paytlarida nashatir spirtidan hidlatdilar. Bemor dam-badam o'ziga kelib, o'zidan ketib turdi, tong g'ira-shirasigacha og'riq azobida ingrab chiqdi.

Gerasim bilan Mariya qo'shni xonada yotishardi. Aftidan, yaxshi uxlolmadilar. Shulga bir necha marta eshikni qiya ochib, bolalardan so'radi.

– Qalay?

Bolalar yelkalarini qisib qo'yardilar. Zoya xola uxlamadi, lekin ko'zlari yumuq, jim yotardi, tez-tez bo'g'ilib yo'talardi. Ertalabga borib ko'zlarini katta-katta ochdi-da, o'g'lini chaqirdi.

– Tarasik, Marfa xolangni aytib kelsang-chi. Taniysan, uyi huv qirg'oq qiyaligida...

– Nimaga oyi?

– Zarur ishim bor, o'g'lim.

Yarim soat o'tar-o'tmas Taras qaddi-qomati kelishgan, hali qarimagan, katta-katta ko'zlari qizarib ketgan, qo'llari kirchinikiga o'xshagan xolani boshlab keldi.

– O'tir, Marfusha, so'zlarimga quloq sol, – dedi zo'rg'a-zo'rg'a Zoya Andreyevna. – Vaqti qazoyim yetib, olamdan ko'z yumsam, o'zing yuvib, o'zing kiyintirgin meni. Popimiz ketib qolgan, saloti janozamni ham o'zing o'qirsan. Eringdan iltimos qil, tobut yasasin. O'zing bilasan. Gerasimga ishonib bo'lmaydi. Mana bolajonlarim senga qarashar... Mana, sarf-xarjim, o'limligim... – u qiynalib qo'lini yostiq tagiga suqib ko'rsatdi. – Men sendan roziman.

Taras sekingina o'ksib yig'lardi. Seryoja bilan Ira tosh qotib o'tirishardi.

– Qaqshab, yig'lab ich-etlaringni yemanglar, bolajonlarim! Sizlarning hali o'n gullaringdan bittasi ham ochilmagan. Men bo'lsam, xudoga shukr, azobdan qutuldim...

Soat sakkiz yarimga borib, Zoya Andreyevna ko'zlarini yumib oldi, hushidan ketdi, qayta o'ziga kelmadi, ko'zlarini ham ochmadi, olamdan o'tdi.

Sovuq qishning uzoq kechasini betinim oqqan ko'z yoshlari bilan o'tkazgan Taras ertalab otasining oldiga kirib, unga dahshatli xabarni yetkazdi. Gerasim o'g'liga lom-mim demay, imirsilab o'rnidan turdi-yu, pastki xonaga tushib, xotiniga sovuq nazar tashladi, bir daqiqa uning boshida turib, vidolashdi, so'ngra orqasiga o'girilib, Tarasga ham, Seryoja bilan Iraga ham qaramay, qovog'ini solganicha chiqib ketdi. «Tosh yurak», – dedi ichida Taras. «Xoin», – dedi ichida Seryoja. Ira bo'lsa qahr-g'azab bilan uning orqasidan baqraygancha qarab qoldi.

Mariya Durasovoga jo'nashni mo'ljallab qo'ygan edi. Zoya Andreyevnaning vafoti ham uning rejasini o'zgartirmadi. Gerasim yalinib-yolvorardi:

– Himm... Ketib qolma, Mariya! O'tinaman!

– O'zing bilasan-ku, bormasam bo'lmaydi. So'z berganman, vassalom! – deb turib oldi Mariya. Otni aravaga qo'shib, jo'nab ketib qoldi.

Tobutni chanaga solib, qabristonga olib borayotganlar orasida Gerasim ko'rinmadi. Shu paytda u dala gospitalini joylashtirish bilan ovora, qishloqni gir aylanib yurardi. Beryozovkaga yarador nemislar ortilgan oboz kelgan va fashistlarning dafn marosimi bilan ishlari yo'q edi. Marosimda qatnashgan yosh-u qari ich-ichidan Gerasimga la'natlar o'qidi.

Ko'pchilik rus qishloqlaridagidek eski, oddiygina, uncha qarov ko'rmagan qabristonda bor-yo'g'i bir nechagina qabrtosh bo'lib, ko'p qabrlarning ustida qiyshayib chirib ketgan, bo'yalgan va bo'yalmagan, yog'ochdan yasalgan va zang bosib ketgan temir xochlar ko'zga tashlanardi, onda-sonda atrofi panjara bilan o'rab olingan qabrlar uchrab turar, ba'zi qabrlar cho'kib ketgandi. Yolg'izoyoq yo'llarni oppoq qor bosib yotibdi. Urush boshlangandan buyon bu yerda yana yigirmatacha yangi qabr paydo bo'lgandi. Ular hammasi qabriston qiyaligining eng chekkasida joylashgan bo'lib, Seryoja bilan Iraning onalari ham shu yerga dafn etilgan edi. O'ng tomonda, ellik metrcha narida butunlay boshqacha qabriston – ustiga randalanmagan qayin yog'ochidan yasalgan xochlar o'rnatilgan, hammasi paradda saf tortib turgandek qator tizilgan bir xil qabrlar – yangi nemis qabristoni joylashgandi.

Dafn marosimida qatnashuvchilar uncha ko'p emas. Ular qabristonga yaqinlashib qolishganda:

– Shnayder esingdami? – so'radi Yura shivirlab Seryojadan.

– Bo'lmasa-chi!

– O'tgan kuni halok bo'lgan, to'g'rirog'i yarador bo'lib o'lgan.

– To'ng'iz qo'psin! – dedi xursand bo'lib Seryoja.

Maydalab qor uchqunlab turibdi. Zoya Andreyevnaning za'faron bo'lib ketgan mumdek yuzlariga qo'ngan qor uchqunlari erimasdi. U tobutda odatdan tashqari kichkina, ozg'in, quruq suyak bo'lib, burishib yotardi. Taras chanada tobut yonida o'tirganicha onasining yuzlaridan ko'zini uzolmasdi. Qabristonga yaqinlashib qolishganda Seryoja kutilmaganda yangi qazilgan qabr yonida Martinovni ko'rib qoldi.

«Nega bu yerda yuribdi? – o'ylardi u xavfsirab. – Axir, bu juda xatarli-ku».

Ammo Martinov, hech narsa bo'lmagandek, tobutni chanadan tushirishda yordamlashdi, Tarasni bag'riga olib o'pdi:

– O'zingni bos, og'ir bo'l, do'stim! Urush!..

Yura Martinov bilan nimalardir haqida bir-ikki og'iz gaplashib oldi. Ira ularning gapini u yer-bu yeridan eshitib qoldi.

– ...Bu yerda sen hokimiyatning birdan-bir vakilisan! Nemislar o'zlari bilan o'zlari ovora! Demak, hammasi joyida bo'ladi!

Marfa xola eshitar-eshitilmas janoza o'qirdi. Uning so'zlarini hech kim eshitmasdi. Taras, Ira, Seryoja Zoya Andreyevnaning peshonasidan o'pdilar, so'ngra Marfaning eri tobutning qopqog'ini yopib, mixlab qo'ydi. Tobutni

qabrga tushirishdi, tuproq tortib ko'mib, ustini qoraqarag'ay novdalari bilan yopib qo'yishdi.

Ira va Seryoja xomush odimlayotgan Tarasning ikki yonida borishardi. Qaydan paydo bo'lganini hech kim payqamay qolgan Martinov to'satdan g'oyib bo'ldi.

– Ota-bobolarimizdan qolgan udumga ko'ra, marhumaning xotirasini yod etmoq kerak edi... – dedi bolalarning ketidan yetib kelgan Yura.

– Oyimni yodga olishni uyda o'tkazishni istamayman! – dedi qovog'i solingan Taras.

– Biznikiga kiramiz, – dedi Ira.

To'rtovlashib Yesinlarnikiga yo'l olishdi. Taras qaytib kelganida otasi uyda edi.

– Dafn marosimida qatnasholmadim. Ish, ish boshdan oshib yotibdi! – tushuntirishga urindi u. – Xotirasini yodlasak bo'larmidi, a?

– Biz yodga olib bo'ldik, – dedi Taras. – Tashvish tort-mang!..

Shu tobda Taras o'zini otasidan ancha ustun sezardi. Bu his hozir har qachongidan ham kuchli jo'sh urardi. Hozirgina Yura ularga frontdagi ahvol haqida so'zlab bergan edi.

Nemislar 15–16-noyabrda hujum boshlashibdi. Ularning ikkita tank gruppasi G'arbiy frontning o'ng qanoti qo'shinlariga yopirilibdi. Ikki kun o'tgach, Tula shahrining janubi-sharqida dushmanning tank armiyasi yana hujumga o'tibdi. Nemislar Klin va Volokalamsk tomonlardan Moskvaga intilishibdi. Oliy Bosh Qo'mondon Stavkasi Moskva-Volga kanalida, Yaxroma, Krasnaya polyana, Zvenigorod, Serpuxovo va Tula ostonalarida Qizil armiya qismlarini mustahkamlabdi. Qo'shinlarimiz dushmanning hamlasini muvaffaqiyat bilan daf etib, unga katta talafot yetkazmoqda. Moskvadan 35–40 kilometr masofada nemis-

lar to'xtatib qo'yilibdi. «Dushmanga qaqshatqich zarba berib, uni tor-mor qilish Moskva ostonalarida boshlansin!» – degan buyruq berilibdi.

Bularning hammasini Yura amaki Martinovdan bilib olibdi.

– Qachon gaplashib ulguroidilaring o'zi, – deb hayron bo'ldi Taras.

– Ha, ulgurdik...

XXV

Boboyor Omonov hali yosh. Lekin shu yoshida boshiga shu qadar ish tushar deb xayoliga ham keltirmasdi. Urushning birinchi kuniyoq armiyaga chaqirildi. G'arbiy chegaraning shundoqqina o'zidan to Rossiyaning markazigacha, Moskva bo'sag'asigacha bo'lgan yo'lni o'z batalyoni bilan eson-omon bosib o'tdi. Sevimli komandiri kapitan Yesin bilan birgalikda olib borilgan og'ir janglarda nafaqat eson-omon qoldi, hatto yarador ham bo'lmagan edi.

Beryozovkada Yesinning bolalariga yozgan xatini topshirganidan keyin fashist tanklari kolonnasiga qarshi olib borilgan jang hayot-mamot jangi bo'ldi, tinimsiz bir kecha-kunduz, yana ertasiga kuni bo'yi davom etdi. Batalyonlari judayam siyraklashib qoldi, lekin ular jonlarini ayamay ona Vatanni himoya qildilar. Nemislar yangidan yangi kuchlarni jangga tashlab, qanday qilib bo'lsa ham ularning mudofaasini yorib o'tish va urush harakatlarini keng miqyosda avj oldirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lish yo'lida hech narsani ayamasdilar, ammo ularning hujumlari qaytarib turildi. Jang borar ekan, Omonov kapitanning: «Bir qadam ham orqaga qaytilmasin!» – degan komandasini eshitib turar, har gal shu komandani

eshitganida o'zida bitmas-tuganmas kuch va g'alabaga ishonch his qilardi.

Ular madad kutishardi, yana bir-ikki soat dushman hamlasiga bardosh bersalar kifoya edi. Hammasi ana shu bir-ikki soat mobaynida ro'y berdi.

Omonov osmonda dahshatli g'uvillagan tovushni eshitdi, bir zum ko'zi tinib, chakkasida qattiq og'riq sezdi. O'ziga kelganida esa hammayoq jimjit, hech narsani eshitmas, qulog'i bitgan edi, kontuziya bo'lgan edi. Shu holda nemislar suyak turg'azib, sudrab, haydab, qayoqqadir olib ketdilar. Shu borishida atrofi tikan sim bilan o'rab olingan yalanglik, stansiya, eshelon, yana nomi g'alati «Durasovo» deb atalgan stansiya va nihoyat, harbiy asirlar lagerigacha bo'lgan ancha olis yo'lni bosib o'tdi. Aniqrog'i yuribmas, sudralib o'tdi desa to'g'riroq bo'lardi. Holdan ketib yiqilar, nemislar uni miltiq nayzasi bilan oldinga itarishar, majruhga bo'layotgan bu munosabatlarga chidolmagan Boboyor o'zini bo'g'ib o'ldirib tashlashga tayyor edi-yu, afsuski, bunday qilishga holi yetmasdi. Nihoyatda loqayd holda zo'rg'a sudralib, noma'lum va majhul qismat sari borishga majbur edi.

Lager yengilgina taxta-yog'ochdan qurilgan oltita barakdan iborat bo'lib, atrofiga sim tikan tutilgan baland devor bilan o'rab olingan, kuzatish vishkalarida kechasi-yu kunduzi soqchilar turardi. Yaxshiki, toleyiga taqdir uni lagerda o'ziga o'xshab asir olingan vrachga yo'liqtirdi. U Omokov bilan yonma-yon yotardi. Unga har kuni muolaja qilib, boqib tuzatdi, tezda oyoqqa turg'izdi. Bir oydan keyin Omonovni, boshqa asirlar qatori torf qazishga haydadilar. Ular ertalab soat sakkizdan kechqurun soat sakkizgacha torf qazirdilar, yeganlari yovg'on bo'lganidan qo'l-oyoqlarida mador qolmagan edi. Ammo nemislar qistovga olishar, itlarini qo'yib gij-gijlatar, og'izlari,

yuz-ko'zlariga qaramay musht tushirishar, karser bilan, otib tashlash bilan po'pisa qilishardi. Ana shularga bardosh bergan chayir asirlarni ajratib olib qayoqqadir yuborishardi. Birovlar Germaniyaga ishga olib ketishyapti desa, boshqa birovlar nemis konslageriga yuborishyapti derdilar. Lekin bu qismat ham hech kimni qiziqtirmasdi: «Qayerda ajaling yetadi: bu yerdami, Germaniyadami – bari bir go'r...»

«Lagerda yashirin tashkilot bor, asirlarning qochib ketishini uyushtirarmish», degan gaplar Boboyorning qulog'iga chalindi-yu, shuncha unnab unga yo'l topolmadi. Keyinchalik bu tashkilot uyushtirgan ikki guruh asirlarning taqdiri fojiali tugallanganini eshitdi. Qochqinlarni ushlab olib, yaqindagi Ignatovka qishlog'i aholisining ko'zi oldida dorga osishibdi. Faqat uchinchi guruh asirlarning qochishi muvaffaqiyatli tugabdi. Qochganlarning hammasi eson-omon qutulib, ba'zilari hatto partizanlar otryadiga qo'shilganmish, degan xabarlar butun lagerga tarqaldi.

Boboyor ko'p azob tortdi, ich-etini yeb ozib ketdi, turib-turib yuragi ezilar, o'zini sustkashlikda, noshudlikda ayblar, vaqtida o'zini o'zi otib tashlamagani uchun o'ziga o'zi la'natlar o'qirdi.

«Qanday dahshat! Ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan nomus-ku, bu! Bordi-yu sog' qolganimda ham qarindosh-urug'larim, yor-u do'stlarimning ko'ziga qay yuz bilan qarayman? – o'ylardi u. – Lekin bu yerdan omon chiqib ham bo'lmaydi!»

Barvaqt boshlangan seryomg'ir kuz, uning ketidan kelgan qahraton qish lagerdagilarning turmushini chidab bo'lmaydigan qilib qo'ydi. Baraklari deyarli isitilmas, ust-boshlari eskirib ishdan chiqqandi. Qishlik kiyimlari yo'q edi. Lagerda yoppasiga shamollash, zotiljam, plevrit

kasallari tarqalib, har kuni asirlardan qanchasining yostig'ini quritardi. Endi Omonov hatto dardga yo'liqishni orzu qiladigan bo'ldi, har holda u iqlimi issiq o'lkadan kelgan, zora biron dardga chalinib qolsa. Ammo, kasallik hozircha uni chetlab o'tardi.

Nihoyat noyabrning oxirlariga borib u yotib qoldi va o'zi o'ylaganicha orzusiga erishganidan cheksiz xursand edi.

– Doktor, meni kasaldan qutqazib qolishga urinmang, iltimos qilaman! Kerak emas! Istamayman!

Ammo asir doktor unga quloq solmadi, aksincha, butun choralarni ko'rishga harakat qildi, qandaydir giyohlarni mo'jiza bilan izlab topilgan aroqda eritib, dori tayyorladi, shu bilan davoladi. So'ngra Boboyorni sanitariya baragiga ko'chirishga muyassar bo'ldi. Nemislar oxiri shunday barakni tashkil etishgan edi. Garchand atala atalaligicha qolsa hamki, sanitariya baragidagisi sal quyuqroq, maza-matrasi bordek edi. Bundan tashqari, sanitariya baragida rus qizlari sanitar bo'lib ishlashardi, ular darab turgan asirlarini xufiya yedirib-ichirardilar. Boboyor anchagina kuchga kirib qoldi. Nazarida ana shu qizlarning mehri unga madad berganday his qilardi. Bir gal sanitar qizlardan biri Omonovga:

– Dadil bo'! Yaqinda nemislarning kuni bitadi! Moskva ostonasida hali ularning ta'zirini berishadi! – deb qoldi.

Noyabr oxirlab qolgan edi. Bir kuni ertalab, saharda sanitariya baragidagilar ko'chada betartib otishma ovozlari, itlarning vovillashi, nemislarning qiy-chuvi va asirlarning baqirib-chaqirganlarini eshitishdi. Otishma ovozlari tobora yaqinlashib kelardi. Barak eshigida turgan soqchi birdan juda qattiq baqirganicha tashqariga otilib chiqib ketdi.

So'ngra eshik lang ochilib, barakka grajdan kiyimidagi qurolli kishilar yopirilib kirishdi.

– Salom, og'aynilar! Turinglar!.. Bizlar bilan yuringlar! – deb qichqirishardi ular.

Odamlar orasida birdan-bir harbiy kiyim kiygan qorachadan kelgan yosh leytenant lip etib Omonovning oldiga keldi va taajjub bilan unga tikildi:

– Hamyurtimmi deyman? O'rta Osiyodanmisiz?

Boboyor shoshib qoldi, tomog'iga bir nima tiqilganday bo'ldi. Yotgan joyidan sakrab turib, leytenantning bag'riga tashlandi.

– Yura olasizmi? – so'radi leytenant.

– Ha, – deya oldi zo'rg'a Omonov.

– Qani, ketdik!

Omonov ayoz hovlidan darvoza tomon yugurib borarkan, takrorlardi:

– O'rta Osiyodanman! O'zbekman! Tushunyapsizmi, o'zbek!

– Bildim, juda yaxshi, tezroq, – dedi leytenant ketayotib, – hamyurt ekanmiz. Men ham o'zbekman, toshkentlikman, tushundingizmi?

Hovlida Omonov nemislarning jasadlarini va yana ko'pdan ko'p grajdan kiyimidagi qurolli kishilarni, ozod qilingan asirlarni ko'rdi. Hamma yugurib, darvoza tomon intilardi. Darvoza lang ochiq, kuzatish vishkalari esa bo'm-bo'sh, keyingi bir necha oy mobaynida birinchi marotaba kuzatish vishkalarida soqchilar turmasdi.

XXVI

«Qish ham bizga xizmat qilyapti», – degan edi Misha bobo nevarasi bilan xayrlashar ekan. Chindan ham bu yilgi qish o'zining izg'irinli shamoli bilan, qahraton sovug'i

bilan, yog'gan qori bilan avvalgi yillardagi qishdan farq qilar edi. Noyabrning ichidayoq mo'l-ko'l qor yog'di, qorning qalinligidan daraxtlarning shoxi sinib ketgudek egildi. Past-past butazorlar, o'tlar, botqoqlik joylardagi qamishlar qalindan qalin qor ostida qolib ketdi. Necha kunlab to'xtovsiz yog'gan qor oqibatida Beryozovka qishlog'idagi qanchadan qancha molxonalar, saroylar bosib qoldi. Uylarning tomidagi qor sira ko'rilmagan darajada qalinlashdi.

Bu yil sovuq ham erta tushdi. Erta tushdi-yu, kundan kun zo'rayib, kundan kun kuchayib bordi. Qahraton sovuq izg'irinlari nemis bosqinchilarining yuzlariga bigizdek sanchilardi, ko'zlaridan tirqirab yosh oqizardi. Yelkalari va oyoqlari qattiq achishar, qo'llari qurol ushlashga qovushmasdi, bezillardi. Oberleytenant Klaus ham, leytenant Ebert ham ertadan kechgacha pechkani quchoqlab o'tirar, tashqariga chiqishdan qo'rqrar edilar. Sovuq shuncha qahriga oldiki, natijada starosta ham, politsaylar ham o'z postlarida bir necha daqiqa turib, so'ngra darhol pechka bor joyga kirib ketishardi.

Qahraton qish zaptiga olib, kuchli bo'ron ko'tarilgan kechasi Taras pastki xonada onasining suratini stolga qo'yib, u bilan suhbatlashib o'tirardi. Mehribon onasi kechirgan tahqir-haqoratlar, xastalik azobi, otasining starosta bo'lib kelishi, o'z xalqiga, Vataniga nisbatan xoinligi, onasini xo'rlaganlari, uyda Mariya paydo bo'lgandagi musibatlar – hamma-hammasi ko'z oldida gavdalandi. Ko'z yoshlari yuzlarini yuvib, xazon bo'lgan yosh umr, oyoq osti qilingan umid va orzular, zaharzaqqumga ko'milgan baxt-saodat to'g'risida o'ylardi. Qancha o'ylasa, onasiga shuncha rahmi kelar, otasiga la'nat his-tuyg'ulari yuragida tug'yon urardi. Shu holatda o'tirganida ichkaridan otasining ovozi eshitildi.

– Himm... Taras, Taras deyman!

U asta-sekin o'rnidan turib, g'azab va nafratini ichiga yutib, yuqori ko'tarilib, eshikni ochdi.

– Himm... Issiq choy damla, – buyurdi otasi.

Gerasimning tabiatida ziyraklik, sinchkovlik, bir narsani ildam payqab olishga o'xshash alomatlar uncha kuchli emasdi. Ko'p narsa uning ongiga hammadan keyin yetib borardi. Ammo hozir u Dormidont bilan aroqxo'rlik qilib o'tirarkan, unga tez-tez razm solar, uning kim ekanligini bilib olishga urinardi. Bu albatta uning aqli o'tkirlashganidanmas, balki hayotda bir-ikki pand yeganidan ediki, sutdan og'zi kuyib, qatiqni puflab ichardi. U Dormidont nemis ekanligidan bexabar, umuman, u haqida hech narsa bilmasdi. Dormidontning o'zi ham starostaga bundoq yuragini ochib gapirmasdi-yu, lekin munosabati yomon emasdi. Har holda Klaus, Ebert, Meyer, Ganslardan ko'ra yaxshi munosabatda edi. Ammo hammalaridan ko'ra Gerasimga Yura ko'proq xayrixoh, yaqinroq edi. Aslida Yura o'zi alohida toifadagi odam, o'zligini bilgan va qadrlaydigan mustaqil edi, nemislar unga qancha ishonch bildirishlariga qaramay, ular oldida o'zini past tutmasdi. Dormidont bo'lsa boshqa gap. Shulga Dormidontning nemislar bilan tez-tez uchrashib, ular bilan nimalardir haqida uzoq-uzoq suhbatlashib turishini, nemislar unga alohida iltifot ko'rsatayotganligini payqagandi. Hatto Gerasim nemislar uni o'zining o'rniga starosta qilib tayinlashmoqchi emasmikin, degan shubhaga ham borgandi. Keyinchalik u bu fikrdan qaytdi. Dormidontning ko'nglida Gerasimga nisbatan hech qanaqa firib, g'araz yo'q edi, u bilan inoqlashib olgandi. Shulgani o'z uyida ham ochiq ko'ngil bilan kutib olar, unikiga ham jon-jon deb tashrif buyurardi. «Dormidont bilan tag'inam

yaqinroq do'stlashib olishim kerak, – derdi ichida Gerasim. – Klaus oldida obro'yi bor. Dormidont bilan qancha do'st bo'lsam, qancha sirdosh bo'lsam, Klaus oldida mening obro'yim ham shuncha oshishi mumkin».

Shulga Dormidontning uyiga tez-tez borib turardi, xotini vafotidan keyin esa, uni tez-tez o'z uyiga chaqiradigan bo'ldi.

Hozir ikkala do'st juda yaxshi suhbatlashib o'tirishibdi. Tashqarida qor bo'roni ko'z ochirmaydi, sovuq zaptiga olyapti, uyda esa bular bahuzur maishat qilib o'tirishibdi, dasturxonda hamma narsa muhayyo. Gerasim keyingi kunlarda anchagina oziq-ovqat jamg'arib oldi. Dormidont ham quruq kelmadi. Rus arog'i, cho'chqa bolasining yaxnasi, kolbasa, sir, galeta olib kelibdi.

– Ochig'ini aytsam, Gerasim, qo'lim qichib yuribdi, – dedi Dormidont. – O'sha Shaxovni, uning odamlarini o'z qo'lim bilan tutgim kelyapti. Shaxovga o'xshaganlar chakana kulfat solmadi boshimizga. Faqat menga emas, dadamga ham.

– Himm... Otang kim bo'lgan? – so'radi Shulga.

– Yaxshi odam edi, badavlat odam edi. Katta yersuv mulklari bor edi. Rossiyada ham, Litvada ham, hatto O'zbekistonda ham. Dadam mustamlakachilardan bo'lgan...

Taras choy olib kelganida Shulga bilan Dormidont ancha qizishgan bo'lib, nimalarnidir bir-biriga ma'qullashardi. Taras ularning suhbatiga quloq soldi.

– Ochig'ini aytsam, Gerasim, Sovet hokimiyati rosa jonimga tekkan, – so'zida davom etdi Dormidont. – Juda yomon ko'raman, nafratlanaman! Maqsadim, sovet hokimiyati yo'q qilinsa, boshimizga shuncha kulfat solgan bolsheviklardan o'ch olish.

– Himm... Men ham bolsheviklarni yomon ko‘raman, – iqrar bo‘ldi Shulga. – Alamim, dardim ichimda. Shu kolxozning yarim davlati va yeri bizniki bo‘lgan aslida. Otamni quloqqa chiqarib, otishga hukm qilishdi-da, mol-mulkimizni tortib olib, kolxozga berishdi. Nima deysan, agar nemislar g‘alaba qilishsa, hamma davlatimizni qaytib berisharmikin?

– Berishlari kerak! Bo‘lmasa, biz ularga bekorga xizmat qilib yuribmizmi? – dedi ochiqdan ochiq Dormidont. – Aytgandek, sen o‘g‘lingni o‘zingga yaqinlashtir! U orqali ko‘p narsalarni bilib olishing mumkin. Uning do‘stlari haqida ham. Yesinlarga ayniqsa e‘tibor ber. Ishongin, ularning partizanlarga aloqasi bor, meni aytdi, dersan...

– Himm... Shunga ishonasanmi?

– Ishonchim komil! O‘zim ham ba‘zi narsalarni payqab oldim, lekin ular o‘zlarini mendan chetda tutishadi. Sening uyingga kirib-chiqib yurishadi, Taras bilan do‘st. Umuman, shuni aytishim kerakki, sen bilan ikkalamizga katta ishni ishonib topshirishgan, bu ishonchni oqlash – nemis qo‘mondonligi oldidagi burchimiz. Men senga aytsam, Gerasim, nemislar juda kuchli! Partizanlarmi, balomi bari bir, sovet hokimiyati o‘rmonlarga biqinib olgan, nemislar-chi, hammaning ko‘z oldida, butun dunyoning ko‘z o‘ngida! Buni tushunish zarur!

Ular ichishdi va Dormidont so‘zida davom etdi:

– Tarasni aldab-suldab, ko‘nglini ko‘tarib o‘zingga yaqinlashtir, axir o‘g‘ling-ku, keyin unga ish topshir, yotig‘i bilan u yoqdan-bu yoqdan gapir, Yesinlar kimlar bilan uchrashadi, bobolari qayerda, otasidan xat bormi, umid va ishonchlari nimada deb surishtirib ko‘r, qarabsanki, hammamizni qiynayotgan chigal yechilib turibdi-da... bola – bola-da.

– Himm... Gaplaringda jon bor, – uning fikriga qo'shildi Gerasim.

– Qarigan chog'imizda bir toleyimiz ochilsa! – dedi orzularga g'arq bo'lib Dormidont. – Bolsheviklar musodara qilgan barcha davlatga egalik qilish, yigirma to'rt yil ichida shu davlatdan kelgan foydani undirish... So'ngra o'z vatanim buyuk Germaniyaga xizmat qilsam deyman!

Shulga hushyor tortdi. Xato eshitmadimikin? Dormidont Germaniyani vatanim dedi-ya! Ammo Dormidont boshqa hech narsa demadi.

– Himm... Gaplaring haq, do'stim, juda haq gaplarni aytding!

– Hozir Moskvaga yangi hal qiluvchi hujum boshlandi, – dedi Dormidont, – Ishonchim komilki, endi bolsheviklarning kuni bitadi!

– Himm... Mening ham ishonchim komil, – uni quvvatladi Gerasim. – Qani, yana bittadan ko'taraylik!

Shu kuni ular uzoq suhbatlashib o'tirishdi. Dormidontni kuzatgandan keyin Shulga Mariyaning oldiga kirdi. Zoya Andreyevnaning vafotidan keyin Mariya uning xonasiga ko'chib olgan edi.

– Tarasga sal shirinso'z bo'l. Ishimiz shuni taqozo etadi. Kechqurun u o'g'li bilan suhbatlashdi.

– Himm... Xo'sh, o'g'lim, ahvollaring qalay?

– Tuzuk...

– Himm... Men bir narsani so'ramoqchi edim. Sen bobong haqida hamma gapni bilasanmi?

– Menmi? – ajablendi Taras. – Hech narsa bilmayman. Nima, u ham turmada bo'lganmi?

– Himm... Men boshqa narsani aytyapman... Bobong juda yaxshi kishi edi, uni tushunishmadi, unga tuhmat toshlari yog'dirishdi. Begunoh otib tashlashdi.

– Aybi bo‘lmasa bekorga otisharmidi, – dedi qat’iy ohangda Taras.

– Himm... Hamma gap shundaki, bekordan bekorga!

Gerasim gaplari qovushmayotganini sezdi. O‘g‘lini qayirib olish, unda sovet hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik tug‘dirish oson ish emas edi. Shu topda, mana bu gapdan keyin, Yesinlarni surishtirish sirayam yopishmasdi. «Yaxshisi boshqa safar bu to‘g‘rida gap ocharman».

– Himm... Ha, mayli, bor, o‘g‘lim, bora qol, – dedi muloyimlik bilan Gerasim. – Keyin bafurja gaplasharmiz.

Bolalik qilibmi yoxud onayizorining bevaqt olamdan o‘tishi xayoliga kelmagan, hamisha parvonam deb bilganidanmi, Taras ortiqcha onasiga suykanmas, suykanasa ham bunaqangi gaplarni aytishdan, o‘zining his-tuyg‘ularini ochishdan tortinardi. Endi bo‘lsa onasining o‘rni shunday bilinyaptiki, na ko‘z yoshi, na ohu fig‘oni ko‘nglini ko‘tara olardi. Mana hozir ham otasi oldidan chiqib, og‘ir vaziyatda pastki xonaga tushib, birdan bir dardkashi, mehribon onasining surati qarshisida o‘tirib, bo‘lib o‘tgan voqealarni chuqur tahlil qildi.

«Oyijon, meni kimga tashlab ketdingiz? Siz olamdan o‘tdingiz, mana dadam, o‘sha sotqin soppa-sog‘ yuribdi... Bu adolatli ishmi, axir? – Onasining suratiga tikilganicha eng oldin o‘zini la’natladi Taras, – «Xoinning o‘g‘li» bo‘lib yashashdan nafratlanaman, – derdi u. Shum taqdir daryosining dahshatli oqimlari uni g‘arq qilayotganday tuyuldi. – Oylar o‘tar, yillar o‘tar, haqiqat yuzaga chiqar, sotqin, yovuz, jallod dadam bilan ichgan oshim zahar bo‘lsin. Seni «dada» degan tilim kesilsin... Nega endi men unga qarshi kurashmayapman? Yana pioner degan nomim bor-a?! To‘g‘ri, men o‘zimiznikilarga yordamlashyapman.

Lekin bu kifoya emas. Odamlar uchun, mamlakat uchun ko'proq ish qilishim kerak». U fikran onasidan maslahat so'rardi.

«Gaplaring rost, Tarasik, – deganday edi onasi. – Lekin sen kuchlisan, qiyinchilikka bardoshing yetadi. Faqat o'z qalbingga, do'stlaringga, Vataningga ishonib ish tut! Otang kimligini bilib turibsan. Uning izmidan yurma, sening yo'ling boshqa. Shu yo'lda senga omad tilayman, Tarasik!»

Tashqarida samolyotlarning g'uvillagan ovozi eshitildi. «Nahotki yana nemislar? Nahotki yana bomba yog'dirishsa», g'amgin o'ylardi Taras. Biroq oradan daqiqqa o'tmay nemislarning zenit artilleriyasi o't ochayotganini aniq eshitdi. «Demak, o'zimiznikilar!» – deb ovozing boricha qichqirib yuborishiga sal qoldi. Tarasning quvonchi ichiga sig'masdi. Osmonda ketma-ket zenit snaryadlari yorilib, hammayoqni larzaga keltirardi. Bizning bombardimonchi samolyotlarimiz esa hech narsani pisand qilmay sharq tomonga uchib ketishdi. Ularning bu tantanavor va mag'rur parvozida alohida bir kuch sezilib turardi. Bir necha daqiqadan so'ng Taras qayerdandir uzoq-uzoqlardan kelgan kuchli portlash ovozlari eshitdi va osmonni yashindek yoritib yuborgan shu'lalarni ko'rdi. Aftidan, samolyotlarimiz temiryo'ldagi dushman eshelonlarini bombardimon qilishayotgandi.

«Zo'r, juda zo'r! – o'ylardi Taras uyquga ketayotib. – Qizil armiyamiz nemislardan kuchli. Ming marta kuchli! Biz albatta g'alaba qilamiz! Martinov ham: «Dushmanni tor-mor qilish Moskva ostonalarida boshlanishi kerak», – degan ediku».

«Himm... men nima degan odamman o'zim? – xayol surardi Gerasim. Ilgarilari hech qachon bu haqda o'ylab ko'rmagan odam, kelib-kelib endi o'ylashga majbur edi. – Himm... Miyam g'ovlab ketyapti. Yesinni haddan tashqari yomon ko'rishim aniq. Yomon ko'rib to'g'ri qilyapman ham. Ammo arzandalari-chi? Nega men ularga rahm qildim? Ayniqsa, Sergeyga nega rahm qildim? Kudimov aytdi, ishonmadim, Irinarxiy gapirdi, ishonmadim. Endi Kudimov ham yo'q, Irinarxiy ham. Ularning o'rniga Dormidont bor, unga ishonдим. Nega endi kelib-kelib unga ishonib o'tiribman? Ehtimol, u chindan ham nemisdir, rus emasdir? Bordi-yu, nemis bo'lsa, demak, uning ko'zlagan maqsadlari ham boshqa. Bolsheviklarni, sovet hokimiyatini qanchalik yomon ko'rsam ham, bari bir men rusman-ku!»

Gerasim kapitan Meyerning qahri-g'azabiga uchrab, qattiq shapaloq yegandan buyon dili vayron, boshidan kechgan voqealarni birma-bir eslab xayolidan o'tkazardi. U qancha o'ylasa, ko'ngli shuncha qorong'ilashib ketardi. Partizanlar qishloqdan badarg'a qilingan kommunistlar va aktivlarni jazo otryadi zanjiridan ikki marta qutqazdilar. Buning uchun starostaga rahmat deyishmadi, albatta. Nemis qo'mondonligiga xayrixoh bo'lgan Irinarxiy bo'lsa nom-nishonsiz yo'qoldi. Starosta o'z jigarining g'oyib bo'lishidan butunlay bexabar qoldi. Buning uchun ham uning yelkasiga qoqishmadi, albatta.

«Himm... Bu la'nati partizanlar! Boshimga bitgan balo-qazolarning hammasi o'sha partizanlar dastidan. Kimlar o'zi bu partizanlar? Raykom xodimlari, sovet aktivlari-ku, tushunarli, ularga partiya a'zolari sifatida

buyruq berilgan. Lekin Martinovga o'xshaganlar-chi? U oddiy bir shofyor, partiyasiz, muloyim, bosiq yigitdek ko'rinardi-ku. Endi bo'lsa partizanlarning katta razvedkachisimish. Partizanlarning razvedkachilari tun qorong'isida qishloqqa kelib, bemalol ishlarini bitirib ketaveradilar. Martinovning kelib-ketishi-ku, butun bir sirli voqea, hayron bo'larli hol. Xuddi ko'rinmas odamga o'xshab harakat qiladi. Endi bo'lsa qishloqdan g'oyib bo'ldi-qo'ydi. Shuncha politsaylar ketiga tushib, soqchilik qilib yursalar ham uni ushlay olmayaptilar. Kelib-ketishini kimdir ko'rib, kimdir sezib qoladi-yu, biroq birortasi kimligini bilolmaydi, qo'lidan tutib kelishga-ku, ovora bo'ladi. Shundan keyin mujmal axborot berib, mish-mishlar bilan cheklanadi. Dormidont ham Martinovni qidirib yuribdi, bu haqda menga aytmasa ham bilib turibman buni. Nima sababdan Martinovni qidirishni Klaus unga topshiradi? Menga ishonmayaptimi? Bu yoqda qishloqda tarqalgan varaqalar... Turgan gapki, buning uchun ham starosta gunohkor. Oktabr bayrami kuni klub tomiga qizil bayroqni kim o'rnatdi? Partizanlarmi yoki qishloqdagilarmi? Qanday qilib o'rnatdi? Tom baland, narvoni yo'q, klub ichida bo'lsa nemis soldatlari istiqomat qiladilar, atrofda soqchilar izg'ib yurishibdi. Kim va qanday qilib tomga o'rmalab chiqa oldi? Qanday qilib bayroqni o'rnatdi? Shundan buyon uch hafta o'tdi. Haligacha bayroq qadagan kishining izi ham topilmadi, ismi ham ma'lum emas. Albatta, bu beg'amlik uchun eng oldin o'zlari gunohkor. O'zlari yashab turgan binoni o'zlari qo'riqlamasalar, bungayam starosta javobgarmi? Shuncha politsaylar soqchilik qilib yurishsa ham payqashmabdi-ku? Bari bir starosta ham aybdor. Bundan qochib qutulib bo'lmaydi...»

Ammo kapitan Meyerdan yegan shapalog'ining zahridan hali-hali Gerasimning quloq-chakkasi yonib turibdi, yuragini bezovta qilayotipti. Eng yomoni, kapitanning ishonchidan chiqdi, g'azabiga uchradi. Ana shularni o'ylab, xayol dengiziga g'arq bo'lardi-yu, o'z taqdiri qanday bo'lishi to'g'risida chuqur tashvish tortardi. Bu yog'i uyida ham tinchi yo'q, hammasi alg'ov-dalg'ov. Shukrki, Zoya o'lib ketdi. Uni Mariya bilan taqqoslab bo'larmidi. U Gerasimni turmadan chiqquncha kutib o'tirdi. Garchand Gerasimni band etgan o'y-xayollar va kechinmalar haqida hech narsani bilmasa hamki, u o'ziniki edi. Surishtirmasdi ham, xuddi uning uchun hammasi befarqday. Taras-chi? Uni silab-siypash kerak edi-yu... juda ichidan pishgan bola chiqdi-da. O'zining o'g'li-ya...

Shulga o'ylagan sari noaniq savollar ko'payib, birontasiga javob topolmay ojiz edi. Nihoyat, u ko'chaga chiqib ketdi.

Qishloq ko'chalarida hamma yoqqa bosmaxonada bosilgan e'lonlar yopishtirilgan edi. Gerasim birinchi duch kelgan e'lon oldi-da to'xtadi.

«Kimda kim xavfli jinoyatchi Z.K. Martinovning turish joyini bilsa, bu haqda nemis qo'mondonligiga xabar qilishi lozim. Xabar qilgan kishi katta mukofotga sazovor bo'ladi...»

Yana Shulga chetda qolibdi! Martinov Beryozovkaga kelib tursa kerak. Bo'lmasa uni qidirishmasdi. Qani endi o'sha Martinovni topib olsa. Nemislarni bir boplardi, mukofot ham olardi!

Gerasim qishloq ko'chalarini aylanib, sovqotgach uyiga qaytdi.

– Himm... O'g'lim, sen Martinovni bilasanmi? – gap orasida so'radi u Tarasdan.

– U kim o'zi?

– Himm... Kolxozning shofyori-chi, hozir qishloqda yashayapti...

– Eshitgandayman.

– Himm... Sergeydanmi?

– Yo'q, kimdir boshqa birovdan.

– Himm... O'rtog'ing Sergey qandoq?

– Nimasi qandoq?

– Himm... Nimalarni o'ylaydi, nimalar haqida so'zlaydi, umuman...

– Hamma bilan baravar...

– Himm... Buni nima deb tushunish kerak?

– Birga o'ynaymiz, birga yuramiz, deb tushunsa bo'ladi.

– Himm... Partizanlar haqida-chi? – Gerasim to'g'ridan to'g'ri so'rashga qaror qildi.

– Partizanlar haqida hamma gapiradi, lekin Seryoja bilan men bu haqda gaplashmaganman.

– Himm... Ira bilan-chi?

– Voy, Ira qiz bola-ku!..

Yo'q, Tarasdan gap olish amrimahol!

Bir soatcha vaqt o'tkazib, Taras Yesinlarnikiga chiqdi.

– Seryoja, juda ehtiyot bo'lishing kerak!

– Nima gap!

– Dadam seni surishtirib qoldi. Dormidont yana biznikida iskanib, gap kovlab yuribdi.

– Dormidont haqida xabarim bor. Dadang nima dedi?

Taras haligina bo'lib o'tgan gaplarni aytib berdi.

– Asl odamsan, Taras, – dedi Seryoja.

Tarasning dahshatli so'zlaridan hayajonga kelgan Ira gapga aralashdi.

– Seryoja, esingdami, huv anavida, starostaning devoriga «sotqin», deb yozganimizda, bunday ishlarda maslahat qilish zarurligini eslatib, qattiq ogohlantirgan eding. Biz ikkimiz senga: «Bundan keyin o'zboshimchalik qilmaymiz», – deb qat'iy so'z bergan edik.

– Esimda, – dedi Seryoja jiddiy tusda.

– Qasamingni ayt endi, Taras, yashirma, – dedi Ira Tarasga o'girilib.

Taras boshini ko'tardi. Seryojaning katta-katta ochilgan ko'zlariga bir qaradi-yu, darhol undan ko'zini oldi. Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Toqati chidamagan Ira o'tirgan joyida qo'lini ko'tardi, akasi bosh egib rozilik berganidan keyingina hayajon bilan so'zladi:

– Taras otasini chavaqlab tashlashga qasd qilipti. Uyiga ham o't qo'ymoqchi, o'zini ham o'ldirmoqchi. Onasining porloq xotirasi, ruhi haqi shunday qilishga qasam ichgan. Onasining suratini bag'riga bosib, qasam ichib o'tirganini o'zim ko'rdim.

Seryoja ko'zlarini katta-katta ochib, so'radi:

– To'g'rimi, Taras?

– To'g'ri.

– Otangni o'ldirish, uyingga o't qo'yish – buni faqat otryad hal qiladi. O'zingga-o'zing suiqasd qilsang – bu qo'rqqoqlik bo'ladi. Xoinlik ham qo'rqqoqlikdan kelib chiqadi. Qo'rqqoqlikdan hazar qilish, nafratlanish to'g'risidagi gaplarim qulog'ingda tursin.

– Shunday qabih otaning farzandi bo'lishdan ko'ra o'lib ketgan afzal emasmi?

Seryoja qattiq e'tiroz bildirib, qo'llarini Tarasning yelkasiga qo'ygan holda, tushuntirdi:

– Yo‘q. Endi sen otangning o‘g‘li emas, balki Vatanning o‘g‘li, xalqning o‘g‘li. Otang o‘z xalqiga sotqinlik qildi, sen bo‘lsang umumxalq ozodligi, Vatan ozodligi yo‘lida kurashga safarbar qilingansan. Shuning uchun ham otangga qarshi isyon ko‘tarmoqchisan. Bilasanmi, do‘stim, bu zo‘r jasorat!

Seryoja Tarasning oldiga kelib, uni mahkam quchoqlab oldi.

– Klub tomiga tikilgan qizil bayroq esingdami?

– Esimda, albatta.

– Varaqalar-chi?

– Esimda bo‘lganda qandoq!

– Endi senga aytib qo‘ya qolay, – dedi Seryoja, – bularning hammasini o‘zimiz qilganmiz! Bas, endi hadeb diqqinafas bo‘lib, ich-etingni yeyaverma. Kurashmoq kerak. Boshqa yo‘l yo‘q. Endi jangga kiramiz. Bu ayovsiz jang bo‘ladi! Mana ko‘rarsan, biz albatta g‘alaba qozonamiz. Ishonchim komilki, sen ham bizlar bilan birga bo‘lasan. Sen bizlarga juda ko‘p ish qilib berding, lekin bundan ham ko‘proq ish qilishing mumkin. Kelishdikmi?

– Kelishish ham gapmi, shunday qilishni juda-juda istayman! – dedi Taras qat‘iy ohangda.

XXVIII

Yesinlarnikida ro‘y bergan voqeadan so‘ng Yura bilan bo‘lgan suhbatdan quti uchgan Gans Klausdan Durasovoga borib gospitalda davolanishga ruxsat so‘radi, harna gunohdan nariroq bo‘lishni istadi. Oberleytenantga yarador bo‘lishining sababini haddan tashqari jonbozlik ko‘rsatganidan deb ta‘rifladi.

– Bu voqea o'rmonda sodir bo'ldi. Sira kutilmaganda. Sizning topshirig'ingizga muvofiq o'rmon bosqinchilarini qidirib aylanib yurgandim. Xabaringiz bor, kecha qalin qor yog'di, o'rmon ichidan ketayotsam, ustimga daraxt ag'darilib tushyapti. Shamol ag'darganga o'xshardi, o'zimni bir chekkaga olishga ulgurolmadim, boshim yorildi. Chalajon bo'lib, biroz vaqt behush yotibman...

Klaus Gansning gaplariga ishonib, shaxsiy mashinasida uni rayon markaziga jo'natdi. Gans ikki haftadan keyin tuzalib qaytdi-yu, darhol Klaus huzuriga keldi.

– Muhim ma'lumotlar bor, janob oberleytenant. Birinchidan, sizga kapitan Meyerdan ko'pdan ko'p salom. Durasovoda muhim tergov olib borayotgani sababli Beryozovkaga kelish imkoniyatiga ega emas. O'n to'qqizinchi noyabrda temiryo'l uzeldida katta diversiya bo'lgan. Sharqiy frontga jo'natilayotgan eshelon ko'prik ustida portlatilgan, unga yuklangan yap-yangi tanklar muz ostiga cho'kib ketgan, eshelonni kuzatib kelayotgan soqchilar halok bo'lgan. Kapitan bu diversiyada rus temiryo'lchilarining qo'li bor, deydi. Bir necha kundan buyon kechasi-yu kunduzi o'shalarni so'roq qilmoqda...

– Salom olib kelganingiz uchun rahmat. Xo'sh, qanaqa muhim ma'lumotlar bor sizda? – so'radi Klaus.

– Ma'lumotlar, aniqrog'i kuzatuvlar va mulohazalar shulardan iborat. Sizning buyrug'ingizga asosan men partizanlarning iziga tushganman. Mening kuzatishlarim qanday xutosalarga olib keladi? Gap shundaki, partizanlarning ayg'oqchisi har kuni kechasi qishloqqa keladi va o'z odamlari bilan uchrashib, ularga maxfiy topshiriqlar berib ketadi. Kuzatishimcha, uchrashuv faqat bir joyda – Sergey Yesinning uyida bo'ladi. Sergey ularning aloqachisi.

– Uchrashuv har kuni bo‘ladimi?

– Ha-da, – so‘zida davom etdi Gans. – Martinov ham, boshqa odamlar ham o‘sha yoqqa kelishadi. Shu uyni kuzatishni kuchaytirish zarur.

Ebert bilan Shulga kelganda Klaus Gansga javob berib yuborgan edi.

– Janoblar! Yesinlarning, aniqrog‘i Sergey Yesinning uyini kuzatishni kuchaytirish kerak. Ma‘lumotlar bor...

U hamma gapni tushuntirib berdi.

O‘sha kuniyoq kechqurun Seryoja bilan Ira o‘zgarish ro‘y berganini payqadilar. Ularning uyidan sal narida ikkita politsay bilan nemis soldati yurishibdi. Sal o‘tmay Dormidont bilan Shulga ham yetib kelishdi. Ular go‘yo har qaysisi o‘z ishi bilan banddek yakka-yakka yurishardi.

– Endi uydan ham chiqolmaysan, kishi, – dedi ma‘yuslanib Seryoja.

Ertasiga uyni kuzatuvchilar oldida politsay Yura paydo bo‘ldi. Seryoja quduqdan suv tortishga chiqib, go‘yo tasodifan Yurani uchratib qoldi.

– Bu nima o‘zi?

– E‘tibor berma, – xursand bo‘lib shivirladi Yura. – Eng muhim yangilik – Moskva ostonalarida nemislar tormor qilinibdi. Tafsiloti keyin. Bugun-erta muhim voqealar bo‘lishini kutinglar. Ha, ha, bugun-erta! Tushundingmi?

Seryoja xushxabardan to‘lqinlanib, quvonchga to‘lib-toshgan holda uyga kirib keldi.

– Ira, ajoyib bir fikr bor. Qani, tug‘ilgan kuningni nishonlaymiz!

Ira hayron bo‘lib akasiga tikilganicha qotib qoldi, sababini so‘ramoqchi bo‘lib, endi og‘iz juftlaganida Seryoja dedi:

– Ahamiyati yo‘q. Ertaga tug‘ilgan kuning deymiz. Tarasni ham, otasini ham chaqiramiz. Moskva ostonalarida nemislarni tor-mor qilishibdi. Sening tug‘ilgan kuning, deb ana shuni nishonlaymiz.

– Xo‘p, juda yaxshi, – ma‘qulladi Ira.

Seryoja Marfa xolaning eriga borib, undan ikki shisha samogon so‘rab oldi. Ira yerto‘ladan qolgan-qutgan yeydigan narsalarni olib chiqdi.

– Kamroq, – dedi Seryoja. – Men Tarasga uchrashib kelay-chi. Biron narsa so‘rab ko‘ray, birato‘la uni otasi bilan ertaga mehmonga ham taklif qilaman. Soat yettiga aytaman.

Ertasi kuni kechqurun stol yasatildi. Taras keldi-yu, «gunohdan uzoq» bo‘lishni o‘ylabdi shekilli, starosta kelmadi.

– Dadam qo‘rqyapti shekilli, – dedi Taras.

– Mayli, kelmagani yana yaxshi. Ochiqroq gaplashaverishimiz mumkin, – Seryoja Tarasga ko‘z qisib qo‘ydi. – Bilasanmi bugun qanaqa tug‘ilgan kunni nishonlayapmiz? Moskva ostonalarida nemislar tor-mor etilishini.

– Yo‘g‘-e!

– Rost!

Shu kechasi Shulga ularning uyi atrofida ko‘rinmadi. Ikki martagina Dormidont ko‘zga chalindi-yu, nariroqda boyagi-boyagidek ikkita politsay bilan bir soldat borib-kelib yurishdi.

– Tug‘ilgan kunni nishonlash o‘z yo‘li bilan-u, menda bitta ish ham qilsak, degan taklif bor. Kelinglar, hech bo‘lmasa o‘ntagina varaqa yozaylik. Mazmuni shundoq: «Aka-ukalar, opa-singillar! Moskva ostonalarida dushman tor-mor qilindi! Ona Vatanimizning shon-shuhrati, baxt-saodati, ozodlik va mustaqilligi uchun oxirigacha kurashga ont ichaylik!

Nemis-fashist bosqinchilari tomonidan vayron qilingan shahar-qishloqlarimiz haqi, urush olovlarida kuyib kul bo'lgan uy-joylarimiz, zavod-fabrikalarimiz, go'zal bog'larimiz, o'rmonlarimiz haqi ont ichaylik. Yovuzlarning qadami yetgan yerlarda to'kilgan muqaddas qon uchun, otib, osib o'ldirilgan va zulm zindoniga tashlangan begunoh ota-onalarimiz, aka-ukalarimiz haqi, tahqir va haqorat qilingan akalarimiz, onalarimiz haqi, yoshligi qonga belangan, qalbidagi quvonchi, labidagi kulgisi tortib olingan, misli ko'rilmagan azob-uqubatlarga yo'liqtirilgan bolalarimiz haqi ont ichaylik! Qizil armiya jangchilariga va'da berib aytamizki, oxirgi nafasgacha bosqinchilarga qarshi kurashamiz, la'nati dushman ustidan g'alaba qozonishimiz uchun kuchimizni ham, jonimizni ham ayaamaymiz! Qonga qon, jonga jon! Yo'qolsin urush!»

– Juda yaxshi! – deyishdi bab-baravar Ira bilan Taras.

Ular deraza pardalarini yopib, derazadan uzoqroqqa o'tib o'tirishdi. Seryoja qog'oz, siyoh, bo'yoq olib keldi.

Shu paytda partizanlar Beryozovkani shturm qilishga hozirlik ko'rardilar. Hamma narsa ikir-chikirigacha o'ylab qo'yilgan edi. Shaxov, Nikolayev va Temirov qo'mondonligida uch grupp bo'lib, har gruppada bir yuz ellik-tadan partizan qishloqni shturm qilishi kerak edi. Ikki grupp politsey kiyimida qishloqqa saharda birinchi bo'lib kirib boradi.

Operatsiya o'ninchi dekabrga tayinlangan edi. O'ninchiga o'tar kechasi lagerda hech kim uxlolmadi. Birinchi bo'lib Nikolayev va Temirovning gruppalari shturmga tayyorgarlik ko'rishdi. O'zlariga yot bo'lgan politsey kiyimlarini kiyib olib, rosa o'zaro hazillashishardi, han-goma qilishardi. Faqat komandirlar o'z kiyimlarida qolishgan edi.

Birinchi bo'lib Temirovning gruppasi qishloqni g'arb tomondan aylanib o'tdi-da, klub oldidagi maydonda paydo bo'ldi.

– Kim kelyapti? – nemischa so'radi soqchi.

– O'zimiznikilar, – deb javob berdi ruscha Temirov, politsay kiyimidagi partizanlarni oldinga o'tkazarkan.

Soqchilar politsay kiyimini ko'rib, ularni bemalol o'tkazib yuborishdi. Nikolayevning gruppasi qishloqqa sharq tomondan kirib keldi. Bu yerda ham partizanlar imijimida qishloqqa o'tib oldilar. Shaxov o'z partizanlari bilan signalni poylab turardi. Nihoyat, Temirov otgan raketa osmonni yoritib yubordi.

– Olg'a! – dedi u.

– Olg'a! – dedi Nikolayev.

– Olg'a! – o'z partizanlarini shturmga ko'tardi Shaxov.

Nemislar bunday hujumni sira kutmagan edilar. Klaus ichki kiyimida ko'chaga yugurib chiqdi. Ebert o'rnidan ham turib ulgurolmadi. Partizanlar Shulga bilan Dormidontni qo'lga olishdi. Gerasim partizanlar orasida Yurani ko'rib:

– Himm... Yura, sen kimlar bilansan o'zi? – deya bexosdan so'rab qoldi u.

– Menmi? Sizlar bilan emas, albatta, – dedi kulib Yura.

Qishloq aholisi uylaridan yugurishib ko'chaga chiqishdi, nemislarni asir olishda partizanlarga ko'maklashishdi. Gans ham o'z uyidan chiqib, o'zini katta ko'chadagi odamlar orasiga urgan edi, Yura uning orqasidan yetib oldi.

– Buncha ham befahm odamsiz-a! Aytdim-ku, sizga, men bilan birga bo'ling deb! Siz bo'lsangiz juftakni rostlamochisiz.

– Sen ham o'shalar bilanmisan? – g'azab bilan so'radi Gans. – Sotqin!

– Shoshilmang. Kim kimni sotganini aniqlab olamiz hali, – bamaylixotir dedi Yura. – Qani, oldimga tushing-chi!

Seryoja bilan Ira allaqachon ko'chada edilar.

Ertalab quyosh kulib chiqdi, butun olam yorishdi. Tiniq osmon quyosh nurida tovlanardi.

– Shoshmanglar, shoshmanglar, tanishga o'xshaysizlarku, – dedi partizanlardan biri, bo'yi baland, qorachadan kelgan yigit Seryoja bilan Irani to'xtatarkan.

Seryoja ko'zlariga ishonmay qichqirib yubordi.

– Omonov? Boboyor aka! Rostdanmi-a!

Ivan Ivanovich yetib keldi.

– Mana, bolalarim, o'g'limni ham yonimda birga olib keldim.

– Hammasini keyin gaplashamiz, – dedi Boboyor, – ko'rishganimizda.

Klub va kolxoz pravleniyesi binolari ustida qizil bayroq hilpirab turardi. Bayroqlardan birini partizanlar, ikkinchisini Seryoja bilan Ira tayyorlashgan edi.

Klaus, Ebert va Gans tirik qolgan soldatlar bilan birga maydonning bir tomonida, Shulga bilan Dormidont ikkinchi tomonida turishardi. Shulga oldidan o'tayotgan Shaxovni tanidi. Shaxov ham to'xtadi.

– Himm... Nega bizlarni ulardan alohida tutishyapti? – so'radi Gerasim nemislarga ishora qilib.

– Chunki ular asir olinganlar, – dedi Shaxov, – sizlar bo'lsa sotqinsizlar. Sizlarni otib tashlaymiz. Tushunarlimi?

Beryozovkada aholi ancha kamayib qolgan edi, ammo hozir hammalari maydonga to'planishgandi. Nikolayev klub zinapoyasiga chiqdi:

– Do'stlar! Noyabrning oxirlari – dekabrning boshlarida shonli Qizil armiyamiz Moskva ostonalarida

dushmanga qaqshatqich zarba berdi. Qo'shinlarimiz qarshi hujumga o'tib, 400 dan ortiq shahar va qishloqlarimizni ozod qildilar, dushmanni Moskva ostonalaridan uloqtirib tashladilar. Bu janglarda gitlerchilar katta talafot ko'rdilar: o'lganlar 35 ming kishi, yaradorlar va sovuq oldirganlar 100 mingdan ko'p kishi. 777 ta tank, 297 ta to'p va minomyot, juda ko'p boshqa texnikalarini yo'qotdilar. Sizlarni mana shu buyuk g'alaba bilan tabriklayman! O'sha g'alaba bo'lmaganida, biz partizanlarning Beryozovkani dushmandan ozod qilishdagi g'alabamiz ham bo'lmasdi. Biz partiyaning bu ko'rsatmasini bajaramiz. Ko'rsatgan yordamlaring, ko'maklaring uchun sizlarga rahmat!

– Xoinlarga o'lim! – deb yubordi to'planganlardan kimdir.

Nikolayev qo'lini ko'tarib, qiy-chuvni tinchitdi.

– Ikkinchi xushxabar, – so'zida davom etdi Nikolayev, – bizning hamqishlog'imiz mayor Yesin muhim jangovar operatsiyaga muvaffaqiyatli rahbarlik qilgani uchun Jangovar «Qizil Bayroq» ordeniga sazovor bo'libdi...

U gapini tugatolmadi. Shu paytda kutilmagan hodisa ro'y berdi.

Boshini quyi solib turgan Shulga pimasining qo'njidan katta pichoq chiqarib, bir qadam narida turgan Shaxovga sherday tashlandi va ko'kragiga pichoq suqdi. Yura starostani tepib yuborgan edi, qo'lidagi pichoq yerga tushdi. Taras jon holatda pichoqni olib Shulgaga suqdi.

Maydonni oh-voh ovozlari tutdi. Partizanlar sukut ichida Konstantin Petrovichning jasadi ustida bosh egib turardilar. Ivan Ivanovich keldi, tiz cho'kib, Shaxovning ko'zlarini ohista yumib qo'ydi.

Nikolayev, Temirov va Ivan Ivanovich Konstantin Petrovichni qo'llariga ko'tarib olib ketishdi. Seryoja bilan Ira ularning yonida borishardi.

Butun beryozovkaliklar gap-so'zsiz, chuqur qayg'uda, boshlarini quyi solib, ularning ketidan g'amgin odim tashlashardi.

Sovuq dekabr shamoli esib turardi. Bu alam shamoli, kurash shamoli, umid va ishonch shamoli edi.

QALB XOTIRASI (So'ng so'z o'rni)

Teran tafakkurning sodda, tabiiy badiiy talqin bilan uyg'unlashib ketishi Sharof Rashidov prozasining xarakterli xususiyatidir. Yozuvchi ijodining bosh mavzularidan biri hammavaqt xalqning tarixiy taqdiri va xalq taqdiri orqali xalq xarakterini tadqiq etish bo'lib keldi, hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

Sh. Rashidov «G'oliblar», «Bo'rondan kuchli» romanlaridayoq qadimgi o'zbek zaminida qaror topgan muhim o'zgarishlar haqida chuqur va yorqin hikoya qilib bergan edi. Adib chinakam mo'jizalar yaratayotgan, qum bo'ronlarini bo'ysundirayotgan, tashnalikdan qaqragan yerlarga obi hayot keltirayotgan, Mirzacho'lda paxta yetishtirayotgan zamondoshlarimizning jasoratidan hayratini yashirmaydi.

«G'oliblar» degan nomning o'zi asar mazmunini belgilaydi: zamin qiyofasini o'zgartirish, qismati mangu suvsizlikdek tuyulgan yerlarning tashnaligini qondirish va bu hosildor tuproqni inson xizmatiga safarbar etish... Dilogiyada tasvirlangan voqealar ko'lamliligi, sujet chiziqlarining ko'p tarmoqliligi bilan katta taassurot uyg'otadi. Asarning hikoya maromiga avtorning millatning tarixiy taqdiri, yangi, yorqin hayot bunyod etayotgan xalqning istiqboli haqidagi o'y-fikrlari tabiiy ravishda singib ketgan.

Biroq yangi hayotni qurishdan avval uni himoya qilish, Sovet Vatanini yer yuzidan supurib tashlashga uringan dushmandan asrab qolish kerak edi. Sharof Rashidov,

tengdoshlari singari, qo'liga qurol olib Vatan ozodligi uchun kurashga otlanganda yigirma yoshdan sal oshgan edi. Front yo'llari yigit uchun mashaqqatli bo'ldi. Rossiya dalalarida, Staraya Russa ostonalarida navqiron jangchi yaralandi.

Olovli qirqinchi yillar voqealari yozuvchi xotirasida e'zozlanib saqlangan edi. Sovet kishisi boshiga qahrli urush yillari tushgan barcha sinovlarni obdan o'ylab ko'rish, idrok etish, teran his qilish uchun muayyan muddat talab etilar edi. Jang-u jadal yillarida katta-yu kichik, ayniqsa, bolalar hadsiz mashaqqatlarga, kul-fatlarga duchor bo'ldilar. Urush bolalar umrining eng go'zal, eng quvnoq yo'llarini barbod etib ketdi. Bolalar va urush. Bu ikki tushunchaning yonma-yon turishidan ham notabiiyroq narsa bormi! Ehtimol, qissa ustida ishlayotganda yozuvchini ana shu mulohaza boshqa hamma fikrlardan ham ko'proq bezovta qil-gandir.

Sharof Rashidovning yangi qissasi «Dil amri» mavzu jihatidan ham, sujet va voqealar kechadigan joy nuqtayi nazaridan ham kutilmagan hodisa bo'ldi. Asarning qahramonlari ham kutilmagan – Beryozovka qishlog'ilik o'n-o'n ikki yashar bolalar: Ira, Sergey va Taras. Beryozovka Rossiya miqyosida olganda, «uncha katta qishloqlardan emas. Unda yangi maktab, tomi tunuka, cherepitsa, ko'proq poxol bilan yopilgan uylari bo'lgan taxminan uch yuzta xonadon yashaydi». Rus qishlog'ining urush davridagi turmushi, unda istiqomat qilayotgan kishilarning g'am-tashvishlari, fashistlarga qarshi kurashga otlangan o'smirlarning fikr-o'ylari, iztiroblari, bolalarni ham o'z saflariga tortgan partizanlik harakati – Sharof Rashidovning

yangi qissasi qamrab olgan voqea-hodisalar ana shulardan iborat.

Urush Sergey va Ira Yesinlar yashayotgan uyning ostonasiga ham yetib keldi. Darvoqe, ostona ham deb bo'lmaydi-ku! Axir, uydan hech narsa qolgan emas-ku! U dushman aviatsiyasining birinchi hujumi paytidayoq yonib ketadi. Anna Vladimirovna – Sergey va Iraning onasi halok bo'ladi, bolalarning urush boshida frontga ketgan otasidan esa hech qanday xabar yo'q. Bolalar Mixail bobosi va o'qituvchi Ivan Ivanovichdan ko'mak topadilar. O'qituvchi kommunistlar yig'ilishida Sharqqa ketmayman, deb qat'iy aytadi. «Boshqalarni bilmadim-u, – deydi kekxa o'qituvchi, – ammo men partizan bo'laman. Tajriba desa menda ham, boshqalarda ham yetarli. Baxtsizlik yuz berib qolgudek bo'lsa, evakuatsiya haqida emas, partizanlarning manzilgohlarini qayerlarga joylashtirish, o'rmonlarda oziq-ovqat va o'q-dori omborlarini qanday uskunalar haqida, qurol-aslaha haqida o'ylashimiz kerak...»

Darhaqiqat, Ivan Ivanovich ko'pni ko'rgan odam. O'qchi batalyon soldati Boboyor Omonov bilan kutilmagan uchrashuv o'qituvchiga o'zining yigitlik davrini eslatadi, Sherobod cho'llarida, yozning holdan toydiruvchi jaziramasida, Boysunning tog' oralarida o'tgan suronli yillar, o'zbek va tojiklarning samimiyligi, odamgarchiligi, jasurligi-yu yovqurligi birma-bir ko'z oldidan o'tadi. Boboyor Omonov Ivan Ivanovichning do'sti Rahmatning nevarasi bo'lib chiqadi.

Sharof Rashidov harbiy mavzuga avval ham murojaat etgan edi. «Qudratli to'lqin» romanida xalq matonati, uning qahramonligi va eng mashaqqatli sinovlardan ham g'olib chiqishga qodir ma'naviy qudrati haqida hikoya

qilgan edi. Shu boisdan asarning markazi o'g'li Po'latga maktublar yo'llab turgan frontchi komissar Haydar Sodiqov obrazi ekanligi bejiz emas. Bu yerda, yangi qissa esa, yozuvchi harakatni mamlakatimizning dushman tomonidan bosib olingan territoriyasiga ko'chirib, xalq qahramonligi mavzuyining yana bir qatlamini ochadi. Balki, kecha hali bor bo'y-basti bilan ko'zga tashlanmagan voqealarni vaqt bugun yorqinroq, tushunarliroq ko'rishga imkon bergandir. Biroq, muhimi shundaki, taassurotlar yangiligi saqlangan, nomuhim narsalar yoddan ko'tarilgan, asosiy narsa esa xotirda qolgan. Darvoqe, yozuvchiga nimalarnidir eslashga hojat bo'lganmikan! Ikkinchi jahon urushi kunlarida uning, har birimizning, mamlakatimizning taqdirida sodir bo'lgan voqealar hech qachon unutilgan emas. Qalbdagi to'plangan tajriba yuzaga chiqishga intilar edi, natijada u o'z badiiy ifodasini topdi. Muallif «o'z urushi» haqida hikoya qiladi. Bu hikoya fon jihatidan ham, ko'pgina situatsiyalariga ko'ra ham boshqa asarlardagi shunga o'xshagan fon va situatsiyalarga hamohang bo'lsa-da, o'zining betakror xususiyatlari, shaxsan boshdan kechirilgan tunganmas iztiroblari bilan ajralib turadi.

Qissa voqealari Moskva ostonalaridagi og'ir janglar bilan bog'liq nisbatan qisqa vaqt ichida kechadi. Muallif mamlakatimizning front axborotlarida hatto nomi ham tilga olinmagan aholi yashaydigan kichkina bir punktida yuz bergan voqealarni qalamga oladi, boshqa qishloqlardan alohida ajralib turmaydigan bu qishloqda yashovchi oddiy kishilarni tasvirlaydi. Ular qahramonona xislatlarga ham ega emaslar, ammo sharoit taqozo etganda bu oddiy odamlar haqiqiy qahramonlarga aylanadilar.

Ilk taassurotga asoslanib aytadigan bo'lsak, «Dil amri» taqdirlari muayyan darajada Beryozovka qishlog'i bilan bog'langan kishilarning mashaqqatli hayoti haqidagi sodda hikoyadir. Ular urushning tahlikali, po'rtanali davrida Vatan himoyachilari safidan o'z o'rinlarini qat'iyat bilan izlaydilar. Muallif hatto ba'zi kattalar ham uddasidan chiqolmaydigan ishni ro'yobga chiqarishda Sergey, Ira, Tarasga naqadar qiyin bo'lganligi haqida oila davrasida suhbat qurayotgandek, samimiy qalam tebratadi. Axir, ular qishloqda kommunistlar Shaxov, Nikolayev, Temirov rahbarlik qilgan yashirin tashkilot negizini tashkil etadilar-da. Yosh qahramonlarning jasorat va topqirliklari natijasida o'limga hukm qilingan qishloqdoshlarning ro'yxati qo'lga kiritiladi. Shu tariqa o'limga mahkum etilgan o'nlab begunoh odamlar qut-qaziladi. Ularning nemis generali Shnayder va diviziya shtabining boshlig'i polkovnik Galler qishloq oqsoqoli Shulganikiga keltirgan qimmatli hujjatlarni rasmga olish uchun o'ylab topgan ajoyib rejalarini aytmayismi! Bolalarning jasurligi va topqirligiga ba'zi ko'pni ko'rgan razvedkachilar havas qilsa arziydi. Fashistlarning Moskva ostonalarida tor-mor keltirilganidan so'zlovchi varaqalar, qishloq soveti ustiga o'rnatilgan qizil bayroq ham partizanlarning aloqachilari bo'lmish beryozovkalik pionerlarning ishidir. Ularni shunday qaltis harakatlardan tap tortmaslikka, har kuni doimiy xavf-xatarga tik borishga nima majbur qildi? Bu savolga bolalarning eng kichigi, o'n yoshli Ira, shunday javob beradi: «Axir, biz mukofot uchun emas, vijdon burchimizni bajarish uchun bu ishni qildik, xolos. Dadamlar o'z xatlarida har bir inson o'zidan «Sen front uchun nima qilding?» deb so'ramog'i lozim degan edilar...»

Front uchun sen nima qilding? Bu fikr sovet tuprog'iga yopirilgan urushni hammaning boshiga tushgan umumiy kulfatgina emas, balki shaxsiy kulfat ham deb hisoblagan har bir odamning butun borlig'ini egallab oladi. Yozuvchi qariyb publitsistik oshkoralik bilan insonning har bir xatti-harakati uchun ma'naviy javobgarligi problemasini o'rta qo'yadi. Qissada inson faoliyatini, uning dunyoni idrok etishini izohlab beruvchi «taqdir» so'zi ko'p marta takrorlanadi. Mana, maktab o'qituvchisi Ivan Ivanovich o'z taqdirining temirchi Misha bobo taqdiri bilan o'xshashligi haqida o'ylamoqda. «Ular yigirmanchi yillardan buyon bir-birlariga judayam qadrdon, suyanib qolishgan, bir-birlarini jondan ziyod ko'rishar, hurmat qilishardi. Temirchi bilan o'qituvchining bu inoqligi, hamfikir, hamdardligini hamma bilardi». Ular quloqlarni sinf sifatida tugatishda birga qatnashadilar, birga birinchi kolxoz tuzib, yangi qishloq barpo etadilar.

Rus bolasi Seryoja bilan Ilya Yesin batalonida chegaradan boshlab fashistlarga qarshi jang qilib kelgan jangchi – o'zbek Boboyor Omonov taqdirlarining bir-biriga chambarchas bog'lanib ketganligi-chi? Sharoit shuni taqozo etdiki, Sergey bilan Omonov dushman ortidagi kurashda safdosh bo'lib qoldilar. Aytish kerakki, qardoshlarcha do'stlik mavzuyi, ko'p millatli sovet xalqining yaktanligi mavzuyi «Dil amri» qissasining yetakchi mavzularidan.

Bosqinchilar tarafida turgan turli-tuman murtadlar bu kuchga qarshi chiqadilar. Gerasim Shulga tinchlik davrida, urushdan ilgariyoq aldov, ko'zbo'yamachilik, haromxo'rlik ko'chasiga kirib, o'z yo'lini tanlagan va qilmishlari uchun qattiq jazolangan edi. Fashistlar bosib olgan Beryozovkada u endi yangi qiyofada: oddiy o'g'ri sifatida emas, balki dahshatliroq – xoin va sotqin, qishloq oqsoqoli, gitlerchi

qonxo'rlarning laychasi sifatida paydo bo'ladi. Gerasim Shulgaga nemis qo'mondonligi kommunistlarning, kolxoz faollarining ro'yxatini tuzishni topshiradi. Bu kimsaning har bir xatti-harakati Sovet hokimiyatiga, Vatanning chinakam fidoyilariga nisbatan cheksiz nafrat va g'azab natijasidir.

Urush odatiy tushunchalarning ma'nosini shafqatsiz ravishda o'zgartirib yubordi, odamlar hayotini ba'zan fojeiyligi jihatidan hatto xayolga sig'dirib bo'lmas darajadagi boshqa o'zanga burib yubordi. Bu o'zgarish insonni umumiy kurash muhitiga olib kirganda, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatganda, u umid bilan yashaydi, barcha sinovlarni yengib o'tishga qodir bo'ladi. Ayrim odamlar taqdirining xalq taqdiri bilan mushtarakligi – buyuk kuch. Ana shu ulkan baxtdan Gerasim Shulga, Mariya Proxorova, Kudimov, Irinarxiy singari sotqinlar o'zlarining mayda manfaatlariga qul bo'lishni afzal bilib, go'yo o'z taqdirlarining xo'jayini bo'lib, shaxsiy yo'llarini tanlab oladilar. Aslida esa ular dushman irodasi qo'lida qurol, fashistlar malayiga aylanib qoladilar.

Beryozovka xalqi frontchilarning uylariga qaytishlari, g'alaba soatini yaqinlashtirish uchun o'zlari amalga oshirgan jasoratga bog'liq ekaniga qat'iy ishonadilar. Barchamiz, bu kunni, g'alaba kunini qo'limizdan kelgancha yaqinlashtirdik. Negaki, mamlakatimizning har bir aholi yashaydigan punkti, u qayerda joylashganidan qat'i nazar – Moskva bo'sag'asidami, O'zbekistondami, Uraldami, bari bir tarix taqdiri, xalq taqdiri hal qilinayotgan jabhalarga aylangan edi.

Menga, urush yo'llarini bosib o'tgan frontchilar avlodiga mansub yozuvchiga «Dil amri» qissasi ayniqsa yurakdan yaqin. Asarga o'zining harbiy yigitlik yillariga dil amri bilan murojaat etgan frontchi yozuvchining

bezovta, qaynoq qalbi hayot bag'ishlagan. Lekin qissaning nomi, mening nazrimda, yanada keng va teran mazmunga ega. Sharof Rashidov mamlakatimiz tarixining shonli sahifalarini katta badiiy mahorat bilan gavdalantiribgina qolmasdan, balki ularni falsafiy idrok etdi, davr xususiyatlarini o'zlarida mujassamlashtirgan qahramonlar obrazlarini yaratdi. Bu qahramonlar qancha yillar o'tmasin, xotiramizni bezovta qilib turadi, qalbimizni hayajonga soladi, bugungi kunda ham yuraklarni qattiqroq tepishga majbur etadi.

1977–1982-yillar

Adabiy-badiiy nashr

Sharof RASHIDOV

Dil amri

Qissa

Muharrir	<i>A. Ziyodov</i>
Badiiy muharrir	<i>I. Sandler</i>
Musahhih	<i>H. Zokirova</i>
Kompyuterda sahifalovchi	<i>B. Babaxodjayeva</i>

Original-maket «Niso Poligraf» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2021-yil 27-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 84×108^{1/32}.
Ofset qog'ozi. «Palatino Linotype» garniturası. Kegli 12.
Shartli bosma tabog'i 17,0. Nashr tabog'i 15,81.
Adadi 1000 nusxa. 247-sonli buyurtma.

«Niso Poligraf» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

SM¹
4



ISBN 978-9943-6104-1-5



9 789943 610415